

# TARJIMAYI

BENJAMIN FRANKLIN

# HOL

*O'z xavfsizligi  
uchun ozodligini  
fido qilgan  
insonlar na  
ozodlikka va na  
xavfsizlikka  
loyiqdir*



001-1113-11/F.87

Benjamin Franklin  
Tinjauan holistik Benjamin Franklin sejak lahir hingga meninggal  
Gungor Wijaya - Jakarta: Pustaka Fajar, 2024 - 320 h.

ISBN 978-602-750-751-1

Benjamin Franklin Amerika terdahulu yang modern dikenal  
pada abad ke-18. Ia adalah seorang ilmuwan, penulis, filsafat,  
dan pembuat kebijakan. Ia adalah salah satu tokoh terkemuka  
di Amerika Serikat. Ia adalah salah satu tokoh terkemuka  
di Amerika Serikat. Ia adalah salah satu tokoh terkemuka  
di Amerika Serikat.

# TARJIMAYI HOL

## BENJAMIN FRANKLIN

1	1
2	2
3	3
4	4
5	5
6	6
7	7
8	8
9	9
10	10
11	11
12	12
13	13
14	14
15	15
16	16
17	17
18	18
19	19
20	20
21	21
22	22
23	23
24	24
25	25
26	26
27	27
28	28
29	29
30	30
31	31
32	32
33	33
34	34
35	35
36	36
37	37
38	38
39	39
40	40
41	41
42	42
43	43
44	44
45	45
46	46
47	47
48	48
49	49
50	50
51	51
52	52
53	53
54	54
55	55
56	56
57	57
58	58
59	59
60	60
61	61
62	62
63	63
64	64
65	65
66	66
67	67
68	68
69	69
70	70
71	71
72	72
73	73
74	74
75	75
76	76
77	77
78	78
79	79
80	80
81	81
82	82
83	83
84	84
85	85
86	86
87	87
88	88
89	89
90	90
91	91
92	92
93	93
94	94
95	95
96	96
97	97
98	98
99	99
100	100



**YANGI ASR AVLADI**

## **Franklin, Benjamin**

Tarjimayi hol/Benjamin Franklin. Ingliz tilidan Muhiddin G'aniyev tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – 336 b.

ISBN 978-9910-790-75-1

Benjamin Franklin Amerika tarixidagi eng muhim shaxslardan biri ekanligiga shubha yo'q. Uning yuksak tadbirkorlik qobiliyati, ixtirochi sifatidagi zukkoligi, diplomatiya sohasidagi muvaffaqiyatlari va Amerikani shakllantirishdagi roli dunyo xalqlari tarixiga o'ziga xos ta'sir o'tkazganligi bilan ajralib turadi.

Franklin ushbu asarida oddiy bostonlikdan, o'z ta'biri bilan aytganda, «tug'ilgan va tarbiyalangan qashshoqlik sharoiti»dan moliyaviy va ma'naviy farovonlikka borish yo'lida chiqargan saboqlarini goh hazil-mutoyiba, goh achchiq nadomatlar bilan hikoya qiladi. Bunda uning o'z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari to'g'risida ochiq-oydin so'zlashi xarakterni rivojlantirish va qat'iyatlilikni saqlashda o'lmas ibrat vazifasini o'tab, ijodkor va o'qirman orasida uzilmas rishta hosil qiladi.

Ingliz tilidan  
Muhiddin G'ANIYEV  
tarjimasi

ISBN 978-9910-790-75-1

© Benjamin Franklin, «Tarjimayi hol». «Yangi asr avlodi», 2024-yil.

UZBEKISTON RESPUBLIKASI  
O'QITUVCHI

107

## MUNDARIJA

KIRISH.....	6
Tarjimaiy holning yozilish tarixi.....	14
I. Ajdodlari va Bostondagi yoshlik yillari.....	18
II. Matbaachilik hayotiga qadam.....	34
III. Filadelfiyaga kelish.....	50
IV. Bostonga birinchi tashrif.....	62
V. Filadelfiyadagi dastlabki do'stlar.....	75
VI. Londonga birinchi tashrif.....	82
VII. Filadelfiyada tadbirkorlikni boshlash.....	103
VIII. Tadbirkorlikdagi muvaffaqiyat va davlat boshqaruvidagi birinchi mas'ul lavozimda.....	128
IX. Axloqiy kamolotga erishish rejasi.....	148
X. «Kambag'al Richardning almanaxi» va boshqa faoliyat.....	170
XI. Davlat ishlariga qiziqish.....	184
XII. Mintaqani mudofaa qilish.....	195
XIII. Davlat xizmatlari va majburiyatlari.....	210
XIV. Olbani ittifoq rejasi.....	232
XV. Yer-mulk egalarining hokimlari bilan janjal.....	236
XVI. Breddok ekspeditsiyasi.....	242
XVII. Franklinning chegarani himoya qilishi.....	261
XVIII. Ilmiy tajribalar.....	276
XIX. Pensilvaniyaning Londondagi vakili.....	283
ILOVA.....	311

Elektr varrak.....	311
Boylikka yo'l.....	314
Hushtak.....	318
Samuel Materga.....	322
Yosh savdogarga maslahat.....	323
Keksa savdogarning yosh savdogar uchun maslahati.....	325
Bibliografiya.....	329

«Doktor Franklin Fransiyadalik chog'ida tez-tez saroy ziyofatlariga taklif qilingan va u, albatta, tashrif buyurgan. U ba'zan bunday ziyofatlarda shaxmatda o'zining darajasiga deyarli teng bo'lgan knyaginiya Burbon xonimni uchratgan va ikkisi shaxmat o'ynagan. Bir gal shoh berishga imkon tug'ilganida doktor xonimning shohini olib qo'ygan.

– Iye, – degan xonim, – biz shohni bunday olib tashlamaymiz-ku.

– Amerikada esa biz olib tashlayveramiz, – deb javob bergan doktor».

**Tomas JEFFERSON**

## KIRISH

Biz amerikaliklar hayotimizda muvaffaqiyatga erishish sirini oshkor qilishga mo'ljallangan har qanday yozma asarni bajonidil o'qib chiqamiz. Ammo o'zimiz allaqachon yoddan biladigan odatiy fikr yoki tavsiyalardan boshqa hech narsani topa olmay necha martalab ko'nglimiz qolgan. Mashhur va muvaffaqiyatga erishgan odamlarimizning hayotiy hikoyalarning aksariyati bizni ilhomlantira olmaydi. Chunki ularda yozilgan voqea-hodisalarga reallik va hikoyaning mohiyatini tushunish imkonini beradigan insoniy element yo'q. Biz orzu qilgan boylikni beradigan Alovuddinining sehrli chirog'ini uzoq-yaqindan izlaymiz. Ammo xuddi Miltonning «Komus»idagi<sup>1</sup> mo'jiza, qo'l uzatsa yetadigan boylik shundoq oldimizda ekanligidan bexabarmiz.

«Notanish, hurmatli va xomush oshiq kabi  
Titilib ketgan tuflisi bilan har kuni toptaydi».

Bu tariximizdagi va ehtimol barcha davrlardagi eng sermazmun va namuna bo'lishga arziydigan hayot haqidagi qiziqarli, insoniy hamda yorqin hikoya. Franklinning «Tarjimayi holi»da muvaffaqiyat uchun tayyor formula berilmagan. Balki unda kundalik yurish-turishi va suhbatlari bizga qiyinchiliklarni ye-

---

<sup>1</sup> Jon Miltonning «Komus» she'riy pyesasi.

ngishga yordam beradigan betakror aql va fazilat sohibi bo'lgan odamning do'stona munosabati taklif etiladi. Hikoyani hayrat bilan o'qish davomida kuchli va foydali xarakter yaratadigan o'ziga xos tajribani o'zlashtiramiz.

Ushbu asarni buyuk va muvaffaqiyatli insonning boshqa hayotiy hikoyalaridan ajratib turadigan narsa – bu undagi umuminsoniylik fazilatlarining hayotiy talqinidir. Franklin o'z hayotini, qayd etganiday, keyingi avlodlarning foydasi uchun bayon qilgan. U oilasining kelib chiqishi oddiy ekanligi hamda qashshoqlikdan yuksaklikka va boylikka ko'tarilishi bilan bog'liq tasvirlar fonida ularga yordam berishni xohlagan. Davlat uchun ko'rsatgan xizmatlari va ularning e'tirofini ham yoddan chiqarmagan. Ammo bu boradagi yutuqlarini hikoyaning atigi bir qismi sifatida bergan xolos. Mabodo shuhratparastlikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, u ham tasodifiy va bayonda haqqoniylik tamoyiliga amal qilinganligidan, albatta. Franklinning bayon qilish uslubi va amaliyotida imkonsiz narsaning o'zi yo'q. O'ziga rom qiluvchi bu hikoyani o'qigan yoshlar Franklin ham yoshlik yillarida ehtiros va qiyinchiliklar bilan muntazam kurashganini ko'radi. O'z kamchiliklari va omadsizlik sabablarini anglashdan kelib chiqadigan tushkunlik tuyg'usidan xalos bo'ladi.

Asarning amerikalik yoshlar qalbidan joy olishi uchun boshqa sabablar ham bor. Bu kitobda ular amerikaliklarning eng yaxshi hamda o'z davrining eng dono erkaklaridan biri bilan yaqin muloqot o'rnatishlari mumkin.

Benjamin Franklinning Qo'shma Shtatlar mustaqilligini ta'minlash va xalq sifatida shakllanishidagi rolini hisobga olsak, uning hayoti har bir amerikalik

uchun muhim ahamiyatga ega. J.Vashington bilan birgalikda Franklin ham inqilob va yangi xalq shakllanishiga olib kelgan voqea-hodisalar ortidan qozonilgan shon-sharafga barobar haqli. Vashington koloniyalardagi kurashning ilhomlantiruvchi, jonlantiruvchi ruhi bo'lgan bir vaqtda, Franklin uning xorijdagi eng uddaburon himoyachisi edi. Franklinning Angliya va Fransiya o'rtasidagi Amerika mojarosi bilan bog'liq ish yuzasidan so'zlagan aniq, rad etib bo'lmaydigan ilg'or fikrlardan iborat nutqlaridagi ishonarli asoslash uslubi hamda o'tkir satirasidan uning o'ziga xos shaxsiyati va diplomatik qobiliyatini alohida e'tirof etishimiz lozim. Uning ravon qalami esa xorijliklar bilan ittifoq tuzishimiz va moliya mablag'larini olishga imkon berganligidan minnatdor bo'lishimiz kerak. Zero, bu ittifoq va pullar bo'lmaganida Vashingtonning ishi muvaffaqiyatsiz bo'lishi turgan gap edi. Uning sabr-toqati, matonati va donishmandligi, o'z vatani manfaati yo'lidagi fidokorligi, sadoqati Vashington ko'rsatgan jasorat, undagi yuksak fazilatlaridan kam emas. Darhaqiqat, Franklin mansabdor shaxs sifatida Vashingtonga, ayniqsa, davlat xizmatidagi xolisligi, o'z manfaatlarini chetga olib qo'yganligi bilan juda o'xshar edi.

Franklinning shaxsi ham biz uchun qiziq. Chunki u o'z hayoti va ta'limoti bilan vatandoshlarining moddiy farovonligini oshirish yo'lida boshqa har qanday amerikalikka qaraganda ko'proq naf keltirgan. Aytishlaricha, uning keng ko'lamda o'qilgan aforizmlari Filadelfiya va Pensilvaniyani boyitgan, Kambag'al Richardning<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> «Kambag'al Richardning almanaxi» B.Franklin boshchiligida 1732-yil 19-dekabrda boshlab, 25 yil davomida nashr qilib borilgan.

ko'plab tillarga tarjima qilingan ilmoqli fikrlari esa butun dunyo mamlakatlariga ta'sir ko'rsatgan.

Franklin – amerikalikning eng yorqin va ibratli siymosidir. U eng boy yoki eng qudratli inson bo'lmagan. Ammo u o'z dahosi va yutuqlarining ko'p qirraliligi, shaxsi va maqomiga ko'ra, unga o'z mehnati bilan erishgan odamlarning eng buyugidir. Moy shamlari do'konida o'tgan kamtarona bolalik davridagi mehnatkashligi, iqtisodiyot va o'zini takomillashtirishda sobitligi tufayli yuksak maqomga erishish haqida yozilgan ushbu «Tarjimayi hol» o'z shaxsi hamda maqomini o'zi yaratgan odam haqidagi barcha yaxshi hikoyalarning eng ajoyibi hisoblanadi. Uning o'zi, butun faoliyati tengsiz imkoniyatlar diyorida qanday yuksak natijalarga erishish mumkinligini isbotlovchi yorqin dalildir.

Franklinning shon-shuhrati o'z mamlakati chegarasidan uzoqlarga ham tarqalgan. Garchi u ilmiy hamda siyosiy tafakkur va faoliyatning jadal tadriji bilan ajralib turadigan asrda yashagan bo'lsa-da, bir asr oldin «Edinburgh Review» (Edinburg sharhi) nashrining taniqli muharriri lord Jeffri kabi hakam va tanqidchi u haqda shunday degan: «Bir nuqtayi nazardan Franklinning shaxsini XVIII asr siymolari deb ko'rsatilgan har qanday odamdan yuqori turadi deb hisoblash shart. Yirik davlat arbobi sifatida nom qozongan Franklin faylasuf sifatida ham buyuk edi. Ya'ni u har ikki sohada ham o'ziga xos mukammallikni mujassam etgan. Bu esa eng yuksak maqtov hisoblanadi».

Franklinni, haqiqatan ham, «ko'p tomonlama» shaxs deb atashgan. U ilm-fan, davlat boshqaruvi, diplomatiya va adabiyotda ham buyuk shaxs, yuksak iste'dod sohibi edi. U o'z davrining Edisoni bo'lib,

ilmiy kashfiyotlarini hamkasblari foydasiga qayd etilishini ta'minlagan. Yashin (chaqmoq) va elektrning bir narsa ekanligini anglab yetib, chaqmoqni so'n-diruvchi metall tayoqni ixtiro qilgan. U hali ham keng qo'llaniladigan Franklin pechkasini ixtiro qildi va uni patentlashdan bosh tortgan. Tadbirkorlik va amaliy masalalarda o'ta yuqori darajadagi zukkolikka ega bo'lgan. Karlayl uni barcha Yanki<sup>1</sup>larning otasi deb atagan. U o't o'chirish kompaniyasini tashkil qilgan, kasalxona bunyod etishda yordam berdi hamda ko'chalarni tozalash va yoritish ishlarini yaxshiladi. Jurnalistikani rivojlantirish bilan bir qatorda, Amerika falsafiy jamiyati, Filadelfiyada jamoatchilik kutubxonasi va Pensilvaniya universitetini tashkil etdi. Koloniyalar uchun hozirgi Amerika Qo'shma Shtatlari pochta tizimining asosini tashkil qildi. Taniqli tarixchi olim Bankroft uni «O'z asrining eng buyuk diplomati» deb atagan. U koloniyalar uchun tuzilgan Olbani Ittifoq rejasini takomillashtirdi. Franklin Mustaqillik Deklaratsiyasi, Fransiya bilan Ittifoq, Angliya bilan Tinchlik shartnomasi va Konstitutsiyani imzolagan yagona davlat arbobi hisoblanadi. Yozuvchi sifatida o'zining «Tarjimayi hobi va «Kambag'al Richardning almanaxi» kabi ularga o'xshashi bo'lmagan yoki hech bir asar teng kela olmaydigan ikkita asar yaratdi. U Garvard va Yeyl universitetlari, Oksford va Sant-Andryus universitetlaridan faxriy ilmiy darajalarni oldi va Qirollik jamiyatining a'zosi etib tayin-

---

<sup>1</sup> Yanki – (inglizcha «Yankee») Amerikaning shimoliy shtatlarida yashaydiganlarga berilgan umumiy nom bo'lib, 1861–1865-yillarda kechgan Amerika fuqarolar urushi davrida Shimoliy shtatlar askarlariga ham shunday nom berilgan. Yaratuvchanlik, uddaburonlik, serharakatlik, degan ma'nolarni anglatadi.

landi. Qirollik jamiyati uni tabiiy bilimlarni takomillashtirishdagi xizmatlari uchun «Kopli» oltin medali bilan taqdirladi. U Fransiya Fanlar akademiyasining sakkiz nafar xorijiy sheriklaridan biri edi.

«Tarjimayi hol» muallif badiiy mahorati yoxud uslubining o'ziga xosligi bilan yanada qimmatlidir. Agar Robert Lui Stivenсонning o'z ajoyib uslubini taqlid qilish orqali qo'lga kiritganligi haqidagi fikri to'g'ri bo'lsa, unda o'z g'oyalarini tushunarli, ishonarli va qiziqarli tarzda ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishni xohlaydigan yoshlar Franklinning uslubini o'rganishlari lozim. Franklinning ilmiy dunyodagi shuhratini nafaqat o'z kashfiyotlarini kamtarona, sodda va samimiy tarzda taqdim etishi, balki tajribalarini aniq va tushunarli tavsiflash uslubi bilan ham bevosita bog'liq deyish mumkin. Balki u e'lon qila olish imkoni bo'lgan natijalari bilan ham bog'liq bo'lgan. Ajoyib adabiy tanqidchi va taniqli ingliz kimyogar olimi ser Hamfri Devi shunday deydi: «Franklinning barcha tadqiqotlarini yagona omad boshqargan va buning vositasida u ulkan haqiqatlarni kashf etgan. Uning elektr energiyasiga oid asaridagi bayon uslubi undagi ta'limot kabi deyarli hayratga loyiqdir».

Franklinning adabiyotdagi o'rnini aniqlash qiyin. Chunki adabiyot uning asosiy faoliyat turi bo'lmagan. U o'z asarlarida, xuddi ishda bo'lgani kabi, safdoshlariga naf keltirishni maqsad qilgan. Uning uchun yozuvchilik hech qachon yagona maqsad emas, balki har doim maqsadga erishish vositasi bo'lgan. Aytish mumkinki, uning olim, davlat arbobi va diplomat sifatidagi muvaffaqiyati hamda ijtimoiy sohadagi yutuqlarida yozuvchilik qobiliyatining o'rnini kam bo'lmagan. «Uning maktublari barchani maftun etar va xatlarini

barcha intiqlik bilan kutar edi. Uning siyosiy dalillari o'z partiyasi a'zolari uchun quvonch olib kelar, raqiblarni esa dahshatga solardi. Ilmiy kashfiyotlari shu qadar sodda va ravshan tilda bayon etilganki, har qanday savodsiz yoki nozik tabiatli savodli odam uning fikri hamda tajriba hisobotini xulosalarigacha bemalol tushunishi mumkin edi».

Amerika adabiyoti tarixiga kelsak, bu borada Franklining zamondoshlari yo'q. «Tarjimayi hol»dan oldin bu mamlakatda faqat bitta muhim adabiy asar – Kotton Materning Yangi Angliyaning cherkovi tarixi – «Magnalia» asari yaratilgan. Ammo u og'ir tilda va qiyin uslubda yozilgan. Franklin Yevropada omma e'tiboridagi birinchi amerikalik muallif bo'ldi. Xorijda «Tarjimayi hol», «Kambag'al Richardning almanaxi», «Abraham otaning nutqi» yoki «Boylikka yo'l» hamda ba'zi «Bagatella» she'rlari har qanday Amerika asarlari kabi keng tarqalgan va ommaga tanilgan. Shuningdek, Franklinni birinchi amerikalik yumorist sifatida ham tan olish lozim.

XVIII asr ingliz adabiyotida nasrning rivojlanishi kuzatildi. Davriy adabiyot Eddisonning «Tatler» va Stilning «Spektator» asarlari bilan asr boshlarida mukammallikka erishdi. Pamflet<sup>1</sup> yozuvchilar butun davr davomida gullab-yashnagan. Bunyan va Defoning sodda nasriy asarlari 1745-yildan boshlab, asta-sekin nasriy ijod uchun standart o'rnatgan Samuel Jonsonning nafis va sun'iy tildagi asarlariga o'z joyini bo'shatib berdi. Bu asr zamonaviy romanchilikning boshlanishiga guvoh bo'ldi. Fildingning «Tom Jons», Richardsonning «Klarisa», Sternning «Tristram Shendi»

---

<sup>1</sup> Biror shaxsga, ijtimoiy tizimga yoki jamiyatdagi turli illatlarga qarshi qaratilgan o'tkir satirik, badiiy-publitsistik asar.

va Goldsmitning «Ueykfild ruhoniysi» kabi romanlari shu asrda yozilgan. Qolaversa, Gibbon «Rim imperiyasining tanazzuli va qulashi», Hyum esa «Angliya tarixi», Adam Smit «Xalqlarning boyligi» asarlarini yozdi.

Uslubining soddaligi va o'ziga xosligi bilan Franklin erta davr yozuvchilariga o'xshab ketadi. Uning dastlabki hikoyalaridagi Eddisonga taqlidi yomon bo'lmagan. Uning ko'p sonli rivoyatlarida, axloqiy allegoriyalarida<sup>1</sup> va himoya xatlarida Bunyanning ta'siri kuzatiladi. Ammo Franklin mohiyatan jurnalist edi. O'zining tezkor va qisqa bayon etish uslubi bilan birinchi buyuk ingliz jurnalisti va gazetadagi hiko-yanavislikning ustasi D.Defoga o'xshaydi. Har ikkala yozuvchining uslubi o'zidagi joziba, kuchli ifoda, satira, hazilkashlik, zukkolik jihatlari bilan ajralib turadi. Taqqoslashga esa shu o'rinda nuqta qo'yish lozim. D.Defo va uning zamondoshlari orasida kuchli ijodkorlar bo'lgan. Ular yozuvchi bo'lib, muvaffaqiyatlari o'zlari ko'rsatgan xayoliy yoki ijodiy kuchga bog'liq. Franklin esa yozuvchilikka da'vo qilmagan. U hech qachon tasavvuridan olib, asar yozmagan. Shunchaki, ko'p jihatdan ingliz zamondoshlarinikiga o'xshagan ajoyib bir uslubni ishlab chiqqan, ya'ni bugungi kungacha mavjud bo'lgan eng yaxshi tarjimayi holni, aforizmlarning eng mashhur to'plamlaridan birini hamda beqiyos siyosiy va ijtimoiy satiralarni yozgan. Franklin g'ayrioddiy kuch va foyda keltira olish qobiliyati hamda imkoniyatlariga ega bo'lish bilan birga, o'z safdoshlariga o'sha qudrat va naf keltirish qobiliyatining sirlarini qanday aytishni ham yaxshi bilgan.

---

<sup>1</sup> Mavhum tushuncha yoki g'oyalarni aniq obraz vositasida ifodalash; majoz.

## «TARJIMAYI HOL»NING YOZILISH TARIXI

Franklinning «Tarjimayi hol»i qanday yozilganligi va qo'lyozma asl nusxasining sarguzashtlari haqidagi hikoyaning o'zi ham qiziqarli voqea. «Tarjimayi hol» Franklinning eng uzun asari, ammo muallif hayotining bir qismi xolos. O'g'li Uilyam Franklinga maktab sifatida yozilgan birinchi qism aslida nashr etish uchun mo'ljallanmagan. Bu qism 1730-yildan keyingi voqealarning nashr etish maqsadida bitilgan bayoni bo'lgan ikkinchi qismga qaraganda ko'proq norasmiy uslubda va o'ta shaxsiy xarakterda bitilgan. Butun qo'lyozmani qayta ko'rib chiqib, aytish mumkinki, tahrir qilish alomatlari deyarli kuzatilmagan. Ifoda uslubi shu qadar sodda va tabiiyki, nabirasi Uilyam Templ Franklin asarni tahrirlash jarayonida ba'zi iboralarinigina o'zgartirgan, chunki ularni «dag'al» deb hisoblagan.

Franklin o'z hayoti haqidagi hikoyani 1771-yilda janubiy Angliyadagi Tvayford shahriga do'sti – yepiskop Jonatan Shiplini ko'rish uchun borishiga oid voqea bilan boshlagan. U 1731-yilgacha bo'lgan hayotiy voqealar bayon etilgan qo'lyozmani 1775-yilda Filadelfiyaga qaytishda o'zi bilan olib ketgan. Kelgusi yili Fransiyaga borganida qo'lyozma uning boshqa qog'ozlari bilan o'sha yerda qolib ketgan va Inqilob tufayli tartibsizliklar paytida yo'qolgan. Satrlar orasi juda yaqin yozilgan qo'lyozmaning yigirma uch sahifasi eski do'stlaridan biri Eybel Jeymsning qo'liga kelib tushgan. Jeyms uning bir nusxasini Parij yaqini-

dagi Passida turgan Franklinga jo'natgan va hikoyani tugatishni o'tinib so'ragan. 1784-yili Franklin ishni Passida olgan va bir necha oy davomida hikoyani davom ettirgan. Endi u rejani o'zgartirgan, ya'ni yosh o'quvchiga foyda keltirishni maqsad qilgan. Tez orada uning ishi to'xtab qolgan va 1788-yildagina, Filadelfiyadagi uyiga qaytganida unga qo'l urgan. Bu paytda u keksa, zaif va kasalliklar bilan olishayotgan, ammo hali ham davlat xizmati bilan shug'ullanayotgan odam edi. Bunday qiyin sharoitda ish juda sekinlashgan edi. Nihoyat, hikoya 1757-yil voqealarini bayon etishga yetganda to'xtagan. Qo'lyozmaning nusxalari Franklinning Angliya va Fransiyadagi do'stlariga yuborilgan, boshqalar qatorida Parijga, Janob Le Veyllarga ham bir nusxadan jo'natilgan.

«Tarjimayi hol»ning birinchi nashri 1791-yilda Parijda fransuz tilida dunyo yuzini ko'rgan. U g'aliz tilda, beparvolik bilan tarjima qilingan bo'lib, tugallanmagan edi. Tarjimon qo'lyozmani kimdan, qayerdan olgani ham noma'lum. Le Veyllar bu nashrga umuman daxldor emasligini da'vo qilgan. Ushbu fransuzcha g'aliz tildagi nashr boshqa ko'plab nashrlar uchun asos bo'lgan. Germaniyada bir necha, Angliyada ikki marta va Fransiyada takroran bosib chiqarilgan. Asarga talab juda katta bo'lgan.

Bu orada «Tarjimayi hol»ning asl qo'lyozmasi turli sarguzashtlarni boshdan kechirayotgan edi. Uni Franklin boshqa qog'ozlari bilan birga nabirasi Uilyam Templ Franklinga qoldirgan, chunki bobosi uni o'zining adabiy asarlari vasiysi qilib tayinlagandi. 1817-yilda Templ Franklin bobosining asarlarini nashr etishga qaror qilganda, «Tarjimayi hol»ning asl qo'lyozmasini Le Veyllarning qiziga yuborgan va uning

o'rniga ulardagi nusxani qaytarib olgan. Templ balki matni tiniqroq qo'lyozma bilan nashrning sifati yaxshiroq chiqadi, deb o'ylagandir. Shu tariqa, qo'lyozmaning asl nusxasi Le Veyllarning oilasi hamda ularning tanishlari sari yo'l olgan va 1867-yilda AQShning Fransiyadagi vaziri Jon Bigelou sotib olgunga qadar ularing qo'lida qolgan. Keyinchalik Bigelou qo'lyozmani Nyu-Yorkda E.Duayt Cherchga sotgan va janob Cherch kutubxonasining qolgan qismi bilan birga Henri Hantington tasarrufiga o'tgan. Hozirgi kunda Franklin «Tarjimayi hol»i qo'lyozmasining asl nusxasi janob Hantingtonning Nyu-York shahar beshinchi avenyu va ellik yettinchi ko'cha kesishuvidagi qarorgohida saqlanadi.

Janob Bigelou bu xaridni tekshirish uchun kelgan. U yerda odamlar yillar davomida Benjamin Franklinning o'zi yozgan hayot hikoyasi, deb o'qib yurgan kitob haqiqiy «Tarjimayi hol»ning buzilgan va to'liq bo'lmagan versiyasi ekanligini bilib hayratga tushgan. Templ Franklin kitobning asl nusxasi bilan bog'liq kechirib bo'lmaydigan, asossiz ishlar qilgan ekan. Janob Bigelouning aytishicha, u matnda o'n ikki mingdan ortiq o'zgarishlarni topgan. Shuning uchun 1868-yilda janob Bigelou Franklin «Tarjimayi hol»ining standart nashrini chop ettirgan. Unda avvalgi nashrlardagi xatolar isloh qilingan va bu Franklin hayotining so'nggi yilida yozilgan qo'lyozmaning oxirgi bir necha sahifalarini o'z ichiga olgan, qisqa to'rtinchi qismi ham qo'shilgan ingliz tilidagi birinchi nashri edi. Bigelou «Tarjimayi hol»ni qo'shimcha qiziqarli materiallar bilan to'ldirib, 1875, 1905 va 1910-yilda uch jildda qayta nashr ettirgan. Ushbu jilddagi matn janob Bigelou nashrlarining matnidir.

Amerika Qo'shma Shtatlarida «Tarjimayi hol» bir necha marta qayta chop etilgan, Yevropaning barcha tillariga tarjima qilingan. U hech qachon mashhurligini yo'qotmagan va kutubxonalarda unga hamon doimiy talab mavjud. Ushbu mashhurlikning sababini bilish esa qiyin emas. Chunki bu asarda Franklin o'zining ajoyib hayot hikoyasini sodda va go'zal tarzda so'zlab bergan. U sog'lom aql va yashash san'ati haqida amaliy bilimlarini namoyish etgan. Matn uchun materialni, ehtimol ongsiz ravishda, o'quvchida yuqori darajada taassurot qoldirish maqsadida, jurnalistning xatoga yo'l qo'ymaydigan o'ziga xos hissiyoti bilan tanlagan va tartibga solgan. Uning muvaffaqiyati sodda, tushunarli va ta'sirli bayon etilgan ingliz tili uslubi tufayligina emas. U qisqa gaplar va so'zlardan, o'ziga tortadigan iboralardan, nishonga aniq tegadigan rasmlar hamda qochirimli ishoralardan o'z o'rnida foydalangan. Franklinning hayoti o'ta qiziqarli, turli voqea-hodisalarga boy va g'ayrioddiy tarzda kechgan. U o'z davrining eng buyuk suhbatdoshlaridan biri bo'lgan.

Franklinning kitobi uning g'ayrioddiy hayoti o'ziga xos so'zlashuv uslubida hikoya qilingan ajib yilnomadir. Aytishlaricha, Samuel Jonsonning Bosuell yozgan mashhur biografiyasining eng yaxshi qismlari Bosuellning Jonsonga o'z hikoyasini so'zlab berishga ruxsat bergan qismlar hisoblanadi. «Tarjimayi hol»da esa Samuel Jonsonning darajasidan kam bo'lmagan atoqli inson o'z hikoyasini boshdan oyoq shaxsan bayon qiladi.

**Frank Vudvort Payn,  
Gilman okrug maktabi,  
Baltimor, 1916-yil, sentyabr**

## I

### **AJDODLARI VA BOSTONDAGI YOSHLIK YILLARI. TVAYFORD'AVLIYO ASAF IBODATXONASI YEPISKOPINIKIDA MEHMONDA, 1771-yil**

Aziz o'g'lim, men ajdodlarim haqidagi har qanday kichik hikoyalarni tinglashdan zavq olib kelganman. Ehtimol, sen Angliyaga men bilan birga borganingda hali ham hayot qarindoshlarim orasida so'rab-surishtirganlarim va shu maqsadda ba'zi joylarga borib kelganimni eslasang kerak. Hayotimda boshdan kechirgan ko'p voqea-hodisalar senga qiziqarli bo'ladideb o'yladim. Zero, sen ularning ko'pidan hali xabardor emassan. Bugun shahar tashqarisiga hech kim xalaqit bermaydigan hordiqqa chiqqanimdan zavqlanish ilinjida bu voqea-hodisalarni sen uchun bayon qilishga bel bog'ladim. Bundan tashqari, ayni ishga qo'l urishga meni boshqa mulohazalar ham undadi. Men tug'ilgan va tarbiyalangan qashshoqlik sharoitimdan bugungi maqomim, ya'ni moliyaviy

---

<sup>1</sup> Janubiy Angliya, Hemsfordagi Vinchesterdan unchalik uzoq bo'lmagan kichik qishloq. Bu yerda Avliyo Asaf ibodatxonasining yepiskopi doktor Jonatan Shiplining qishloqdagi yer-mulki joylashgan edi. Doktor Franklin uni «yaxshi yepiskop» deb atar, ular orasidagi munosabatlar samimiy va shu bilan bir qatorda maxfiy edi. O'z minbarida turib ham, Lordlar palatasida ham, jamoatchilik orasida ham yepiskop har doim Britaniyaning mustamlakalarga nisbatan qattiq choralarga qarshi chiqqan. (Bigelou).

farovonlik hamda jahonga ma'lum darajadagi obro'e'tiborga erishdim. Shu kungacha Xudoning marhamati bilan o'ta muvaffaqiyatli bo'lgan hayotimning ko'p holatlarida menga yutuqqa olib keladigan vosita bo'lmish omad kulib boqdi. Shuning uchun, boshimdan o'tgan voqea-hodisalar avlodlarimning hayotida uchrashi mumkinligi va bunday vaziyatlarda qo'llash imkoni borligi sababli ularni bayon etishni ma'qul deb o'yladim.

Omada borasida mulohaza qilganimda, to'g'risi, menga tanlov berilsa, yashab o'tgan umrimni boshidan qayta yashashga aslo qarshilik qilmagan bo'larдим. Ammo faqat xuddi adiblarga asarlarining ikkinchi nashrida birinchi nashrdagi xatoliklarni isloh qilish imtiyozi berilgani kabi imkoniyat berilishini iltijo qilgan bo'lar edim, deb aytishni istayman. Bu imkoniyatni xatolarni tuzatish bilan bir qatorda, ba'zi halokatli voqea va hodisalarni ijobiyroq natija bergan voqealar bilan almashtirib qo'yish uchun so'ragan bo'lar edim. Ammo bunday narsa muqarrar rad etilishini bilsam-da, ilk taklifni qabul qilardim. Hayotni takroran yashab o'tishning imkoni yo'q. Ammo o'sha hayotni boshdan oyoq eslash va xotiralarni qog'ozga yozib, bayon etish mumkin. Bu voqealarning uzoq vaqt davomida odamlar yodida qolishini ta'minlash ular uchun o'z hayotini qayta yashab o'tishning imkoni bo'lib tuyuladi.

Endi o'zim va hayotimda yuz bergan hodisalar haqida so'zlashni boshlayman. Bunday moyillik keksa odamlarga juda xos. Men o'z fikrlarimni yoshimni hurmat qilib, quloq solishga majburman, deb o'ylaydigan odamlarni bezdirmaslik uchun qog'ozga

tushirishga harakat qilaman. Ya'ni uni o'qish yoki o'qimaslik o'z ixtiyorlarida bo'ladi. Nihoyat (buni tan olsam yaxshi bo'ladi, chunki rad etsam ham hech kim ishonmaydi), ehtimol men o'zimning shuhratparastligimni qondirishni xohlayotgandirman.<sup>1</sup> Darhaqiqat, men hayotimda hech bir odamning: «Hech qanday shuhratparastliksiz aytishim mumkinki...» va hokazo, deb o'z nutqini boshlaganini aslo eshitganman yoki ko'rmaganman. Ammo nutqi boshlangan zahotiy oq gapni qandaydir manmanlik bilan davom ettirganini eshitganman va ko'rganman. Ak-sariyat odamlar o'zlarida manmanlik, shuhratparastlik darajasi qancha bo'lishidan qat'iy nazar, boshqa odamlarning manmanligini yoqtirmaydilar. Ammo men manmanlikni, shuhratparastlikni kimda va qayerda uchratsam ham unga munosib o'rin beraman. Chunki ko'pincha mana shu xususiyat odamga va o'z ta'sir doirasidagilarga yaxshilik keltirishiga iqror bo'lganman. Shuning uchun ko'p hollarda inson unga tuhfa etilgan ne'matlar qatorida Xudoga o'z manmanligi, shuhratparastligi uchun shukur qilib, tavba qilsa, buning hech qanday yomon tomoni yo'q, deb o'ylayman.

Franklinning zamondoshlari bo'lgan buyuk britaniyalik tarixchilar Gibbon va Hyum o'z tarjimai hollarida o'zlarini maqtashning to'g'riligi haqida xuddi shu fikrni ifoda etadilar.

---

<sup>1</sup> Bu fikrga munosabat bildirar ekan, Vudro Vilson shunday deydi: «Ushbu kitob – «Tarjimai hol»ning hayratlanarli va yoqimli tomoni shundaki, unda manmanlikning pastkash ohangi yo'q, aksincha, kuchli va irodali odamning o'ziga, faoliyat davomida kechgan voqealar hamda vaziyatlarga hushyor, boshqalarning ta'siriga uchramasdan bergan bahosi aks etgan».

Xudoga shukur qilish haqida gapirar ekanman, o'ta kamtarlik bilan o'tgan hayotimda mamnunlik va baxtivorlik uchun imkon va ne'matlar bergan, muvaffaqiyatlar sari olib borgan Tangrining inoyatiga shukr qilaman. Mening bunday ishonchim umid sari undaydi. Umid qilishga haqqim bo'lmasa ham, baxtli bo'lishda davom etishimda yoki uning aksi boshimga tushganda, sabr qilish ortidan shu yaxshilik menga in'om qilinadi, deb umid qilaman. Chunki boshqalar boshiga tushgan baxtsizliklar mening ham boshimga tushishi mumkin. Mening kelajagim butunligicha bizga baxt ato etish yoki halokat yuborish o'z ixtiyorida bo'lgan Zotga ma'lum xolos...

Bir paytlar amakilarimdan birining (u oilamiz a'zolari haqidagi hikoyalarni yig'ishda men kabi qiziquvchan edi) yozuvlari mening qo'limga tushdi. Ulardan ajdodlarimiz haqida bir nechta qiziqarli tafsilotlar oldim. Ushbu yozuvlardan ma'lum bo'lishicha, oilamiz Shimoliy Emptonshirdagi Ekton qishlog'ida uch yuz yil davomida yashagan ekan. Amakim undan keyin oila u yerda qancha vaqt yashaganligini bilmas ekan (ehtimol, ilgari odamlar ordenining nomi bo'lgan Franklin nomini,<sup>1</sup> boshqalar butun qirollik bo'ylab odamlar o'zlariga familiyalar olishganda, ular familiya sifatida qabul qilgandan keyindir). Oila tassarrufida taxminan o'ttiz akr<sup>2</sup> yer bo'lgan. Oila a'zolari o'sha amakim yashagan davrgacha temirchilik bilan shug'ullangan. To'ng'ich o'g'il har doim shu kasbga o'rgatilgan. Bu odatga to'ng'ich o'g'il bo'lgani sababli amakim va mening otam amal qilishganligini

<sup>1</sup> Franklin – kichik yer egasi.

<sup>2</sup> Akr – maydon o'lchovi birligi. 1 akr = 0,405 gektar.

ham bilib oldim. Men Ektondagi aholini ro'yxatga olish kitoblarini o'rganganimda, ularning tug'ilishi, nikohlari va dafn etilganligi haqidagi yozuvlar faqat 1555-yildan boshlanganligidan xabar topdim. Ushbu cherkovda bundan oldin hech qanday kitob yuritilmagan ekan. Kitobdan men oilada beshinchi avlod kenja o'g'lining kenja o'g'li ekanligimni angladim. 1598-yilda tug'ilgan bobom Tomas Ektonda keksayib qolib, ishga yaramay qolguncha yashagan. O'sha paytda Oksfordshirning Banberisidagi bo'yoqchi o'g'li Jonning uyiga ko'chib ketgan. Otam Jon amakimdan hunar o'rgangan. Bobom o'sha yerda vafot etgan va dafn qilingan. Biz uning qabrtoshini 1758-yilda ko'rdik. To'ng'ich o'g'li Tomas Ektondagi uyda yashagan va uyni yolg'iz farzandiga, qiziga yer bilan birga qoldirgan. Uning eri, vellingborolik Fisher ismli odam uni hozirda katta yer-mulkning xo'jayini janob Istedga sotgan. Bobomning o'sib, voyaga yetgan to'rt o'g'li bo'lgan: Tomas, Jon, Benjamin va Jozaya. Shuncha vaqt o'tgan bo'lsa ham, o'zim yo'qligimda yo'qolib ketmagan bo'lsa, ular haqida qog'ozlarimda topgan barcha ma'lumotlarni bayon qilaman. Ular orasidan ko'plab qo'shimcha tafsilotlarni topasan.

Tomas otasi qo'l ostida temirchilik hunarini o'rgangan. Ammo zukko va o'sha paytlar cherkov qavmining asosiy jentlmeni bo'lgan eskvayer<sup>1</sup> Palmer nomli odam uni bilim o'rganishga ilhomlantirgan (barcha birodarlarim kabi). Tomas o'qib-o'rganib,

---

<sup>1</sup> Eskvayer – (inglizcha «esquire») hurmatni ifodalovchi unvon. U Birlashgan Qirollikda tarixiy jihatdan baland ijtimoiy martabali erkaklarga, ayniqsa, jentlmen martabasidan yuqori va ritsardan quyi bo'lgan mulkdorlarga berilgan.

kotiblik ishini olgan va borib-borib graflikda katta odamga aylangan. Graflik yoki Shimoliy Empton shahrida va o'z qishlog'ida jamoatchilik ruhi bilan sug'orilgan barcha tadbirlarning tashabbuskoriga aylangan. Ko'p narsalar uni qishlog'i bilan bog'lab turgan. Tomas amaki lord Halifaksning e'tiboriga tushgan va lord uni o'z homiyligiga olgan. U eski hisob bo'yicha 1702-yil 6-yanvar kuni, ya'ni mening tug'ilishimdan atigi to'rt yil oldin vafot etgan<sup>1</sup>. Eslashimcha, Ektondagi ba'zi kekxa odamlardan uning hayoti va fe'l-atvori haqida olgan ma'lumotlarimiz menikiga o'ta o'xshashligi bilan seni hayratda qoldirgan edi. «Agar siz tug'ilgan kuni vafot etganida edi, – deding sen, – ruhning boshqa odamga ko'chishi haqida gapirsak bo'lar edi».

Jonga bo'yoqchilik kasbini o'rgatishgan. Menimcha, u jun matolarni bo'yash bilan shug'ullangan. Benjamin amakim Londonda shogirdlikka tushib, ipak matolar bo'yoqchisi bo'lib yetishgan. U zukko odam bo'lgan. Men uni yaxshi eslayman, chunki bolaligimda u Bostonga, otamning oldiga kelib, biz bilan uyimizda bir necha yil yashagan. U uzoq umr ko'rdi. Uning nabirasi Samuel Franklin hozir Bostonda yashaydi. U o'z she'rlarini chorak

---

<sup>1</sup> Yangi uslubda 17-yanvar. Taqvimdagi ushbu o'zgarish 1582-yilda Papa Grigoriy XIII tomonidan amalga oshirilgan va 1752-yilda Angliyada qabul qilingan. Unga ko'ra, Iso Masihdan keyingi davrda har yili umumiy hisobdagi soni 4 soniga bo'linmaydigan, shuningdek, har yili soni 100 ga bo'linadigan, ammo 400 ga bo'linmaydigan yildagi kunlar soni 365 kunni tashkil qiladi. Qolgan barcha yillarda esa yildagi kunlar soni 366 kun bo'ladi. XXVIII asrda eski va yangi hisob uslublari o'rtasida o'n bir kunlik farq bor edi. Uni Angliya parlamenti 1752-yil 3-sentyabr sanasini 1752-yil 14-sentyabr kuni deb belgilagan holda bekor qildi.

varaq shaklidagi qog'ozdan ikki jildga tushirib, meros qoldirgan. She'rlari do'stlari va qarindoshlariga bag'ishlangan kichik satrlardan iborat bo'lib, ulardan menga yuborilgani quyidagi namuna xolos.<sup>1</sup> U tez yozishda o'z usulini ishlab chiqqan va menga ham o'rgatgan edi. Ammo hech qachon mashq qilib, qo'llamaganim uchun uni unutib yuborganman. Menga shu amakimning nomini qo'yishgan, chunki u bilan otam o'rtasida o'zgacha mehr bo'lgan. Amakim juda taqvodor, eng yaxshi voizlar nutqlarining doimiy va minnatdor ishtirokchisi bo'lgan. Va'zlarni o'zining tez yozish usulida yozib olgan. U va'zlarning matnlarini ko'p jildlarda to'plab qo'ygan edi. Unda siyosatchilikka moyillik ham bor edi. Ehtimol, o'zining maqomiga nisbatan ancha yuqori darajada siyosatchi edi. Yaqinda Londonda bo'lganimda, qo'limga uning tomonidan 1641-yildan 1717-yilgacha davlat ishlariga oid barcha asosiy pamflet<sup>2</sup>lardan tuzilgan to'plam kelib tushdi. Raqamlarga qaraganda, ko'p jildlar yetishmaydi. Ammo ikki buklangan qog'ozda sakkiz jild, chorak varaq va sakkizdan bir varaq shaklidagi qog'ozda yigirma to'rt jild saqlanib qolgan. Eski kitoblar bilan savdo qiluvchi kishi ularni sotib olgan. Ba'zan o'zidan u-bu narsa sotib olishimni bilganligi uchun ularni menga olib keldi. Aftidan, amakim Amerikaga ketishidan oldin ularni shu yerda qoldirgan bo'lsa kerak. Bu gapga taxminan ellik yil bo'ldi. U hoshiyalarda ko'plab yozuvlar qoldirgan.

---

<sup>1</sup> Bu namuna «Tarjimayi hol»ning qo'lyozmasida yo'q.

<sup>2</sup> Pamflet – (inglizcha «pamphlet») ijtimoiy-siyosiy mavzuga bag'ishlangan, aniq bir shaxs yoki ijtimoiy hodisani mazax qilib, ularning illatlarini fosh qilishga qaratilgan kichikroq publitsistik asar.

Bizning uncha nomdor bo'lmagan oilamiz reformatsiya jarayoniga erta kirib borgan. Qirolicha Merining hukmronligi davrida protestantliklaricha qolishgan. Bu davrda katolitsizmga qarshi chiqishganliklari tufayli, ba'zan o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishgan. Ularda Injilning ingliz tiliga o'girilgan tarjimai bo'lgan. Uni yashirish va himoya qilish maqsadida, yig'ma stul o'rindig'i ostiga ichidagi yopishqoq tasmalar bilan ochiq holda mahkamlab qo'yishgan. Bobokalonim uni oilasiga o'qib bermoqchi bo'lganida, o'sha yig'ma stulni tizzasiga teskari qilib qo'yib, sahifalarni tasmalar ostidan varaqlab o'qigan. Bolalardan biri diniy sud ijrochisi kelayotganini ko'rganda xabar berish uchun eshik oldida turgan. Ijrochi kelib qolgan vaqtda, stul yana to'rt oyog'i bilan qo'yilar va muqaddas kitob avvalgidek uning ostida yashiringan holicha qolar edi. Bu hikoyani menga Benjamin amakim aytib bergan. Oila Karl II hukmronligi tugagunga qadar Angliya cherkoviga bo'ysungan. Chunki bu vaqtga kelib, ba'zi ruho-niylar Shimoliy Emptonshirda maxfiy diniy majlislar o'tkazganliklari uchun nomuvofiqlik ayblari bilan cherkovdan quvilgan.<sup>1</sup> Benjamin va Jozaya ular-ga qo'shilgan. Shu tariqa butun hayotlari davomi-da ularga sodiq qolishgan: oilaning boshqa a'zolari Amerikaning yepiskop cherkovi doirasida qolgan.

Otam Jozaya yosh uylangan va taxminan 1682-yil-da xotinini uch farzandi bilan Yangi Angliyaga olib ketgan. Maxfiy diniy majlislar qonun bilan taqiqlan-gan va tez-tez tarqatilib yuborilgan. Bu holat uning ba'zi hurmatli tanishlarini o'sha yerga ko'chishga

---

<sup>1</sup> Rasmiy cherkovdan ajralib chiqqan odamlarning yashirin yi-g'inlari.

majbur qilgan. Otamni ular bilan birga borishga ko'ndirishgan. Ular bu yerda o'z diniy e'tiqodlariga erkin rioya qilishlariga umid bildirishgan.



**Franklinning tug'ilgan joyi. Boston, Milk ko'chasi**

Yangi Angliyada otamning birinchi xotini unga yana to'rtta bola tug'ib bergan. Ikkinchi xotin esa yana o'n ta farzand ko'rgan, ya'ni otamning jami o'n yetti farzandi bo'lgan. Ulardan o'n uchtasi bir vaqtning o'zida uning stoli atrofida o'tirganini eslayman. Ularning hammasi voyaga yetishgan va oila qurishgan. Men kenja o'g'il edim, ikki singlim ham bor edi. Men Yangi Angliyaning Boston shahrida tug'ildim.<sup>1</sup> Otamning ikkinchi xotini, mening onam, Abia Folger Yangi Angliyaga ko'chib borganlarning birinchilari-

---

<sup>1</sup> Franklin eski hisob bo'yicha 1706-yil 6-yanvar, yakshanba kuni Milk ko'chasidagi Eski Janubiy Kutubxona (Old South Meeting House) cherkovi ro'parasidagi uyda tug'ilgan. Tug'ilgan kuni qor bo'roni bo'lib turgan vaqtda shu cherkovda cho'qintirilgan. U tug'ilgan uy 1810-yilda yonib ketgan.(Griffin).

dan bo'lgan Piter Folgerning qizi. Kotton Mazerning «Magnalia Christi Americana»<sup>1</sup> deb nomlangan asari bu yurtning cherkov tarixiga oid kitob hisoblanadi. Asarda muallif uning nomini, agar so'zlari yodimdan chiqmagan bo'lsa, «Xudojo'y, savodli ingliz kishisi» sifatida hurmat bilan esga oladi. Men uning turli kichik she'rlar yozganini eshitganman. Faqat ulardan birigina chop etilgan, uni ko'p yillardan keyin ko'rdim. U 1675-yilda o'sha davr va odamlar manfaati yo'lida zamon mansabdorlariga murojaat ma'nosida bitilgan. Bu asar vijdon erkinligi tarafdorlari, jumladan, ta'qib-u quvg'un ostida bo'lgan baptistlar, kvakerlar va boshqa oqimlar nomidan yozilgan. Bunda u hindular bilan urushlar va mamlakat boshiga tushgan boshqa baxtsizliklarga o'sha ta'qib va quvg'unlarni sabab sifatida ko'rsatadi. Bu o'ta jirkanch jinoyatni jazolash uchun Xudoning juda ko'p hukmlari borligini aytib, ayni g'ayriinsoniy qonunlarni bekor qilishga chaqiradi. Umuman olganda, she'r menga o'ta soddalik va insoniy erkinlik tuyg'usi bilan yozilgandek tuyuldi. Bu she'rning dastlabki satrlarini yoddan chiqarib yuborgan bo'lsam ham, uning oltita yakuniy satrini eslayman. O'z navbatida, bu satrlar uning tanbehlari yaxshi niyatidan kelib chiqqanligini, shu sababli o'zining muallif ekanligini oshkor qilish niyatini anglatadi.

«Zero, chaqimchi bo'lish –

Men yoqtirmagan ish.

Hozir yashayotgan Sherbern shahrimdan<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Kotton Mazer – (1663–1728) ruhoniyl, yozuvchi va olim. Boston shahri Shimoliyl cherkov pastori. U jodugarlarni ta'qib qilishda faol ishtirok etgan.

<sup>2</sup> Sherbern – Nentakot.

O'z nomimni shu yerga yozaman.

Sizni haqorat qilish niyati yo'q chin do'stingiz,  
Piter Folgerman».

Katta akalarimning hammasini turli kasblarga o'rgatishgan. Sakkiz yoshimda meni grammatika maktabiga berishdi. Chunki o'ninchi o'g'il bo'lganim sababli otam meni cherkov xizmatiga bag'ishlashni xohlagan. O'qishni o'rganishga erta uyg'ongan intilishim (juda erta bo'lsa kerak, chunki qachon o'qishni bilmaganimni eslay olmayman) va otamning o'rtoqlarining men yaxshi olim bo'lishim mumkinligi haqidagi fikrlari uni bu maqsad sari yanada ilhomlantirgan. Benjamin amakim ham buni ma'qullagan va menga o'zining tez yozish usulida yozib olingan va'zlar jildlarini berishni ham taklif qilgan. Menimcha, amakim uning tez yozish usulini o'rgansam, to'plamga yana jildlar qo'shiladi, deb umid qilgan.<sup>1</sup> Grammatika maktabidagi o'qishim bir yilga ham cho'zilmadi. Albatta, undan ketish vaqti kelgan damda men allaqachon sinfning o'rta darajasidan eng yuqori, ya'ni a'lochilar safiga chiqib olgandim. Meni hatto yil oxirida uchinchi sinfga tavsiya qilish uchun ikkinchi sinfga ham o'tkazishgan edi. Lekin bu orada, katta oilaning boshlig'i bo'lgan otam kollej ta'limi haqqini to'lay olmasligini tushunib yetgan. Ammo do'stlariga kollejni bitirgan savodli odamlar bechora hayot kechirishadi, deb bahona qilgan. Otam dastlabki rejasidan voz kechib, meni grammatika maktabidan chiqarib olgach,

---

<sup>1</sup> Tez yozish (stenogramma) tizimlaridan biri.

yozuv va hisob maktabiga berdi. Bu maktabning xo'jayini o'sha paytlarda mashhur bo'lgan, o'z ishidagi, umuman olganda, yumshoq va ilhomlantiruvchi usullar yordamida muvaffaqiyat qozongan janob Jorj Braunvell edi. Uning qo'l ostida tez orada yaxshi yozishni o'rganib oldim. Lekin arifmetikada uquvim yo'q edi va unda hech qanday yutuqlarga erishmadim. O'n yoshimda meni otamning ishlariga yordam berish uchun uyga olib ketishdi. Otam moyli sham va sovun ishlab chiqarish bilan shug'ullanar edi. U ayni kasbni maxsus o'rganmagan. Ammo Yangi Angliyaga kelgach, talab kamligi tufayli bo'yoq savdosi bilan oilani boqa olmasligini tushungan va shu ishni boshlagan. Shu tariqa, men shamlar uchun pilik kesish, quyma shamlar shakllari hamda qoliplarini to'ldirish, do'kon ishlariga yordam berish bilan birga boshqa topshiriqlarni ham bajara boshladim.

Bu kasbni yoqtirmasdim va meni dengiz doim o'ziga tortar edi. Lekin otam bunga qarshi ekanligini ma'lum qildi. Suv yaqinida yashaganligimiz sababli, men doim suvda bo'lardim, yaxshi suzishni va qayiq boshqarishni erta o'rgandim. Boshqa bolalar bilan qayiqda yoki kanoeda suzganimda, ayniqsa, har qanday qiyin holatlarda boshqarish imkoni menga berilar edi. Boshqa vaqtlarda esa men ko'pincha o'g'il bolalar orasida yetakchi bo'lganman va ba'zan ularni mushtlashishlargacha olib borganman. Mavridi kelsa, bu haqda aytib beraman, chunki bu jamoatchilik ruhini, unchalik adolatli amalga oshirilgan bo'lmasa-da, namoyish etadi.

Tegirmon hovuzining bir qismidan sho'rxok yer boshlanar edi. Suv baland bo'lganda, biz uning

chetida mayda baliq ovlash uchun tizilib turardik. Tinimsiz yurganimiz uchun uni oddiy botqoqqa aylantirib yuborar edik. Men u yerda turishimiz uchun mos bo'ladigan pristan<sup>1</sup> qurishni taklif qildim. O'rtoqlarimga sho'rxok yer yaqinidagi yangi uy uchun olib kelingan va bizning maqsadimizga juda mos keladigan katta toshlarni ko'rsatdim. Shu tariqa, kechki payt ishchilar ketgach, men bilan birga o'ynab yuradigan bir necha nafar bolani yig'dim. Ular bilan chumolilar kabi tirishqoqlik bilan ishlab, ba'zan bitta toshni ikki yoki uch kishi tashib, hammasini olib keldik va kichkina pristanimizni qurdik. Ertasi kuni ertalab ishchilar toshlarning yo'q bo'lib qolganidan hayron bo'lishibdi va ularni pristanimizdan topishibdi. «Tosh o'g'rilari» haqida surishtiruvlar qilishibdi. Sirimiz fosh bo'lib, bizning ustimizdan shikoyat qilishibdi. Bir nechtamizning otalarimiz tanobimizni tortib qo'yishdi. Qilgan ishimiz foydali-ligini da'vo qilib tushuntirishimga qaramay, otam meni halol bo'lmasa, hech narsa foydali emasligiga ishontirdi.

Menimcha, otamning shaxsi va xarakteri haqida bilishni xohlasang kerak. U a'lo darajada sog'lom, o'rta bo'yli, ammo yaxshi rivojlangan va juda kuchli odam edi. U zukko edi, chiroyli rasm chiza olar edi. Musiqada ozgina ko'nikmalari bor va tiniq, yoqimli ovozga ega edi. Ba'zan ish tugaganidan keyin kechqurunlari skripkasida Zabur kuylarini chalganda va kuylaganda, uni tinglash quloqlarga orom baxsh

---

<sup>1</sup> Pristan – daryo va boshqa suv havzalari sohilida qayiqlar, kemalar to'xtaydigan, maxsus jihozlardan iborat joy; kichik port.

etar edi. Otamda mexanik iqtidor ham bor edi va bu ba'zida boshqa hunarmandlarning asboblaridan foydalanishda juda qo'l kelar edi. Ammo uning buyukligi ham shaxsiy, ham davlat ishlarini mulohaza qilish, sog'lom aql bilan ish yuritish va qat'iy hukm chiqarishda edi. Aytish lozimki, otam davlat ishlari-ga hech qachon jalb qilinmagan. Tarbiya berish va o'qitishi zarur bo'lgan bola-chaqasining ko'pligi ham-da sharoitning og'irligi uni o'z ishlaridan chalg'ib, uzoqqa ketishga qo'ymas edi. Ammo uning oldiga yetakchi rahbarlar tez-tez kelishar edi. Undan sha-har va o'zi qatnaydigan cherkov masalalari bo'yicha maslahatlar olishar edi. Uning fikri va maslahatlari-ni o'ta hurmat qilganliklarini yaxshi eslayman. Har qaysi odam shaxsiy hayotida va ishida qiyinchilikka duch kelsa, undan ko'p maslahat so'rar edi. Ko'p hollarda raqib tomonlar nizoni hal qilish uchun uni hakam qilib tanlashardi. O'z stoli atrofida u bilan suhbatlashish uchun iloji boricha tez-tez biror sog'lom aqlli do'st yoki qo'shnining birga o'tirishi-ni yaxshi ko'rardi. U suhbat uchun har doim biror aqlli yoki foydali mavzuni topib qo'yardi. Bu mavzu va suhbat o'z farzandlarining aqlini rivojlantirishga yordam berishi mumkinligiga amin edi. Shu yo'l bilan u bizning e'tiborimizni hayotda nima yaxshi, nima adolatli, nima oqilona ish ekanligiga qaratar edi. Stol ustidagi yegulik va ichimliklarning yaxshi yo yomon bezatilganligi, mavsumga mos yoki mos emasligi, hidi va ta'mi yaxshi yoki yomonligi, biri boshqasidan afzal ko'rilishi kabi masalalarga juda kam e'tibor berilardi. Yoki ular umuman chetda qolib ketardi. Shu bois men ham oldimga qanday

ovqat qo'yilganiga befarq qarayman. Shuningdek, tushlikdan bir necha soat keyin nimalar yeganimni so'rashsa, javob berishga qiynaladigan odam bo'lib tarbiya topdim. Bu xislat menga sayohat qilgan paytlarimda juda qo'l kelar edi. Hamrohlarim esa yaxshiroq sharoitda tarbiyalanganligi sababli ba'zan nozik did va ishtahalarini munosib tarzda qondira olmay norozi bo'lishardi.

Onamning salomatligi ham a'lo darajada bo'lgan. U o'nta bolasini o'zi emizib katta qilgan. Men hech qachon otamni ham, onamni ham biron bir kasallikka chalinganligini ko'rmaganman. Otam 89 yoshida, onam esa 85 yoshida vafot etdi. Ular Bostonda birga dafn qilingan. Vafotlaridan bir necha yillardan keyin qabrlari ustiga marmar tosh qo'ydirdim.<sup>1</sup> Unda ushbu yozuv bitilgan:

«Jozaya Franklin va uning turmush o'rtog'i Abia bu yerda so'nggi manzillarini topishgan. Ular nikohda roppa-rosa ellik besh yil muhabbat og'ushida birga yashadilar. Yer-mulksiz edilar yoki yaxshi daromad beradigan ishlari bo'lmagan. Doimiy mehnat, tirishqoqlik va Xudoning marhamati bilan ular katta oilani qulaylikda boqib katta qilishdi va o'n uch farzand hamda yetti nabirani munosib tarbiyalashdi.

Ushbu misoldan o'quvchi o'z turmush yumushlarida tirishqoqlikka ilhom olsin, Xudoning inoyatidan ishonchni uzmasin. Otam taqvodor va sog'lom, aqlli odam edi. Onam o'zini tutgan fazilatli ayol edi.

---

<sup>1</sup> Ushbu marmar toshi yemirilib ketgach, 1827-yilda Boston fuqarolari uning o'rniga matnda keltirilgan asl yozuvni tushirib, yigirma bir fut (6 metr atrofida) balandlikdagi granit obelisk o'rnatdilar va unda bu yodgorlikning o'rnatilishi sababi keltirilgan qo'shimcha matn ham mavjud.

Kenja o'g'li ularning xotirasi hurmatiga bu toshni qo'ydi.

J.F. 1655-yilda tug'ilgan, 1744-yilda 89 yoshida vafot etgan.

A.F. 1667-yilda tug'ilgan, 1752-yilda 85 yoshida vafot etgan».

Mavzudan chetlashib ketishimni qarib qolganimdan deb bilaman. Avvallari yozsam, bayonim ancha tartibli bo'lardi. Ammo shaxsiy uchrashuvga taraddudlangan odam ommaviy bal ziyofati uchun boradiganday kiyinmaydi-ku. Ehtimol, bu faqat e'tiborsizlikdandir.

Mavzuga qaytsak, men ikki yil davomida, ya'ni o'n ikki yoshga kirgunimga qadar otamning ishida band bo'ldim. Shu kasbni o'rgangan akam Jon, otamning uyidan ko'chib chiqib, Rod Aylendga joylashdi. Aftidan, men uning o'rnida qolishim hamda moy va sham ishlab chiqaruvchiga aylanishim kerak edi. Ammo bu kasb menga hali ham yoqmas edi. Otam menga ma'qulroq bir ish topmasa, akam Joza ya kabi uni norozi qilgan holda shartta ketib qolishim va dengizchi bo'lib ketishimdan xavotirda edi. Shuning uchun ba'zan meni o'zi bilan piyoda sayrga olib chiqib, duradgorlar, g'isht teruvchilar, chilangar-u misgarlar va boshqalarning ishlarini tomosha qilishga undar edi. Uning maqsadi mening moyillik qirralarimni kuzatish va qiziqishimni quruqlikda bajariladigan biron bir kasbga yo'naltirishdan iborat edi. Shu kungacha menga mohir ustalar o'z asboblarini qanday ishlatishlarini tomosha qilishdan boshqa narsa ko'proq zavq bera olmagan. Vaholanki, bu tajriba o'z uyimda ustani darrov topishning imkoni

bo'lmaganda, kichik ishlarni bajarib qo'yish hamda tajribani o'tkazish fikri hali yangi va qaynoqligida-yoq kichik mashinalarni qurishda juda qo'l kelgan. Nihoyat, otam pichoqchilik kasbida to'xtadi. Meni amakim Benjaminning Londonda bu hunar bo'yicha saboq olgan va bu paytga kelib, Bostonga ko'chib o'tgan o'g'li Samuelning oldiga bir muncha vaqt jo'natishdi. Ammo Samuel menga hunar o'rgatish uchun juda katta haq talab qilibdi va otam bundan norozi bo'lib, meni uyga qaytarib olib keldi.

## II

### MATBAACHILIK HAYOTIGA QADAM

Bolaligidan o'qishni yaxshi ko'rardim. Qo'limga tushgan har qanday mayda pulni doimo kitoblarga sarflar edim. «Ziyoratchining sayohatlari» («Pilgrim's Progress») kitobidan mamnun bo'lgach, Jon Bunyan-ning alohida kichik jildlardagi asarlari mening birinchi kitob-to'plamim bo'ldi. Keyinchalik bu kitoblarni R.Bertonning «Tarixiy to'plamlar»ini («Historical Collections») xarid qilishga pul yetkazish uchun sotib yubordim. Ular sayyor kitob sotuvchidan olingan 40 yoki 50 dona kichik va arzon kitoblar edi. Otamning kichik kutubxonasida asosan diniy bahslarga bag'ishlangan kitoblar bor edi. Ularning aksariyatini o'qiganman. O'shandan beri ko'pincha bilimga chanqoq paytimda men uchun zarur kitoblar duch kelmaganidan afsuslanaman. Chunki o'sha paytga kelib, mening ruhoniy bo'lmasligim masalasi hal qilingan edi. Plutarxning «Hayotlar» asarini juda ko'p

o'qiganman. Hali hanuz bu kitob menga katta foyda keltirdi, deb o'ylayman. Shuningdek, D.Defoning «Loyihalar bo'yicha hikoya» va doktor Mazerning «Yaxshilik qilish haqida hikoyalar» kabi kitoblari ni o'qiganman. Ular mening ongimga hayotimning kelajakdagi asosiy voqealariga ta'sir ko'rsatadigan fikrlash tarzini singdirgan bo'lsa kerak.

Kitoblarga bo'lgan kuchli moyilligim, garchi otamning bu kasb bilan allaqachon bir o'g'li (Jeyms) shug'ullanayotgan bo'lsa ham, matbaachi bo'lishimga ruxsat berishga uni majbur qildi. 1717-yilda akam Jeyms Bostonda o'z biznesini yo'lga qo'yish uchun bosma dastgoh va harflar to'plamini olib, Angliyadan qaytib keldi. Bu menga otamga yoqqandan ko'ra ko'proq ma'qul keldi. Lekin yuragim hali ham dengizga talpinar edi. Bunday moyillikning ehtimoliy ta'sirining oldini olish uchun otam meni akamning ishiga shartnoma bilan bog'lab qo'yishga shoshilar edi. Men biroz vaqt qarshilik qilib turdim, ammo ular nihoyat ko'ndirishdi. Natijada hali o'n ikki yoshga yetmasimdan shartnoma imzoladim. Unga ko'ra, yigirma bir yoshga to'lgunimcha shogird bo'lib xizmat qilishim shart edi. Faqat oxirgi yil davomidagina menga ishchining maoshini olishga ruxsat berishlari mumkin edi. Tez orada bu ishda katta mahorat sohibiga aylandim. Akam uchun foydali odam bo'lib qoldim. Menda yaxshiroq kitoblarni olib o'qish imkoniyati paydo bo'ldi. Kitob sotuvchilarning shogirdlari bilan tanishish menga ba'zan biror kichik kitobni bir muddat qarzga olib o'qish imkonini berardi. Men ularni tez orada o'qib, toza holatda qaytarib berishga harakat qilardim. Ko'pin-

cha kitob kechki payt uchun olinar va saharda qaytarib berilishi lozim bo'lardi. Shunda men tuni bilan xonamda kitob o'qib chiqardim. Aks holda u o'qilmay qolib ketar yoki qaytarib berishni talab qilishardi.

Bir muncha vaqt o'tgach, mohir savdogar, juda ko'p kitoblar to'plamiga ega va bosmaxonamizga tez-tez kelib turadigan janob Metyu Adams menga e'tibor qaratdi. Meni o'z kutubxonasiga taklif qildi va o'zim tanlagan kitoblarni olib o'qishga ruxsat berib, iltifot ko'rsatdi. Bu vaqtda she'riyatga ishqim tushgan va o'zim kichik she'rlar yoza boshlagandim. Akam bu mashqlar yaxshi foyda keltirishi mumkin deb o'ylab, meni ruhlantirdi va vaqti-vaqti bilan balladalar yozishga undadi. Ulardan biri – «Mayoqdagi fojia» kapitan Uortileykning ikki qizi bilan dengizda cho'kib ketishi haqidagi hikoya bayoni edi. Ikkinchisida esa Qaroqchi Tichning (yoki Qora Soqolning) qo'lga olinishi haqidagi dengizchi qo'shig'i keltirilgan. Bular Greb-stritda odamlar to'qiydigan qo'shiqlarga o'xshagan saviyasi past she'rlar bo'lgan.<sup>1</sup> Ular chop etilganda, akam meni ularni sotish uchun shahar ko'chalariga yubordi. Birinchisi qo'lma-qo'l bo'lib sotildi, chunki voqea yaqin o'tmishda yuzaga kelgan va katta shov-shuvga sabab bo'lgandi. Bu mening shuhratparastligimga yanada kuch berdi. Ammo otam odatda shoirlar kambag'al bo'lishadi, deb mening she'r yozishim va she'rxonlik qobiliyatimni mazax qilardi. Shu tariqa, shoirlik qismatidan qutuldim. Chunki shoir bo'lsam ham

---

<sup>1</sup> Greb-strit – (inglizcha «Grab-street») ingliz adabiyotida kambag'al yozuvchilarning uyi sifatida tanilgan ko'cha.

juda no'noq shoir bo'larmidim. Ammo nasrdagi ijod hayotim davomida menga juda qo'l keldi. Qolaversa, yutuqlarga erishishimda asosiy vosita bo'ldi. Shuning uchun, men senga bugun o'zimda mavjud ozgina qobiliyatni ishga solib, muvaffaqiyatlarga qay tarzda erishganligimni aytib beraman.

Shahrimizda Jon Kollinz ismli yana bir kitobsevar yigit bor edi, men u bilan yaqindan tanish bo'lganman. Biz ba'zan bahslashardik, dalil-isbotlar keltirib talashish hamda raqibning fikrlarini rad etishni juda yaxshi ko'rardik. Aytish joizki, bunday bahslashishlar borib-borib, yomon odatga aylanib qolar ekan. Inson boshqalar orasida amalda qo'llash zarur bo'lgan har qanday fikrga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqadigan bo'lib qolarkan. Bu esa suhbatni salbiy tomonga burishi va sovitishi bilan birga, odamlar bunday bahschini yomon ko'rarkan. Hatto do'stlikka imkoniyat bor joyda dushmanlikka olib kelishi ham mumkin ekan. Men bu odatni otamning din masalalari borasidagi bahslarga oid kitoblarini o'qib orttirgan edim. Shu kunga qadar kuzatishimcha, sog'lom, aqli bor odamlar bu illatga chalinmaydilar. Ammo yuristlar, universitet ustozlari va Edinburgda ta'lim-tarbiya ko'rgan turli odamlar bundan mustasno.

Kollinz ikkalamizning o'rtamizda xotin-qizlarga ta'lim berishning to'g'ri-noto'g'riligi va ularning ta'lim olishi, o'qishi, haqida bahs paydo bo'ldi. Uning fikricha, bu noto'g'ri va ular tabiiy ravishda ilm-fan uchun tug'ilmagan emish. Men, ehtimol, faqat bahs qilish maqsadida qarama-qarshi tomonni tanladim. U tabiatan notiq bo'lib, lug'at xazinasida so'zlar mo'l-ko'l edi. Asosan u o'z fikrini dalillash bilan

emas, balki soʻzlash uslubidagi aniqlik va ravonlik bilan gʻolib keladi, deb oʻylar edim. Biz bahs mavzusi yuzasidan bir toʻxtamga kelmasdan uy-uyimizga ketdik. Tabiiyki, bir-birimizni ancha muddat koʻrmasligimiz mumkin edi. Shu sababli men oʻz dalil-isbotlarimni qogʻozga tushirib, unga joʻnatdim. U javob berdi va men ham maktub yoʻlladim. Otam tasodifan mening qogʻozlarimni topib oʻqiguncha bir-birimizdan uch-toʻrttadan xat olib ulgurgan edik. Otam hech qanday bahs-munozaraga kirishmasdan, men bilan yozish uslubim haqida gaplashish uchun vaqt ajratdi. Menda imlo savodxonligi (bu bosmaxonada ishlashimning natijasi) va fikrni ravon bayon etishda raqibimga nisbatan ustun tomonim borligini qayd etdi. Ammo ifodaning nafisligi, fikrni aniq bayon qilishda raqibdan ancha orqada ekanligimni tushuntirdi. Meni bunga bir nechta misollar keltirib ishontirdi. Otamning izohlari oʻrinli ekanligini tushundim. Oʻshandan keyin yozish uslubiga ancha eʼtibor beradigan boʻldim va uni takomillashtirishga harakat qildim.

Oʻsha vaqtlarda «Spektator» jurnalining bir sonini koʻrib qoldim.<sup>1</sup> Bu uchinchi son edi. Men «Spektator»ning hech bir sonini oʻqimagan ekanman. Uni sotib oldim, qayta-qayta oʻqidim va bundan juda mamnun boʻldim. Undagi yozish uslubi beqiyos deb oʻyladim. Iloji boʻlsa, unga taqlid qilishga qaror qildim. Shu maqsad bilan bir nechta maqola-

---

<sup>1</sup> 1711–1712-yillarda Eddison va Still tomonidan Londonda nashr etilgan ijtimoiy mavzulardagi satirik hikoya va esselardan iborat kundalik jurnal. «Spektator» va undan oldin nashr etilgan «Tatler» jurnallari (1709) davriy adabiyotning boshlangʻich davrini belgilab bergan.

ni tanlab oldim. Har bir gapning mazmunini qisqa gap-iboralarda yozib qo'ydim va bir necha kunga tashlab qo'ydim. So'ng kitobga qaramasdan har bir qisqa gap-iborani avval qanday ifodalangan bo'lsa, xayolinga kelgan mos so'zlarni qo'llab, xuddi shunday ifodalagan holda, maqolalarni tugatishga harakat qildim. Keyin o'zim bitgan «Spektator»ni asl nusxasi bilan taqqosladim, ba'zi xatolarimni topdim va ularni tuzatdim. Buning natijasida menda so'z zaxirasi yetishmasligi yoki ularni eslash va qo'llashda mahorat yo'qligini angladim. So'z zaxirasi va bunday mahoratni she'r yozishni davom ettirganimda ancha oldin egallagan bo'lar edim, deb o'yladim. Masalan, vazn yoki qofiyani o'z o'rniga qo'yish uchun ma'nosi bir xil, ammo turli uzunlik va talaffuzdagi so'zlarga doimiy ehtiyojning mavjudligi meni tinimsiz izlanishga majbur qilgan bo'lardi. Natijada buni aqlimda yechishni o'rganardim. Bularning hammasi meni ishni puxta egallashga undar edi. Shu sababli, ba'zi hikoyalarni olib, ularni she'rga tushirdim va bir muncha vaqt o'tgach, nasriy bayonini unutib ulguranimda, she'rlarni qayta nasrga soldim. Ba'zan qisqa gap-iboralarimning to'plamlarini tartibsiz aralashtirib qo'yardim. Bir necha haftadan keyin gaplarni tuzib, maqolani to'liq shakllantirgunga qadar ularni imkoni boricha mantiqqa mos tartibda yaratishga harakat qilardim. Bu usul menga fikrlarni tartibga solishni o'rgatadi deb o'yladim. Keyinchalik o'z ishimni maqolaning asl nusxasi bilan taqqoslab, ko'plab xatolarimni topdim va ularni isloh qildim. Ammo ba'zida matndagi muayyan tafsilotlarda bayon qilish usulimni takomillashtirish baxtiga mu-

yassar bo'lganimdan zavqlanardim. Bu esa meni bir kuni odamlar chidasa bo'ladigan ingliz yozuvchisiga aylanishim mumkinligiga tobora ishontirardi. Chunki bu mening eng katta orzularimdan biri edi. Bu kabi mashqlar va o'qish uchun faqat yakshanba kunlari tunda, ishdan keyin yoki ish boshlanishidan avval sahar tongda vaqt topa olardim. Shuning uchun yakshanba kunlari faqat bosmaxonada bo'lishga harakat qildim. Otamning qo'lida ishlaganimda, doim mendan talab qiladigan va hali ham men uchun burch deb hisoblangan ommaviy ibodatda ishtirok etishdan imkoni boricha qochishning payidan bo'lardim.

16 yoshlarga to'lganimda, Trion ismli muallif yozgan bir kitob qo'linga tushdi. Unda vegetarian parhez tavsiya qilingan ekan. Men vegetarian bo'lishga qaror qildim. Hali uylanmagan akamning o'z uyi yo'q edi, ammo o'zi va shogirdlari bilan boshqa bir oilaning uyida ovqatlanishar edi. Go'sht yemalik noqulayliklarga sabab bo'ldi. Ko'pincha boshqalardan ajralib turganim uchun tanbeh eshitadigan bo'ldim. Men Trionning kartoshka yoki guruchni qaynatish, oz vaqtda puding pishirish va boshqa bir nechta taomlarni tayyorlash uslubini o'rgandim. Keyin akamga u har hafta ovqatim uchun to'laydigan pulning yarmini menga bersa, o'zim alohida ovqatlanishim mumkinligini taklif qildim. U darhol bunga rozi bo'ldi. Endi u menga to'laydigan pulning ham yarmini tejashim mumkinligini mamnunlik bilan angladim. Bu menga kitob sotib olish uchun qo'shimcha mablag' edi. Ammo men uchun yana bir afzallik tomoni bor edi. Akam va boshqalar ovqatlanishga ketishganda, men bosmaxonada yolg'iz

qolardim. Ko'pincha bir dona pechenye yoki bir bo'lak non, bir hovuch mayiz yoki qandolatpazning do'konidan olingan pirojniy va bir stakan suvdan iborat ovqatimni yeb olardim. Shu tariqa, qolgan vaqtni ular qaytib kelgunlaricha o'qish-o'rganishga sarflardim. Ovqatlanish va suyuqlik iste'molida mo'tadillik aqlimning tiniqlashuviga olib kelganligi tufayli o'rganishda ancha yutuqlarga erishdim.

Shuningdek, qaysi bir holda hisobdan xabarim yo'qligi sababli meni uyaltirishdi. Maktabda ikki marta imtihondan o'ta olmaganman. Shu sababli, Kokerning «Arifmetika» kitobini oldim va uni osonlik bilan boshdan oyoq o'rganib chiqdim. Shuningdek, men Seller va Shermining navigatsiya'ga bag'ishlangan kitoblarini o'qib chiqdim hamda ulardagi geometriya haqida oz miqdorda berilgan ma'lumotlar bilan tanishdim. To'g'risi, bu fanda hech qachon uzoqqa bora olmaganman. Bu vaqtga kelib, Lokkning «Inson zakovati»<sup>2</sup> va port-royallik janoblar yozgan «Tafakkur san'ati»<sup>3</sup> asarlarini o'qib chiqdim.

Til imkoniyatlaridan mohirona foydalanish uslubimni yaxshilashga harakat qilib yurganimda, «Ingliz tili grammatikasi» kitobini topdim (menimcha, bu Grinvudniki edi). Kitobning oxirida mantiq va

---

<sup>1</sup> Navigatsiya – kemalarni belgilangan yo'nalish bo'ylab to'g'ri va xavf-xatarsiz yurgizish usullari haqidagi fan.

<sup>2</sup> Jon Lokk (1632–1704) – mashhur ingliz faylasufi, «sog'lom aql» maktabi asoschisi. U Karolina mustamlakachilari uchun Konsultatsiya tuzgan.

<sup>3</sup> Parij yaqinidagi Port-Royal abbatligida yashagan olim va dindorlarning taniqli jamiyati. Ular tomonidan ilmiy asarlar nashr etilgan. Bu o'rinda ko'rsatilgan asar «Port-Royal mantig'i» nomi bilan ma'lum.

notiqlik san'ati haqida ikkita kichik rasm berilgan ekan. Mantiqqa oid rasm Suqrot usulidagi bahsning namunasi bilan yakunlangan<sup>1</sup>. Ko'p o'tmay men Ksenofontning «Suqrot haqida xotiralar» asarini sotib oldim. Unda xuddi shu usulga oid ko'plab misollar berilgan. Bu kitob meni o'ziga rom qildi va undagi usullarni qo'llay boshladim. Zid fikr bildirish va ijobiy dalillar keltirishga urinishdek keskin odatimni bas qildim, kamtar savol beruvchi hamda mushohada sohibiga aylandim. Shaftsberi va Kollinzning asarlarini o'qishim natijasida diniy ta'limotimizning ko'p jihatlariga nisbatan shubhalarim paydo bo'ldi. Shundan so'ng bu usulni o'zim uchun eng maqbul va uni men bilan bahsga kirishgan odamlarni noqulaylikka soladigan usul ekanligini angladim. Shuning uchun unga qiziqib qolib, muntazam mashq qilib yurdim. Bu borada o'ta bilimli odamlarni ham yon berishga majbur qiladigan darajaga chiqqa oldim va ustasiga aylandim. Bunday yon berishlarning oqibatlarini ular oldindan ko'ra olishmas edi. Ularni shunday qiyin ahvolga solardimki, o'zlarini o'nglolmay qolishardi. Shu tariqa kutilmagan g'alabalarga erisha oldim. Men bu usuldan bir necha yil foydalandim. Ammo asta-sekin undan uzoqlashdim va faqat o'z fikrlarimni kamtarlik bilan vazmin, aniq, o'zini tutib olgan holda, ifodalash odatini saqlab qoldim. Bahsga sabab bo'luvchi biror mavzuni ilgari surganimda, «albat-ta», «shubhasiz» yoki fikrga qat'iylik yoxud keskinlik

---

<sup>1</sup> Bahs-munozaralarda Suqrot raqiblariga shu qadar mohirona o'ylab tuzilgan savollar berar edi-ki, javoblar javob beruvchining fikri, pozitsiyasini tasdiqlar yoki raqibning xatosini ko'rsatar va raqiblar mag'lub bo'lishar edi.

ma'nosini beradigan boshqa so'zlardan foydalanmay, o'rniga «shunday deb o'ylayman», «fikri ojizimcha», «shunday yoki boshqacha deb o'ylayman», «men falon sabablarga ko'ra, buni shunday deb tasavvur qilaman» yoki «adashmasam», «gap shundaki» kabi iboralardan foydalanishni odat qildim. Aminmanki, bu odat menga o'z fikrlarimni ilgari surish va vaqti-vaqti bilan tadbirlarni amalga oshirishga odamlarni ko'ndirishda juda qo'l keldi. Har qanday suhbatning maqsadi oxir-oqibat boshqalarga yaxshi taassurot va niyatlar xabarini berish yoki o'zi ma'lumot olish, boshqalarni xursand qilish yoxud qandaydir ishga ko'ndirishdan iborat. Shuning uchun, aqlli odamlardan odatda boshqalarni xafa qiladigan holat, ziddiyat keltirib chiqarmaydigan, yakuni ijobiy, hatto majburlaydigan yo'l bilan bo'lsa ham, ezgulik qilish kuchi, maqsadi, ruhiyatini pasaytirmaslikni so'rayman. Odam bolasiga nutq axborot berish yoki zavq olish uchun berilgan-ku. Fikrlaringizni bayon etishda dogmatik usulni qo'llash ziddiyat keltirib chiqarishi mumkin. Suhbatdoshlaringiz so'zlaringizga samimiy e'tibor bermasliklari mumkin. Agar siz boshqalarning bilimlaridan ma'lumot olish va takomillashishni xohlasangiz, bir vaqtning o'zida fikrlaringizni qat'iy ifodalay olsangiz, bahslashishni yoqtirmaydigan, kamtar, aqlli erkaklar, ehtimol, sizning xatongizni odatdagidek qabul qiladilar. Bu usul bilan tinglovchilaringizga yoqish yoki roziligini olishingiz lozim bo'lganlarni ko'ndirishga umid qilmasangiz ham bo'ladi. Shoir A.Poup<sup>1</sup> haqli ravishda maslahat beradi:

---

<sup>1</sup> Aleksandr Poup (1688-1744) XVIII asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan buyuk ingliz shoiri.

«Odamlarga ularga o'rgatmayotgandek bo'lib o'rgatish lozim;

Yangi, noma'lum narsalar unutilgan narsalar kabi taqdim etilishi kerak».

U yana tavsiya qiladi:

«So'zlashda ishonch bilan shuningdek, oshkora kamtarlik bilan so'zlash».

Muallif bu satrni yana davom ettirishi mumkin edi:

«Chunki kamtarlik yo'qligi – aql yo'qligidan darak».

Agar so'rasangiz, nega munosib darajada so'ramaysiz? Men ushbu satrlarni takrorlashim kerak bo'ladi:

«Beadab so'zlar himoyaga muhtoj emas,

Chunki kamtarlik yo'qligi – aql yo'qligidan darak».

Endi aql yo'qligi (bu holda odam uning yetishmasligi sababli o'ta baxtsiz), kamtarlik yo'qligi uchun uzr so'rash kerakmi?! Agar shunday bo'lsa, satrlarni mana bunday ko'rinishda talqin qilish to'g'riroq, bizningcha:

«Beadab so'zlar shuning uchun ham kechiriladiki,

Kamtarlikning yo'qligi – aql yo'qligidan darakdir».

Biroq bu borada hukm chiqarishni biladiganlarga qo'yib berish lozim.

1720 yoki 1721-yilda akam gazeta nashr etishni boshlagan edi. Bu Amerikada paydo bo'lgan ikkinchi gazeta edi.<sup>1</sup> Akam uni «Yangi Angliya hukumati» («The New England Courant») deb nomladi.

---

<sup>1</sup> Bu yerda Franklinning xotirasi pand bergan. Garchi, odatda to'rtinchi deb ko'rsatilsa-da, «Courant» Amerikada tashkil etilgan beshinchi gazeta edi. Chunki 1690-yilda Bostonda nashr etilgan birinchi gazeta «Ommaviy hodisalar» («Public Occurrences») birinchi sonidan keyinroq to'xtatilgan. Boshqa to'rt gazetaning nashr etilish sanalari tartibi quyidagicha bo'lgan: «Boston News-Letter» – 1704; «Boston Gazette» – 1719, 21-dekabr; «America Weekly Mercury, Philadelphia» – 1719, 22-dekabr; «The New England Courant» – 1721.

Undan oldingi yagona gazeta «Boston yangiliklari xati» («Boston News-Letter») gazetasi edi. Akamning ba'zi do'stlari bu ish muvaffaqiyatli bo'lishi haqida shubha bildirishgan. Ular mavjud bitta gazeta butun Amerika uchun kifoya ekanligini aytib, uni bu ishdan qaytarmoqchi bo'lishganini eslayman. Bugunga kelib esa (1771-y.) kamida yigirma besh xil gazeta nashr qilinmoqda. Ammo akam bu ishni boshlab yubordi. Harflarni terib, sahifalarni bosmadan chiqarganimdan keyin zimmamga gazetalarni ko'chalar bo'ylab tashib, mijozlarga yetkazish yuklatildi.

Uning do'stlari orasida ba'zi bir qobiliyatli ham bor edi. Ular ushbu gazeta uchun kichik maqolalar yozib, o'zlarini xushnud qilib turishardi. Bu esa gazetaning qadrini oshirib, unga talabning ortishiga olib keldi. Ushbu janoblar bizning oldimizga tez-tez tashrif buyurib turishardi. Ularning suhbatlari va maqolalarining qanday qabul qilinganligi haqidagi taassurotlarini eshitib, menda ham o'zimni sinab ko'rish istagi paydo bo'ldi. Ammo hali yosh bola edim va akam o'z gazetasida men yozganimni bilib qolsa, maqolalarimni chop qilishga qarshilik qiladi deb o'ylab, o'z husnixatimni o'zgartirdim hamda muallifi noma'lum maqola yozdim. Uni tunda bosmaxona eshigining tagiga qo'ydim. Tongda akam uni topib olgan va odatdagidek maqola yozuvchi do'stlariga baholash uchun bergan. Ular maqolamni o'qishdi va mening oldimda izohlashdi. Maqolam ularning sinovidan o'tganini eshitib, juda xursand bo'ldim. Shuningdek, ular muallif haqida turlicha taxminlar qilishdi, ammo oramizdagi bilimli va aqlli odamlardan boshqa hech kimning nomi aytilmadi.

Endi o'ylab qaragam, hakamlarim borasida omadli ekanman. Balki ular men o'ylaganchalik zo'r hakam bo'lmagandir.

Nima bo'lgandayam, bu hodisadan ilhomlanib, bir nechta maqola yozdim va xuddi birinchisi kabi bosmaxonaga yetkazdim. Ularning hammasi tasdiqlanib, nashr etildi. Men ushbu sirimni bunday ishlar uchun ongim va aqlim yanada peshlangunga qadar saqlab keldim, ammo kun kelib, o'zimni oshkor qildim. So'ng akamning tanishlari men haqimda yuqoriroq fikrda bo'la boshladilar. Bu esa akamga ko'pam yoqmadi va bunga biror sabab ham bo'lgandir. Balki bu holat menga, ya'ni ukasiga katta manmanlik olib keladi deb o'ylagandir. Ehtimol, bu oramizda o'shanda paydo bo'lgan kelishmovchiliklarning biri bo'lgandir... Akam bo'lsa-da, o'zini mening xo'jayinim, meni esa shogirdi deb hisoblardi. Shu sababli, mendan ham boshqa shogirdlar kabi bir xil xizmatlarni bajarishni talab qilar edi. Kamina o'z o'rnida uning ba'zi talablari meni pastga urib yuboradi, deb o'ylardim. Chunki akam bo'lganligi uchun undan yumshoqroq munosabat kutardim. Oramizda o'tgan nizolarni ko'pincha otamiz hal qilishga majbur bo'lardi. Aytishim lozimki, odatda men haq bo'lib chiqardim yoki arz qilganlarning yaxshirog'i bo'lar edim. Chunki yechim, umuman olganda, mening foydamga hal bo'lardi. Lekin akam jizzaki bo'lib, meni tez-tez kaltaklab turardi, men esa juda xafa bo'lardim. Shogirdlikdagi ishimni juda zerikarli hisoblab, doimo uni qisqartirish uchun biror imkoniyat qidirardim. Nihoyat bunday imkoniyat kutilmagan joydan keldi.

Gazetamizdagi qaysidir siyosiy masaladagi maqolalardan biri, men hozir qaysi maqola ekanligini unutilib

yuborganman, Assambleyadagilarga ma'qul kelmagan emish. Spikerning buyrug'i bilan akamni hibsga olib, ochiq sharmanda qilishgan va bir oyga qamab qo'yishgan. Menimcha, bir oylik qamoq jazosi akam o'z muallifini oshkor etmaganligi sababli berilgan. Meni ham kengash oldiga olib borib tekshirishdi. Mendan ular kutgan natija chiqmagach, tanbeh berish bilan kifoyalanib, qo'yib yuborishdi. Balki ular meni o'z xo'jayinining sirlarini saqlashga majbur shogird deb o'ylashgan bo'lishsa kerak.

Akam bilan oramizda kelishmovchiliklar bo'lsa ham, uning qamoqqa olinishidan juda norozi edim. Bu davrda gazeta ishlarini boshqarib turdim. Men hukumat mansabdorlariga bir necha zarbalar berdim va akam buni mamnunlik bilan qabul qildi. Boshqalar esa menga tanqid qilish va satirada yaxshi iqtidorga ega yosh yigitcha sifatida salbiy munosabatda bo'ldilar. Akam Vakillar palatasining «Jeyms Franklin «New England Courant» deb nomlangan gazetani nashr qilishni to'xtatsin» mazmundagi (juda ham g'alati) buyrug'i bilan birga ozod qilindi.


Bosmaxonamizda uning do'stlari to'planishdi, endi nima qilish lozimligi haqida maslahat qilishdi. Ba'zilar gazetaning nomini o'zgartirib, buyruq shartlarini chetlab o'tishni taklif qilishdi. Ammo akam bu yo'l noqulayliklar keltirib chiqarishini tushuntirdi. Nihoyat, bundan buyon gazetani Benjamin Franklin nomi bilan nashr etish yaxshiroq yo'l bo'ladi degan xulosaga kelindi. Akamning shogirdi uni nashr qilishni davom ettirganini ko'rgach, Assambleya senzura va ta'qibining oldini olishi lozim edi. Shu maqsadda mening eski shartnomamning orqa sahifasida ishdan butunlay bo'shatilganimni ko'rsatib, menga qaytarib

berishga qaror qilindi. Chunki zarur bo'lganda buni rasmiylarga ko'rsatishim mumkin edi. Ammo akam mening xizmatlarimdan foydalanishi uchun butun qolgan muddatga yangi shartnoma imzolashim lozim edi. Bu shartnoma sir tutilishi lozim bo'lib, juda nozik reja hisoblanardi. Shunga qaramay, uni darhol ijro etishga kirishdik. Gazeta bir necha oy davomida mening nomim ostida chiqishda davom etdi.

Oxir-oqibat, akam bilan o'rtamizda yangi kelishmovchilik paydo bo'ldi. Akam menga yangi shartnoma tuzishni talab qila olmaydi deb o'ylab, o'z erkinligimni himoya qilishga qaror qildim. Bu ustunlikdan foydalanish adolatdan emas edi. Shuning uchun qilgan ishimni hayotimdagi birinchi xatolardan biri deb hisoblayman. Ammo uning his-hayajoni tufayli bergan zarbalari ta'sirida bo'lganimda qilgan ishining adolatsizligi meni ko'p ham qiziqitirmas edi. Aslini olganda, akamning tabiati va tarbiyasi unchalik ham yomon emas edi. Balki mening o'zim jizzaki va janjalkash bo'lgandirman.

Men uni tark etayotganimni bilgach, bosmaxonalardan biriga ishga joylashib olmasligim uchun shahardagi har bir bosmaxonaga boribdi. Ularning xo'jayinlari bilan gaplashib olibdi va natijada ular meni ishga olishmadi. So'ng Nyu-Yorkka borishni o'yladim. Chunki u bosmaxona bor eng yaqin joy edi. Bu haqda mulohaza qilganimda, ko'proq Bostondan ketishga moyilligim borligini sezdim. Negaki, bu yerda hukmron partiya uchun allaqachon yoqimsiz odamga aylanib bo'lgandim. Qolaversa, akamning ishi borasida Assambleyaning o'zboshimchalik bilan chiqargan qarorlarini o'ylasam, Bostonda qolishim tez orada boshimga kulfatlar keltirishi tayinligini ang-

latardi. Boz ustiga, din haqidagi ehtiyotsizlik bilan aytgan oshkora mulohazalarim tufayli yaxshi odamlar menga kofir yoki dahriy deb dahshat bilan ishora qilishni boshlagan edilar. Men bu masalada bir qarorga keldim, ammo otam endi akam tomoniga o'tib olgan edi. Oshkora ketib qolishga urinsam, ular mening yo'limni to'sish uchun chora topishlari tayinligiga aqlim yetib turgandi. Shuning uchun do'stim Kollinz mening foydamga harakat qilishni o'z zimmasiga oldi. U Nyu-Yorkka boradigan bir yelkanli kema kapitani bilan meni, go'yoki yosh bir tanishini olib ketishga kelishdi. Shunday qilib, ba'zi kitoblarimni sotdim va ozgina pul jamg'ardim. Meni maxfiy tarzda kema bortiga olib chiqishdi. Yo'nalishimizga juda qo'l kelgan yaxshi shamol sharofati bilan uch kun ichida men, hali 17 yoshga to'lmagan yigitcha, uydan deyarli 300 milya uzoq bo'lgan Nyu-Yorkka yetib keldim. Ishga joylashish uchun hech qanday tavsiyanomam yoki birorta tanishim yo'q. Cho'ntagimda ozgina pul bor edi xolos.



### III

## FILADELFIYAGA KELISH

Dengizga bo'lgan ishtiyoqim bu vaqtga kelib, ancha yo'qolib bo'lgan edi, aks holda, men uni qondirgan bo'larmidim. Lekin bir kasbni egallaganman va o'zimni juda yaxshi ishchi deb o'ylar edim. Shuning uchun Pensilvaniyadagi birinchi bosmaxonani ochgan keksa janob Uilyam Bredfordning bosmaxonasiga o'z xizmatlarimni taklif etdim. U Pensilvaniyada Jorj Kitning asarlarini nashr etganligi uchun sodir bo'lgan janjal sababli bu yerdan ko'chib ketgandi. Ish ko'p emasligi, yetarlicha odamlari bo'lganligi sababli menga hech qanday ish bera olmasligini ma'lum qildi. Ammo u boshqa bir taklif berdi: «Yaqinda Filadelfiyadagi o'g'limning asosiy mutaxassisi Akvilla Rouz olamdan o'tdi. Agar u yerga borsang, aminmanki, seni ishga olishi mumkin». Filadelfiya yuz milya uzoqda edi. Men yelkanli bir kemaga chiqib, Amboyga yo'l oldim. Sandig'im va boshqa narsalarimni ortimdan dengiz bo'ylab olib borishlari uchun yuk kemasiga topshirdim.

Ko'rfazdan o'tayotganimizda qattiq shamol turdi va chirib ketgan yelkanlarimizni yirtib tashladi. Killga<sup>1</sup> kirishga yo'l bermadi va bizni Long Aylendga haydab bordi. Yo'lda bir mast gollandiyalik yo'lovchi palubadan dengizga quladi. U cho'kayotganda suvga egilib, jingalak sochini ushladim va uni tortib, yuqoriga chiqarib oldim. Yo'lovchi yana kemadagilar safiga qaytdi. Suvga tushib chiqqach,

---

<sup>1</sup> Kill van Kull – Staten Aylend orolini Nyu-Jersidan ajratib turadigan kanal.

u biroz hushyor tortdi va cho'ntagidan bir kitob chiqarib, uni quritmoqchi bo'ldi. Bu mening sevimli mualliflarimdan biri, Bunyanning golland tilida sifatli qog'ozga chiroyli qilib bosilgan va mis gravyuralari bilan bezatilgan, «Ziyoratchining sayohatlari» («Pilgrim's progress») kitobi edi. Bu kitobning asl nusxada yozilgan tilida bunday bezatilganini ilgari hech ko'rmagandim. O'shandan beri men bu asarning Yevropaning aksariyat tillariga tarjima qilinganligini ko'rdim va u boshqa kitoblarga qaraganda, ehtimol Injildan tashqari, eng ko'p o'qilgan deb o'ylayman. Vijdonli Jon hikoya qilish va dialogni (suhbatni) aralastirib qo'llagan men bilgan birinchi odam edi. U kitobning eng qiziqarli joylarida o'zini suhbatdoshlarga sherik sifatida kiritadi va ajib muloqotni taqdim etadi. Daniel Defo o'zining «Robinzon Kruzo», «Moll Flanders», «Diniy g'amxo'rlik», «Oilaviy o'qituvchi» va boshqa asarlarida bunga muvaffaqiyat bilan taqlid qilgan. Shuningdek, Richardson<sup>1</sup> o'zining «Pamela» va boshqa asarlarida ham xuddi shunday yo'ldan borgan.

Biz orolga yaqinlashganimizda, tosh qirg'oqqa ulkan to'lqinlar urilayotgani sababli u yerdan quruqlikka chiqishning imkoni yo'qligini angladik. Shunday qilib, biz langar tashladik va qirg'oqqa tomon burildik. Bir nechta odam qirg'oqqa kelib, bizga nimalardir deb baqirdi, biz ham ularga javob qaytardik. Ammo shamol shu qadar kuchli, qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlarning shovqini shunchalar ba-

---

<sup>1</sup> Samuel Richardson – ingliz romanchiligining otasi. «Pamela», «Klarisa Harlou» va «Ser Charlz Grandisonning tarixi», shuningdek, xatlar shaklidagi romanlarni yozgan.

land ediki, bir-birimizni tushuna olmasdik. Sohilda kanoelar turardi. Kanoelarni olib kelishni so'rab, ularga imo-ishoralar qildik va baqirdik. Ammo ular bizni yo tushunmadi, yo buni imkonsiz deb o'ylashdi. Shu tariqa ular ketib qolishdi va kech tusha boshladi. Bizda shamol susayguncha kutishdan boshqa chora yo'q edi. Bu orada, kema xo'jayini va men, imkoni bo'lsa, uxlashga harakat qildik. Shu tariqa, kema palubasining hali ham jiqqa ho'l golland yigit o'tirgan ost qismiga tiqilib kirdik. To'lqinlar kemamizning tepasidan suv sachratishda davom etardi va biz ham xuddi u kabi shalabbo bo'ldik. Shu tarzda tun bo'yi yotsak-da, deyarli dam olmadik. Ammo ertasi kuni shamol susaydi va biz kech tushmasdan Amboyga yetib borishga harakat qildik. Chunki dengizga chiqqanimizga o'ttiz soat bo'lgan, yegulik-ichgulik narsamiz yo'q (albatta, sifatsiz rom bor ediku-ya) va dengiz suvi sho'r edi.

Kechga borib, qattiq isitmalay boshladim va to'shakka yotib qoldim. Qaysi bir joyda sovuq suvni ko'p ichish isitmadan qutulishga yordam berishini o'qigandim va bu maslahatga quloq solib, suv ichdim. Tuni bilan jiqqa terlab chiqdim. Tongga borib, isitmadan qutuldim. Ko'rfazni kesib o'tgach, safarimni piyoda davom ettirdim. Berlingtongacha ellik milya piyoda yurdim. U yerda menga Filadelfiyaga olib boradigan kemani topishim lozimligini aytishdi.

Kuni bilan chelakdan quyganday yomg'ir yog'di. Men g'irt shalabbo bo'ldim va peshinga borib, o'ta toliqqanimni his qildim. Bir oddiy mehmonxonada to'xtab, tongga qadar o'sha yerda qoldim. Uydan chiqib ketmaganim yaxshi bo'larmidi, deb pushay-



mon qila boshladim. Tashqi ko'inishim, jussam shunday bir bechora holga kelgan ediki, atrofimdagilarning bergan savollaridan ular meni xo'jayinidan qochgan xizmatkor deb o'ylashayotganligini sezish qiyin emas edi. Bu shubha ostida hibsga olinishim xavfi borligini ham angladim. Shunga qaramay, ertasi kuni yo'limda davom etdim va kechqurun Berlingtondan sakkiz yoki o'n milya uzoqlikka, doktor Braun degan odamning mehmonxonasiga yetib bordim. Biroz yegulik olganimda, u men bilan suhbatga kirishdi. Ozgina kitob o'qiganimni bilib, menga nisbatan xushmuomala va do'stona munosabatga o'tdi. Bizning tanish-bilishligimiz u vafot etgunga qadar davom etdi. Menimcha, bu odam sayohatchi shifokor bo'lib, Angliyada bormagan biror shahri yoki Yevropada u bormagan biror mamlakat yo'q edi. Borgan joylarining har biri haqida batafsil ma'lumot bera olardi. Adabiyotdan ozgina ma'lumoti bor va farosatli, ammo uning qarashlarida dinsizlik

alomatlari bor edi. U bir necha yil o'tgach, Kotton Virgilyning satrlariga bildirgan munosabati kabi, Injilni masxaraomuz she'rlar orqali fosiqlik bilan bayon etishga tushdi. Bu bilan u ko'plab faktlarni juda kulgili tarzda bayon etgan va bu asar nashr etilgan chog'da zaif onglarga shikast yetkazishi turgan gap edi. Shukurki, u nashr etilmay qolib ketdi.

O'sha kecha men uning uyida yotdim va ertasi shanba kuni tongda Berlingtonga yetib bordim. Afsuski, muntazam qatnaydigan kemalar kelishimdan biroz oldin ketib qolibdi. Navbatdagi kema seshanba kuni yo'lga chiqar ekan. Shu sababli shaharga, keksa bir ayolning oldiga qaytdim. U kishidan shirinkulcha sotib olib, suv bilan yedim va onaxondan maslahat so'radim. U menga dengizda ketishga imkoniyat bo'lgunga qadar o'z uyida yashashni taklif qildi. Piyoda yuraverishdan charchagandim va taklifni qabul qildim. Mening nashriyot mutaxassisi ekanligimni bilgach, onaxon shaharda qolib, o'z ishimni ochishim lozimligini aytdi. Ammo u ishni boshlash uchun nimalardan qancha zaxira kerakligini bilmasdi-da. Onaxon juda mehmondo'st edi. Kechki ovqatda meni buqaning kalla-pochasidan pishirilgan ovqat bilan siyladi. Lekin men unga turli yeguliklarni taklif qilganimda, faqat bir piyola pivo ichdi xolos. Men esa seshanba kunini kutish fikrida sobit qoldim. Biroq kechki payt daryo bo'yida sayr qilib yurganimda bir kema o'tib qoldi. U o'zida bir necha odam bilan Filadelfiya tomon suzayotgan ekan. Ular meni o'z saflariga qabul qilishdi va shamol esmaganligi sababli butun yo'l davomida eshkak eshib borishdi. Yarim tun atrofida

hali shaharni ko'rmagan holda, yo'lovchilardan biri shahardan o'tib ketib qolgan bo'lsak kerak, deb bir nimalarnidir uqtirishga tushdi. Boshqa eshkak eshmayman, deb turib oldi. Boshqalar qayerda ekanligimizdan bexabar edilar. Qirg'oq tomon yurdik va daryo tarmog'iga kirib, eski bir to'siq oldidagi quruqlikka chiqdik. Oktyabr oyi tunida sovuq tushib borayotganligi uchun to'siqning yog'ochlarini olib, gulxan yoqdik. U yerda quyosh chiqquncha qoldik. Keyin odamlardan biri bu yerning Filadelfiyadan biroz yuqoriroq bo'lgan Kuper Krik (Cooper Creek) o'zani ekanligini, uni taniganini aytdi. Biz Filadelfiyani o'zandan chiqishimiz bilanoq ko'rdik va yakshanba kuni ertalab soat sakkiz-to'qqizlarda u yerga yetib bordik. Market Street ko'chasidagi pristanidan qirg'oqqa chiqdik.

Men safarimning ushbu tavsifiga batafsilroq to'xtaldim. O'sha shaharga birinchi kirishimni ham batafsil tasvirlayman. Bundan maqsadim – toki sen o'z xayolingda men qo'l urgan tasavvur qilib bo'lmas ishlarni keyinchalik bu shaharda erishgan maqomim bilan taqqoslay olgin. Men ish kiyimimda, ustboshlarim esa dengiz orqali yetib kelishi lozim edi. Yo'l davomida hamma narsam iflos bo'lib ketgan, cho'ntaklarim ko'ylak va paypoqlar bilan liq to'lgandi. Yashash uchun joy topishga na biror kishini tanir, na biror joyni bilardim. Meni safardagi eshkak eshish holdan toydirgandi. Dam olishni xohlardim. Tag'in o'lguday ochiqqandim. Butun boyligim bir golland dollari va bir shilling<sup>1</sup> atrofidagi mis tangalar edi xolos. Mis tangalarni meni olib kelgan kema

---

<sup>1</sup> Shilling – 1 funt sterlingning 1/20 ga teng tanga pul.

egalariga berdim. Ular eshkak eshganimni vaj qilib, avval pulni olishmadi, ammo men ularni pul olishga ko'ndirdim. Ba'zan odam puli ko'p bo'lgandagiga qaraganda, puli juda ozligida saxovatliroq bo'ladi. Balki buning sababi odamlar puli yo'q deb o'ylashmasin, degan andisha bo'lsa kerak.

Keyin ko'chaga chiqdim. Bozor binosiga yetguncha atrofga tikilib borib, qo'lida non bor bir bolani ko'rib qoldim. Men nonni qo'shib, ko'p ovqatlar pishirganman. Boladan nonni qayerdan olganini bilgach, darhol u ko'rsatgan tomonga – Ikkinchi ko'chadagi novvoy do'koniga bordim. Do'kondan biz Bostonda yeydigan pechenyedan so'radim. Filadelfiyada bunday pechenye pishirishmas ekan. Keyin men uch penni<sup>1</sup>lik non so'radim va ular bunaqa non bo'lmasligini aytishdi. Shu tariqa, pulning farqini, qaysi arzon, qaysi qimmatligi va nonlarning nomlaridan bexabar holda uch penniga yarasha har qanday non berishni so'radim. Shunga ko'ra, u uchta katta semiz baton<sup>2</sup> berdi. Batonning kattaligi meni hayron qildi. Lekin uni oldim va cho'ntaklarimda joy yo'qligidan, har bir qo'ltig'imga bittadan baton solib, uchinchisini tishlab yurib ketdim. Shunday qilib, Market ko'chasi bo'ylab, To'rtinchi ko'chagacha bordim. U yerda bo'lajak rafiqamning otasi janob Ridning eshigi oldidan o'tdim. Eshik oldida turgan qiz meni ko'rdi va uning yuzida mening eng noqulay, kulgili ko'rinishda ekanligim haqidagi taassurot aks etgani yaqqol sezildi. U haq edi. Keyin men burilib, Chestnat ko'chasi bo'ylab ketdim va Uolnat

---

<sup>1</sup> Penni – 1 funt sterlingning 1/100 ga teng tanga pul.

<sup>2</sup> Baton – cho'zinchoq oq bulka non.

ko'chasining bir qismidan o'tdim. Yo'l bo'ylab baton yeb borardim va aylanib yurib, yana Market ko'chasidagi pristan, o'zim kelgan kema qarshisidan chiqib qolibman. Bir qultum daryo suvini ichish ilinjida kema tomon bordim. Batonlarning bittasi bilan to'yib qolibman. Qolgan ikkita batonni o'zim bilan daryo bo'ylab kemada kelgan bolali ayolga berdim. Ular safarni davom ettirish niyatida turishgan ekan.

Shu tariqa tamaddi qilib, tetiklanib oldim va yana ko'cha bo'ylab yurdim. Bu vaqtga kelib, ko'chada toza kiyingan, hammasi bir tomonga ketayotgan odamlar ko'p edi. Men ularga qo'shildim va odamlar oqimi meni kvakerlarning<sup>1</sup> bozor yaqinidagi katta majlislar uyiga olib bordi. Men ular orasiga joylashdim. Biroz atrofga alanglab, hech kim hech qanday nutq so'zlamayotganligi, yo'lda eshkak eshishdan charchab, juda uyqusiraganim, o'tgan kechada dam olmaganligim tufayli tez orada uxlab qolibman. O'ziam uchrashuv tarqalgunga qadar uxlabman va shunda bir yaxshi odam meni uyg'otdi. Bu men Filadelfiyada kirgan yoki uxlagan birinchi bino edi.

Yana daryo tomon ketayotganimda, odamlarning yuzlariga qarab borarkanman, kvakerlarga mansub yosh bir yigitni uchratib qoldim. Chehrasi menga ma'qul keldi. Unga murojaat qilib, mehmon odam qayerda yashashga joy topa olishi mumkinligini so'radim. O'shanda biz uch dengizchi (three marines) belgisi yonida edik.

– Mana, – dedi u, – mehmonlarni xursand qiladigan joy, lekin bu uy odamlar orasida hurmatga loyiq emas. Men bilan yuring, sizga yaxshiroq joyni

---

<sup>1</sup> Kvaker – baptistlarning diniy oqimlaridan biri.

ko'rsataman. U meni Uoltr ko'chasidagi Krokot Billet qovoqxonasiga olib keldi. Bu yerda menga tushlik berishdi. Ovqatni tanovul qilib turganimda bir necha ayyor savollar berishdi. Aftidan, yosh yigitcha bo'lganim va ko'rinishimdan meni qandaydir bir qochoq deb o'ylash mumkin edi.

Tushlikdan so'ng meni yana uyqu bosdi va xonadagi to'shakni ko'rsatishganida yechinmasdan yotdim. Kechqurun soat oltigacha uxladim. Kechki ovqatga chaqirishdi, so'ng yana juda erta yotdim va ertasi kuni ertalabgacha qotib uxladim. Keyin o'zimni iloji boricha tozalab, tartibga soldim va matbaachi Endryu Bredfordning uyiga tomon ketdim. Bu korxonada o'zim Nyu-Yorkda ko'rgan otasini uchratdim. U kishi otda yurib, Filadelfiyaga mendan oldin yetib kelgan ekan. U meni o'g'li bilan tanishtirdi. O'g'li meni iliqlik bilan kutib oldi, nonushta berdi. Ammo unga hozir yordamchi kerak emasligini aytdi. Chunki yaqinda bir odamni ishga olgan ekan. Ammo shaharda yaqinda Keymer ismli odam tashkil etgan yana bir bosmaxona borligi va u meni ishga olishi mumkinligini aytdi. Agar Keymer ish bermasa, men uning uyiga kelib bimalol yashashim, to'liq ish joyim paydo bo'lgunga qadar menga ba'zida biror topshiriq berib turishini ham aytdi.

Keksa janob yangi bosmaxonaga men bilan birga borishini aytdi. Keymerni topganimizda: «Qo'shni, – dedi Bredford, – oldingga sening kasbingni yaxshi biladigan bir yigitni olib keldim. Balki senga bunday odam kerakdir». U menga bir nechta savol berdi, qanday ishlashimni ko'rish uchun qo'limga harf terish tayoqchasini berdi. Ko'rsatdim. So'ng gar-

chi hozirda ishning o'zi bo'lmasa-da, u meni tez orada ishga olishini aytdi. O'zi ilgari hech qachon ko'rmagan keksa Bredfordni shahardagi niyati yaxshi odamlardan biri deb hisoblab, u bilan o'zining hozirgi ishlari va istiqbollari haqida suhbat boshladi. Bredford esa boshqa bir matbaachining otasi ekanligini oshkor qilmasdan, Keymer bu sohaning katta qismini o'z qo'lga olishi haqidagi gaplariga javoban unga ayyor savollar berib, turli shubhalarini aytdi. Shu tariqa, u Keymerni sohaning qancha qismini qo'lga olishi va buni qay yo'l bilan amalga oshirishi mumkinligi haqidagi fikrlarini bayon qilishga majbur qildi. Ularing yonida turgan holda, hamma gapni eshitdim va ulardan biri safsataboz makkor keksa odam, ikkinchisi esa shunchaki bir tajribasiz yosh mutaxassis ekanligini darhol tushunib yetdim. Bredford meni Keymerning oldiga tashlab ketdi. Unga bu odam kim ekanligini aytganimda juda hayron bo'ldi.

Keymerning bosmaxonasi uning eski shalog'i chiqqan bosma dastgohi va yana ancha yeyilib ketgan ingliz harflari to'plamidan iborat ekanligini borib ko'rdim. O'sha kuni u Akvilla Rouzning xotirasiga mungli bir elegiya (marsiya) matnini terayotgan edi. Unga ko'ra, Akvilla Rouz juda aqlli, namunali xulq-atvorli, shaharda katta hurmatga ega, Assambleyaning xodimi va juda yaxshi shoir yigit bo'lgan ekan. Keymer ham she'r yozar ekan, ammo bunga jiddiy e'tibor bermaskan. Uni she'r yozadigan odam deb bo'lmas edi, chunki uning usuli she'rlarni bevosita miyasidagi harflarda terish edi. Ya'ni unda bir juft harflar to'plamidan boshqa hech narsa yo'q

bo'lgani holda qo'lida qo'lyozmaning o'zi ham mavjud emas edi. Elegiyaning matni esa, barcha harflarni qo'llashni talab qilishi mumkin bo'lgan bir vaqtda, unga hech kim yordam bera olmaydigan holga kelgandi. Men uning bosma dastgohini (u hali buni ishlatmagan va u haqda hech narsani tushunmasa ham) ishlashga yaroqli qilib qo'yishga harakat qildim. U Rouz uchun she'rni tayyor qilgan zahoti kelib, nashr qilib berishga va'da bergan holda, Bredfordning uyiga qaytdim. U menga hozircha bajarish uchun kichik bir ish berganligi uchun. Uning uyida qoldim va o'sha yerda ovqatlanadigan bo'ldim. Bir necha kundan keyin Keymer elegiyani chop etish uchun menga odam jo'natdi. Unda endi yana bir juft harflar to'plami bor bo'lib,<sup>1</sup> qayta chop etish uchun pamflet tayyor edi. U mendan bu matn ustida ishlashimni so'radi.

Shahardagi bu ikki matbaachining malakasi juda pastligi ma'lum bo'ldi. Bredford hech qachon bu ishga maxsus o'qib-o'rganmagan va o'ta besavod ekan. Ilmdan sal xabari bor Keymer esa matbaachilik ishidan umuman bexabar bo'lib, faqat harf terishni bilar ekan xolos. U fransuz voizlaridan<sup>2</sup> biri bo'lib, ularning his-hayajonga to'la tashviqotlariga mos tarzda amal qilishi mumkin edi. Bu vaqtda u biron bir dinni tanlab ulgurmagan ekan. Bir vaqtning o'zida hammasiga oz-oz ishongan. Dunyo ish-

---

<sup>1</sup> Bosma harflarni ushlab turadigan ramkalar ikki bo'limda bo'ladi: yuqoridagisi bosh harflar, pastdagisi kichik harflar uchun.

<sup>2</sup> Lyudovik XIVning ta'qiblari ostida fanatlarga aylangan Fransiya janubidagi protestantlar. O'zlarida bashorat qilish iqtidori bor deb o'ylashgan. «Soliqlar yo'q bo'lsin» va «Vijdon erkinligi» fikrlari ularning shiorlari bo'lgan.

laridan mutlaqo bexabar. Keyinchalik guvohi bo'ldimki, xulq-atvorida muttahamlik ko'p ekan. Men u bilan ishlayotgan paytda unga Bredfordning uyida yashashim yoqmadi. Albatta, uning uyi bor, ammo unda hech qanday mebel va jihozlar yo'q ekan. Ya'ni u menga joy bera olmas ekan. Menga o'zi yashaydigan uyning egasi janob Ridning (u kishi haqida avvalroq aytib o'tgan edim) turar joy olib berdi. Bu vaqtga kelib, sandig'im va kiyimlarim yetib kelgandi. Endi janob Ridning qizi oldida ancha salobatli ko'rinishda yurish imkonim bor edi. Chunki bu qiz meni birinchi marta ko'chada baton yeb ketayotganimda ko'rganida ancha bechora holda edim-da.

Shahar yoshlari orasida o'qishni yaxshi ko'radiganlar bilan tanishishni boshladim. Ular bilan kechqurunlarni juda maroqli o'tkazardim. Mehnatkashligim va tejamkorligim tufayli biroz pul topib, odatdagidek yashashni boshladim. Bostonni imkoni boricha unutdim va u yerdagilar mening qayerda yashayotganligimni bilishlarini xohlamasdim. Albatta, do'stim va sirdoshim Kollinz bundan mustasno edi. Unga xatlar yozardim va u sirimni birovga oshkor qilmasdi. Oxir-oqibat, meni u yerga o'zim istaganimdan oldinroq qaytishimga majbur qilgan bir hodisa yuz berdi. Boston va Delaver orasida qatnaydigan bir qayiq (shlyupka)ning egasi Robert Holms ismli pochcham bor edi. Filadelfiyadan qirq milya naridagi Nyukaslgga kelganida mening qayerdaligimni odamlardan eshitibdi va menga xat yozibdi. Xatda Bostondan to'satdan ketib qolganimdan do'stlarim xavotirda ekanligi, ularning menga nisba-

tan niyatlari xolis ekanligini yozibdi. Agar qaytsam, ular hamma narsa mening xohishimcha bo'lishiga rozi ekanliklarini va pochcham ham chin ko'ngildan mening qaytishimni iltimos qilishini yozibdi. Men uning xatiga javob yozdim, unga maslahati uchun minnatdorchilik bildirdim. O'z navbatida, Bostonni tark etishim sabablarini to'liq bayon qildim. Xatning ohang va uslubini bu qarorim u o'ylaganidek noto'g'ri bo'lmaganiga ishontirish maqsadida maxsus ishlab chiqdim.

#### IV

### BOSTONGA BIRINCHI TASHRIF

O'sha paytda mintaqa gubernatori ser Uilyam Kit Nyukaslda, mening xatim esa kapitan Holmsning qo'liga yetib borganida, gubernator u bilan birga ekan. U gubernator bilan men haqimda gaplashgan va unga xatimni ko'rsatgan. Gubernator uni o'qib chiqqan va mening yoshimni eshitib, hayron qolgan. Gubernator meni kelajagi bor bolaga o'xshaydi, uni qo'llash kerak, debdi. Uning fikricha, Filadelfiyadagi matbaachilar bo'lmag'ur odamlar ekan. Men u yerga borib, ish boshlasam, muvaffaqiyatga erishishim shubhasiz emish. O'z navbatida, u menga davlatdan ish topib berishi va o'zimga esa har qanday yordam lozim bo'lsa, ko'rsatishini aytibdi. Bu gaplarni keyinroq pochcham aytib berdi. Ungacha bundan bexabar edim. Bir kuni, Keymer ikkalamiz deraza oldida ishlab turganimizda, bashang kiyingan gubernator va yana bir janob (keyinchalik nyukasllik polkovnik French ekanligini bilib oldik) ko'chani kesib o'tib, to'g'ri biz tur-

gan binoga kelishdi. Biz ularning eshik oldida o'zaro gaplashib turganlarini ko'rdik.

Meni ko'rishga kelishganmikan degan fikrda Keymer darhol ularning oldiga yugurib bordi. Ammo gubernator undan meni so'radi va o'zi tepaga chiqib keldi. Men uchun umuman noodatiy bo'lgan o'ta mulozamat va odob bilan haqimda juda ko'p maqtov so'zlarini aytdi. Men bilan tanishish niyati borligini aytdi. Hazilomuz tarzda meni bu yerlarga kelgan zahoti o'zim borib tanishmaganligim uchun tanbeh berdi. So'ng o'zi bilan bir qovoqxonaga borishga taklif qildi. Chunki polkovnik French ikkalasi u yerda beqiyos madera vinosini tatib ko'rmoqchi bo'lib borishayotgan ekan. Men bundan umuman hayron bo'lmadim, Keymer esa zaharlangan cho'chqaday baqrayib qolgan edi.<sup>1</sup> Shu tariqa, men gubernator va polkovnik French bilan Uchinchi ko'cha burchagidagi qovoqxonaga bordim. Madera ichib o'tirib, u mening ishimni yo'lga qo'yishni taklif qildi va muvaffaqiyatga erishishning ehtimoliy variantlari haqida gapirdi. U ham, polkovnik French ham har ikki hukumatda davlatga bog'liq ishlarni olishimga, haqiqatan ham, qiziqqanlari va o'z ta'sirlari doirasida yordam berishlariga ishontirishdi. Otam bu borada menga yordam berishiga shubham borligi haqida so'z yuritganimda, ser Uilyam otamga meni qo'llash haqida xat yozib berishini, unda istiqbol-larni bayon etishini va otamni ko'ndirishga ishonchi komilligini aytdi. Shunday qilib, Bostonga birinchi kemada qaytishim haqida qaror qabul qilindi. Bos-


---

<sup>1</sup> Templ Franklin bu o'ziga xos iborani qo'pol deb hisoblagan va «hayrat bilan tikilib» iborasi bilan almashtirgan.

tonga qo'limda gubernatorning men haqimda o'z otam nomiga yozgan tavsiyanomasi bilan boradigan bo'ldim. Kema jo'nashi kunigacha buni sir saqlashga kelishildi. Men odatdagidek Keymer bilan ishlashni davom ettirdim. Gubernator vaqti-vaqti bilan o'zi bilan birga ovqatlanish uchun chaqirib, odam yuborardi. Men buni juda katta hurmat belgisi deb hisoblar edim. Chunki u inson men bilan suhbatda tasavvurga sig'maydigan darajada o'ta muloyim, yaqin tanishday do'stona munosabatda bo'lardi.

1724-yil aprel oyining oxirida kichik bir kema Bostonga boradigan bo'ldi. Men Keymerga do'stlarimni ko'rib kelaman, degan bahona bilan ishdan javob oldim. Gubernator menga uzundan-uzoq xat berdi. Unda otamga men haqimda ko'p maqtovlarni yozibdi. Filadelfiyada tashkil etishim lozim bo'lgan loyiha mening buyuk kelajagimni ta'minlashini aytib, juda qattiq tavsiya beribdi. Ko'rfazda ketayotganimizda sayoz bir joyda toshlarga urilib ketib, kemaga suv kira boshladi. Dengiz notinch edi va suvni nasos bilan tinimsiz chiqarib tashlashga majbur bo'ldik. Men ham hamma qatori ishladim. Shukurki, Bostonga taxminan ikki hafta ichida yetib keldik. Shahardan ketganimga yetti oy bo'lgandi va do'stlarim men haqimda hech narsa eshitmagan ekanlar. Chunki pochcham Holms hali qaytib kelishga ulgurmagan va men haqimda ularga yozmagan ekan. Mening kutilmaganda paydo bo'lishim butun oilamizni hayron qoldirdi. Nima bo'lsa-da, hammalari meni ko'rib xursand bo'lishdi. Akamdan boshqa barcha meni iliq kutib oldi. Men uni ko'rgani bosmaxonasiga bordim. Uning qo'l ostida ishlaganimdagiga qaraganda ancha yaxshiroq ki-

yingan edim. Egnimda yumshoq, yap-yangi kostyum, qo'limda soat va cho'ntagimda besh funt sterlingga yaqin kumush tanga bor edi. U menga samimiy munosabat ko'rsatmadi. Boshdan oyog'imgacha qarab chiqdi va indamay o'z ishlari bilan ovora bo'ldi.



Bosmaxonadagi shogirdlar qayerlarda bo'lganimni, u yerlar qanday joylar ekanligini va yoqqan-yoqmag-anligini so'rashdi. Men Filadelfiyani juda maqtadim. U yerda o'tkazgan baxtli hayotimni so'zlab berdim, albatta, qaytib borish niyatim qat'iyligini ham aytdim. Ulardan biri u yerlarda qanday pul muomalada ekanligini so'rganida cho'ntagimdan bir hovuch kumush tanga chiqarib ko'rsatdim. Bu ular uchun qutida kutilmagan o'yin qiladigan qo'g'irchoq o'yiniday tuyuldi.<sup>1</sup> Bostonda qog'oz pullar ishlatilishi tufayli, shogirdlar

<sup>1</sup> Qutida ko'rsatiladigan, harakatlanuvchi qo'g'irchoq o'yinchoq.

tanga pulga o'rganishmagan edi.<sup>1</sup> So'ng men ularga soatimni ko'rishga ruxsat berish imkoniyatidan foydalandim. Nihoyat (akam hali ham qovog'i solingan va xafa), men ularning har biriga nimadir ichishi uchun bir pesodan<sup>2</sup> berdim va chiqib ketdim. Mening bu tashrifim akamni juda xafa qildi. Chunki onam bir muncha vaqt o'tgach, u bilan yarashish va birgalikda yaxshi munosabatda bo'lishimiz istagi hamda kelajak uchun aka-uka bo'lib yashashimiz haqida gapirdi. Men uni o'z qo'l ostidagi odamlar oldida shunday qattiq haqorat qilgan ekanmanki, buni hech qachon unuta olmasligi yoki kechira olmasligini aytibdi. Biroq bu borada akam nohaq edi.

Otam gubernatorning xatini yaqqol ayon hayrat bilan qabul qildi. Ammo bir necha kun xat haqida menga hech nima demadi. Kapitan Holms qaytib kelganda otam xatni unga ko'rsatdi. Undan Kitni tanish-tanimasligini va u qanday odam ekanligini so'radi. Bunga, uning fikriga ko'ra, balog'atga yetishiga hali uch yil bor yosh bolani jiddiy ish boshlashga undash oqilona ish emasligini qo'shib qo'ydi. Holms loyiha foydasiga nima qila olishini aytdi. Ammo otam bu ishning noto'g'ri ekanligi haqidagi fikrida sobit edi va suhbat oxirida uni ochiq rad etdi. Keyin u ser Uilyamga norasmiy xat yozib, menga juda mehribonlik bilan taklif qilgan homiyligi uchun minnatdorchilik bildirdi. Ammo menga yordam berishdan bosh tortishini tushuntirdi. Uning fikriga

---

<sup>1</sup> Koloniyalarda tanga zarbxonalari bo'lmagan, shuning uchun metall tanga pullar xorijda zarb qilingan. Ular, hatto kichik qiymatli tangalar ko'rinishida ham Amerikada katta miqdorda bosib chiqariladigan qog'oz pullar bilan deyarli bir xil muomalada bo'lgan.

<sup>2</sup> Bizning dollarimizga teng Ispaniya dollari.

ko'ra, menga bunday o'ta muhim biznesning boshqaruvini topshirishi uchun hali juda yosh ekanman va bunday ishga tayyorlash juda qimmat turar ekan.

Pochta bo'limida xodim bo'lib ishlaydigan do'stim va sherigim Kollinz men topgan yangi joy haqida gapirib berganimda xursand bo'ldi. U yerga borishga qaror qildi. Men otamning qarorini kutib yurgan vaqtda u mendan oldin Rod-Aylendga quruqlik bo'ylab yo'l oldi. O'zining matematika va falsafa kitoblarining yaxshi to'plamini qoldirdi. Uni o'zim bilan Nyu-Yorkka olib ketadigan bo'ldim. Kollinz meni Nyu-Yorkda kutib olishini aytdi.

Otam, ser Uilyamning taklifini ma'qullamagan bo'lsa-da, men o'zim yashagan joyda yuqori martabali odamdan ulkan baho, juda qisqa vaqt ichida mehnatsevarlik va ehtiyotkorlik bilan o'zimga juda bashang kiyimlar olishga muvaffaq bo'lganimdan mamnun edi. Shuning uchun, akam bilan oramizda yarashish va inoqlikning imkoni yoqligini ko'rib, Filadelfiyaga qaytib ketishimga rozilik berdi. U yerdagi odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ommaning hurmatini qozonishga urinish, odamlarni qoralash va tuhmat qilishdan saqlanishni maslahat berdi. Chunki bunga mening moyilligim bor deb o'ylar ekan. Otam tinimsiz mehnat qilsam va oqilona tejamkor bo'lsam yigirma bir yoshga to'lganimda o'z hayotimni yo'lga qo'yish uchun yetarli pul to'play olishim mumkinligini aytdi. Shu maqsadga yaqin borsam, qolgan ishlarda menga o'zi yordam berishini tushuntirdi. Bu xayrixohlik ota-onamning menga cheksiz muhabbati sifatida bergan kichik sovg'alardan tashqari, o'zim bilan olib ketadigan yagona

tuhfa bo'ldi. So'ng Nyu-Yorkka yo'l oldim. Bu safar ota-onamning ijozati va duosini olib ketdim.

Shlyupkadan Rod-Aylenddagi Nyuportda qirg'oqqa tushdim. Akam Jonni borib ko'rdim. U uylangan va bu yerda bir necha yillardan beri yashab kelayotgan edi. Jon meni juda xursand qabul qildi, chunki doim meni yaxshi ko'rardi. Pensilvaniyada uning do'stlaridan biri, Vernon degani unga o'ttiz besh funt pul berishi lozim ekan. Akam bu pulni Vernondan olib, kerakli ko'rsatmalar berguniga qadar o'zimda saqlab turishimni so'radi. Tartibga ko'ra, u menga yozma topshiriq berdi. Bu ish keyinchalik menga katta noqulaylik tug'dirdi.

Biz Nyuportda Nyu-Yorkka boradigan bir nechta yo'lovchilarni kemaga oldik. Ular orasida birga sayr qilayotgan ikkita yosh ayol va o'z xizmatkor ayollari bilan birga o'ta xomush, aqlli, matrona<sup>1</sup>ga o'xshash kvaker ayol bor edi. Men bu xonimga bir necha marta kichik xizmatlarni bajonidil ko'rsatdim. U kishi bundan ta'sirlandi va men haqimda ma'lum darajada yaxshi fikrga bordi, deb o'ylayman. Shu sababli, men haligi ikki yosh juvon bilan yaqindan tanish bo'layotganimni va ular bunga qarshi emasliklarini kuzatibdi. Shuning uchun kvaker xonim meni chetga olib chiqib bunday dedi: «Yigitcha, men sizdan xavotirdaman, chunki yoningizda biror do'stingiz yo'q. Dunyoning ishlarida tajribangiz yo'q va yoshlar duch keladigan tuzoqlardan bexabar ekansiz. Bu juvonlar juda yomon ayollar, buni ularing qiladigan hamma ish-amallaridan ko'rib tu-

---

<sup>1</sup> Matrona – qadimgi Rimda hurmatga sazovor bo'lgan ayol, oila boshlig'i.

ribman. Mening himoyamga o'tmasangiz, ular sizga katta halokat keltiradi. Ular siz uchun begona ayollar. Shuning uchun sizga yaxshilik tilab qilgan do'stona xavotirim sababli maslahatimga quloq soling va bu ayollar bilan aloqalarga kirishmang». Men kvaker xonim singari ular haqida bunday yomon fikrga bormagandim. U kishi o'zi kuzatgan va eshitgan ba'zi narsalarni aytib o'tdi. Men esa bu holatlarni e'tibordan chetda qoldirgan ekanman. Ammo xonim meni o'zining haqligiga ishontirdi. Men unga g'amxo'rona maslahatlari uchun minnatdorchilik bildirdim va ularga amal qilishga va'da berdim. Nyu-Yorkka kelganimizda, ular menga qayerda yashashlarini aytishdi va meni ularni borib ko'rishga taklif qilishdi. Lekin men bu ishni qilmadim va to'g'ri qilgan ekanman. Ertasi kuni kapitan kumush qoshiq va boshqa narsalar yo'qolganini e'lon qildi. Narsalarni uning kayutasidan olib chiqib ketishgan ekan. Bu ishni o'sha ikki firibgar ayol qilganini bilganimiz uchun kapitan ularning yashash joyini tintuv qilishga qaror oldi. O'g'irlangan buyumlar topildi va o'g'rilar jazolandi. Bir vaqtlar kemada o'tayotganda urilib ketgan suv ostidagi qoyani bu safar chetlab o'tishga muvaffaq bo'lgan edik. Bu holda o'sha ayollarni chetlab o'tganim undanda muhimroq bo'ldi, deb o'yladim.

Nyu-Yorkda mendan bir muncha vaqt oldin kelgan do'stim Kollinzni topdim. Biz bolaligimizdan yaqin edik va ba'zi kitoblarni birga o'qigan edik. Ammo unda o'qish va ta'lim olish uchun ko'proq vaqti bo'lganligi sababli ustunligi ham bor edi. Boz ustiga, unda matematikani o'rganishda katta iqtidor

bor edi. Bu fanda u mendan juda ilgari lab ketgandi. Bostonda yashaganimda suhbat uchun bo'sh vaqtimning ko'p qismini Kollinz bilan o'tkazganman. U hushyor va mehnatsevar yigit bo'lib ulg'aymoqda edi. Savodxonligi uchun bir necha ruhoniylar va boshqa janoblar uni juda hurmat qilishar hamda hayotda yaxshi insonga aylanishining ehtimoli borday ko'rinar edi. Ammo mening yo'qligimda, u brendi ichishga odat qilibdi. Uning o'zi menga boshqalardan eshitgan gaplarimni aytib berdi. Nyu-Yorkka kelganidan beri har kuni mast va o'zini juda yomon tutgan ekan. U qimor ham o'ynar ekan, bor pulini yutqizib qo'yibdi. Men uning yashash joyi uchun ijara pulini, Filadelfiyaga borish va kelish xarajatlarini to'lashga majbur bo'ldim. Bu men uchun o'ta noqulaylik tug'dirdi.

Nyu-Yorkning o'sha paytdagi gubernatori Burnet (yepiskop Burnetning o'g'li) kapitandan uning yo'lovchilaridan biri bo'lgan yigitning juda ko'p kitoblari borligini eshitib, meni u bilan uchrashish uchun olib kelishini xohlabdi. Men uning kelishini kutib turdim. Kollinzni o'zim bilan olib ketsam ham bo'lar edi, lekin u hushyor emas edi. Gubernator menga katta mulozamat bilan munosabatda bo'ldi, juda katta kutubxonasini ko'rsatdi. Biz kitoblar va mualliflar haqida yaxshigina suhbatlashib oldik. Bu menga e'tibor berib hurmat ko'rsatgan ikkinchi gubernator edi va men kabi kambag'al bola uchun bu juda ma'qul edi.

Biz Filadelfiyaga yo'l oldik. Xayriyatki, yo'lda Vernondan pulni olgan ekanman, chunki bu pul bo'lmaganda biz sayohatimizni tugata olmasligimiz mumkin edi. Kollinz qanaqadir buxgalterlik idora-

sigga ishga joylashmoqchi bo'ldi. Ammo ular uning nafas olishidan yoki o'zini tutishidan mastligini bilib qolishibdi. Qo'lida turli tavsiiyanomalari bo'lgani bilan uning hech bir arizasi qabul qilinmadi. Ammo u men yashagan joyda mening hisobimga yashash va ovqatlanishni davom ettirdi. Vernondan pul olganimni bilar, ishga joylashgan zahoti qaytarishni va'da qilib, mendan tinimsiz qarz olar edi. Oxir-oqibat, olgan qarzlari shuncha ko'payib ketdiki, Vernon olingan pulni qaytarishni talab qilsa, nima qilaman ekan, deb o'ylanib, xafa bo'ldim.

Kollinz ichishda davom etdi va bu masalada ikkalamiz janjallashib ham qolar edik. Chunki ozgina ichgach jizzaki bo'lib qolar edi. Birda boshqa yigitlar bilan Delaverga eshkakli qayiqda borayotganimizda, u eshkak eshishdan bosh tortdi.

– Men qaytishda eshkak eshaman, – dedi u.  
– Seni olib ketmaymiz, – dedim men.  
– Majbursizlar, aks holda tuni bilan suv ustida turib qolasizlar. Yana o'zlaring bilasizlar, – dedi u.  
Boshqalar:

– Kelinglar, eshkaklarni eshaylik. Nima farqi bor endi? – deyishdi. Ammo uning bu qiligi mening sabr kosamni to'ldirdi va bunga qarshi turishda davom etdim. Shunda u meni eshkak eshishga majbur qilish yoki suvga tashlab yuborishga qasam ichdi. O'rindiqlarni bosib, men tomonga keldi va musht tushirdi. Men bir zumda qo'limni uning oyoqlari orasiga tiqdim va ko'tarilib, uni boshi bilan suvga otib yubordim. Men yaxshigina suza olishini bilardim va u haqda xavotirga tushib o'tirmadim. U suv yuzasiga chiqib, qayiqqa osilib olishga ulgurmasdan eshkaklarni shid-

datli eshganча uning qo'llari yetmaydigan masofaga jildik. Keyinroq, qayiqqa sal yaqinlashganida, sirpanib tushib ketishi uchun eshkaklarni uch-to'rt marta qattiq eshdik va undan eshkak eshish-eshmasligini so'radik. U g'azabdan o'lishga ham tayyor edi va o'jarlik bilan eshkak eshishga va'da bermadi. Biroq uning nihoyat charchay boshlaganini ko'rib, chiqarib oldik va kechqurun uni shalabbo holatda uyiga olib keldik. Shundan keyin ikki og'iz ham tuzuk gaplashmay yurdik. Bir kuni Barbadosda qaysi bir janobning bolalari uchun o'qituvchi izlab yurgan Vest-Indiya kompaniyasi kapitanlaridan biri u bilan uchrashibdi. Kollinzni o'zi bilan birga olib ketishga rozi bo'libdi. O'shanda u o'z ishiga to'lanadigan pul bilan olgan qarzlarni uzishga va'da berib, mening oldimdan ketdi. Ammo undan bir marta ham xabar kelmadi.

Vernondan olgan pulni bunday yo'q qilish hayotimdagi eng katta xatolardan biri bo'ldi. Bu voqea otamning muhim bir ishni boshqarish uchun juda yosh ekanligim haqidagi xulosasi ayni haqiqat ekanligini isbot qildi. Ammo otamning xatini o'qib chiqib, ser Uilyam u o'ta ehtiyotkor ekanligini aytdi. Odamlar orasida katta farq bor, ba'zilar ko'p yillar tajriba orttirib ham sog'lom aql topmaydilar. Yoki aksincha, hamma yoshlarda sog'lom aql yo'q, deyish ham noo'rin, debdi u. So'ng: «Xo'sh, shu kungacha otangiz ishni boshlashga yordam bermabdimi, demak, o'zim bu ishni qilaman. Menga Angliyadan olib kelinishi lozim bo'lgan narsalarning ro'yxatini tuzib bering. Ularni olib kelishga odam yuboraman, bu pullarni qachon imkon topsangiz qaytarasiz. Bu yerda juda yaxshi bosmaxona qurishga qat'iy qaror qilganman.

Aminmanki, sizning ishlaringiz yurishib ketadi», dedi u. U ayni soʻzlarni shunday bir samimiylik bilan aytdiki, uning niyatlariga zarracha shubha qilmadim. Mening shu paytgacha Filadelfiyada oʻz ishimni tashkil etish rejam maxfiy va bu hali ham sirligicha turardi. Bu ishda gubernatorga bogʻliq boʻlib qolganimni u odamni yaxshi bilgan doʻstlarimdan birortasi bilganida edi, bu odamga ishonmaslikni maslahat bergan boʻlardi. Keyinchalik menga uning vaʼdalar berishda juda saxiy, ammo ularni hech qachon bajarmaydigan odam ekanligini aytib berishgandi. Undan oʻzim iltimos qilmaganligim sababli, bunday saxovatli takliflarini nega samimiy emas deb oʻylashim mumki edi? Men uni dunyodagi eng yaxshi odamlardan biri deb hisoblar edim.

Men unga kichik bir bosmaxona uchun zarur boʻlgan narsalarning roʻyxatini berdim. Mening hisoblarimga koʻra, bunga taxminan jami yuz funt sterling kerak edi. Roʻyxat unga maʼqul keldi. Ammo u:

– Shaxsan oʻzingiz Londonga borib bosma harf toʻplamlarini tanlashingiz va hamma narsa bir-biriga mos ekanligiga ishonch hosil qilishingiz oʻrinli boʻlmasmikan, – deb soʻradi. – Boz ustiga, – dedi yana, – u yerga borganda yangi tanishlar orttirishingiz, kitob va idora yuritish uchun qogʻoz-yozuv buyumlari savdosida muloqotni yoʻlga qoʻyishingiz mumkin.

Men bu taklifga rozi boʻldim.

– Unda, – dedi u, – «Annis»ga borishga tayyorgarlik koʻring.

Annis oʻsha davrlarda London va Filadelfiya orasida yiliga bir marta qatnaydigan yagona kema edi. Ammo Annis kemasining dengizga chiqishiga hali bir

necha oy bor edi. Shuning uchun men Keymer bilan ishlashni davom ettirdim. Bu vaqtda bir kun kelib, Vernon pulni qaytarishni so'rab qolishini o'ylab, Kollinzga bergan pullar haqidagi o'ylar meni qiynar edi. Xayriyatki, Vernon bilan bu boradagi uchrashuvimiz bir necha yillardan keyin sodir bo'ldi.

Bostondan birinchi marta safarga chiqqanimdagi yana bir voqea yodimdan ko'tarilibdi. O'shanda kemamiz shtilga<sup>1</sup> tushib qolgan edi. Safardoshlarim treska<sup>2</sup> tutishga kirishib ketishdi va juda ko'p baliq tutishdi. O'sha paytgacha men hayvonlar go'shtidan qilingan taomni tanovul qilmaslik qarorimda sobit edim. Bu safar ham ustozim Tiron bilan birga har bir baliqni ovlash qotillik bilan barobar ekanligini va hech qaysi baliq bizga uning jonini olishga sabab bo'ladigan yomonlik qilmaganini o'yladim. Bu fikrlarning hammasi juda oqilona tuyulgan edi. Lekin ilgari baliq eng yaxshi ko'rgan yeguliklarimdan edi. Tovadan qaynoq qovurilgan holda olib kelinganda, uning hidi hayratlanarli tarzda ishtahani qitiqlar edi. Bir muddat baliq yemaslik tamoyilim va uni yeyishga moyilligim orasida kurashib turdim. Ammo baliqlarni tozalashganda, ba'zi baliqlarning qornidan boshqa kichikroq baliqlar chiqib kelganini ko'rdim. Shunda senlar bir-biringni yer ekansan-u, men yemasligim uchun biror sabab ko'rmayapman, deb o'yladim. Shunday qilib, treskani maza qilib tanovul qildim va boshqa odamlar bilan birga ovqatlanishni davom ettirdim. Faqat ba'zi-ba'zida sabzavotli parhezga qaytib turardim. Ongli mavjudot

---

<sup>1</sup> Shtill – shamolning umuman yo'qligi, sokin havo.

<sup>2</sup> Treska – Shimol dengizlaridagi baliqning bir turi.

bo'lish qanchalar qulay hol. Chunki ong insonga biror narsaga qo'l urish uchun sabab topish imkonini beradi.

## V

### FILADELFIYADAGI DASTLABKI DO'STLAR

Keymer bilan oramiz iliq bo'lib, chidasa bo'ladigan darajada kirishimli edik. Chunki u mening rejam haqida hech narsa bilmas edi. U o'zining avvalgi tashabbuslarini saqlab qolgan va gap talashishni yaxshi ko'rardi. Shu sababli, biz juda ko'p bahslashar, men uni Suqrot usuli bilan turli ko'yga solar edim. Juda ko'p hollarda muhokama qilinayotgan mavzudan uzoq tuyulgan, ammo qadam-baqadam mavzuga olib keladigan savollar berardim. U javob berishga qiynalib qolar yoki o'z qarashlariga zid fikrlar aytishga majbur bo'lar edi. Hatto shu qadar kulgili darajada ehtiyotkor bo'lib qoldiki, eng oddiy savollarimga ham «o'zi nimani nazarda tutyapsan?» – deb so'ramasdan, javob bera olmasdi. Biroq Kollinz rad etish usulidagi qobiliyatlarim borasida juda yuqori fikrga boradigan bo'ldi. O'zi tashkil etmoqchi bo'lgan yangi oqimda uning sherigi bo'lishimni jiddiy turib taklif qildi. Maqsadi turli ta'limotlar haqida va'zlar o'qish, men esa uning raqiblarini tor-mor qilishim lozim bo'lar ekan. U menga ta'limotlarni tushuntirishni boshlaganda, bir necha boshqotirmalarga qarshi chiqdim. O'z fikrlarimni qo'shishga imkon berib, menga biroz yon bossagina rozi bo'lishimni aytdim.

Keymer juda uzun soqol qo'yib yurar edi. Chunki Muso payg'ambarning qonunida shunday deyilgan

ekan: «Sen soqolingning chetlariga tegadiganlardan bo'lmaysan». Xuddi shu kabi u Yettinchi kun, ya'ni Shabbat<sup>1</sup> qonuniga rioya qilar edi. Aynan shu ikki jihat uning uchun zarur narsalar edi. Menga ularning hech biri yoqmasdi. Ammo men ularga Kollinzning hayvon go'shti yemaslikni qabul qilish sharti bilan rozi bo'ldim.

– Salomatligim, – dedi u, – buni ko'tarishiga shubham bor-da.

Men uni salomatligi yaxshi bo'lishiga ishontirdim va hatto bu ish yaxshilik olib kelishini aytdim. U nafsi yomon odam edi va men o'zimga uni och qoldirib, rohat olishga va'da berdim. Kollinz bu amaliyotni men ham u bilan birga parhez qilishim lozimligi sharti bilan sinab ko'rishga rozi bo'ldi. Men rozi bo'ldim va biz uch oy davomida parhez qildik. Ovqatlarimizni mahalladagi bir ayol tayyorlab, bizga olib kelib berar edi. Men unga turli vaqtda tayyorlanishi lozim bo'lgan qirq banddan iborat yeguliklarning ro'yxatini berdim. Ularning birortasida na baliq, na mol va na parranda go'shti bor edi. Bu injiqligimiz arzonga tushishi bilan menga juda ma'qul edi. Chunki bu unga haftasiga o'n sakkiz funt penniga tushar edi xolos. O'shandan beri bir necha marta qat'iyat bilan ro'za tutdim. Odatdagi taomnomadan bir muddat voz kechib, kutilmaganda yana o'sha tartibga o'tish hech qanday noqulaylik tug'dirmadi. Shuning uchun, menimcha, bunday o'zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish haqidagi

---

<sup>1</sup> Shabbat – yahudiylikda ibodat va hordiq chiqarish sifatida qabul qilingan kun. Grigoryan taqvimiga ko'ra, shanba kuniga to'g'ri keladi.

maslahat uncha ham asosli emas ekan. Bu parhez men uchun yoqimli, lekin bechora Keymer qattiq azobda edi. U ayni kelishuvdan juda charchagan, Misr xumchalarida pishirilgan go'shtni o'ta sog'ingan edi. Oxiri u duxovkada pishirilgan cho'chqa go'shtiga buyurtma berdi. U meni va ikki tanish ayolni o'zi bilan birga tushlikka taklif qildi. Ammo pishgan cho'chqa go'shtini stolga muddatidan oldinroq tortishibdi va u nafsining vasvasasiga qarshi tura olmay, kelishimizdan oldin hammasini paqqos tushiribdi.

Bu vaqtda men oyimqiz Ridga mulozamat ko'rsatib yurgan edim. Men uni juda hurmat qilar va unga nisbatan o'zimga yaqinlik sezar edim. Uning ham tuyg'ulari menga nisbatan xuddi shunday deb o'ylashga asosim bor edi. Ammo yaqin orada mening uzoq safarga chiqmoqchi bo'lganim va biz ikkalamiz ham juda yosh bo'lganimiz (endi o'n sakkiz yoshdan o'tgan edik) sababli uning onasi munosabatlarimizning nikoh darajasigacha chuqurlashib ketishining oldini olish o'rinli bo'ladi, deb o'ylabdi. Agar turmush qurishga qaror qilsak, Lodondan qaytib kelsam, qulayroq bo'lishini aytibdi. Chunki o'shanda o'z ishimni yo'lga solgan bo'lishim mumkinligi haqida aytibdi. Balki u mening umidlarimni tasavvur qilganimdek asosli emas deb o'ylagandir.

Bu vaqtda mening asosiy tanishlarim Charlz Ozborn, Jozef Uotson va Jeyms Ralf kabilar edi. Ularning har biri o'qishni yaxshi ko'rardi. Ozborn va Uotson shaharning taniqli advokati yoki notariusi Charlz Brokdenning xodimlari edi, Ralf esa bir savdogarning xodimi edi. Uotson taqvodor, aqlli, juda halol yigit edi. Boshqalar o'zlarining diniy e'tiqod

va odatlarida ancha sustroq edilar, xususan, Ralf xuddi Kollinz kabi mendan olgan qarzlarini to'lama-gan edi. Bularning ikkalasi sababli qiyinchiliklarga uchradim. Ozborn aqlli, samimiy, do'stona va ochiq yigit edi. Ammo adabiy masalalarda tanqid qilishni juda yaxshi ko'rardi. Ralf zukko, muloyim va ifodalali so'zlashga usta edi. Menimcha, hech qachon undan yaxshiroq notiqni qaytib uchratmadim. Ular-ning ikkalasi ham she'riyatga katta ixlos qo'ygan va oz-moz she'r yozishni boshlagan edilar. Yakshanba kunlari to'rt kishi birgalikda o'rmonga, Schulkill dar-yosi yaqiniga ko'p marta maroqli sayrlarga borgan-miz. U yerda bir-birimizga kitob o'qib berardik va o'qib chiqqan kitoblarimizni muhokama qilar edik.



Ralf she'riyatni o'rganishga moyil, bu sohada shuhrat qozonishiga va boyib ketishiga hech shubha qilmas edi. Uning fikricha, go'yoki, eng yaxshi shoirlar ijodni endi boshlaganlarida, u kabi ko'p

xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin ekan. Ozborn uni bu yo'ldan qaytarishga urindi. Uni iqtidori yo'qligiga ishontirmoqchi bo'lib, o'rgangan kasbidan boshqa narsani o'ylamaslikni maslahat berdi. Chunki savdo sohasida, o'zida zaxiralari bo'lmasa-da, tirishqoqlik va ishni o'z vaqtida bajarishi bilan bir kun kelib, agent, komissioner (savdogar) bo'lib yetishishi hamda qachondir sohada o'z kapitaliga ega bo'lishi mumkinligini qayd etdi. Shaxsan men odamning ba'zi-ba'zida she'riyat bilan shug'ullanishi tarafdoriman. Bu faqat o'zining til mahoratiga sayqal berish uchun, boshqa maqsadda emas, degan fikrda edim.

Bu borada o'zaro kuzatishlarimiz, tanqidlarimiz va tuzatishlarimiz asosida mahoratimizni yaxshilash maqsadida, keyingi uchrashuvimizga har birimiz o'z she'rimizni yozishga kelishdik. Maqsadimiz nutq va ifoda uslubimizni takomillashtirish bo'lgani sababli, nimanidir kashf qilish haqidagi fikrlarni istisno qildik. Buning uchun yaratilgan she'r Zaburda Xudoning tushib kelishini tasvirlaydigan o'n sakkizinchi qo'shiqning bir versiyasi bo'lishi kerak deya kelishib oldik. Uchrashuv vaqti yaqin kelib qolganda Ralf birinchi bo'lib, mening oldimga keldi va o'z she'ri tayyor ekanligini aytdi. Men unga band ekanligim, ilhom va moyilligim yo'qligi sababli hech narsa qilmaganimni aytdim. Keyin u mening fikrimni bilish uchun o'z she'rini ko'rsatdi va men uni ma'qulladim. Chunki u menga ancha munosibday tuyuldi.

– Ammo, – dedi u, – Ozborn mening asarimda hech qachon biror afzallik bor deb o'ylamaydi, balki shunchaki hasaddan mingta tanqid o'ylab to-

padi. U senga nisbatan bunchalik hasad qilmaydi. Shuning uchun bu she'rni ol-da, o'zirniki, deb o'qib ber. Men vaqtim bo'lmadi, shuning uchun hech narsa yozmadim, deb bahona qilaman. Keyin uning bu she'rga nima deyishini ko'ramiz, – qat'iy ohangda.

Kelishib oldik va o'z qo'lim bilan yozganday ko'rinishi uchun uni darhol boshqa varaqqa ko'chirib oldim.

Biz uchrashdik. Uotson o'z asarini o'qib berdi. Unda go'zal tomonlar bor, ammo nuqsonlari sanoqsiz edi. Ozbornning she'ri o'qildi. Bu avvalgi she'rdan ancha yaxshiroq edi. Ralf uni tan oldi va ba'zi kamchiliklarini aytib o'tdi. O'z navbatida, go'zal tomonlarini olqishladi. Uning o'zida o'qib berishga go'yoki hech narsa yo'q ekanligini aytdi. Men vaqtini cho'zar, isloh qilishga vaqtim bo'lmagani uchun o'zimni kechirishlarini so'rayotganday tutar edim va hokazo. Lekin hech qanday bahona qabul qilinmadi. She'rni o'qib berishga majbur bo'ldim. She'rni o'qib berdim va yana bir bor takrorladim. Uotson va Ozborn men bilan musobaqalashishdan voz kechib, olqishlashga tushishdi. Ralf ozgina tanqid qildi va ba'zi o'zgarishlarni taklif qildi, ammo men o'z matnimni himoya qilib turib oldim. Ozborn Ralfga qarshi chiqdi hamda unga qanchalar no'noq shoir bo'lsa, shu darajada no'noq tanqidchi ekanini aytdi va bahsga nuqta qo'ydi. Ikkalasi birga uyga ketayotganda Ozborn mening she'rimdan kuchli taassurot olganini aytibdi. Hammaning oldida aytsam, laganbardorlikka yo'yishadi, deb andisha qilgan emish.

– Ammo Franklin bunday zo‘r she‘r yoza olishga qodir ekanligi kimning xayoliga kelibdi?! Tavsif naqadar rangli, naqadar kuchli, naqadar alangali! – debdi va hatto o‘zgartirilmagan nusxasini ham ma‘qullabdi. – Odatiy mavzulardagi suhbatda aytishga so‘z topa olmay qoladi-ku. Ikkilanadi va duduqlanadi. Ammo Xudo haqi, zo‘r she‘r yozar ekan.

Keyingi safar uchrashganimizda, Ralf unga nisbatan ayyorlik qilganimizni oshkor qildi va Ozborning ustidan biroz kuldik.

Ushbu voqeadan keyin Ralf shoir bo‘lish qarorida sobit qoldi. Men uni shoirlikdan qaytarish uchun qo‘limdan kelganini qildim. Lekin Poup uning aqlini kiritguncha she‘r yozishda davom etdi.<sup>1</sup> Biroq u juda yaxshi nasriy yozuvchiga aylandi. Keyinroq bu haqda biroz tafsilotlar beraman. Ammo Ozborn va Uotson haqida biror narsa aytishga boshqa imkoniyatim bo‘lmasligi mumkin. Bu yerda, bir necha yillardan keyin oramizdagi eng yaxshi yigit bo‘lgan Uotson mening qo‘limda vafot etganini aytib o‘taman. Uning o‘limi bizni chuqur qayg‘uga solgandi. Ozborn Vest-Indiyaga borib, u yerda taniqli advokat darajasiga erishdi va yaxshi pul ishladi, lekin yosh vafot etdi. U va men jiddiy kelishuvga erishgan

---

<sup>1</sup> Aleksandr Poupning «Dansiyada» asarining keyingi nashrlaridan birida quyidagi satrlar uchraydi:

«Jim bo‘ling, bo‘rilar Ralf Sintiya sharafiga uvillayotganda,  
Va tunni dahshatli qilmoqda, unga javob bering, ey ukkilar».

Bunga shoir quyidagi eslatmani qo‘shadi:

«Jeyms Ralf – birinchi nashrlardan keyin kiritilgan ism. Uni doktor Swift, janob Grey va men uchun juda qo‘pol ma‘nodagi haqoratomuz «Tentankamo sodda» («Sawney») she‘rini yozguncha hech kim bilmas edi».

edik. Ya'ni birinchi bo'lib vafot etgan kishi, iloji bo'lsa, sherigining tushiga do'stona tashrif buyurishi va o'sha dunyodagi narsa, hodisalarni qanday tushunganini baham ko'rishi lozim edi. Lekin u va'dasini bajarmadi.

## VI

### LONDONGA BIRINCHI TASHRIF

Men bilan birga vaqt o'tkazish unga mamnuniyat baxsh etayotganini namoyon etish maqsadida, gubernator tez-tez uyiga chaqirib turar edi. Ko'pincha, u mening ishimni hal qilib qo'yganini, bu masala allaqachon hal bo'lgan ish, deb aytardi. Bosmaxona dastgohi, harflar to'plamlari, qog'oz va boshqa narsalarni sotib olishga zarur pul uchun akkreditiv xati bilan birga, uning bir qator do'stlariga tavsiyanoma xatlari olib ketishim kerak edi. Ushbu xatlarni olish uchun menga turli vaqtlarda, ular tayyor bo'lganda uchrashuvlar belgilanar edi. Lekin har safar boshqa bir kunda kelish aytilar edi. Gubernator bu odatini jo'nash vaqti bir necha marta kechiktirilgan kemanding nihoyat suzib ketish kuniga qadar davom ettirib bordi. Keyin men xayrlashish va xatlarni olish uchun kelganimda, uning kotibi doktor Bard oldinga chiqdi. Gubernator hujjat ishlari bilan band ekanligini, ammo Nyukaslda kemanding yo'lga chiqishidan oldin, albatta, borishini aytdi. Xatlarni menga o'sha yerda yetkazib berishar ekan.

Ralf garchi uylangan va bitta farzandli bo'lsa ham, bu safarda menga hamroh bo'lishga qaror qilgan edi. Rejaga ko'ra, u aloqalar o'rnatib, qo'shimcha haq qo'-

yish asosida sotish uchun tovarlar olishni niyat qilgandi. Menga keyinchalik ma'lum bo'ldiki, xotining qarindoshlari bilan qandaydir kelishmovchilik yuzaga kelgan. Shuning uchun, oilasini ularning oldida qoldirish va hech qachon qaytib kelmaslikni qasd qilgan ekan. Do'stlarim bilan xayrlashib bo'ldim. Miss Rid bilan bir-birimizga va'dalar berdik. Shundan so'ng Nyukaslda langarini ko'tarib, yo'lga chiqqan kemada Filadelfiyani tark etdim. Gubernator Nyukaslda ekan, lekin uning turar joyiga borganimda, kotibi chiqib keldi. Uning nomidan dunyodagi eng mulozamatli xabar olib keldi. U juda muhim ishlar bilan band bo'lganligi sababli men bilan uchrasha olmaganligi, tavsiyanoma xatlarini alohida men uchun kemaga jo'natishini va chin ko'ngildan menga oq yo'l tilashini aytibdi. U mening tez orada qaytib kelishimga umid qilishi va hokazolarni yozgan ekan. Kemaga biroz boshim qotgan holda qaytdim, ammo ko'nglimda ikkilanish yo'q edi.

Filadelfiyaning mashhur advokatlaridan biri janob Endryu Hamilton o'zi va o'g'li uchun kvaker savdogar janob Denhem, janob Onion va janob Rassel bilan birga chipta olgan ekan. Ular eng katta kayutani egallashibdi. Shu tariqa, Ralf va men rul bo'limidagi o'ringa noiloj rozi bo'ldik. Kemada bizni hech kim tanimaganligi sababli oddiy odamlar deb hisoblashar edi. Ammo janob Hamilton va uning o'g'li (bo'lajak gubernator Jeyms Hamilton) Nyukasldan Filadelfiyaga qaytishdi. Janob Hamiltonni hibsga olingan kema uchun katta haq to'lash da'vosi bo'yicha chaqirishgan ekan. Yo'lga chiqishimizdan sal oldin polkovnik French kemaga chiqdi.

U menga o'ta mulozamat bilan munosabatda bo'lib, iltifot ko'rsatdi. Endi men va do'stim Ralfga ko'proq e'tibor bera boshlashdi. Boshqa janoblar bizni kayutada joy bo'shaganligi sababli u yerga taklif qilishdi. Biz hech qanday gap-so'zsiz ko'chib o'tdik.

Polkovnik French gubernatorning xatlarini olib kelgan deb tushunib, kapitandan mening nomimga kelgan xatlarni so'radim. U qog'ozlarning hammasi bir qopga solingan va o'sha kuni ularga qarashga imkon topmaganligini aytdi. Ammo Angliya sohiliga tushishimizdan oldin ularni olish imkoniyatini topishim shart edi. Shuning uchun hali-hanuz sayohatga chiqqanimizdan mamnun edim. Kayutadagi hamrohlarimiz dilkash odamlar edi. Bunga janob Hamiltonning mo'l-ko'l olib kelib, kemaga tashlab ketgan yegulik va ichimlik zaxiralari ajoyib qo'shimcha bo'ldi. Ushbu sayohat davomida janob Denhem bilan do'stlashib qoldim. U bilan do'stligimiz uning vafotigacha davom etdi. Bu tanishuvsiz sayohat maroqli bo'lmas edi, chunki ko'p kunlarda dengiz notinch va ob-havo yomon bo'ldi.

Biz La-Mansh bo'g'oziga kelganimizda kapitan menga bergan va'dasini bajardi. Qopni ochib, undan gubernatorning menga yozgan xatlarini izlash imkonini berdi. Men ustiga ismim yozilgan bitta ham xat topa olmadim. Husnixatiga qaraganda menga va'da qilingan xatlar bo'lsa kerak, deb olti yoki yetti xatni oldim. Xususan, ulardan biri qirolning matbaachisi Basketga va yana biri esa kanselyariya mollari sotadigan odamga jo'natilgan edi. Biz Londonga 1724-yil 24-dekabr kuni yetib keldik. Birinchi bo'lib yo'lim kanselyariya buyumlari sotuvchisinikiga tushdi.

Men gubernator Kitdan xat olib kelgan odam bo'lib, uning chiqishini kutib turdim.

– Men bunday odamni tanimayman, – dedi u. Ammo xatni ochib: – O! Bu Riddlzdendan-ku. Yaqinda uning o'taketgan muttaham ekanligini bilib qoldim. U bilan hech qanday ish qilishni yoki undan biror xat olishni xohlamayman, – dedi va xatni qo'limga qaytarib, poshnasi bilan o'girildi va mening oldimdan qandaydir mijozning ishini bajarish uchun ketdi. Bu xatlar gubernatordan emasligini tushunib, hayron bo'ldim. Bo'lib o'tgan vaziyatlarni eslab, taqqoslaganimdan so'ng uning samimiyligiga shubha qila boshladim. Men do'stim Denhemni topdim va unga bo'lgan ishlarni so'zlab berdim. U menga Kitning xarakterini aytib berdi. U odamning mening foydam uchun xat yozganliging ehtimoli umuman yo'qligini aytdi. Uni bilgan odamlarning hech biri unga zarracha ishonmasligini tushuntirdi. U gubernatorning menga akkreditiv xati berganini aytganimda kulib yubordi. U odamda beradigan narsaning o'zi (ishonch) yo'qligini aytdi. Endi nima qilishim haqida xavotirimni aytganimda, menga o'z kasbim bo'yicha biror ish topishni maslahat berdi.

– Bu yerdagi matbaachilar orasida, – dedi u, – mahoratingni oshirib olasan va Amerikaga qaytganingda kattaroq foyda keltiradigan ishga joylasha olasan.

Men ham, Denhem ham xuddi kanselyariya mollari savdogari kabi Riddlzdenden o'ta muttahamligini yaxshi bilar ekanmiz. U oyimqiz Ridning otasini o'zi bilan shartnoma tuzishga ko'ndirib, uni qariyb xonavayron qilgan ekan. Xatdan ma'lum bo'lishicha,



Kit Riddlzdən bilan birga til biriktirib, Hamiltonga (biz bilan birga kelishi lozim edi-ku) zarar keltirish uchun maxfiy fitna uyushtirishgan ekan. Hamiltonning do'sti bo'lgan Denhem bu xatni u yaxshilab o'rganib chiqishi lozim, deb o'yladi. Bu Hamilton Angliyaga kelganidan biroz keyin sodir bo'ldi. Birinchidan, jahlim chiqqanligi, ikkinchidan, Kit va Riddlzdenga yomon niyatim borligi sababli va albatta, Denhemga nisbatan niyatim yaxshi bo'lganligidan uni kutib turdim hamda xatni unga berdim. U menga samimiy minnatdorchilik bildirdi, chunki ma'lumot uning uchun muhim edi. O'sha paytdan boshlab, u mening do'stinga aylandi. Kelajak hayotimda bu do'stlik ko'p holatlarda menga bir talay yaxshiliklar keltirdi.

Ammo gubernatorning bunday xatarli nayranglar qilishi va hech narsadan xabari yo'q bir bechora yigitga shafqatsizlarcha yo'q narsani bajarishni taklif etishi haqida nima deb o'ylashimiz mumkin?!

Bu uning odatiy qilig'i ekan. U hammani xursand qilishga urinar ekan. Berishga hech narsasi yo'qligidan, odamlarga faqat va'da va umid berar ekan xolos. Aslini olib qaralsa, u zukko odam, durustgina yozuvchi va xalq uchun yaxshi gubernator edi. Lekin bu tavsifni o'z saylovchilari, yer-mulk egalari qo'llamasligi bor gap. Chunki ba'zan ularning ko'rsatmalarini e'tibordan chetda qoldirardi. Bizning eng yaxshi qonunlarimiz asoslarini shu odam ishlab chiqqan va uning rahbarligi davrida qabul qilingan.

Ralf va men ajralmas hamrohlar edik. Biz Kichik Britaniya (Little Britain)<sup>1</sup> hududida birga yashash uchun joy topdik. Ijara haqi haftasiga uch shilling-u olti penni edi. O'sha paytda qurbimiz yetadigani shu edi. Orada u qandaydir qarindoshlarini topdi. Ammo ular kambag'al va unga yordam berolmas ekanlar. Bu vaqtga kelib, Ralf menga Londonda qolish va hech qachon Filadelfiyaga qaytmaslik niyatini aytdi. Yonida bir tiyin ham pul olib kelmagan. To'plagan pulning hammasi yo'lkiraga yetgan xolos. Menda o'n besh pistol<sup>2</sup> pul bor edi. Ish topish ilinjida yurgan davrda vaqti-vaqti bilan mendan qarz olib turdi. U birinchi bo'lib, o'zini aktyorlikka qobiliyati bor, deb hisoblab, teatrga ishga kirishga urinib ko'rdi. Ammo Uilksga<sup>3</sup> murojaat qilganida, Uilks ayni fikrni miyasidan chiqarib tashlash kerakligini uning yuziga ayt-

---

<sup>1</sup> Little Britain – Avliyo Pavel ibodatxonasidan shimol tomonda joylashgan Londonning eng qadimgi qismlaridan biri. Bu nom Britaniya gersoglari (Dukes of Britain) shu yerda yashaganligi tufayli berilgan.

<sup>2</sup> Bizning pulda taxminan to'rt dollar qiymatidagi oltin tanga.

<sup>3</sup> Mashhur komediyachi, Druri Leyn (Drury Lane) teatri menejeri.

gan. Chunki bu yo'lda hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmasligini tushuntirgan. Keyin u Paternoster Rou<sup>1</sup> ko'chasidagi noshir Robertsga o'z xizmatlarini taklif qilgan. Unga muayyan shartlar asosida xuddi «Spektator» bilan ishlaganidek, haftalik tahliliy maqolalar yozib berishi mumkinligini aytgan. Robertsga bu taklif ma'qul kelmagan. Keyin u Templ<sup>2</sup> hududida ishlaydigan kanselyariya mollari va yuristlar uchun hujjatlardan nusxa ko'chiradigan yozuvchi bo'lib ish topmoqchi bo'ldi. Bo'sh joy hech qayerda yo'q ekan.

Men Bartolomyu Klouz (Bartholomew Close) ko'chasida joylashgan, o'sha davrda mashhur bo'lgan Palmerning nashriyotidan darhol ish topdim. U yerda bir yil ishladim. Men juda tirishqoq edim, ammo daromadimning ancha qismini Ralf bilan birga spektakllar va boshqa ko'ngilochar joylarga borishga sarflar edim. Ikkimiz mendagi pistollarning deyarli hammasini yo'q qilib bo'ldik va yarim och kun kechira boshladik. U xotini va bolasini, men esa Rid xonimga bergan va'dalarimni unutib qo'ygan-day edim. Miss Ridga bittagina xat yozdim xolos. Shuni ham yaqin orada uyga qaytmasligimni aytib qo'yish uchun yozgandim. Bu mening yana bir katta, hayotimni takror yashab o'tishga imkon berilsa, tuzatishni xohlaydigan xatolarimdan biri edi. Aslida, xarajatlarimiz ko'pligi tufayli menda qaytish uchun yetarlicha yo'lkira haqi to'planmas edi.

---

<sup>1</sup> Avliyo Pavel ibodatxonasining shimolidagi nashriyotlar joylashgan ko'cha.

<sup>2</sup> Avliyo Pavel ibodatxonasi janubi-g'arbidagi Flit ko'chasi va Temza daryosi orasida yuridik maktablar hamda advokatlar turar-joy binolari joylashgan.

Palmerning nashriyotida menga Vollastonning «Tabiatning dini» asarining ikkinchi nashrini terishni topshirishdi. Uning ba'zi asos va mulohazalari menga yetarlicha yoritilmaganday tuyuldi. Men o'z izohlarimni bayon etib, kichik bir metafizik maqola yozdim. Maqolani «Erkinlik va zarurat, zavq va og'riq haqida dissertatsiya» deb nomladim. Men uni do'stim Ralfga bag'ishladim. Uni oz adadda chop etdim. Bu maqola janob Palmerning menga nisbatan iqtidori bor yosh yigit sifatida alohida munosabat bildirishiga sabab bo'ldi. Ammo u men bilan maqolamning tamoyillari haqida jiddiy bahslarga kirishdi. Chunki u buni jirkanch narsa deb hisoblar ekan. Bu pamfletni chop etganim hayotimdagi yana bir xatolik bo'ldi.

Kichik Britaniya hududida yashagan davrimda do'koni shundoq yonimizda joylashgan kitob sotuvchisi Uilkoks bilan tanishdim. Unda eski kitoblarning ulkan bir to'plami bor edi. O'sha paytda aylanma kutubxonalar mavjud emasdi. Ammo u bilan kitoblarni muayyan oqilona shartlar asosida olish, o'qish va qaytarishga kelishib oldik. Albatta, hozir o'sha shartlar yodimdan chiqib ketgan. Men buni juda katta imkoniyat deb tushundim va undan imkon qadar ko'proq foydalanishga harakat qildim.

Men yozgan maqola «Inson hukmining xatosizligi» nomli kitob muallifi, jarroh Lionning qo'liga tushib qolishi ortidan u kishi bilan tanishib olish imkoniyati yuzaga keldi. U menga katta e'tibor qaratib, tez-tez o'sha mavzularda suhbatlashish uchun taklif qilardi. Meni Chipsayddagi kichik ko'chalardan birida joylashgan oddiy Hornz pivoxonasiga olib borar edi. Bir kuni u meni o'sha yerdagi klublardan

birining a'zosi va klubning o'z ta'siriga ega shaxsi, «Asalarilar ertagi» asari muallifi, quvnoq hamsuhbat, doktor Mandevil bilan tanishtirdi. Lion, shuningdek, meni Batsonning qahvaxonasida doktor Pemberton bilan ham tanishtirdi. Bundan tashqari, u bir kun kelib, meni janob Isaak Nyuton bilan tanishtirish imkonini topishga va'da berdi. Nyutonni ko'rishni juda xohlardim, ammo u bilan hech qachon ko'rishga olmadim.

O'zim bilan bir nechta qiziqarli narsalarni olib kelgan edim. Ular orasidagi asosiysi asbestdan<sup>1</sup> yasalgan, olov bilan tozalanadigan hamyon edi. Janob Hans Sloun bu haqda eshitib, meni ko'rgani keldi va «Blumzbury» maydonidagi uyiga taklif qildi. U yerda menga o'zining barcha qiziqarli narsalarini ko'rsatdi. Meni o'sha hamyonni ular qatoriga qo'shishga ko'ndirdi. Buning uchun u menga yaxshi pul ham to'ladi.

Biz yashagan uyda shlyapa sotuvchi bir yosh ayol ham yashardi. Menimcha, Kloystersda uning do'koni bo'lgan. U yaxshi tarbiyalangan, oqila, quvnoq va juda yoqimli suhbatdosh ayol edi. Kechqurunlari Ralf unga pyesalar o'qib berardi. Ular ancha yaqinlashib qolishdi. Ayol boshqa joyga ko'chib o'tdi. Ralf uning ortidan chiqib ketdi. Ular bir muncha vaqt birga yashashdi. Ammo u hali ham ishsiz edi. Bu juvonning topadigan daromadi esa ularni o'z bolasi bilan boqishga yetarli emasdi. Ralf Londondan ketib, qishloqlardan biridagi maktabga borib, omadini sinab ko'rishga qaror qildi. Chunki u husnixatining bejirimligi, arifmetika va hisobni yaxshi

---

<sup>1</sup> Asbest – o'tga chidamli, kislota va ishqor ta'sir qilmaydigan, issiqlik va elektrni o'tkazmaydigan tolali mineral; toshpaxta.

bilganligi sababli u yerlarda ishga joylasha olishiga ishonar edi. Ammo bu ishni o'ziga loyiq deb hisoblamas, kelajakda yaxshiroq maqomga erishishiga umid bildirardi. O'shanda bunday past ishlar qilganini boshqalar bilib qolishidan uyalishi haqida ham o'ylardi. Shu tariqa, u o'z ismi-sharifini o'zgartirdi. Mening familiyamni olib, menga juda katta hurmat ko'rsatdi. Ko'p o'tmay undan xat oldim. Kichik bir qishloqda joylashibdi (menimcha, Berkshirda edi. U yerda o'n-o'n ikki nafar o'g'il bolaga o'qish va yozishni o'rgatayotgan ekan. O'qish haqi har bir bola uchun haftasiga olti penni ekan). Xatda T. xonimni mening qaramog'imga ishonib topshirganini yozibdi va falon joyga, maktab direktori, janob Franklin nomiga xat yozishimni so'rabdi.

U tez-tez xat yozib turdi. Menga o'shanda o'zi yozayotgan epik doston namunalari yuborar, mendan izoh va isloh qilishni so'rar edi. Men ham bunga javoban izoh va isloh qilgan parchalarimni jo'natib turdim. O'z navbatida, uni bu yo'ldan qaytarishga harakat qildim. O'shanda Yangning satiralardan biri<sup>1</sup> endigina nashr etilgandi. Men satiraning katta qismini ko'chirdim va unga yubordim. Asarda ilhom parilariga ular yordamida oldinga intilish, bo'yib ketish umidida ergashishning tentaknamo qarash ekanligi yaqqol tasvirlab berilgan. Bu ishlar behuda edi. Pochtachi har kelganida Ralf dostonining ko'plab varaqlarini tashlab ketishni kanda qilmadi. Bu orada, uning dastidan T. xonim do'stlari va ishidan ayrilgan edi. Tez-tez qiyinchiliklarga uchraydigan bo'ldi. Menga odam yuborib, qarz olib turardi.

---

<sup>1</sup> Eduard Yang (Edward Young, 1681–1765) – ingliz shoiri.

Shunda ham, unga imkonim darajasidagina pul bera olardim. U bilan birga vaqt o'tkazish menga ma'qul keldi. O'sha paytlarda hali qat'iy dindor emasligim va o'zimning u uchun muhimligimni o'ylab, biroz erkinliklarga ham yo'l qo'yibman (yana bir katta xato). Ayol buni o'ta norozilik bilan qabul qildi va bu qilmishim haqida Ralfga xabar beribdi. Bu bizning o'rtamizni buzdi. Ralf Londonga qaytib kelganda, bu qilg'im bilan uni zimmasidagi men tomondan qo'yilgan majburiyatlardan ozod qilganimni aytdi. Shunday qilib, men unga bergan qarzlar yoki oldindan to'lagan pullarimni hech qachon qaytarib ololmasligimni tushundim. Bu holat bugungacha kechgan hodisalarning ayancli oqibati emas edi, chunki o'sha paytda u umuman pulsiz ekan. Shu tariqa, do'stligimiz yo'qolganidan yelkamdagi qandaydir bir yukdan qutuldim, deb hisobladim. Endi men oldindan ozgina pul to'plash haqida o'ylay boshladim va yaxshiroq ish topish umidida Palmerdan ishdan ketdim. Linkolns Inn Filds yaqinidagi kattagina Uotts bosmaxonasiga ishga joylashdim.<sup>1</sup> Londondan ketgunimcha shu joyda ishlab yurdim.

Ushbu bosmaxonaga birinchi marta ishga qabul qilishganida, bosma dastgohda ishlashni tanladim. Negadir Amerikada biz ham bosma dastgohda ishlash, ham harf terishni birga bajarganimizni eslab, jismoniy mashq qilish lozimligini sezdim. Men faqat suv ichardim. Soni ellikka yaqin bo'lgan boshqa ishchilar esa ajoyib pivo sipqaruvchilar edi. Kezi kelganda, men zinapoya bo'ylab, har bir qo'limga

---

<sup>1</sup> Franklin ishlagan bosmaxona dastgohi Vashingtondagi Patentlar idorasida saqlanadi.

bittadan katta harflar terilgan taxtani ko'tarib tushib-chiqar edim. Boshqalar esa bitta taxtani ikki qo'llab zo'rg'a ko'tarib yurishar edi. Ular bu va bir nechta holatlarni ko'rib, «faqat suv ichgich-amerikalik» (ular menga shunday laqab qo'yib olishgandi) kuchli pivo ichadigan o'zlaridan baquvvat ekanligini sezdi va hayron bo'lishar edi! Binoga ishchilarga pivo olib kelib beradigan pivo tashuvchi bola bor edi. Bosma dastgohda birga ishlaydigan sherigim har kuni nonushta qilishdan oldin bir pinta,<sup>1</sup> nonushta paytida yana bir pinta, nonushta va tushlik o'rtasida bir pinta, kechki ovqat bilan bir pinta, kechki ovqatdan so'ng soat oltida bir pinta va kunlik ish tugagandan keyin yana bir pinta pivo ichadi. Men buni jirkanch odat deb hisoblardim. Ammo sherigimning fikricha, u ishlash paytida kuchli bo'lish uchun kuchli pivo ichishi zarur edi. Men uni tananing pivo bilan ta'minlanadigan kuchi faqat uni tayyorlashda ishlatilgan suvda erigan un yoki arpa miqdorining ozgina qismi nisbatiga teng bo'lishini aytdim. Shu bilan birga, bir penniga olinadigan nonda pivodagiga qaraganda ko'proq un borligini tushuntirishga urinib ko'rdim. Unga o'sha nonni bir pinta suv bilan yesa, ikki pinta pivo kuchidan ko'proq quvvat berishini aytdim. Biroq u pivo ichishda davom etdi. Achinarli tomoni shundaki, u har shanba kuni kechqurun o'zi ishlagan maoshdan to'rt yoki besh shilling to'lashga majbur bo'lardi. Menda bunday xarajat mutlaqo yo'q edi. Ya'ni bu bechora ahmoqlar o'z ayblari bilan doim qaramlikda edilar.

---

<sup>1</sup> Pinta – ingliz o'lchovlarini qo'llovchi mamlakatda suyuqlik o'lchov birligi. Taxminan yarim litr.

Bir necha hafta o'tgach, mendan harf terish xonasida<sup>1</sup> ishlashni so'rashdi. Men bosma dastgohda ishlaydigan sheriklarimni tark etdim. Harf teruvchilar mendan «bien venu» («o'lpon») yoki ichkilik uchun pul berishni talab qilishdi. Men buni majburlash deb qabul qildim. Xo'jayin ham shu fikrda edi va menga to'lashni taqiqladi. Men ikki yoki uch hafta chidadim. Xulqimga yarasha meni quvg'un qilishga munosib deb hisoblardilar. Boshimga juda ko'p mayda-chuyda balolar solishdi. Xonadan oz vaqtga chiqib qolguday bo'lsam, harflarimni almash tirib qo'yish, sahifalarimni siljitib yuborish, taxtamni sindirib qo'yish va boshqa ko'p qiliqlarni misol qilish mumkin. Bularning hammasini ibodatxonadagi ruhning ishiga yo'yishar edi. Ularning fikricha, bu ruh odatda jamoa yaxshi qabul qilmagan odamni mana shunday ta'qib qilar emish. Men xo'jayinning himoyasiga qaramay, qoidaga bo'ysunishga va pulni to'lashga majbur bo'ldim. Xullas, doim birga ishlaydigan odamlar bilan yomon munosabatda bo'lish ahmoqlik ekanligiga iqror bo'ldim.

Shunday qilib, ular bilan munosabatlarimiz yaxshilandi va tez orada jiddiy ta'sirga ega yigitga aйландим. Men ularning ibodatxona qonunlariga oqilona o'zgartirishlar kiritishni taklif qildim<sup>2</sup>. Takliflarimni barcha qarshiliklarga qaramay ilgari surdim. Mendan namuna olib, ularning aksariyati pivo va non-u

---

<sup>1</sup> Bu vaqtga kelib, Franklin, asosan, qo'l mehnati bilan bog'liq bosma dastgohlarda ishlashni tark etgan, ko'proq mahorat va zakovat talab qiladigan faoliyat turini tashkil etishni boshlagan.

<sup>2</sup> Birinchi ingliz matbaachisi Kakston o'z bosma ishlarini Vestminster abbatligiga qo'shilgan bir ibodatxonada olib borganligi sababli bosmaxona dastlab ibodatxona deb atalgan.

pishloqdan iborat ko'ngilni aynitadigan nonushtadan voz kechishdi. Chunki ular men bilan birga qo'shni uydan olib kelib beriladigan, qalampir sepilgan, non ushatib bo'ktirilgan, ozgina sariq yog' qo'shilgan, qaynoq suvda pishirilgan bo'tqa solingan tog'orachani bir pinta pivoning puliga, ya'ni uch yarim penniga olib yeyishni afzal bilishdi. Bu foydaliroq, qulayroq va arzonroq nonushta edi. Hech kimning boshi ham og'rimas va tiniq bo'lardi. Kun bo'yi pivo ichish odatini tark etolmaganlar ko'pincha pivoxonaga pul to'lamay, ishonchdan chiqib, nasiyaga pivo ololmaganliklari uchun mendan pivo olib kelishga yordamlashishni iltimos qilishar edi. Chunki o'zlarining so'zlari bilan aytganda, «chiroqlari o'chib qolgan» bo'lardi. Men shanba kunidagi to'lov jadvalini kuzatardim va ular uchun o'zim nasiyaga olgan «chiroqlar»ning haqini yig'ardim. Ba'zan ular uchun bir haftaga o'ttiz shillinggacha pul to'lashga majbur bo'lardim. Bu hol va mening ko'pchilik hurmat qila boshlagan xislatlarim, ya'ni og'zaki hazil-kinoya ustasi ekanligim jamoadagi maqomimni yuqorida tutib turardi. Mening doim ish joyimda bo'lishim (men hech qachon Avliyo-Dushanba<sup>1</sup> kunini nishonlamaganman) xo'jayinga ma'qul keldi. Harf terishda favqulodda tezkor va chaqqonligim tufayli menga jo'natish bo'yicha barcha ishlarini topshirishni boshlashdi. Bu ishga odatda ancha yaxshi haq to'lanar edi. Endi ishlarim ancha yaxshi keta boshladi.

Kichik Britaniya hududidagi turar joyim juda uzoqligi uchun Dyuk-Stritda joylashgan Romish ibo-

---

<sup>1</sup> Shanba kuni topilgan ish haqini behuda sarf qilish aqidasiiga asoslangan dam olish kuni.

datxonasi qarshisidagi boshqa bir xonadonga ko'chdim. Bu joy qandaydir bir Italiya omborining orqa tomonida, ikkinchi qavatda edi. Uning egasi bir beva ayol bo'lgan. Uning qizi, ayol xizmatkori va omborga qatnaydigan, ammo boshqa joyda yashaydigan oddiy ishchisi bor edi. U men oxirgi yashagan uyga qanaqa odamligimni bilib kelish uchun jo'natgan odami qaytib kelgandan keyin xuddi avvalgi narxda – haftasiga 3 shilling 6 penniga – yashashimga rozilik berdi. Yon berganining sababini uyda erkak kishi bo'lsa, himoyaga umid qilsa bo'ladi, deb tushuntirdi. U protestant oqimida tarbiyalangan keksa beva ayol edi. Ruhoniyning qizi bo'lgan, ammo katolik diniga uni eri kiritgan. Erining xotirasini chuqur hurmat bilan yodga olardi. Uning so'zlariga ko'ra, o'ta nufuzli odamlar orasida uzoq vaqt yashagan emish. Qirol Karl II davriga oid minglab voqealarni bilar-kan. Podagra<sup>1</sup> kasalligi tufayli u tizzalarida cho'loqlanib yurardi. Shuning uchun, birov bilan ikki og'iz suhbatlashish uchungina xonasidan ahyon-ahyonda chiqardi. U bilan suhbatlashish juda maroqliligi tufayli, men qachon xohlasa, kechki payt suhbatlashib o'tirishga tayyor edim. Kechki ovqat uchun har birimiz sariyog' surtilgan yupqa kesilgan non bo'lagi bilan yarimtadan anchous<sup>2</sup> tanovul qilardik. Bu paytda bir pinta pivoni ikkimiz bo'lib ichardik. Ammo xursandchilik bu ayol bilan suhbatda edi. Doim kun tartibi vaqtlariga rioya qilganim, oila uchun deyarli

---

<sup>1</sup> Podagra – odamlar va hayvonlar organizmida purin moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan surunkali kasallik.

<sup>2</sup> Anchous – mayda dengiz balig'i va undan tayyorlanadigan konserva.

noqulayliklar keltirmasligim tufayli u mendan ajralib qolishni istamasdi. Bu holat ish joyimning yaqinida haftasiga ikki shilling ijara haqiga turar joy mavjudligini eshitganim va pul tejash niyatim haqida gap ochganimda yaqqol namoyon bo'ldi. Xonim bu haqda o'ylamaslikni aytdi. O'z navbatida, menga bundan buyon ijara haqini ikki shillingga qisqartirishga va'da berdi. Shu tariqa, men uning uyida bir shilling olti penni ijara haqiga Londonda qancha yashasam, bu uyda shuncha qoladigan bo'ldim.

Uyining boloxonasida yetmish yoshlardagi bir qari qiz o'zini o'ta xilvatda tutib yashar edi. Uy egasi bu ayol haqida menga quyidagilarni so'zlab berdi: Rim katolik diniga mansub. Yoshligida xorijga jo'natilgan. Monastirda yashagan va rohiba bo'lishni xohlagan. Vatanda yaqinlari bunga rozilik bermagan va Angliyaga qaytib kelgan. Angliyada monastirlar yo'qligi tufayli mavjud sharoitlarda imkoni boricha rohibaday yashashga qaror qilgan. Binobarin, u o'zining barcha mol-mulkini xayriya maqsadlariga bergan. O'zi uchun yiliga atigi o'n ikki funtni tirikchilik uchun ajratgan. Bu pul miqdoridan ham xayriya ishlariga ko'p mablag' sarflar ekan. O'zi esa faqat suvda pishirilgan bo'tqa bilan qanoatlanar, olovdan esa faqat bo'tqani qaynatish uchun foydalanar ekan. U boloxonada ko'p yillardan beri yashab kelar ekan. Pastdagi uyda yashaydigan hayotda muvaffaqiyatga erishgan katoliklar hisobiga boloxonada bepul yashashga ijozat berilgan ekan. Chunki ular bu insonning shu yerda yashashini Xudoning bir inoyati deb bilishar ekan. Ruhoniy har kuni uning oldiga tavbalarini qabul qilish uchun kelar ekan.

– Men undan, – dedi uy egasi bo'lgan xonim, – bunaqa, ya'ni o'z hayot tarzi tavbalarni qabul qiluvchi bo'lgan ruhoniy uchun bunchalar ko'p gunohlarni qayerdan topishini so'radim.

– Qaniydi, debdi u, – o'rinsiz, behuda fikrlardan qochishning iloji yo'q-da.

– Menga uning oldiga kirib suhbatlashish uchun bir marta ijozat berishdi. U quvnoq, muloyim va suhbatlari maroqli edi. Xona toza, lekin mebel, bitta matras, ustiga xoch va kitob qo'yilgan stol-stuldan boshqa hech narsa yo'q edi... U menga stulga o'tirishga ruxsat berdi. Mo'rining tepasida Iso payg'ambaring qon oqib turgan yuzi tasviri mo'jizaviy tarzda tushgan dastro'moli qo'lida ko'rinib turgan Avliyo Veronikaning rasmi<sup>1</sup> bor edi. U menga tasvirning mo'jizaviy tarzda tushib qolganini o'ta jiddiylik bilan tasvirlab berdi. U rangpar ko'rinardi, lekin hech qachon kasal bo'lmagan. Bu yerda ushbu fikrimni ozgina daromad bilan hayot va sog'liqni saqlash mumkinligiga misol sifatida keltirmoqdaman.

Uottning bosmaxonasida Vaygeyt ismli qarindoshlari boy, aqlli, bosma dastgohda ishlaydigan aksariyat odamlardan yaxshiroq savodi bor yigit bilan tanishdim. U lotin tilini o'rta darajada bilar, fransuz tilida gapira olar va o'qishni yaxshi ko'rardi. Ikki marta daryoga birga olib borib, unga va bir do'stiga suzishni o'rgatdim. Ular tez orada yaxshi suzuvchilarga aylanishdi. Ular meni Chelsi kolleji va

---

<sup>1</sup> Rivoyat qilinishicha, u Iso payg'ambarni xochga chormix qilib qatl etishga olib ketish yo'lida uchratgan va unga yuzidagi qonni artish uchun dastro'molchasini taklif qilgan. Shundan keyin dastro'molchada doim Iso payg'ambarning qon chiqayotgan yuzi tasviri mavjud bo'lgan emish.

Don Salteroning g'aroyib narsalarini ko'rish uchun dengiz orqali Chelsiga borgan, qishloq tomonlardan kelgan ba'zi janoblar bilan tanishtirishdi.<sup>1</sup> Ortga qaytishimizda, qiziquvchanligi Vaygeytni hayratga solgan jamoaning iltimosiga ko'ra, kiyimlarimni yechdim va daryoga sho'ng'ib, Chelsiga yaqin joydan Blekfrayernikigacha<sup>2</sup> suzib bordim. Yetib borguncha suv ustida ham, suv ostida ham turli akrobatik hunar va o'yinlar namoyish qildim. Bu odamlarni hayratga soldi va xushnud qildi, chunki ular uchun bu yangilik edi.

Bolaligimdan bunday mashqlarni yaxshi ko'rardim. M. Tevenotning<sup>3</sup> harakatlari va holatlarini o'rganib, ularni amalda qo'llaganman. Shakllar va usullar chiroyli, oson hamda foydali bo'lishi uchun o'zimdanda ham ba'zilarini qo'shgandim. Imkoniyatdan foydalanib, bularning barchasini atrofda yig'ilganlarga namoyish etdim va ularning hayratidan zavqlandim. Suzishda usta bo'lishni xohlagan Vaygeyt bu boradagi ishtiyoqi hamda o'rgangan sohalarimiz o'xshash bo'lgani uchun men bilan ancha yaqin bo'lib qoldi. Keyinchalik u menga butun

---

<sup>1</sup> Jeyms Solter, Hans Slounning sobiq xizmatkori, Chelsi hududida Cheyn Yo'lagi (Cheyne Walk) ko'chasida yashagan. «Uning uyi, sataroshxonani odamlar Don Salteroning qahvaxonasi sifatida bilishgan. G'aroyibotlar shisha qutilar ichida bo'lgan. Ular ajoyib va rang-barang to'plamni tashkil etgan: Xitoydan olib kelingan toshga aylangan qisqichbaqa, yog'ochga aylangan cho'chqa, Ayyub payg'ambarning ko'z yoshlari, Madagaskardan olib kelingan nayzalar, Uilyamning (William the Conqueror) olov chiqaruvchi qilichi va qirol Genri VIII ning pochta plashi». (Smit).

<sup>2</sup> Taxminan uch milya.

<sup>3</sup> Melxisedex Tevenot – «Suzish san'ati» («The art of swimming») qo'llanmasi muallifi.

Yevropa bo'ylab sayohat qilishni taklif qildi. Sayohat xarajatlari uchun mablag'ni esa qayerga borsak, o'sha yerda o'z kasbimiz bo'yicha ishlab topishimiz mumkinligini aytdi. Men bir vaqtlar bunga moyil edim. Bo'sh vaqtlarimda yaxshi do'stim janob Denhem bilan biror soat suhbat qurardik. Unga sayohat haqida gap ochganimda, meni bu fikrdan qaytardi. Menga faqat Pensilvaniyaga qaytish haqida o'ylashni maslahat berdi. O'zi ham yaqin orada qaytmoqchi ekanligini aytdi.

Men bu yaxshi odam xarakteriga xos bir xususiyatni qayd etib o'tishim kerak. U ilgari Bristolda biznes bilan shug'ullangan. Ammo bir qancha odamlar oldida qarzdor bo'lib qolgan, ahvoli yomonlashib Amerikaga ketgan. U yerda savdogarlik bilan astoydil shug'ullanib, bir necha yil ichida mo'l-ko'l boylikka ega bo'lgan. Men bilan birga kemada Angliyaga qaytgach, o'ziga avval qarz bergan odamlarni ziyofatga taklif qilgan. Ziyofat davomida qarz berganlarga unga yengil shartlar qo'yishgani uchun minnatdorchilik bildirdi. Ular ziyofatdan boshqa hech narsa kutmay o'tirishgan edi. Ammo har bir erkak birinchi harakatidayoq o'z likopchasi ostidan bankir uchun to'lov orderini topdi. Unda to'lanmagan qoldiq qarzning foizlari bilan to'liq miqdori ko'rsatilgan edi.

Bu safar u menga Filadelfiyaga qaytmoqchi ekanligini va u yerda do'kon ochish uchun juda ko'p miqdordagi mollarni olib borishi kerakligini aytdi. Shu bilan birga, menga o'z xodimi (klerki) lavozimini taklif qildi. O'z ko'rsatmalariga ko'ra, xodimning vazifalari uning buxgalteriya kitoblarini yuritish, xatlaridan nusxa ko'chirish va do'konni boshqarishdan

iborat. U savdogarlik ishini yaxshi o'rganib olganidan keyin meni un, non va boshqa mollar yuklangan kema bilan Vest-Indiaga jo'natishini aytdi, bundan tashqari, mening lavozimimni ko'tarish niyati borligini ham qo'shib qo'ydi. Qolaversa, boshqa odamlardan narx qo'shib sotish uchun kattagina foyda keltiradigan mollar olib berishini va yaxshi uddalasam, menga yaxshi bir ish tashkil qilib berishini ham aytdi. Bu taklif menga ma'qul keldi. Londondan zerikib, buning ustiga charchagan edim. Pensilvaniyada baxtiyor o'tkazgan oylarni mamnunlik bilan esladim va uni ko'rishni xohladim. Shu sababli, Pensilvaniya pulida yiliga ellik funt maosh<sup>1</sup> olib ishlash shartiga darhol ko'ndim. Albatta, bu maosh men harf teruvchi sifatida olayotgan puldan kamroq, ammo yaxshi istiqbol mavjudligi uchun arzirli deb o'yladim.

Bosmaxona ishini tashladim. Butunlay ketaman deb o'ylagandim. Chunki, yangi biznesda har kuni band edim. Janob Denhem bilan turli mollarni xarid qilish uchun turli joylarga borardik, ularning qadoqlanishi kuzatardik, mollarni tekshirib chiqardik. So'ng ishchilarning yuklarimizni ortib jo'natishlarini borib tekshirar edik va hokazo. Hamma mollar kemaga ortilgach, bir necha kun dam olish imkonim bo'lar edi. Shu kunlarning birida meni o'zim faqat nominigina eshitgan bir buyuk inson janob Uilyam Vindhem oldiga chaqirdi. Bundan hayratga tushdim va allanechuk hayajon bilan u kishini kutib o'tirdim. Ushbu janob kimdandir mening Chelsidan Blekfrayerzgacha suzib borganim, Vaygeyt va boshqa bir

---

<sup>1</sup> Taxminan 167 dollar.

yigitga bir necha soat ichida suzishni o'rgatganim haqida eshitganmish. Uning ikki o'g'li bo'lib, safarga o'tlanib turgan ekanlar. U kishi o'g'illariga safardan oldin suzishni o'rgatish lozimligi haqida qaror qilibdi. Ularga suzishni o'rgatsam, meni yaxshigina rozi qilishini aytdi. O'g'illari hali shaharga kelmagan ekan va mening ularnikida qolish-qolmasligim aniq emas edi. Shuning uchun bu ishni boshlay olmadim. Ammo bu voqeadan, agar men Angliyada qolib, suzish maktabini ochganimda, yaxshi pul topishim mumkin edi, deb o'yladim. Bu fikr meni shunday band qildiki, agar bu taklif oldinroq berilganida edi, balki Amerikaga bunchalar tez qaytmagan bo'lardim. Ko'p yillar o'tgach, janob Uilyam Vindhemning bu vaqtga kelib, Egrmont Grafi maqomiga erishgan o'g'illaridan biri bilan ancha muhimroq masala bo'yicha uchrashganimiz. Bu haqda o'z o'rnida aytib o'taman.

Shunday qilib, Londonda taxminan o'n sakkiz oy vaqtim o'tdi. Bu vaqtning asosiy qismini o'z kasbimda qattiq ishlash bilan o'tkazdim. Spektakllarga borish va kitob o'qishdan tashqari shaxsiy hayotimga juda kam e'tibor berdim. Do'stim Ralfning dastidan kambag'allashdim ham. U mendan yigirma yetti funt qarzdor edi. Bugunga kelib, bu pulni hech qachon qaytarib ololmasligimni bilardim. Ammo mening kichik daromadlarim bilan taqqoslaganda, bu juda katta miqdor edi. Shunga qaramay, men uni yaxshi ko'rardim, chunki unda o'ziga tortadigan ko'p fazilatlar bor edi. Men umuman boylik orttira olmadim. Ammo bir nechta aqlli, kashfiyot va tashabbusga ega tanishlar orttirdim va ular bilan muloqot menga ko'p foyda keltirdi.

## VII

### FILADELFIYADA TADBIRKORLIKNI BOSHLASH

Biz Greyvsenddan 1726-yil 23-iyul kuni kemada dengizga chiqdik. Safar davomida sodir bo'lgan voqealarni bilish uchun senga kundaligimni o'qib chiqishni tavsiya qilaman. Undan barcha voqealarning batafsil bayonini topasan. Ehtimol, o'z hayotimni kelajakda boshqarish uchun o'zim dengizda tuzgan reja<sup>1</sup> bu kundalikning eng muhim qismi bo'lsa kerak. Bu rejani tuzganimda ancha yosh edim. Ammo keksayib qolgunimcha unga to'la rioya qilib kelayotganligim uchun ham ko'proq e'tiborga loyiq bu reja...

U Biz 11-oktyabr kuni Filadelfiyaga yetib kelib, langar tashladik. U yerda men turli o'zgarishlarni ko'rdim. Bu vaqtga kelib, Kit endi gubernator emas, uning o'rnini mayor Gordon egallagan edi. Men uni ko'chalarda oddiy fuqaro kabi yurganida ko'rib qoldim. U meni ko'rib, o'zini biroz uyalganday his qildi, lekin hech narsa demasdan o'tib ketdi. Agar Rid xonimning do'stlari mening xatimni olgach, qaytib kelishimdan umid uzib, uni boshqa bir odamga turmushga chiqishga ko'ndirmaganlarida men ham shunday uyalgan bo'lar edim. Men yo'qligimda u Rojers ismli kulolga turmushga chiqibdi. Ammo u Rojers bilan baxtli bo'lmagan va tez orada undan ajralibdi. Shundan keyin u bilan birga yashashdan yoki uning ismini aytishdan bosh tortgan. Aytish-

---

<sup>1</sup> «Franklinning qog'ozlari orasida qoldirilgan bu qo'lyozma kundalikda topilmadi». (Bigelou).

laricha, Rojers boshqa ayolga uylangan ekan. Juda yaxshi ishchi bo'lsa ham, hech narsaga yaramaydigan yigit ekan. Rid xonim do'stlarining e'tiborini uning mehnatsevarligi tortgan bo'lsa kerak. U qarzga botgach, 1727-yoki 1728-yilda Vest-Indiyaga qochib borgan va o'sha yerda vafot etgan. Keymer esa yaxshiroq uy olibdi. Do'koniga kanselyariya mollari risoladagiday yetkazib beriladigan bo'libdi. Yangi harf qoliplari juda ko'payibdi. Mahoratlari zo'r bo'lmasa ham ishchilari soni ko'p ekan va buyurtmalardan nolimaydigan bo'libdi.

Denhem Uoter ko'chasida bir do'kon oldi. Biz u yerda mollarimizni quti va qoplardan chiqarib qo'yib taxladik. Tirishqoqlik bilan ishladik. Hisobotlarni o'rgandik va tez orada savdoda ekspertlarga ayladik. Biz birga yashardik va birga ovqatlanardik. U meni samimiy hurmat qilib, otalarcha maslahatlar berardi. Men uni hurmat qilardim va yaxshi ko'rardim, biz birga juda ko'p muvaffaqiyatlarga erishishimiz mumkin edi. Ammo 1726-toki 1727-yil fevral oyining boshida, men endi yigirma bir yoshga to'lganimda, ikkalamiz ham kasal bo'lib qoldik. Men plevritga chalingan ekanman. U meni narigi dunyoga olib ketishiga sal qoldi. Kasallik meni ko'p qiynadi. Hatto xayolimda amaldagi rejadan voz kechdim ham. Ahvolim yaxshilanishni boshlaganda esa ertami-kechmi o'sha o'zimga yoqmagan ishni qaytatdan bajarishni boshlashim zarur bo'lishini o'ylab, ancha pushaymon ham bo'ldim. Denhemning nima bilan kasallangani yodimda yo'q. U uzoq vaqt xasta yotdi, oxir-oqibat bu kasallikdan vafot etdi. O'zining menga nisbatan mehr-oqibati belgisi sifatida og'zaki

tarzda qilgan vasiyatida menga kichik meros qoldiribdi. U meni yana bir marta keng dunyoda yolg'iz qoldirdi. Chunki do'kon uning vasiylarining mulkiga o'tdi va uning qo'l ostida ishlashim tugadi.



Pochcham Holms o'shanda Filadelfiyada edi. U o'z biznesimga qaytishimni maslahat berdi. Keymer esa yiliga katta maoshlar to'lash va'dalari bilan o'zi tomoniga o'tib ishlashga qiziqtirar edi. U o'z bosmaxonasining boshqaruvini zimmamga olishimni so'radi. O'zi esa kanselyariya mollari do'konini boshqarishga o'tishini aytdi. Londondaligimda xotini va tanishlaridan uning fe'l-atvori yomonligini eshitgandim. U bilan boshqa biror ish qilish fikri menga ma'qul ko'rinmadi. Shuning uchun boshqa bir sav-

dogarning xodimi sifatida yangi ish topishga harakat qildim. Ularning birortasi bilan ko'rishishga tayyor emasligim tufayli men yana Keymer bilan shartnoma tuzdim. Uning uyida quyidagi ishchilar bor ekan: o'ttiz yosh atrofidagi, kelib chiqishi uelslik, Pensilvaniyada yashaydigan Hyu Meredit. Qishloq ishlariga o'rgatilgan ushbu vijdonli, aqlli yigit jiddiy tajribaga ega, biroz kitob o'qiydigan, ammo ichkilikka berilgan odam edi. Stiven Potts – balog'atga yetgan qishloq yigiti. Xuddi qishloq ishlarini bajarishga o'rgatilgan, g'ayritabiiy jismoniy xususiyatlarga ega, o'ta aqlli va hazilkash, ammo biroz dangasaroq inson. Keymer ular bilan haftasiga juda kam, ammo uch oydan keyin o'z ishlarida yaxshi ko'rsatkichlarga erishsalar, ko'tarilishlari mumkinligi sharti bilan maoshga kelishgan ekan. Bir kun kelib, maoshning oshishiga bo'lgan shu umid ularni Keymerning qo'l ostida ishlashni davom ettirishga majbur qilib turgan bir ilinj ekan. Meredit bosma dastgohda ishlashga, Potts kitob muqovalashga mas'ul. Shartnomaga ko'ra, ayni kasblarning hech birini bilmasa ham, Keymer bu ishlarni ularga o'rgatishi kerak bo'lgan. Jon ... telbanamo irlandiyalik. Hech bir ishga o'rganmagan, o'rgatilmagan. Keymer uning xizmatlar shartnomasini bir kema kapitanidan to'rt yilga sotib olgan. Jon ham bosma dastgohda ishlashga yoqlangan ekan. Jorj Vebb – Oksford talabasi. Uning xizmat shartnomasi ham xuddi Jonniki kabi to'rt yilga o'sha kungacha sotib olingan va Keymer uni harf teruvchilikka o'rgatishni niyat qilgan. Nihoyat, qishloq yigiti David Harri. Uni Keymer shogirdlikka qabul qilgan.

Tez orada Keymer meni nega muncha katta haq to'lashga rozi bo'lib, ishga taklif qilganini anglab yetdim. Avval bunday maosh to'lamasdi. Uning rejasini quyidagicha edi: Men ushbu xom va xizmatini arzon yigitlarni ishga yaxshi o'rgatishim kerak. Yigitlar ishni puxta o'rganganlaridan keyin uning menga hojati qolmaydi. Ishchilar esa shartnoma bilan bog'liq bo'lganligi sababli, qolib ishlashga majbur bo'lishadi. Ammo men ishni juda ko'tarinkilik bilan davom ettirdim. Uning pala-partish bo'lib ketgan bosmaxonasini tartibga soldim. Ishchilarini o'z kasblarini bajara oladigan va yaxshi bajaradigan darajagacha tayyorladim.

Bu vaziyatda Oksford talabasiga xizmatlari sotib olingan xizmatkor sifatida qarash adolatdan emas, albatta. U yoshi o'n sakkizdan o'tmagan yigit edi. Glosterda tug'ilgan, o'sha yerda grammatika maktabida o'qigan, spektakllar qo'yishganida, o'z rolini o'ynashda alohida iqtidor namoyish etgan. U yerda Vitti Klub (Witty Club) a'zosi bo'lgan hamda nasr va nazmda ijod qilgan. Gloster ularni o'z gazetalarida e'lon qilgan. So'ng uni Oksfordga o'qishga yuborishgan. Bir yilcha o'qigan, ammo o'qishdan ko'p qoniqmagan. Londonni ko'rish va aktyor bo'lish xohishi hamma narsadan ustun kelgan. Oxir-oqibat o'n besh gineyaga<sup>1</sup> teng chorak pulini olgach, qarzlarini to'lash o'rniga, shahardan chiqib ketgan. O'qish kiyimini kichik bir chakalakzor orasiga tashlab, Londonga yo'l olgan. Maslahat beruvchi

---

<sup>1</sup> Gineya – Britaniya pul birligi (guinea). 1 gineya = 1 funt 1 shilling (21 shilling).

do'stlari yo'qligidan, yomon odamlar orasiga tushib qolgan. Pullarini ham tez orada sarflab bo'lgan. Aktyorlar doirasiga kirib tanishish uchun biror yo'l, vosita topolmagan. Hech narsasi qolmagach, kiyimlarini garovga qo'ygan va non-yegulik sotib olgan. Endi nima qilishni bilmay ko'chada juda och yurganida uning qo'liga bir yuk tashuvchining<sup>1</sup> e'loni tushib qolibdi. Unda darhol o'yin-kulgi imkoniyati va Amerikada xizmat qilishga bel bog'lagan odamlarga taklif bo'lgan. U o'sha kuniyoq boribdi va shartnomalarni imzolabdi. Kemaga chiqibdi va o'zi nima ishlarga qo'l urgani haqida do'stlariga xabar berish uchun ikki enlik ham xat yozmay bu yerga kelib qolibdi. U sho'xgina, zukko, xulq-atvori yaxshi va yoqimli suhbatdosh, ammo shu bilan birga, dangasa, o'ylamay ish qiladigan, haddan ortiq ehtiyotkorlikni bilmaydigan yigit edi.

Irlandiyalik Jon tez orada qochib ketdi. Qolgan ishchilar bilan juda inoqlikda ishlay boshladim, chunki ularning menga nisbatan hurmati oshib bordi. Ular Keymer hech narsani o'rgatishga qodir emas deb hisoblashar, mendan esa har kuni nimanidir o'rganishar edi. Shanba kuni Keymer uchun Shabbat bayrami bo'lgani sababli bu kunlari hech qachon ishlamasdik. Ya'ni kitob o'qish uchun tasarrufimda ikki kun bor edi. Shahardagi aqlli, iqtidorli odamlar orasida tanishlarim soni oshdi. Keymerning o'zi menga yuqori darajada xushmuomalalik

---

<sup>1</sup> Yuk tashish kompaniyasining vakili kabi agentlarni ba'zan erkaklarni bu yerda aytib o'tilgan kabi xizmatlarga aldab jalb qilish uchun yollashgan.

va yaqqol ko'rinib turadigan hurmat bilan munosabatda bo'layotgandi. O'shandagina meni Vernonga berishim kerak bo'lgan qarzdin boshqa hech narsa bezovta qilmay qo'ygandi. Uncha yaxshi iqtisodchi bo'lmaganim sababli Vernonning qarzini to'lashga qurbim yetmay turgandi. Baxtinga, u qarzni qaytarishni talab qilmadi.

Ko'p hollarda bosmaxonamizga yangi harf qolip turlari kerak bo'lardi. Ammo Amerikada harf qoliplarini quyuvchilar deyarli yo'q edi. Londonda Jeymsning ustaxonasida harflarni quyishganini ko'rgandim. Ammo bu ishni qay usulda qilinishiga unchalik e'tibor bermagandim. Yo'lini qilib, qolip yasashni o'ylab topdim. O'zimizda bor harflarni punsonlar (namunalar) sifatida ishlatdik, qo'rg'oshindan matritsalar quyib oldik. Shu yo'sinda, barcha yetishmovchiliklarimizni yetarli darajada bartaraf qilib oldik. Bunga qo'shimcha ravishda, zarur bo'lganda, bir necha narsalarni o'yib yasay olardim. Siyoh tayyorlar, omborchi vazifasini ham bajarardim. Xullas, qo'lidan hamma narsa keladigan usta bo'lib qolgandim.

Lekin qancha ko'p foydam tegishiga qaramay, xizmatlarimning ahamiyat darajasi kamayib bordi. Chunki boshqa ishchilarning ham mahorati oshib borayotgandi. Keymer ikkinchi chorak uchun maoshimni to'ladi. So'ng u menga maoshlarim endi ancha «og'irlik» qilayotganini va ishdan bo'shasam ham bo'lishini aytdi. Uning xushmuomalaligidan asar ham qolmagan edi. Endi «xo'jayinlik» maqomiga o'tib oldi. Tez-tez kamchilik topishga urina boshladi. Tirnoq ichidan kir qidirar va har qanday vaqt-

da janjal chiqarishga tayyor edi. Shunga qaramay, uning og'ir sharoitlari bunga qisman sabab bo'lgan deb o'ylab, sabr-toqat bilan ishlashda davom etdim. Oxir-oqibat bir arzimas ish aloqalarimizni uzishga olib keldi. Sud binosi oldidagi shovqin-suronni eshitib, nimalar bo'layotganligini bilish maqsadida derazadan boshimni chiqardim. O'sha paytda ko'chada bo'lgan Keymer yuqoriga qarab, meni ko'rdi. Darhol baland ovoz va g'azablangan ohangda menga birovlarining ishiga chalg'imasdan, o'z ishimni qilishimni buyurdi. Boz ustiga, ba'zi tanbeh so'zlarni qo'shdi ham. Bu gaplar ko'pchilikning guvohligida aytilgani sababli juda achchig'imni chiqardi. Chunki uning menga bunday ohangda munosabat qilganligini manzarani derazadan kuzatib turgan qo'shnilar ko'rdi. U darhol bosmaxonaga kirib keldi va janjalni davom ettirdi. Ikkalamiz ham qo'pol so'zlar aytdik. U menga kelishganimizdek, chorak oxirida ishdan bo'shatilganim haqida ogohlantirish berdi. Ammo bu ogohlantirish bilan bunchalar uzoq muddat kutishga majbur qilmasligi haqida umid bildirdi. Men unga umid qilish shart emasligini, chunki men uni hoziroq tark etishimni aytdim. Shu gaplarni aytib, shlyapamni oldim va eshikdan chiqib ketdim. Birinchi qavatda Meredithni ko'rib, undan men qoldirgan narsalarni o'zi bilan olishni va ularni turar joyimga olib kelib berishini iltimos qildim.

Va'daga ko'ra, kechqurun Meredith mening oldimga keldi va biz bo'lib o'tgan voqeani muhokama qildik. U meni juda hurmat qilishini aytdi va bosmaxonaga uni yolg'iz tashlab ketayotganimdan afsusda edi. Men o'zim tug'ilib o'sgan joylarga borish

haqida o'ylayotgan edim. Meredit meni bu ishni qilmaslikka ko'ndirdi. U menga Keymer ishlatayotgan barcha mulkni qarzga olganini, qarz berganlar bezovta bo'lishni boshlashganini aytdi. U Keymerning do'konda ishlari yurishmayotganini, naqd pulga muhtojligi tufayli ko'pincha tovarlarni foiz qo'ymasdan sotayotganini ham bilar ekan. Buning ustiga, ko'pincha mollarni hisob qilmasdan nasiyaga ham berib yuborar ekan. Xullas, Mereditning fikricha, Keymerning xonavayron bo'lishi tayin va menda undan foydalanib olish imkoniyati bor ekan. Men pulim yo'qligi haqidagi fikrga e'tiroz bildirdim. Keyin u menga otasi men haqimda juda ijobiy fikrda ekanligini aytdi. Otasi bilan suhbatlardan shunisi ma'lum ediki, agar men u bilan sheriklikka rozi bo'lsam, otasining bizga ishni yo'lga qo'yib olish uchun pul berishiga amin edi.

— Bahorda, — dedi u, — Keymer bilan tuzgan shartnomamning muddati tugaydi. Ungacha biz Londondan o'zimiz uchun bosma dastgoh va harf qoliplarini olib kelishga ulgurishimiz mumkin. Namunali ishchi emasligimni yaxshi bilaman. Agar rozi bo'lsang, sening mahorat va tajribang men olib keladigan mablag' bilan birlashadi, foydani esa teng bo'lib olamiz.

Taklif menga ma'qul kelganligi sababli rozilik bildirdim. Uning otasi shaharda ekan va rejamizni ma'qulladi. Otasiga uning o'g'liga bo'lgan ijobiy ta'sirim ko'proq ma'qul keldi. Uni ichkilikbozlikni tark etishga ko'ndirgan edim. Otasi aloqalarimiz yaqin bo'lib ketsa, uni bu yaramas odatdan butunlay voz kechishiga majbur qilishimga umid qilardi. Men

Mereditning otasiga ro'yxat tuzib berdim. U ro'y-xatni savdogarga olib bordi. Keyin esa tovarlarni olib kelishga buyurtma berildi. Ammo ular yetib kelgunga qadar bu mavzuni sir tutishga kelishib oldik. Ayni vaqt ichida, imkon bo'lsa, men boshqa bosmaxonalarda o'zimga ish topishim kerak edi. Afsuski, u yerda bitta ham bo'sh ish joyi topa olmadim. Bir necha kun bekor qoldim. Bir kuni Keymer menga o'ta mulozamat bilan xat yuboribdi. Unda eski do'stlar kutilmaganda kelgan g'azab tufayli aytilgan ikki og'iz gap uchun ajralib ketmasligini, meni ishga qaytishimni so'rabdi. Ammo buning sababi boshqa masala edi. Nyu-Jersida bir muncha qog'oz pul banknotalarini bosmadan chiqarish shartnomasini olish ilinjida ekan. Bu ish uchun esa maxsus gravyuralar va harflarning turli xillari kerak ekan. Ularni esa faqat men tayyorlab bera olishim mumkin edi. Bredford meni bu ishga jalb qilishi va bu shartnomani uning burni ostidan olib ketishidan xavotirda bo'lgan. Meredit meni rozi bo'lishga ko'ndirdi, chunki bu unga mening kundalik ko'rsatmalarim bo'yicha o'z mahoratini yaxshilash uchun ko'proq imkoniyat berishini yaxshi bilardi. Shu tariqa, men bosmaxonaga qaytdim va biz bir muncha vaqt oldingiga qaraganda yaxshi hamda muammolarsiz ishladik. Nyu-Jersidagi shartnoma qo'lga kiritildi. Bu loyiha uchun men mis press tayyorladim. Bu mamlakatdagi birinchi mis pressi edi. Pul banknotalari uchun misdan bir necha gravyura va nazorat belgilari yasadim. Biz Berlingtonga birga bordik. O'z navbatida, men hamma ishni mamnu-niyat bilan bajardim. U ayni ish uchun shunchalik

katta mablag' oldiki, ancha muddat o'zini bemalol ta'minlay oladigan bo'ldi.

Berlingtonda men mintaqaning ko'plab nufuzli odamlari bilan tanishdim. Ulardan bir nechtasi Assambleya bosmaxona ishini tekshirish uchun qandaydir qo'mita tarkibiga tayinlangan edi. Qo'mitaning vazifasi qonunda belgilanganidan ortiqcha pul chop etilmasligini ta'minlashdan iborat edi. Shuning uchun ular navbatma-navbat bosmaxonamizda bo'lar edilar. Odatda, tekshirishga kelgan har bir odam o'zi bilan bir yoki ikki nafar do'stini sherik qilib olib kelardi. Ko'p kitob o'qishim tufayli mening fikrlash darajam Keymernikidan ancha yuqori ekanligini bilgach, ular men bilan suhbatlashishni afzal ko'rishardi. Ular meni uylariga qabul qilishar, do'stlari bilan tanishtirishar va juda ko'p mulozamat ko'rsatishardi. Bu orada mening xo'jayinim e'tibordan biroz chetda qolib ketdi. Aslida ham, u g'alati bir odam edi: odatiy hayotdan bexabar, boshqalarning fikrlariga qo'pollik bilan e'tirozlar bildirishni, andishasizlarcha beadablik qilishni odatga aylantirgandi. Dinning ba'zi masalalarida o'ta qiziqqon va boshqa ko'p masalalarda hiylagar edi.

Biz u yerda qariyb uch oy ishladik. Bu vaqtda o'rtoqlashib ulgurgan do'stlarim orasidan quyidagilarni ko'rsatishim mumkin: sudya Allen, Samuel Bastill, Mintaqa kotibi Isaak Pierson, Jozef Kuper va Assambleya a'zolari bo'lmish Smitlar, bosh inspektor Isaak Dekou. Isaak Dekou o'ta aqlli, ziyrak, farosatli keksa odam edi. U menga o'z hayot tarixini so'zlab berdi. Ishini yoshligida g'isht pishiruvchilar uchun tuproq tashish bilan boshlagan. Voyaga yet-

gandan keyingina yozishni o'rgangan. Yer o'lchovchi uchun zanjir tashigan va ular unga yer o'lchashni o'rgatishgan. Bugunga kelib, o'z mehnati bilan katta yer-mulkka ega ekan. U menga: «Yaqin orada bu odamni ushbu ishdan siqib chiqarib yuborishingni va Filadelfiyada bu ishdan katta boylik orttirishingni oldindan anglab turibman», dedi. O'shanda u kishi-ning mening o'sha yerda yoki boshqa biror joyda ish tashkil qilish rejalarimdan mutlaqo xabari yo'q edi. Keyinchalik bu do'stlar men uchun juda ko'p yordam berishdi. O'z navbatida, ularning ba'zilariga mening ham nafim teggan. Ularning barchasi umrla-rining oxirigacha menga nisbatan hurmatda bo'ldilar.

Biznes olamida nazarga tushganligim haqida so'z yuritmoqchiman. Ammo undan oldin, senga o'zim-ning o'sha davrdagi hayotiy tamoyillarim va ma'naviyatim haqida aytib berishim o'rinli bo'lsa kerak. Shunda ular hayotimda kechadigan voqea-hodisalar-ga qanchalik ta'sir qilganini tushunasan. Diniy ma'lumotlarni yoshligimda ota-onamdan olganman. Ular taqvodorlik ruhini bolaligimdan noortodoksal yo'lda singdirib tarbiyalashgan. O'zim o'qigan kitoblarda bahslarga sabab bo'lgan bir necha masalalar mazmu-niga nisbatan shubha paydo bo'lgandan so'ng vahiy va qiyomat kuni borasida ham shubhalanishni bosh-laganimda endi o'n besh yoshga kirgan edim. Me-ning qo'limga yakkaxudolikka qarshi yozilgan ba'zi kitoblar<sup>1</sup> kelib tushdi. Yozishlaricha, ular Boylning

---

<sup>1</sup> Nasroniylarning XVIII asrda paydo bo'lgan diniy aqidasi. Unga ko'ra, mazkur diniy aqidaga e'tiqod qilganlar Xudoga ishongan holda, mo'jizalar sodir bo'lishiga ishonishni hamda vahiy sodir bo'lganini tan olishni xohlamagan.

ma'ruzalarida aytilgan va'zlarning mazmuni ekan. Kitoblar menda o'zlarida nazarda tutilganiga nisbatan teskari taassurot qoldirdi. Chunki deistlarning<sup>1</sup> kitoblarda inkor etilishi uchun keltirilgan dalil-isbotlari inkorlardan ancha kuchliroqday tuyuldi. Qisqasi, tez orada men butunlay deistga aylandim. Mening dalil-isbotlarim boshqalarni ham yo'ldan adashtirdi, ayniqsa, Kollinz va Ralfni. Ammo ular keyinchalik vijdonlari aslo qiynalmasdan menga yomonlik qilishdi. Biroq Kitning (u ham boshqa erkin fikrli odam edi-da) menga nisbatan qilgan ishini, Vernon Ridxonimga nisbatan o'zimning xulq-atvorimni yodga olsam (bu ish menga ko'p tashvishlar olib kelgan edi), bu ta'limot haqiqat bo'lishi mumkin bo'lsa-da, unchalik foydali emas, deb gumon qila boshladim. Londonda yozgan pamfletimga Draydenning<sup>2</sup> ushbu satrlari shior qilib olingan edi:

«Nima bo'lsa ham haqiqatdir:

Garchi ko'zi ojiz odam ham zanjirning eng yaqin halqasini ko'radi xolos. Uning ko'zlari yuqoridagi halqalarni bir xil ushlaydigan muvozanat tayanchini ko'ra olmaydi».

Xudoning sifatlaridan, uning cheksiz donoligi, mehribonligi va qudratidan dunyoda noto'g'ri narsaning o'zi bo'lishi mumkin emas, degan xulosaga keldim. Chunki yomonlik va ezgulik degan tushun-

---

<sup>1</sup> Deist – deizm tarafdori. Xudoni faqatgina ilk sabab, ya'ni yaratuvchi sifatida qabul qiladigan, boshqa kuch va sifatlarini tan olmaydigan, vahiyini rad etadigan qarash.

<sup>2</sup> Drayden (1631–1700) buyuk ingliz shoiri, dramaturg va tanqidchi. Satrlar Draydenning «Edip» asari III akti, I sahnasi, 293-satridan noto'g'ri iqtibos qilib keltirilgan.

chalarning o'zi yo'qligi sababli bu shunchaki farqlash ekanligini tushundim. Shu sababli, ular men avval o'ylaganimdek, unchalik aqlli tasavvurlar emas ekan. Shu asnoda, o'z dalil-isbotlarimda biror xatoga yo'l qo'ymadimmikan va bu xato undan keyingi mulohazalarimni ham noto'g'ri yo'lga burib yubormadimmikan, degan shubhaga bordim. Zero, bu metafizik asoslashda uchrab turadi.

Bora-bora odamlar orasidagi munosabatlarda haqiqat, samimiylilik va xayrixohlik hayot saodati uchun eng katta ahamiyatga egaligiga ishonch hosil qildim. O'z hayotimda amal qilish uchun yozma qarorlarni shakllantirdim. Ular hali ham kundalik daftarimda saqlanib qolgan. Vahiy, haqiqatan ham, men uchun muhim bo'lmay qoldi. Ammo ba'zi amallar vahiyda taqiqlanganligi uchun emas, balki ular bizga aslida ham ziyonligi uchun taqiqlanishi mumkin. Xuddi shu kabi, narsa-voqealarning tabiati, sodir bo'lish vaziyatiga bog'liq holda ba'zi amal va narsalarga hukm qilingani uchun emas, balki biz uchun aslida ham foyda, yaxshilik olib kelishi uchun ijozat berilgan bo'lishi mumkin. Mana shu ishonch, Xudoning mehribon inoyati yoki qaysi bir himoya qiluvchi farishtaning mehribon qo'li, yoki tasodifiy omad, qulay holatlar va vaziyatlar, yoki barchasi birgalikda meni yoshligimning xatarli yo'llarida va ba'zan begonalar bilan birga bo'lganimda, xavfli vaziyatlarda atayin qilinadigan axloqsizlik yoki adolatsizlikdan asrab keldi. Chunki dinsizlik holatimda sodir bo'lishi mumkin bunday hollarda otamning kuzatuvi va maslahatidan uzoqda edim. «Atayin» deyishimning

boisi men aytib o'tgan holatlarda yoshligim, tajribasizligim va boshqalarning muttahamligi sababli bunga zarurat bo'lgan. Shuning uchun men bu dunyoda o'z faoliyatimni boshlash uchun boshqalar toqat qilsa bo'ladigan xarakterga ega edim. Men uni tegishli qadrlab, saqlab qolishga qaror qilgandim.

Filadelfiyadan qaytganimizdan ko'p o'tmay Londondan yangi harf to'plamlari yetib keldi. Biz Keymer bilan ishlarni hal qilib oldik va uni tark etdik. Uni tashlab ketganimizni o'zi ham bilmay qoldi. Biz bozor yaqinida ijaraga uy topdik va unga joylashdik. O'sha paytda yiliga yigirma to'rt funt bo'lgan ijara haqini kamaytirish uchun idishlarga sir beruvchi Tomas Godfrini oilasi bilan birga qo'shib oldim. Ular ijara haqining katta qismini to'lay boshlashdi va biz ular bilan birga ovqatlanar edik. Vaholanki, keyin bilishimcha, o'sha joyning ijara haqi keyinchalik yetmish funtgacha ko'tarilgan. Tanishim Jorj Haus ko'chalarda bosmaxona izlab yurgan qishloqlik bir odamni yetaklab kelganida, biz endi harf to'plamlarini ochib, pressni tartibga keltirayotgan edik. Qo'limizdagi hamma naqd pulni ish uchun zarur narsalarni sotib olishga sarflagandik. Qishloqlik odam ayni zarur paytda bergan besh shilling pul biz ishlagan birinchi daromad edi va menga keyinchalik o'zim topgan har qanday puldan ko'proq mamnunlik berdi. Shuningdek, do'stim Hausga nisbatan minnatdorlik hissi balki keragidan ortiq bo'lsa ham, meni o'z ishini endi boshlayotgan yoshlarga yordam berishga tayyor turishga undar edi.

Har bir mamlakatda ham doimo ma'lum bir boshlangan ishning tez orada tanazzulga uchrashini

bashorat qiladigan vaysaqilar topiladi. O'sha paytda Filadelfiyada ham shundaylardan biri yashar edi. Nufuzli, kekxa, ko'zlari dono boquvchi va juda qo'pol tarzda so'zlaydigan bu insonning ismi Samuel Maykl edi. Bir kuni menga notanish bu janob eshigim oldiga kelib to'xtadi. Mendan o'sha yaqinda yangi bosmaxona ochgan yigit ekanligim haqida so'radi. Ijobiy javob olgach, menga rahmi kelishini aytdi. Uning fikricha, bu qimmatga tushadigan ish va xarajatlar bekorga boy berilar emish. Chunki Filadelfiya tanazzulga yuz tutayotgan joy ekan. Odamlar allaqachon yarim sinib bo'lgan yoki shunga yaqin, buning teskarisiga dalolat beradigan yangi binolar va ijara haqlarining oshishi, uning aniq bilishicha, yolg'on-u sarob emish. Aslida esa aynan shularning hammasi bizni halokatga olib kelarmish. U kishi menga hozir mavjud yoki tez orada sodir bo'ladigan baxtsizliklarning shunday tafsilotini berdiki, uning gaplari meni yarim xomushlikka soldi. Agar men uni bu biznes bilan shug'ullanishdan oldin bilganimda edi, ehtimol, ayni ishni hech qachon boshlamasmidim. Bu odam xuddi shu tanazzulga botayotgan joyda yashashni davom ettirdi. Ko'p yillar davomida nolishini qo'ymadi. Hatto u yerdan uy sotib olishdan ham bosh tortdi. Chunki butun hayot vayron bo'lish arafasida degan fikrida sobit edi. Vaholanki, bir kun kelib, u arz-u nolishni boshlagan paytlariga qaraganda besh barobar ko'p narxda uy sotib olganiga guvoh bo'lib, zavqlandim.

Bir narsani oldinroq aytib qo'yishim lozim edi. O'tgan yilning kuzida barcha aqlli tanishlarimni to'p-

lab, o'zaro takomillashtirish klubini tashkil etdim. Uni Jantou<sup>1</sup> deb nomladik. Klub a'zolari uchrashuvi har juma kechqurunga belgilandi. Men tuzgan klub qoidalarida har bir a'zodan, o'z navbatida, jamoa bo'lib muhokama qilish uchun axloq, siyosat yoki tabiiy falsafaning har qanday mavzusi bo'yicha bir yoki bir nechta savol o'ylab topish talabi mavjud edi. Har bir a'zo uch oyda bir marta o'ziga ma'qul bo'lgan har qanday mavzu bo'yicha esse yozishi, bahslarimiz prezident rahbarligida o'tishini nazarda tutardi. Ular haqni izlash ruhida samimiy tarzda o'tkazilishi belgilagan bo'lib, bahslashishga oshiqlik yoki bironing ustidan g'alaba qozonish kabi musobaqalarga yo'l qo'yilmasdi. Odamlar qizishib ketishining oldini olish uchun fikrlardagi ijobiylikning barcha ifodalari yoki to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilik, bir muncha vaqt o'tgach, noo'rin deb topildi va kichik moddiy jazo bilan taqiqlandi.

Klubning birinchi a'zolari quyidagilardan iborat bo'ldi:

Jozef Brintnal. Advokatlarning hujjatlaridan nusxa ko'chiruvchi, juda yaxshi xulqli odam. She'riyat ixlosmandi. Qo'liga tushgan har qanday narsani o'qiydigan va o'rtamiyona she'rlar ham yozib turadigan shaxs. Qo'lda yasalgan ko'plab kichik buyumlarni yaxshi tushunadi va aqlli suhbatdosh.

Tomas Godfri. Mustaqil o'rganib, matematik bo'lgan shaxs. O'z sohasida buyuk mutaxassis. Keyinchalik hozir «Hadli kvadranti» deb ataladigan asbobning ixtirochisi. Ammo u o'z sohasidan boshqa

---

<sup>1</sup> Jantou – ispancha atama bo'lib, siyosiy fitna uchun birlashishni anglatadi. Bu yerda klub yoki jamiyat ma'nosida kelmoqda.

narsadan umuman bexabar odam edi va yoqimli suhbatdosh, sherik ham emasdi. Hayotimda uchragan eng buyuk matematik olimlar singari u ham barcha narsadan universal aniqlikni kutar edi. Har qanday fikrni inkor qilar yoki ikir-chikir masalalar ustida ham gap talashardi. Bu odati bilan suhbatlarini buzardi va tez orada bizni tark etdi.

Nikolas Skall. Inspektor. Keyin bosh inspektor lavozimida ishladi. Kitobsevar inson edi va ba'ziba'zida bir necha satr she'r ham yozib turardi.

Uilyam Parsons. Poyabzal ishlab chiqarishni o'rgangan. Ammo kitob o'qishni sevadigan, matematikadan ancha bilimi bor odam. Matematikani astrologiyaga qiziqqanligi uchun o'rgangan. Keyinchalik astrologiyani o'rganganidan o'zi kulib yurardi. Kun kelib, u ham bosh inspektor lavozimigacha ko'tarildi.

Uilyam Mogrij. Duradgor, o'ta mahoratli mexanik va ishonchli, aqlli odam.

Hyu Meredit, Stiven Potts va Jorj Uebbning shaxsiyatlarini yuqorida tavsiflab o'tgandim.

Robert Greys. Biroz boyligi bor, saxiy, g'ayratli va aqlli yosh janob. So'z o'yini, hazil va do'stlarini yaxshi ko'radigan odam.

Nihoyat, Uilyam Koulman. Savdogarning xodimi (klerki), men bilan deyarli tengdosh. Men uchragan har qanday odamning eng zo'rlaridan biri, o'ta yuqori darajada sog'lom, aqlli, oliyjanob qalb egasi, beqiyos axloq va tarbiya ko'rgan inson. Keyinchalik u o'ta nufuzli savdogarga aylandi va mintaqalarimizning birida sudya lavozimida ishladi. U bilan do'stligimiz qirq yildan ko'proq vaqt davomida vafotiga

qadar davom etdi. Klub ham deyarli shuncha vaqt amal qilib keldi. O'sha paytda mintaqada mavjud bo'lgan falsafa, axloq va siyosatning eng yaxshi maktabi edi. Chunki muhokamasidan bir hafta oldin o'qib-o'rganiladigan mavzu va surishtirishlarimiz bizni bir necha fan sohasida diqqat bilan izlanishga undardi. Shundagina maqsadga mos gaplashsa bo'lardi. Buning ustiga, yaxshi suhbat yuritish usullarini ham o'rganar edik. Qoidalarimizga ko'ra, o'rganiladigan har qanday narsa bir-birimizni xafa qilishning oldini olishga qaratilgandi. Klubning uzoq vaqt davom etishi ham shu tufayli. Keyinroq bu mavzuga ko'p qaytaman.

Bu haqda yozishimning sababi klubning meni qiziqtiradigan jihatlari edi. Unda har bir kishi tadbirkorlik, ish loyihalarini taklif qilardi. Xususan, Brintnal bizga kvakerlardan ularning tarixi tushirilgan qirq varaqlik hisobotni chop qilishga olib keldi. Qolgan qismini Keymerning bosmaxonasida nashrga berishgan ekan. Boz ustiga, narxlar juda pastligi sababli, biz juda qattiq ishlashga majbur edik. Varaqlar ikkiga buklangan qog'ozda pro-patria shaklida, pika va long-praymer o'lchamida berilgan matn edi.<sup>1</sup> Uni kuniga bir varaqdan terdim va Meredith unga pressda ishlov berdi. Ko'pincha ertangi kun ishini taqsimlashni tugatganimda, kechasi soat o'n bir yoki undan keyingacha qolib ketardim. Chunki do'stlarimiz ba'zida jo'natib turadigan katta-kichik

---

<sup>1</sup> Bir varaq 8,5 x 13,5 dyumga teng, qog'oz yuzida shaffof harflar bilan so'zlari pro-patria tartibida yozilgan bo'ladi. Pika – harf/shriftning A B C D ko'rinishidagi o'lchami; Long-praymer – harf/shriftning A B C D ko'rinishdagi kichikroq o'lchami.

buyurtmalar ishimizni orqaga surardi. Kuniga ikki buklangan varaqdan bittadan harf terishga shunchalar qattiq berilib ketgan ekanmanki, bir kechqurun, harf to'plamlarimni pressga qo'ygach,<sup>1</sup> kuni bilan qilingan ishlar haqida o'yladim. Tasodifan ulardan biri sinib qoldi va terilgan ikki sahifa «pi»<sup>2</sup> ahvoliga kelib vayron bo'ldi. Harflarni darhol tarqatib terib, sahifalarning matnini uyquga yotishdan oldin terib qo'ydim. Bunday mehnat va tirishqoqligimizga qo'shnilarimiz guvoh edilar. Ya'ni bu ish bizning shaxsiyatimizni kuchaytirib, atrofdagilarning bizga nisbatan hurmatini qozonishga olib keldi. Xususan, menga aytilishi-cha, savdogarlarning kechki klubida yangi bosmaxona ochilgani haqida gap bo'libdi. Ko'pchilikning fikricha, u tez orada sinarmish. Chunki shaharda allaqachon ikkita: Bredford va Keymerning bosmaxonalari bor-ku. Ammo janob Beyrd (bu insonni sen bilan birga Shotlandiyaning Avliyo Endryusida, uning tug'ilib o'sgan vatanida ko'rganmiz) esa aksincha baho beribdi: «O'sha Franklin uchun o'z ishi hamma narsadan ustun. Bunaqasini ko'rmaganman. Men klubdan uyga qaytayotganimda uning hali ham ishlayotganini ko'raman. Tongda qo'shnilari uyqudan turib ulgurmay, u yana ishda bo'ladi». Bu qolganlarni hayratda qoldiribdi va ko'p o'tmay ularning biridan bizni kanselyariya mollari bilan ta'minlash bo'yicha takliflar oldik. Ammo biz hali savdo do'koni biznesi bilan shug'ullanish haqida qaror qilmagan edik.

---

<sup>1</sup> Chop etishga tayyor bo'lgan to'rtburchak temir ramkada sahifalarni yoki harflar to'plami ustunlarini tartibga solish va mahkamlab o'rnatish.

<sup>2</sup> Mutlaqo betartib holgacha qisqardi.

Men mehnatsevarligim haqida batafsilroq va erkinroq so'zlashim mumkin. Albatta, bu satrlar ularni o'qiydigan avlodlarimga o'zimni maqtayotganday tuyulishi tabiiy. Ammo bu xislat kelajakda mening foydamga qanday rol o'ynaganini bilishlari uchun shunday qilyapman.

Jorj Vebb bir ayol bilan do'stlashib qolibdi va u Vebbgga Keymerdan shartnoma bo'yicha qolgan xizmat vaqtini ozod qilishga yetarli qarz beribdi. Ozod bo'lgach, bizga o'z ishchilik xizmatlarini taklif qildi. O'sha paytda biz uni ishga ololmasdik. Ammo men unga yaqin orada gazeta ta'sis qilishim va o'shanda unga ish bera olishim haqidagi sirni ahmoqlik qilib, aytib qo'yibman. Men unga muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan umidlarim nimaga asoslanganligini aytib berdim. Bredford nashr qiladigan yagona gazeta hech narsaga arzimasa edi. Uning boshqaruvi yaxshimasdi. Ko'ngilochar hech narsasi yo'q, ammo Bredfordga foyda keltirayotgandi. Shuning uchun yaxshi gazetani odamlar, albatta, ma'qullasa kerak, deb o'ylardim. Men Vebbdan bu haqda hech kimga aytmaslikni so'radim. Lekin u bor gapni Keymerga aytibdi. Keymer darhol mendan oldin ulgurish maqsadida, gazeta chiqarishi haqida takliflar e'lon qildi. Vebbgga esa gazetada ish berishga va'da beribdi. Menga bu ma'qul kelmadi. O'zim gazetani ta'sis qilishga hali tayyor emas edim. Ammo ularga qarshi turish uchun Bredfordning gazetasida bir necha ko'ngilochar maqola chop ettirdim. Muallifning nomi Sertashvish Kishi (Buzy Body) deb ko'rsatdim va Brintnal bir necha oy shu nom bilan maqolalar

yozib turdi. Shu tariqa, jamoatchilikning e'tibori aynan shu gazetaga qaratiladigan bo'ldi. Keymerning bizni mazax qilib, bildirgan kulgili takliflari va hazili e'tibordan chetda qolib ketdi. U ham o'z gazetasi-ni ochdi. Ammo to'qqiz oy davomida atigi to'qson obunachini o'ziga jalb qila oldi, xolos. Keyin esa gazetani arzimas mablag' evaziga menga taklif qildi. Men gazetani biroz vaqt chiqarishga tayyorligim sababli darrov sotib oldim. Bir necha yildan keyin esa u menga juda katta foyda keltira boshladi.

Hamkorligimiz davom etgan bo'lsa-da, menda birinchi shaxs birlikda so'zlashga moyillik bor. Aslida buning sababi ishning butun boshqaruvi mening zimmamda bo'lganligidandir. Meredit umuman harf tera olmas, bosmada no'noq va haftaning oz kunlarida hushyor yurar edi. Do'stlarim u bilan aloqalarim borasida arz qilishardi. Ammo men bu munosabatdan imkon boricha foydalanishga majbur edim.

Bizning birinchi gazetalarimiz mintaqada oldin nashr etilganlaridan boshqacha ko'rinishda edi. Harflari yaxshiroq, sifatliroq chop etilgandi. O'sha paytda gubernator Berne va Massachusetts shtati Assambleyasi orasida davom etayotgan bahs borasida yozgan ba'zi otashin izohlarim yuqori martabali odamlarga katta ta'sir qildi. Gazeta va uning boshqaruvchisini ko'p muhokama qilishibdi. Bir necha hafta o'tmasdan bu insonlar gazetamizga obuna bo'lishdi.

Ulardan andoza olib, gazetamizga ko'pchilik obuna bo'lishdi va obunachilarimiz soni tinimsiz o'sib bordi. Bu mening yozishni endi o'rganganimdan

keyin erishgan birinchi yaxshi natijalarimdan biri edi. Yana biri esa gazeta, boz ustiga, mahorat bilan maqola yoza oladigan odamning qo'lida ekanligini tushungan yetakchi hamda nufuzli odamlar meni qo'llash va yordam berish qulay deb o'ylashni boshlaganlari edi. Bredford saylovlar, ovoz berish haqidagi ma'lumotlar, qonunlar va boshqa davlat hujjatlarini nashr etishda davom etardi. U deputatlar palatasining gubernatorga murojaatini qo'pol va xatolar bilan chop etib beribdi. Biz uni qaytadan nafis va to'g'ri holda chop etib, har bir a'zoga bitadan yubordik. Ular farqni yaqqol ko'rishibdi. Bu ish deputatlar palatasidagi do'stlarimizning maqomini kuchaytirdi va ular bizga keyingi yil uchun o'z bosmaxonalaridan foydalanishga ovoz berishdi.

Deputatlar palatasidagi do'stlarim orasida janob Hamiltonni unutmashim kerak. Bu paytgacha u Angliyadan qaytib kelgan va palataga saylangan edi. Palatada u mening ishlarim bilan juda qiziqardi. Boshqa joylarda ham u vafot etguniga qadar menga homiylik qilib, ko'p marta manfaatlarimni himoya qilgan.<sup>1</sup>

Taxminan shu paytlarda janob Vernon men undan olgan qarzni yodimga soldi, lekin bosim o'tkazmadi. Men unga minnatdorchilik maktubi yozib, yana biroz kutib turishni so'radim. U menga yana vaqt berdi. Imkon topgan zahotim qarzning asosiy qismini foizlari bilan to'ladim va ko'p minnatdorchilik bildirdim. Shu tariqa bu xato ma'lum darajada tuzatildi.

---

<sup>1</sup> Bir marta uning o'g'liga 500 funt bergandim. (Hoshiyadagi eslatma).

Ammo endi boshimga tasavvur qilish mumkin bo'lmagan yana bir tashvish tushdi. Menga bergan va'dalariga ko'ra, janob Meredithning otasi bosmaxonamiz uchun pul to'lashi kerak edi. U atigi yuz funt pulni oldindan berishga muvaffaq bo'ldi xolos. Yana yuz funtni bir savdogarga berishi lozim edi. Savdogar sabrsizlana boshladi va hammamizni sudga berdi. Biz garov puli to'ladik. Ammo agar pul o'z vaqtida berilmasa, sud ishida tez orada hukm chiqarilishi va ijro etilishi mumkinligini tushundik. Buning oqibatida hamma istiqbolli rejalarimiz o'zimiz bilan birga vayron bo'lishi turgan gap edi. Chunki bunday vaziyatda bosma dastgoh, harflar to'plamlarini hatto yarim narxiga sotishga majbur bo'lar edik.

Shunday tushkunlikka tushgan vaqtimda, ikki chin do'stim mening oldimga bir-biridan bexabar holda alohida-alohida kelishdi. Ularning yaxshiliklarini hech qachon unutmaganman. Aqlim joyida ekan, hech qachon unutmayman ham. Ularning har biri hech qanday majburiyatlarsiz butun biznesni, agar iloji bo'lsa, o'z nomimga olishga yetadigan pulni oldindan berishni taklif qildi. Ammo ikkalisiga ham Meredith bilan hamkorlikni davom ettirish fikri ma'qul emas edi. Ular Meredithning ko'chalarida mast-alast yurgani va pivoxonalarda pastkash o'yinlar o'ynaganini ko'p ko'rishgan ekan. Bu obro'yimizni tushirishini aytishdi. Bu ikki do'st Uilyam Koulman va Robert Greys edi. Men ularga Meredith uchun bitimimizning o'z qismini bajarish majburiyati hali mavjudligida, unga aloqalarni uzishni taklif qilib bo'lmasligini aytdim. Chunki ularning shu kungacha

qilgan xizmatlari sababli o'zimni ular oldida qarz-dor deb hisoblar edim. Biroq Meredit oxir-oqibat o'z majburiyatlarini bajara olmasa, hamkorligimizni bekor qilishga majbur bo'lishimiz mumkin edi. O'shandagina men do'stlarimga ularning yordamini qabul qilish haqida erkin o'ylay olishim mumkinligini aytdim.

Shu tariqa, bu masala bir muncha vaqt qolib ketdi. Men sherigimga:

– Balki otang bizning bu ishimizga qo'shilganingdan norozi bo'lgandir. Shuning uchun ikkimizga pul to'lashni xohlamayotgandir. Chunki sening o'zing yolg'iz bo'lganingda pul berarmidi? Agar shunday bo'lsa, menga to'g'risini ayt. Hamma narsani sening nomingga o'tkazib beraman va o'z ishlarim bilan shug'ullanaman.

– Yo'q, – dedi u, – otamning, haqiqatan ham, hafsalasi pir bo'lgan va pul to'lay olmaydi. Men uni yana xafa qilishni xohlamayman. Bu mening qo'limdan kelmaydigan ish ekanligini tushunib turibman. Meni dehqon qilib tarbiyalashgan. Shaharga kelib, o'ttiz yoshimda yangi bir kasbni o'rganish uchun shogird tushishning o'zi bir ahmoqlik edi. Uelsliklarning ko'pchiligi yer arzon bo'lgan Shimoliy Karolinaga borib, o'sha yerda muqim yashash uchun ketyapti. Mening ham ular bilan borish va eski dehqonchilik ishimga qaytish niyatim bor. Yordam qo'lini cho'zgan do'stlaringga murojaat qilaver. Kompaniyaning qarzlari o'z zimmangga olsang, otam to'lagan yuz funtni qaytarsang, kichik shaxsiy qarzlarimni to'lasang va menga yana o'ttiz funt ajratib, yangi egar olib bersang bo'ldi. Men she-

riklikdan voz kechaman va hamma narsani sening qo'lingda qoldiraman.

Men bu taklifga rozi bo'ldim. Taklifni darhol yozma ravishda tuzdik, imzoladik va unga muhr bosdik. Men unga talab qilgan narsalarini berdim va u ko'p o'tmay Karolinaga ketdi. Kelasi yili men undan o'sha joylar, iqlim, tuproq, chorvachilik va boshqalar haqidagi eng yaxshi ma'lumotlar bayon etilgan ikkita uzundan-uzoq xat oldim. Chunki bu sohalarni u juda yaxshi bilar edi. Men bu xatlarni maqolalar sifatida chop etdim va ular jamoatchilik orasida katta qiziqish uyg'otdi.

Meredit ketgan zahoti men ikki do'stinga murojaat qildim. Ularning birini ikkinchisidan afzal ko'rishni xohlamas edim. Shu sababli, ularning har biridan taklif qilgan mablag'larining yarmini oldim. Kompaniyaning qarzlarini to'ladim. Sherikchilik tugatilganini e'lon qilib, biznesni o'z nomimdan yurita boshladim. Menimcha, bu 1729-yil yoki o'sha yil atrofida sodir bo'ldi.

## VIII

### **TADBIRKORLIKDAGI MUVAFFAQIYAT VA BIRINCHI DAVLAT LAVOZIMIDA**

Bu vaqtga kelib, odamlar orasida qog'oz pul birliklariga talab juda kuchaydi. Mintaqada atigi o'n besh ming funt chiqarilgan va u ham tez orada bekor qilingan edi.<sup>1</sup> Jamiyatning qog'oz pulga qarshi bo'lgan har qaysi boy vakili qo'shimcha qog'oz pul-

---

<sup>1</sup> Qiymati to'lanishi sharti bilan qaytarib olingan.

larning bo'lishini xohlamas edi. Ular kreditorlarning noxolis fikrlarini yoqlab, Yangi Angliyada bo'lgani kabi pulning qadrsizlanishidan cho'chir edilar. Biz bu fikrni Jantouda muhokama qildik. Muhokamada men qo'shimcha pul chiqarishni yoqlab chiqdim. Chunki 1723-yilda chiqarilgan pul savdo ko'lamini oshirib, yangi ish joylarini yaratish, mintaqada aholi sonining oshishiga olib kelganiga ishonchim komiligini aytdim. Bugunga kelib, odamlar eski uylarda yashayotgani va yangi uylar qurilayotganligiga ishora qildim. Chunki Filadelfiya ko'chalarida birinchi marta baton non yeb turgan holda piyoda sayr qilganimda, Volnat ko'chasidagi, Ikkinchi va Old ko'chalari orasidagi uylarning aksariyat eshiklarida<sup>1</sup> «Ijaraga beriladi» yozuvlariga ko'zim tushgandi. Xuddi shunday ko'plab uylarni Chestnat va boshqa ko'chalarda ko'rgandim. Bu holatdan shahar aholisi birin-ketin shaharni tark etmoqchi ekan, degan fikrga kelganim yodimda ekanini aytdim.

Bahslarimiz meni bu mavzu atrofida juda band bo'lishga olib keldi. Bu haqda maqola yozdim va begona muallif nomidan chop etdim. Maqolani «Qo'g'oz pulning tabiati va zarurligi» deb nomladim. Umuman olganda, oddiy odamlar maqolani yaxshi qabul qilishdi, ammo boy odamlarga ma'qul kelmadim. Chunki u ko'proq pul topishga talabni oshirar va undardi. Ular orasida bu maqolaga javob yoza oladigan yozuvchilar yo'q edi. Nihoyat, qarshiliklar susaydi va masala deputatlar palatasida ko'pchilik

---

<sup>1</sup> Filadelfiyaning bu qismi endi ulgurji biznes tumanining markazi hisoblanadi.

ovozi bilan qabul qilindi. U yerda mening do'stlarim o'sha qo'shimcha pul banknotalarini chop etishni mening bosmaxonamga topshirishni lozim topishibdi. Bu mening ularga ko'rsatgan ma'lum xizmatlarimga javoban minnatdorchilik belgisi edi, albatta. Ayni xayrixohlik men uchun mo'may daromad keltiruvchi yaxshigina imkoniyat bo'ldi. Shubhasizki, bu yutug'imda yozuvchilik qobiliyatim ham katta ish berdi.

Vaqt va tajriba qog'oz pulning foydaliligini isbot qildi hamda keyinchalik bu masala hech qachon bahs-munozaralarga sabab bo'lmadi. Tez orada uning miqdori ellik besh ming funtga, 1739-yilda esa sakson ming funtgacha oshdi. Urush paytida esa uch yuz ellik ming funtgacha ko'tarildi. Savdo, qurilish ko'lami va aholi soni tobora oshib bordi. Bugunga kelib, miqdorlarda shunday chegaralar mavjud ekanki, ulardan ortganda miqdor zarar keltirishi mumkinligini ham yaxshi angladim.<sup>1</sup>

Tez orada do'stim Hamilton orqali Nyukasl mintaqasi uchun qog'oz pul banknotalarini chop etish buyurtmasini oldim. Keyinchalik o'ylab qaragam, bu yana bir foydali ish bo'lgan ekan. Sharoitlari uncha yaxshi bo'lmagan odamlar uchun kichik miqdorlar ham katta ko'rinadi. Bu pullarni chop etish

---

<sup>1</sup> Chunki qog'oz pul – bu nominal qiymatini oltin yoki kumush bilan to'lashga va'da hisoblanadi. Davlat yoki mamlakat bunday va'dalarni (pullarni) qayta sotib olish, o'rnini qoplashning ehtimoli, imkoniyatidan ortiq miqdorda muomalaga chiqarsa, bu va'dalar evaziga chiqarilgan qog'ozning qiymati tushib ketadi. Koloniyalarning inqilobda muvaffaqiyatga erishishiga ishonchining mustahkamlanishiga qadar bir juft etik sotib olish uchun yuzlab dollar qog'oz pullari to'lash kerak bo'lar edi.


esa men uchun katta imkoniyatlarni tuhfa etadigan qulayliklar degani edi. Hamilton men uchun o'sha hukumatning qonunlari, saylovlar, ovoz berish haqidagi ma'lumotlar va hujjatlarini chop etish bilan bog'liq ishlarni olib berdi. Nashriyot ishi bilan shug'ullanishni bas qilgunimga qadar bu buyurtmalarni o'zimiz bajarib keldik.

Bu vaqtga kelib, men kanselyariya mollari do'konini ham ochdim. Do'konda shu paytgacha biz ko'rgan hujjat blanklarining eng to'g'ri tuzilganlarini sotar edim. Ularni topishda menga do'stim Breyntnal yordam berardi. Do'konda, shuningdek, qog'oz, pergament, buxgalteriya kitoblari va boshqa mollarni sotardik. Londonda tanishgan Uaytvosh ismli bir harf teruvchi va juda yaxshi ishchi oldimga keldi. Qo'l ostimda tirishqoqlik bilan halol ishladi. Men Akvilla Rouzning o'g'lini ham shogirdlikka oldim.

Men bosmaxonada ishlar edim. Tadbirkor sifatida menga bo'lgan ishonch va e'tiborini saqlab qolish uchun nafaqat mehnatsevar va tejamkor bo'lishga harakat qildim, balki buning aksini sodir etishdan saqlandim. Men juda oddiy kiyimlarda yurardim. Bekorchilik bilan behuda vaqt o'tkaziladigan joylarga, baliq yoki hayvon oviga esa mutlaqo bormasdim. Faqat kitob o'qish bilan ba'zan ishdan chalg'ir edim. U ham bo'lsa, ahyon-ahyonda va bir chekka-da band bo'ladigan ushbu mashg'ulotim ishda janjal yoki nizo keltirmas edi. O'z biznesimdan kekkayib ketmaganligimni ko'rsatish uchun ba'zan ko'chalar-da do'konlardan gazeta sotib olib, aravachaga solib uyga olib kelar edim. Shu tariqa, mehnatsevar, kelajakka intiladigan, olgan narsalarimning haqini to'lay-

digan yigit sifatida hurmat qozondim. Kanselyariya mollarini import qiladigan savdogarlar mening e'tiborimni tortishga intilishar, boshqalari esa kitob yetkazib berishni taklif qilishardi. Ishlarim yurishib ketdi. Ayni paytda Keymerga ishonch pasayib, uning biznesi kundan-kunga tanazzulga yuz tutib borardi. Oxir-oqibat uni kreditorlarning pulini qaytarish uchun bosmaxonasini sotishga majbur qilishgan. U oxiri Barbadosga ketdi va u yerda bir necha yil juda og'ir sharoitlarda yashadi.

Uning shogirdi David Harri o'z uskunalarini sotib olib, Filadelfiyadagi joyini tashkil etibdi. Davidga u bilan birga ishlaganimda kasb o'rgatgan edim. Avvaliga Harri menga kuchli raqib bo'ladi deb cho'chirdim. Chunki uning do'stlari qobiliyatli va ishga juda qiziqishar edi. Shuning uchun men unga sheriklikni taklif qildim va baxtinga nafrat bilan rad etdi. U juda mag'rur odam edi. Jentlmenga o'xshab kiyinar, dabdaba, hashamatda yashar, xorijsiga ko'p borar va vaqtini aysh-u ishratda o'tkazardi. Oqibatda qarzga botib ketib, biznesini e'tiborsiz qoldirdi. Shu tufayli, hamma biznesini yo'qotdi. Qilishga ish qolmagach, Keymerning ortidan Barbadosga ketdi va o'zi bilan bosmaxonani ham ko'chirdi. U yerda bir shogirdi o'zining sobiq xo'jayinini oddiy ishchi sifatida ishga olibdi. Ular tez-tez janjallashib turishar ekan. Harri tinimsiz qarzga botib boribdi. Oxir-oqibat o'z harf to'plamlarini sotishga va Pensilvaniyadagi qishloq xo'jaligidagi ishiga qaytishga majbur bo'libdi. Harf to'plamlarini xarid qilgan kishi Keymerni ulardan foydalanish uchun ishga olibdi, ammo bir necha yil ichida u vafot etibdi.



Bu vaqtga kelib, menga Filadelfiyadagi avvalgi raqibim Bredforddan boshqa raqobatchi qolmadi. U boy va oddiy odam edi. Nashriyot ishi bilan kam shug'ullanar, shunda ham buni qo'l uchida qilar-di. Ishni yuritish haqida qayg'urmas edi. Chunki u pochta bo'limini yurgizayotgani sababli yangiliklarni olish uchun o'zini yaxshiroq imkoniyatlarga ega, deb hisoblardi. O'z gazetasining reklama tarqatish-dagi imkoniyatlarini menikiga qaraganda yuqori deb o'ylardi. Shuning uchun chop qilinadigan e'lonlar soni ko'payar va bu unga foyda keltiruvchi manba edi. Men uchun esa bu salbiy jihat sanalardi. Garchi men gazetalarni pochta orqali jo'natmasam va olmasam ham jamoatchilik fikri boshqacha edi. Ne-gaki, men otliq chavandozlarga yaxshi haq to'lardim va ular gazetalarimni maxfiy ravishda tarqatishardi.

Bredford buni hech narsaga qaramay taqiqladi va mening jahlimni chiqardi. Men uni pastkash deb o'yladim va payti kelib, uning ahvoliga tushganimda, boshqalarga nisbatan hech qachon bunday ish qilmadim.

Men shu paytgacha Godfri bilan ovqatlanardim. U uyimning bir tarafida xotini va bolalari bilan yashardi. Do'konning bir tomonida idishlarga sir qoplash ishi bilan shug'ullanardi. Har doim o'z matematikasiga sho'ng'ib ketganligi uchun ko'p ishlamas edi. Godfri bir qarindoshining qizini men bilan uchrashuvini rejalashtirdi. Bizning tez-tez uchrashib turishimizga turli sabab va bahonalar topishga harakat qildi. Qizning o'zi menga mos bo'lganligi sababli u bilan uchrashishga jiddiy e'tibor qarata boshladim. Qizning ota-onasi meni kechki ovqatga tinmay taklif qilishar, hatto uylarida bizni yolg'iz qoldirishardi. Nihoyat, qo'lini so'rash vaqti ham yetib keldi. Godfri xonim bizning kichik shartnomamizga bosh-qosh bo'ldi. Men unga ularning qizlari bilan sep sifatida bosmaxonaning qolgan qarzini to'lashga yetadigan pulni berishlariga umid qilishimni aytdim. Menimcha, o'sha paytda qarz yuz funtdan ko'p emas edi. U menga ularda bunday mablag' yo'q ekanligi xabarini berdi. Men ularga uylarini qarz berish idorasida garovga qo'yishlari mumkinligini aytdim. Bir necha kun o'tgach, fikringa olgan javobim shu bo'ldiki, ularning qizlariga uylansam, biz yaxshi juftlik bo'lmas ekanmiz. Ular Bredforddan so'rab-surishtirib, bosmaxona biznesi ko'p foyda keltirmaydigan tadbirkorlik ekanini bilib olishibdi. Harf qoliplari tez

vaqtda yeyilib ketar va yangilari esa yo'q emish. S.Keymer va D.Harri birin-ketin sinishgan va men ham yaqin orada ularday sinishim mumkin emish. Shu sababli, menga uylariga borishni taqiqlashibdi va qizlarini ko'chaga chiqarmay qo'yishibdi.

Ularning menga bo'lgan iliq munosabatlari aslida ham o'zgarganligidanmi yoki qizlari bilan uzoq vaqt bir-birimizni yoqtirib yurganligimiz uchun undan voz kechishni xohlamasdan yashirincha uylanib olishim mumkinligi va bu ularga nazarda tutilgan sep pulini berishdan ozod qilishi haqidagi fikrga bordilarmi, buyog'i menga qorong'i. Ammo men ikkinchi variantning to'g'ri ekanligiga shubha qildim va bu menga ma'qul bo'lmadi. Bu borada boshqa hech bir ish qilmadim. Godfri xonim keyinchalik ularning munosabati ijobiy tomonga o'zgargani va meni qaytishimni xohlashayotgani haqida bir necha marta xabarlar olib keldi. Biroq men bu oila bilan boshqa hech qanday aloqam yo'qligi to'g'risidagi qarorimni oshkora e'lon qildim. Bu Godfri va uning xotiniga ma'qul kelmadi. Oramizda kelishmovchilik yuzaga keldi va ular ko'chib chiqib ketishdi. Butun uy bir o'zimga qoldi va yana boshqa odamlarni kiritishga qaror qildim.

Bu hodisa mening xayolimni uylanish masalasi sari yo'naltirdi. Atrofga qaradim va boshqa joylarda tanishlar orttirdim. O'sha paytda aksariyat odamlar bosmaxona biznesini foyda bermaydigan ish deb o'ylar edi. Shu sababli, menga tegadigan kelinning sepi bilan katta pulga umid qilmaslikka majbur ekanligimni angladim. Yoki qiz o'zimga umuman

yoqmasa ham pul bilan keladiganiga uylanishimga to'g'ri kelar edi. Men va Rid xonimning oilasi bilan qo'shnilar hamda eski tanishlar sifatida do'stona yozishmalar davom etdi. Ularning uyida birinchi marta yashaganimdan beri hammalari menga nisbatan iliq munosabatda edilar. Meni tez-tez uylariga taklif qilishar va o'z ishlari borasida maslahat olishardi. Bu masalalarda ba'zan mening foydam tegib qoldi. Men bechora Rid xonimning turmushi yaxshi bo'lmaganidan afsusda edim. U, odatda xomush, ahyon-ahyonda tabassum qiladigan va suhbatdosh bo'lishdan qochadigan bo'lib qolgandi. Londonda bo'lganimda yengiltakligim va beqarorligim uning baxtsizligining asosiy sabablari deb o'zimni ayblardim. Uning onasi esa ayb ko'proq o'zida ekanligini tan olardi. Aytishicha, Londonga ketishim sababli qiziga uylanishimga yo'l qo'ymagan edi. Men yo'qligimda qizini boshqa bir yigitga turmushga chiqishga ko'ndirgan ekan. Bizning o'zaro yaqinligimiz qayta tiklandi, ammo endi bizning birlashishimizga katta e'tirozlar bor edi. Oldingi nikohni, haqiqatan ham, bekor deb hisoblashar ekan. Aytishlaricha, Angliyada uning yana bir xotini bor ekan. Ammo buni osonlik bilan isbotlab bo'lmasdi. Garchi u odaming vafot etganligi haqida xabar kelgan bo'lsa ham, bu xabar aniq emas edi. Yana bir muammo bor bo'lib, u o'zidan keyin juda ko'p qarz qoldirgan ekan. Uning vasiysidan bu qarzlarni to'lashni talab qilishlari mumkin ekan. Shunga qaramay, biz bu qiyinchiliklarni bosib o'tdik va 1730-yil 1-sentyabr kuni men unga uylandim. Biz taxmin qilgan noqulaylik-

larning hech biri sodir bo'lmadi. U yaxshi va sodiq ko'makdosh bo'lib chiqdi<sup>1</sup> va do'konni yuritishimga ko'p yordam berdi. Biz birga gullab-yashnadik va bir-birimizni baxtli qilishga intildik. Shunday qilib, yo'l qo'yilgan xatolikni iloji boricha tuzatdim.

Taxminan o'sha kezlarda klubimiz a'zolari qovoqxonada emas, balki janob Greysning shu maqsad uchun ajratilgan kichik bir xonasida uchrashadigan bo'ldi. O'shanda men bir taklif kiritdim: «So'roq, savollar va mavzularni muhokama qilishda qo'llarimizdagi kitoblardan ko'p martalab iqtibos keltirganimiz tufayli, ularning hammasini uchrashish joyimizda keltirib to'plaganimiz yaxshi bo'ladi. Kerak bo'lganda ochib, ma'lumotlarni tekshirib ko'rish mumkin. Modomiki, kitoblarimizni umumiy kutubxonaga beradigan bo'lsak va ularni birga saqlashni ma'qul deb bilsak, klubning boshqa barcha a'zolari ham ulardan foydalanishlari mumkin bo'lsin. Shu tarzda, deyarli har birimiz bularning barchasini o'z tasarrufimizda ishlatganday bo'lamiz». Fikrim ma'qul keldi va hamma rozi bo'ldi. Xonaning bir burchagini olib kelinishi zarur bo'lgan kitoblar bilan to'ldirdik. Ki-

---

<sup>1</sup> Franklin xonim eri bilan nikohda qirq yildan ortiq yashadi. Franklinning xatlari, yozishmalarida ularning nikohi baxtli kechganligi haqida dalillar ko'p. «Biz birga ulg'aydik va agar uning kamchiliklari bo'lsa, men ularga shunchalik o'rganib qolganmanki, ularni sezmayman ham». Quyida Franklinning Jantou klubi uchun yozilgan o'z qo'shiqlaridan birining misralarini keltirilamiz:

«Shoirilar Xlou va Fillis kabi go'zallari haqida behuda yozishlari mumkin,

Men tekislikdagi mamlakatim Joanni kuylayman,  
Bu o'n ikki yil davomida xotinim hali ham hayotim quvonchi,  
Men unga uylangan kunni Xudo siylagan».

to'blarning soni biz kutgandek unchalik ko'p emas edi. Ular juda foydali bo'lganiga qaramay, yaxshi holatda saqlash uchun hech narsa qilinmaganligi uchun noqulayliklar paydo bo'ldi. Bir yilga yaqin vaqt o'tgach, to'plamdagi kitoblarni ajratdik va har kim o'z kitoblarini uyiga olib ketdi.

Shundan keyin jamoatchilik foydalanishi uchun obuna asosida ishlaydigan kutubxona tashkil etish kabi birinchi loyihamni amalga oshirishga kirishdim. Takliflarni tayyorlab, ularni advokatlarning buyuk nusxa ko'chiruvchisi Brokdenga tegishli shaklga keltirish uchun berdim. Jantoudagi do'stlarimning yordami bilan har biri qirq shillingdan kirish badali, ellik yil davomida har yili o'n shilling a'zolik badali to'laydigan ellik nafar a'zo topdik. Kompaniyamizning taxminiy amal qilish muddatini ellik yil deb hisobladik. Kompaniya obunachilari soni yuz kishiga yetgach, uning nizomini ishlab chiqdik. Bu Shimoliy Amerikadagi hozirda soni juda ko'payib ketgan jamoatchilik kutubxonalarining onasi edi. Kutubxona o'zini-o'zi mustaqil moliyalashtirib amal qila oladigan katta bir loyihaga aylandi. Ushbu kutubxonalar amerikaliklarning umumiy suhbat qilish qobiliyatini yaxshiladi. Oddiy savdogarlar va fermer-dehqonlarni boshqa mamlakatlarning aksariyat jentlmenlari kabi ziyolilar darajasiga olib chiqdi. Ehtimol, ular koloniyalarning o'z huquq va imtiyozlarini himoyalash salohiyati hamda ruhiga ma'lum darajada hissa ham qo'shgandir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Bu yerda «Tarjimayi hol»ning 1771-yilda Tvayfordda yozilgan birinchi qismi tugaydi. Keyingi ikkinchi qism 1784-yilda Fransiyaning Passi shahrida yozilgan.

Eslatma. Shu yergacha «Tarjimayi hol»ning muqaddimasida ifoda etilgan niyat bo'yicha yozildi. Shu sababli, matnda oilaning boshqalar uchun uncha ahamiyatli bo'lmagan kichik voqea-hodisalar keltirilgan. Bundan keyin matnda keltirilgan voqea-hodisalar ko'p yillar o'tgach, ushbu xatlarda berilgan maslahatga muvofiq yozilgan, ya'ni jamoatchilik uchun mo'ljallangan. Inqilob ishlari tufayli «Tarjimayi hol»ni yozish to'xtab qolgandi.<sup>1</sup>

[O'z hayotim haqidagi hisobotning davomini yozish Parij yaqinidagi Passi shahrida 1784-yil boshlandi.]

Yuqorida keltirilgan xatlarni olganimga ancha vaqt bo'ldi. Ammo bugungacha xatlarda keltirilgan iltimosni bajarish uchun umuman vaqtim bo'lmadi. Albatta, uyda, o'z qog'ozlarim orasida bo'lganimda buni ancha yaxshiroq uddalagan bo'lardim. Ular xotiramni yangilar, sanalar va davrlarni tiklashga yordam berardi. Qaytish kunim noaniqligi va biroz bo'sh vaqtim bo'lganidan foydalanib, endi imkonim doirasida voqea, hodisa, odamlarni eslab yozishga harakat qilaman. Uyga yetib borguncha vafot etmasam, matnni isloh qilish va yaxshilashga imkon bo'ladi.

Allaqachon yozilgan matnning biror nusxasi qo'limda yo'qligi sababli Filadelfiya jamoat kutubxonasini tashkil etish uchun ishlatgan vositalarim haqida ma'lumot bor yoki yo'qligini bilmayman. Chunki bu kutubxona kichik bir tashabbusdan bugunga kelib,

---

<sup>1</sup> Ushbu memorandumdan so'ng Franklin Abel Jeyms va Benjamin Vohandan «Tarjimayi hol»ni davom ettirishni so'rab yozgan xatlarini kiritgan.

juda katta bir muassasaga aylandi. Shunga qaramay, ushbu ishni qanday tashkil etganimizni eslayman (1730). Shuning uchun ishni ayni kutubxona haqida hikoya bilan boshlayman. Albatta, allaqachon yozilgan bo'lsa, uni o'chirib tashlash mumkin bo'ladi.

Men Pensilvaniyada o'z ishlarimni yo'lga qo'yib olganimda Bostondan janubdagi hech bir koloniyada yaxshi kitob do'koni yo'q edi. Nyu-York va Filadelfiyada bosmaxonalari aslida kanselyariya mol-lari do'konlari edi: ular faqat qog'oz, almanaxlar, dostonlar, balladalar, odatdagi maktab kitoblari va hokazolar sotishar edi. Kitob o'qishni yaxshi ko'radigan odamlar o'z kitoblarini Angliyadan olib kelishga buyurtma berishlari shart hisoblangan. Jantou klubi a'zolarining har birida anchagina kitob bor edi. O'zimiz birinchi majlisni o'tkazgan pivoxonaga boshqa bormaydigan bo'ldik va klubimizning o'z joyi bo'lishi uchun bir xonani ijaraga oldik. Men hammamiz kitoblarimizni o'sha xonaga olib kelishimizni taklif qildim. U yerda kitoblar nafaqat majlislarimizda ma'lumotlarni tekshirib olish uchun tayyor turgan bo'ladi, balki ular hammaning foydasi uchun xizmat qiladi. Shuningdek, har birimiz uyda o'qishni xohlagandek har qanday kitobni olib o'qishimiz mumkin bo'lishini aytdim. Ishimiz shunga ko'ra amalga oshirildi va bir muncha vaqt hammamiz bundan mamnun edik.

Ushbu kichik to'planning afzallik tomonlarini tushunib, men kitoblardan jamoatchilik obuna kutubxonasini ta'sis etish orqali ko'proq foyda olishni

taklif qildim. Zarur bo'ladigan reja va qoidalarning loyihasini tuzib, uni mahoratli notarius janob Charlz Brokdenga berdim. Undan bularning barchasini obuna bo'lish lozim bo'lgan shartnomaga muvofiq moddalar shaklida tartibga solishni so'radim. Shartnoma shartlariga ko'ra, har bir a'zo dastlab kitoblar sotib olish uchun muayyan pul mablag'ini to'lashi, so'ng ularning sonini ko'paytirish maqsadida yillik badal to'lovini amalga oshirishi lozim edi. O'sha paytda Filadelfiyada kitob o'quvchilar juda kam edi. Ko'pchilik aholi shu qadar kambag'al ediki, katta mehnat evaziga ellikdan sal ortiq odamni, asosan, yosh savdogarlarni topishga muvaffaq bo'ldim xolos. Ularning har biri qirq shillingdan kirish badali va o'n shilling yillik to'lovlarni to'lashga tayyor edilar. Biz faoliyatimizni shunday kam mablag' bilan boshladik. Kitoblar import qilinar edi. Kutubxona haftaning bir kunida obunachilarga kitob berish uchun ochilardi. Agar olingan kitob talab darajasida qaytarilmasa, uning ikki baravar qiymatini to'lash sharti belgilangan edi. Tez orada muassasa o'zining foydali ekanligini ko'rsatdi. Boshqa hududlarda ham xuddi shunday joylar tashkil etildi. Kutubxonalarda kitoblar soni xayr-ehsonlar hisobiga oshar edi. Kitob o'qish aholi orasida rasm-rusumga aylandi. Xalqimiz e'tiborini o'qishdan chalg'itadigan ommaviy o'yin-kulgilar yo'qligi sababli aholi kitoblar bilan yaxshi tanisha oldi. Bir necha yil ichida ajnabiylar boshqa mamlakatlarda xuddi shu sinfga mansub odamlarga nisbatan savodxonroq va ziyoliroq odamlar ekanligini tan olishdi.

O'zimiz va merosxo'rlarimizni ellik yillik majburiyat bilan bog'laydigan ta'sis shartnomasini imzolashga tayyor bo'lganimizda hujjatdan nusxa ko'chiruvchi janob Brokden bizga quyidagini aytdi: «Barchangiz yosh yigitlarsiz. Ushbu shartnomada belgilangan muddat tugaguncha hayot bo'lishlaring amri mahol». Aytishim lozimki, ba'zilarimiz hali ham hayotmiz. Ammo ushbu shartnoma bir necha yil o'tgach, alohida nizom bilan bekor qilindi. Yangi bir kompaniyaga asos solindi va unga abadiylik ruhi berildi.

Obunachilar sonini ko'paytirishda duch kelgan e'tiroz va befarqliklarga qaramay o'zimni foydali loyiha asoschisi sifatida reklama qilishning noto'g'ri ekanligini tushunib yetdim. Vaholanki, bunday loyiha uni amalga oshirishda qo'shnilarning yordami zarur bo'lganda mening obro'yimni ularning oldida juda kichik bir darajada ham yuqori ko'tarishi mumkin edi-da. Shuning uchun o'zimni iloji boricha chetga oldim. Bu bir qator do'stlarimning rejasi ekanligini, ular mendan bu loyihani kitob o'qishni yaxshi ko'radigan odamlarga taklif qilishimni maslahat berganliklarini aytardim. Shu tarzda mening ishlarim yanada silliqroq ketdi. Keyinchalik ham shunday holatlarda bu usulni ko'p qo'lladim. Tez-tez muvaffaqiyatlarga erishganim sababli bu usulni chin ko'nglimdan tavsiya etishim mumkin. Inson o'z shuhratparastligi va g'ururini sal tiysa, bu unga juda ko'p foyda keltiradi. Agar o'sha ustunlik kimga tegishli ekanligi bir muddat noaniq bo'lib tursa, shuhratparastligi yuqoriroq boshqa bir inson bunga

da'vo qilishga harakat qiladi. Shunda sizga nisbatan qilingan hasad ham sizning foydangizga ishlaydi. Orzu, o'y-xayollarida olib qo'yilgan tovus patlari yulib tashlanadi va yaxshi nom, shuhrat asl egasiga qaytariladi.

Ushbu kutubxona menga tinimsiz kitob o'qish, o'rganish orqali takomillashish imkoniyatini berdi. Kitob o'qishga har kuni bir-ikki soat vaqt ajratar-dim. Shu tariqa otam bir vaqtlar istaganidek, ta'lim-ni ma'lum darajada olishga muvaffaq bo'ldim. Kitob o'qish men uchun band bo'lsa arziydigan yagona ko'ngilochar mashg'ulot edi. Vaqtimni qovoqxona-larda, o'yinlarda yoki har qanday aysh-ishratlarda behuda sarflamadim. Biznesimdagi mehnatsevarligim meni charchatmas, chunki bu men uchun zarur edi. Bosmaxonam faoliyati bilan bog'liq qarzlarim ham bor edi. Yosh bolalarim bo'lib, ularni o'qitish vaqti ham kelib qolgandi. Boz ustiga, mendan oldin tash-kil etilgan ikki bosmaxona bilan raqobat qilishga to'g'ri keldi. Shunga qaramay, kundan-kunga ahvo-lim yaxshilanib borardi. Mening avvaldan mavjud tejamkorlik odatim yo'qolmadi. Shuningdek, otam bolaligimda Sulaymon payg'ambarning bir iborasini misol keltirib bergan o'gitini ham yodda tutdim: «O'z ishida tirishqoq va usta odamni ko'rsang, bilginki u qirollar oldida turishi zarur. U oddiy odamlar oldida turmasligi kerak». Bu iboradan men mehnatsevarlik-ni boylik va hurmatga erishish vositasi deb hisoblab keldim. Ushbu o'git menga dalda berib keldi, hech qachon tom ma'noda, qirollar oldida turaman deb o'ylamagan edim, ammo bu sodir bo'ldi. Chunki

men besh nafar qirolning oldida turishga erishdim. Hatto Daniya qiroli bilan birga kechki ovqatni tanovul qilish sharafiga ham muyassar bo'ldim.

Inglizcha maqol bor: «Boyib ketishni xohlasang, xotiningdan so'ra».<sup>1</sup> Xotanim ham xuddi o'zimdek juda mehnatsevar va tejamkor ekanligidan, hayotda omadli ekanligimdan xursandman. U mamnunlik bilan menga ish yuritishda yordam berar edi: pamfletlarni taxlash va muqovalashda, do'konni yuritishda, qog'oz ishlab chiqaruvchilar uchun eski qog'oz, kartonlarni sotib olar va boshqa ko'plab ishlarni bajarar edi. Hech qachon bekor yuradigan xizmatkorlarni ishga olmadik, dasturxonimiz oddiy, ya'ni dabdabalardan holi, uy-joyimiz jihozlari ham odmi bo'lgan. Masalan, uzoq yillar davomida nonushtam non va sutdan (choy ichmasdim) iborat edi. Men uni ikki penni turadigan sopol kosaga quyib qo'rg'oshin qoshiqda ichardim. Bu tamoyil va talablarga qaramay, oilangga hashamat-u dabdaba qanday kirib kelganini hatto bilmay qolarkansan kishi. Bir kuni nonushta qilishga kirsam, sutni toza chinni kosaga solib, kumush qoshiq bilan birga qo'yishibdi! Ularni xotanim nega bir og'iz aytmasdan sotib olgan ekan... Bular uchun xotanim juda katta pul – yigirma shilling to'labdi. Sababini so'rasam: «Mening erim hamma qo'shnilarimiz kabi kumush qoshiq va toza chinni idishda ovqatlanishga loyiq», deb javob bera oldi xolos. Bu uyimizda toza chinnidan qilingan likopcha va idishlarning birinchi marta paydo bo'lishi edi. Yillar o'tgach, boyligimiz oshib

---

<sup>1</sup> Ingliz tilida: «He that would thrive, must ask his wife».

borgani sayin, bu idishlarning soni ham sekin-asta ortib bordi va qiymati ham bir necha yuz funtga yetdi.

Menga presviter<sup>1</sup> yoʻnalishi boʻyicha diniy taʼlim berishgan. Ammo bu eʼtiqodning, masalan, Xudoning oʻzgarmas hukmlari, tanlanganlik, jazo berish va boshqa tomonlari dastavval tushunarsiz, boshqalari esa shubhali boʻlib tuyulgan edi. Men bu yoʻnalish vakillarning ommaviy majlislariga qatnamay qoʻydim. Men uchun yakshanba kunlari oʻrganish, kitob oʻqish kuni edi. Shunga qaramay, men doimiy amal qiluvchi diniy tamoyillardan iborat nuqtayi nazarga ega edim. Men, masalan, Xudoning mavjudligiga hech qachon shubha qilmaganman. U dunyoni yaratgan va uni oʻz inoyati bilan boshqaradi. Xudoga xizmat qilishning eng maqbul yoʻli odamlarga yaxshilik qilish. Inson ruhi oʻlmas hisoblanadi. Bu dunyoda yoki narigi dunyoda boʻlsa ham barcha jinoyatlar uchun jazo beriladi va ezgulik mukofotlanadi. Bularni men har bir dinning asoslari sifatida hurmat qilganman. Chunki ular mamlakatimiz aholisi eʼtiqod qiladigan barcha dinlarda mavjud. Shu sababli ularning barchasini har xil darajada hurmat qilib keldim. Ularning boshqa talab, hukmlar bilan ozmi-koʻpmi oʻzaro aralashib ketganini angladim. Ular ilhom berishga, targʻib qilishga yoki axloqni tasdiqlashga intilmasdan, asosan, odamlarni bir-biridan ajratish uchun xizmat qilgan va bu odamlarning

---

<sup>1</sup> Presviter – xristian ruhoniyluk iyerarxiyasida yuqori oʻrin egalovchi katolik cherkovi rutbasi. Bu oʻrinda ayni nomdagi diniy taʼlimot nazarda tutilgan.

bir-biriga dushman bo'lishiga olib kelgan. Barcha-  
ga bo'lgan hurmat, hatto eng yomoni ham ba'zi  
yaxshi natijalarga olib kelishi mumkinligi haqidagi  
fikir meni boshqa odamlarning o'z diniga oid yax-  
shi fikrini susaytirishga olib kelishi mumkin bo'lgan  
barcha bahs va suhbatlardan o'zimni tiyishga undab  
keldi. Mintaqamiz aholisining soni oshib borgani  
sayin yangi ibodat joylari tinimsiz qurilayotgan edi.  
Ular, asosan, odamlarning ixtiyoriy xayr-ehsoni evazi-  
ga qurilardi. Qaysi din, yo'nalish va oqim bo'lishi-  
dan qat'iy nazar, men bergan ozgina mablag'ni hech  
qachon rad etishmagan.

Men har qanday ommaviy ibodatlarda juda kam  
hollarda ishtirok etganman. Shunga qaramay, ular  
to'g'ri, risoladagiday o'tkazilsa, juda o'rinli va foy-  
dali deb hisoblar edim. Men Filadelfiyadagi yagona  
presviter ruhoniyni yoki uchrashuvni qo'llab-quv-  
vatlash uchun o'z yillik badalimni muntazam to'lab  
kelganman. Ba'zan bu avliyo ota uyimizga do'st  
sifatida kelar, o'zining ibodat va majlislariga borib  
turishni maslahat berardi. Ba'zi-ba'zida boradigan  
ham bo'ldim. Hatto birda ketma-ket besh yakshan-  
ba qatnadim ham. Mening fikrimcha, u yaxshi voiz  
bo'lganida, ehtimol, ibodatga qatnashni davom et-  
tirishim mumkin edi.<sup>1</sup> Hatto yakshanba kunini o'r-  
ganish, kitob o'qishga bag'ishlaganim ham bunga  
to'sqinlik qilmasdi. Ammo uning nutqlari, asosan,  
bahs-munozarali isbot-dalillar yoki oqimimizning  
o'ziga xos ta'limotlarini tushuntirishdan iborat bo'-

---

<sup>1</sup> Franklin keyinchalik cherkovga qatnash burchi haqida bosh-  
qacha fikr bildirgan.

lardi. Ularning barchasi men uchun quruq, zerikarli va nasihat bermaydigan tabiatga ega edi. Chunki ulardan biron bir axloqiy tamoyilni singdirish yoki amalda qo'llashga undaydigan mazmun kelib chiqmasdi. Va'zlarining maqsadi bizni yaxshi fuqarolar emas, balki presviter oqimiga mansub odamlarga aylantirishdan iborat bo'lgan.

Kunlardan birida Filippiliklarga aytilgan murojaatdagi to'rtinchi bobning quyidagi so'zlarini o'z matni uchun olibdi: «Nihoyat, birodarlar, nimaiki narsa haqiqat, halol, adolatli, pok, sevimli yoki yaxshi xabar bo'lsa, unda ezgulik yoki maqtov bo'lsa, bu narsalar haqida o'ylangiz». Men va'zda bunday matn keltirilganidan keyin axloq, ma'naviylik haqida so'z ketmasligining iloji yo'q deb o'yladim. U kishi esa apostollar nazarda tutgan besh nuqta bilan cheklandi xolos, ya'ni: 1. Shabbat kunini muqaddas deb bilish. 2. Muqaddas Kitobni o'qishda tirishqoqlik ko'rsatish. 3. Ommaviy ibodatda tegishlicha ishtirok etish. 4. Muqaddas maxfiy qabul bo'lish marosimi bilan o'zini tozalash. 5. Xudoning xizmatchilarini tegishlicha hurmat qilish. Bularning barchasi yaxshi narsalar bo'lishi mumkin. Ammo ular men ushbu va'zdan kutgan yaxshi narsalar emas edi. Shu sababli uning majlislariga boshqa hech qachon bormaslikka qaror qildim. O'ta achchig'im chiqdi va shundan keyin uning va'zlariga qaytib bormadim. Men bir necha yil oldin, shaxsiy foydalanish uchun «E'tiqod talablari va diniy amallar» liturgiyasini yoki ibodat qilish shakli haqida yozgan edim (menimcha, 1728-yilda). Men undan foydalanishga qaytdim

va ommaviy majlislarga umuman bormay qo'ydim. Mening xulq-atvorim ayblashga loyiqdir, lekin hikoyamni shu yerda buning uchun uzr so'ramasdan to'xtataman. Negaki, hozirgi maqsadim faktlar uchun uzr so'rash emas, balki ularni bayon etishdan iborat.

## IX

### AXLOQIY KAMOLOTGA ERISHISH

#### REJASI

Aynan shu vaqtda axloqiy kamolotga erishishning jasur va mashaqqatli loyihasini rejalashtirdim. Men har qanday vaqtda hech qanday kamchilik va xatoga yo'l qo'ymasdan yashashni xohlardim. Tabiiy moyilligim, odat yoki atrofimdagi odamlar olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy oqibat, voqealarning oldini olish, ular sabab keladigan sinovlarni yengishga niyat qildim. Nima yaxshi, nima yomonligini bilishim yoki yaxshi ishlarni qilish va yomonlarini chetlab o'tishga majbur ekanligimni bilish va bunga erishishga qaror qildim. Ammo tez orada men tasavvur qilganimdan ham qiyinroq bir ishni qilib qo'yganimni tushundim. Butun sa'y-harakatlarim bir nuqson, xatolik, aybdan himoyalanihga qaratilgan bo'lsa-da, meni ko'pincha boshqa biri hayratda qoldirardi. Odat beparvolikdan foydalanган, moyillik esa ba'zan aqldan ustun kelardi. Oxir-oqibat butunlay pok bo'lish bizning manfaatimizga, degan xayoliy e'tiqod sirpanib yiqilishimizning oldini olish uchun yetarli emasligi haqidagi xulosa-

ga keldim. Ya'ni xulq-atvorimizning barqaror, bir xilligiga erishib, unga bog'liq bo'lishimizdan oldin yomon odatlarni tark etish, yaxshilarini o'rganish va joriy etish zarur ekan. Shu maqsadda men quyidagi usulni qo'lladim.

Kitob mutolaa qilishda uchragan axloqiy fazilatlarining turli xil ro'yxatlarida bir necha xislatni o'z ichiga olgan katalogni topdim. Gap shundaki, turli yozuvchilar bir xil nom ostida ko'proq yoki kamroq g'oyalarni kiritgan ekanlar. Masalan, tiyqlik, bosiqlikni ba'zilar ovqatlanish va ichishda mo'tadillik bilan cheklasa, boshqalar har qanday zavq, ishtaha, moyillik, tana yoki ruhiy ehtirosni, hatto ochko'zligimiz va ko'p narsalarni ortiqcha xohlashimizda mo'tadil bo'lish ma'nosida kengaytirishgan. Aniqlik kiritish maqsadida, o'zim uchun g'oyalarning ma'no-mazmun anglatadigan kam sonli nomlaridan ko'ra, har biri torroq ma'no, kamroq g'oya anglatadigan bundan ancha ko'p nomlardan foydalanishni taklif qildim. Men o'sha paytda o'zim zarur yoki maqsadga muvofiq deb hisoblagan fazilatlarini o'n uchta nom doirasida tartibga keltirdim. Ularning har biriga ma'nosini aniq ifodalaydigan qisqa tavsif berdim.

Bu fazilatlarining nomlari, ularning qisqa tavsiflari quyidagicha bo'ldi:

1. TIYIQLIK – bo'kib qolguncha yemaslik, o'lguday mast darajada ichmaslik.

2. SUKUT – boshqalarga yoki o'zingga foyda keltirishi mumkin bo'lgan narsanigina gapirish. Quruq, behuda suhbatdan qochish.

3. TARTIB – hamma narsaning o‘z o‘rnida bo‘lishi, ishlarning har bir qismini o‘z vaqtida bajarish.

4. QAT’IYATLILIK – bajarish lozim bo‘lgan narsani belgilab, amalga oshirishga qaror qilish. Bajarishga qaror qilingan narsa va ishni bexato, kamchiliklarsiz ado etish.

5. TEJAMKORLIK – boshqalarga yoki o‘zingga yaxshilik olib keladigan ishlardan boshqa ishlarni qilmaslik, ya’ni hech narsani isrof qilma.

6. MEHNATSEVARLIK – vaqtni behuda sarf qilmaslik. Har doim foydali ish bilan mashg‘ul bo‘lish, barcha keraksiz ishlardan voz kechish.

7. SAMIMIYLIK – odamlarga zarar keltiruvchi yolg‘on ishlatmaslik. Halollik va adolat asosida fikr yuritib, so‘zlaganda ham shunga ko‘ra so‘zlash.

8. ADOLAT – boshqalarni xafa qilish yoki o‘z burchi bo‘lgan vazifalarni bajarmaslik orqali yomon ish qilmaslik.

9. MO‘TADILLIK – haddan ortiq, chegaradan chiqadigan ishlarning oldini olish. Ruhii jarohatlardan insonlar loyiq darajagacha xafa bo‘lmaslik.

10. TOZALIK – tanada, kiyimda yoki yashash joyida nopoklikka toqat qilmaslik.

11. SOKINLIK – arziyas narsalar yoki odatiy, yoki muqarrar baxtsiz hodisalar sodir bo‘lganda bezovtalanmaslik.

12. RUHIY POKLIK – faqat salomatlik va avlod qoldirish uchungina jinsiy munosabat bilan shug‘ullanish. Bu ishni hech qachon ermak, zaiflik, o‘z yoki boshqaning obro‘yini to‘kish uchun qilmaslik.

13. KAMTARLIK – payg‘ambarlarga va Suqrotga taqlid qilish.

Ushbu yaxshi xislatlarni o'zimga odat qilib olishni niyat qildim. Ularning hammasiga birdaniga erishib bo'lmagligini angladim. Shunda ularning bittasiga e'tibor qaratishga, uni egallagach esa boshqasiga o'tishga qaror qildim. Shu yo'sinda davom etib, ayni o'n uch xil xislatni egallashni o'zimga maqsad qilib qo'ydim. Birini egallaganlik boshqasini egallashga yordam berishi mumkinligini bilib, ularni yuqoridagicha tartibga soldim. Tiyiqlik birinchi o'rinda. U fikrlarning vazminligi va tiniqligini ta'minlaydi. Doimiy ziyraklik, va hushyorlikda bo'lish uchun zarur. Shuningdek, bu xislat eski odatlarning e'tiborni chalg'itishiga va tinmay o'ziga tortadigan vasvasalarning kuchiga qarshi himoya. Unga erishib bo'lgach, sukutni egallash osonroq bo'ladi. Shu bilan birga, bilimlar olish niyatim borligi uchun bu fazilatlarim yanada yaxshilandi. Qolaversa, bilimlarni suhbat chog'ida tinimsiz gapirib, til bilan emas, balki tinglab, quloqlar orqali olish ma'qul, deb o'ylar edim. Shuning uchun tinmay gapirish, hazil qilish kabi odatimdan qutulishga qaror qildim. Zero, u faqat cheklangan insonlar orasidagina ma'qul kelar edi. Shu tariqa, sukutni ikkinchi o'ringa qo'ydim. Bu va keyingi xislat – tartib mening loyihamga va ta'lim olishimga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi, deb umid qildim. Bir kuni kelib, bular mening odatimga aylangach, qat'iyatlilik keyingi barcha fazilatlariga ega bo'lish uchun meni qat'iy tutib turadi, deb o'yladim. Tejamkorlik va mehnatsevarlik meni hali to'lanmagan qarzimdan ozod qilib, farovonlik va mustaqillik olib keladi. Shuningdek, samimiylilik

va adolatni amalda qo'llashni osonlashtiradi va hokazo, deb o'yladim. Pifagorning «Oltin she'rlar»idagi<sup>1</sup> maslahatiga quloq solgan holda, har kuni tekshirib turish zarurligini bilar edim. Men ushbu tekshiruvni o'tkazish uchun quyidagi usulni o'ylab topdim.

Kichkina kundalik daftar yuritishni boshladim. Unda har bir fazilat uchun bittadan sahifa ajratdim.<sup>2</sup> Har bir sahifada qizil qalam bilan hafta kunlari uchun yetti ustundan iborat bitta jadval chizdim. Har bir ustunga kunni anglatadigan harf bilan belgi qo'ydim. Men bu ustunlarni o'n uchta qizil chiziq bilan ajratdim. Satrlarning boshini fazilatlardan birining ilk ikki harfi bilan belgiladim. Har bir satrda va uning tegishli ustunida o'sha kuni tekshirishda topgan kamchiligimni kichkina qora nuqta bilan belgilashim mumkin.

### SAHIFALAR SHAKLI

Tiyiqlik							
Bo'kib qolguncha yemaslik, o'lguday mast bo'lgunga qadar ichmaslik.							
	Yak.	Dush.	Sesh.	Chor.	Paysh.	Juma	Shanba
Ti.							

<sup>1</sup> Miloddan avvalgi 582–500-yillarda yashagan mashhur yunon faylasufi. U yozgan deb hisoblangan «Oltin she'rlar» keyinroq yozilgan bo'lishi mumkin. «Faylasuf ayni ish uchun tavsiya qilgan vaqt – kechki payt yoki hatto uyquga ketish vaqti. Kuni bilan bajarilgan ishlar haqida ularga vijdonan baho berib, mulohaza yuritish, kun uchun sarhisobni Xudoning buyukligini eslab tugatish».

<sup>2</sup> Bu «Kichik kitob» 1733-yil, 1-iyul sanasida ishlab chiqilgan. (Uilyam Templ Franklin).

Su.	*	*		*		*	
Ta.	* *	*	*		*	*	*
Qa.			*			*	
Te.		*			*		
Me.			*				
Sa.							
Ad.							
Mo'.							
To.							
So.							
Ru.							
Ka.							
Pa.							

Fazilatlarning har biriga hafta davomida ko'rsatilgan ketma-ketlikda qat'iy e'tibor berishga qaror qildim. Shunday qilib, birinchi hafta tiyqlikka qarshi har qanday qilmishni chetlab o'tish, undan cheklanishdan iborat edi. Boshqa xislatlarni hozircha o'z holida qoldirib, faqat har oqshom kun davomida qanday kamchiliklarga yo'l qo'yganimni qayd etishni boshladim. Shunday qilib, dastlabki haftadagi sa'y-harakatlarim «Tiyqlik» deb yozilgan birinchi qatorimga qora nuqtalar tushishining oldini olishdan iborat bo'ldi. Shunda, bu xislatga xos odatni ancha kuchaytirsam va uning teskarisini susaytirsam, diqqat-e'tiborimni navbatdagi xislatga qaratishni bosh-

lashim kerak edi. Keyingi hafta davomida har ikkala qatorni ham risoladagidek tuta olishga harakat qilishim lozim. Ro'yxatning oxirgi bandigacha shu tariqa davom etsam, buni o'n uch hafta ichida tugatishim va bir yilda to'rtta bosqichdan o'tishim mumkin edi. Tomorqasidagi yovvoyi o'tlardan qutulishga qaror qilgan bog'bon hamma o'tlarni birdaniga yo'q qilib tashlashga urinmaydi. Chunki bunga uning na imkoniyati, na kuchi yetadi. Aksincha, u bog'ning bir chetidan boshlaydi. Birinchi qismini tozalab bo'lgach, keyingisiga o'tadi. Xuddi bog'bon kabi o'z qatorlarimni qora nuqtalardan ketma-ket tozalash yo'li bilan bir kuni kelib, kundalik daftardagi xislatlar jadvalida satrlarni tozalab borishni ko'rish zavqi meni ilhomlantirar edi. O'n uch hafta davomida har kunlik tekshiruvlardan keyin kundalik daftaramni toza holatda ko'rishdan baxtiyor bo'lsaman, deb umid qildim.

Bu kichik kundalik daftar uchun Eddisonning «Kato» asaridan olingan ushbu satrlarni shior qilib oldim:

«Mana, men savol beraman: Bizning ustimizda qudratli kuch bormikan?»

(«Albatta, bor!» Butun tabiat jo'r bo'lib aytadi buni – O'zining barcha ishlari orqali) U fazilatdan zavqlanishi

Va o'zi zavqlanadigan narsadan baxtli bo'lishi shart».

Sitserondan yana bir shior:

«O vitae Philosophia dux! O virtutum indagatrix expultrixque vitiorum! Unus dies, bene et

ex preceptis tuis actus, peccanti immortalitati est anteponeendus».<sup>1</sup>

Sulaymon payg'ambarning donishmandlik yoxud ezgulik haqidagi hikmatlaridan yana bir shior:

«Umrimiz kunlarining uzunligi Uning o'ng qo'lida, chap qo'lida boylik va sharaf. Uning yo'llari yoqimli va barcha yo'llari tinchlikdir».

Xudoni donolik favvorasi deb tasavvur qilib, bu donolikka erishish uchun uning yordamini so'rashni to'g'ri va zarur, deb o'yladim. Shu maqsadda kundalik foydalanish uchun tekshirish jadvallarimga ilova qilingan quyidagi kichik duoni tuzdim:

«Ey qudratli Xudo! Ne'matlar beruvchi Zot! Mehribon yo'l boshchimiz! Eng xolis maqsad-manfaatlarimni kashf etadigan donolikni menda oshirgin. Bu donolik buyurgan narsalarni bajarish uchun qarorlarimni mustahkamlagin. Mening halol xizmatlarimni O'z buyukliging haqqi qabul qilgin. Zero, mening doimiy mehnatlarim faqat Sening cheksiz mehning uchundir».

Ba'zan Tomsonning she'rlaridan olingan qisqa duoni ham ishlatib kelganman, ya'ni:

«Nur va hayot ibtidosi, Sen eng yuksak ezguliksan!  
Menga yaxshilikni o'rgatgin, menga O'zingni o'rgat!  
Meni ahmoqlik, mag'rurlik va illatdan qutqargin,  
Har bir yomon niyatli ta'qibdan;

Va ruhimni bilim, ongli sukunat hamda sof fazilat bilan;

---

<sup>1</sup> «Ey falsafa, hayotimiz yo'l boshchisi! Ey fazilat izlovchi va illatlarni yo'q qiluvchi zot! Yaxshi o'tkazilgan bir kun sening amrlaringga muvofiq gunohning o'lmasligiga arziydi». – (Tuskulan so'rovlari, V kitob).

Muqaddas, muhim, hech qachon so'nmaydigan baxt bilan to'ldirgin!»

Biznesimning har bir qismi uchun maxsus ajratiladigan vaqt kundalik daftaringda alohida sahifa ochishni talab qilardi. Unda bir kunning yigirma to'rt soatini oqilona sarflash bo'yicha sxema keltirilgan edi.

### SOAT

#### ERTALAB

Savol:

Bugun qanday yaxshilik qilishim kerak?

05:00

Uyqudan turish, yuvinish va Xudoga murojaat qilish! Kun davomida qilinadigan ishlar rejasini tuzish, kun uchun qaror qilish.

06:00

Amaldagi o'rganishda davom etish va nonushta qilish.

07:00

08:00

09:00

10:00

11:00

Ish

#### PESHIN

12:00

O'qish yoki hisob-kitoblarimni ko'rib chiqish va tushlik.

13:00

}	14:00	} <b>Ish</b>
	15:00	
	16:00	
	17:00	

**KECHQURUN**

Savol:

Bugun

qanday yaxshi

ish qilдим?

}	18:00	} Narsalarni o'z joyiga qo'yish. Kechki ovqat. Musiqa yoki biror narsaga chalg'ish yoki suhbat. Bugungi qilingan ishlarni sarhi- sob qilish.
	19:00	
	20:00	
	21:00	

**TUN**

}	22:00	} <b>Uyqu</b>
	23:00	
	00:00	
	01:00	
	02:00	
	03:00	
04:00		

O'zimni o'zim tekshirish uchun ushbu rejani bajarishga kirishdim. Uni bir muncha vaqt orada biroz uzilishlar bilan davom ettirdim. Menda o'zim tasavvur qilganimdan ko'p kamchiliklar borligini tushunib, hayron bo'ldim. Biroq ularning kamayib borayotganini ko'rib, o'zimdan qoniqish hosil qildim. Yangi bosqichga joy bo'shatish maqsadida eski kamchilik va xatolarimning qog'ozda belgilangan nuqtalarini amallarim bilan birga qog'ozda ham o'chirishga urinar edim. Shu sababli kundalikning sahifalari teshilib ketgandi. Kundaligimni yangilash muammosidan qutulish maqsadida fil suyagidan yasalgan sahifalardan tayyorlangan memorandumlar

kitobidan foydalanishni boshladim. Barcha ko'rsatmalar va jadvallarni unga ko'chirdim. Bu kitobda chiziq-larni uzoq vaqt o'chmaydigan qizil siyohda chizdim. Kamchiliklarimni qora qo'rg'oshin qalamda belgilaydigan bo'ldim. Ularni esa nam mato bilan osongina o'chirsa bo'lardi. Bir bosqichni faqat bir yil, keyin esa bir necha yil ichida faqat bitta bosqichni o'ta oldim. Oxir-oqibat xorijda turli dengiz safarlari va biznes yuritish uchun band bo'lganim sababli bu ishni butunlay tashlab yubordim. Xalaqit beruvchi ish va tashvishlar juda ko'p edi. Lekin kichkina kitobimni doim o'zim bilan olib yurardim.

Tartib xislati bo'yicha tuzgan rejam menga eng ko'p muammo tug'dirdi.<sup>1</sup> Shunga qaramay, bu xislat odamning vaqtini o'z tasarrufiga qo'yib berganda ish berishini tushunib yetdim. Masalan, uni bosmaxona dastgohida ishlaydigan ishchi uchun qo'llasa bo'ladi. Ammo bo'lim boshlig'ining tartibga aniq rioya qila olishining imkoni yo'q edi. Chunki atrofdagilar bilan muloqot qilishi, ko'p holatlarda o'zlarining bo'sh vaqtlarida keladigan ish bo'yicha mehmonlarni qabul qilishi kerak. Albatta, buyumlar, qog'ozlar va hokazolarga nisbatan tartibga rioya qilish juda qiyin ekanligini bilib oldim. Men bunga erta odat qilma-gan ekanman. Xotiram yaxshi bo'lganligi tufayli bu usulning yo'qligi sababli tug'iladigan noqulayliklarni deyarli sezmas ham edim. Shuning uchun ro'yxa-

---

<sup>1</sup> Professor Mak Masterning yozishicha, Franklin Fransiyada amerikaliklarning vakili vazifasini bajarib yurganida, uning ishbilar-monlik tartibi yo'qligi hamkasblari va do'stlarini xavotirga solgan: «Uni ko'rish uchun kelgan notanish odamlar stol va polda tartibsiz sochilib yotgan eng katta ahamiyatga ega qog'ozlarni ko'rib, hayron bo'lishdi».

timdagi ushbu bandni bajarishga ko'p kuch-g'ayrat sarflashga majbur bo'ldim. Tartibdagi kamchiliklarim menga juda ko'p azob berdi va ijobiy o'zgarishda juda sust edim. Xatolarim shunchalar ko'p takrorlanar ediki, bu ishdan voz kechishimga va shu ma'noda, kamchiligi bor odam ekanligimga chidab yashashga rozi bo'lishimga ham sal qoldi. Ya'ni temirchi qo'shnimdan olgan boltasining chetlarini xuddi o'tkirlangan uchiday yaraqlagan qilib berishni so'ragan odamga o'xshashim mumkin edi. Temirchi qo'shnim mijoz charxni aylantirib tursa, boltaning hamma joyini yaraqlatib berishga rozi bo'libdi. Mijoz aylantirishni boshlabdi, temirchi boltaning yo'g'on joyini charxning yuziga iloji boricha qattiq bosishda davom etibdi va bu charxni aylantirishni juda qiyinlashtiribdi. Mijoz charx ortidan ishning qanday ketayotganini ko'rish uchun vaqti-vaqti bilan qaray boshlabdi. Oxir-oqibat u boltani yaraqlatmasdan olib ketishga rozi bo'libdi.

– E, yo'q, – debdi temirchi, – aylantiring, tezroq aylantiring. Boltaning hamma tomonini yaraqlatishimiz kerak. U endi sal ola-chipor bo'ldi. – Mayli, – debdi mijoz, – menga shu ola-chipor bolta ham bo'laveradi.

Menimcha, buni ko'pchilik boshidan o'tkazgan. Men qo'llagan vositalar yo'qligidan ular yaxshi odatlarni egallash va yomonlaridan qutulishda qiyinchiliklarga uchrashgan. Kurashdan voz kechib, «ola-chipor bolta men uchun yaxshi», degan xulosaga kelishgan. Chunki o'zini go'yoki inson ongi deb o'ylaydigan narsa menga ko'p hollarda: haddan ortiq tartiblilik senga kerak emas, deb aytib turar edi. Chunki u axloqda qandaydir soxtaliklar bo'lishi,

odamlar bundan xabar topishsa, ustimdan kulishlari mumkin. Benuqson xulq-atvorli, xarakterli bo'lish hasad va nafratga duch kelish noqulayligini yarata-di. Do'stlarining yaxshi munosabatini saqlab qolish uchun nufuzli, muruvvatli odam o'zida bir necha kamchilik bo'lishiga yo'l qo'yishi lozim, deb aytardi.



Aslini olganda, o'zimni tartib borasida tuzatib bo'lmaydigan holga kelib qolganligimni anglab yetdim. Mana, keksayib qoldim va xotiram yomonlashdi. Shu sababli tartibga o'ta muhtojlik sezyapman. Lekin, umuman, hech qachon barkamollik darajasiga yeta olmaganman. Bunga erishishni juda xohlaganman, ammo uddasidan chiqa olmaganman. Tan olish lozimki, sa'y-harakatlarim tufayli bunga intilmaganimdagiga qaraganda, yaxshiroq va baxtliroq odamga aylandim. Mening holim benuqson va bejirim yozishni o'rganmoqchi bo'lgan odamlarning o'yma matnlardan nusxa olishlari, ammo hech qa-

chon bu yo'lda kamolotga yetmasliklari, faqat sa'y-harakatlari bilangina husnixatlari ancha yaxshilanishi bilan bog'liq holatga o'xshardi.

Ehtimol, mening avlodlarim shuni bilishlarini xohlardimki, ushbu satrlarni yozayotganida 79 yoshga kirgan bobolari o'z hayotidagi baxt-saodatga aynan mana shu kichik ayyorlik orqali, Xudoning inoyat va marhamati bilan erishgan. Hayotining qolgan kunlarida boshiga nimalar tushishi faqat Tangrining o'ziga ayon. Mabodo yomon kunlar kelsa, saodatda o'tkazgan kunlar haqidagi xotiralar sinovlarni chidam bilan yengib o'tishda unga yordam beradi. Tiyaqlik uning uchun uzoq vaqt salomat yurish garovi bo'ldi. Salomatligining yaxshiligi unda qolgan yagona ijobiy jihatdir. Mehnatsevarlik va tejamkorlik og'ir vaziyatlardan tez va oson chiqib ketish, boylikka erishishini ta'minlagan. Bu insonning yaxshi fuqaro bo'lib yetishishi, savodli odamlar orasida muayyan darajadagi hurmatga ega bo'lishi xususan, shu darajaga yetib kelishiga sabab bo'lgan bilimlarni olishiga ham ushbu xislatlar sababchidir. Samimiylik va adolat o'z vatanining ishonchini qozonishiga, ishonch esa unga nom va sharaf olib kelgan. Qolaversa, xislatlarning jamuljam, birgalikdagi ta'siri esa,<sup>1</sup> hatto ularni nomukammal darajada egallagan

---

<sup>1</sup> Franklin shaxsiyatining axloqiy jihatdan rivojlanishi va baxt-saodati ushbu xislatlarga o'z hayotida amal qilish tufayli bo'lganligi haqida hech qanday savol tug'ilmaydi. Shunga qaramay, aksariyat odamlar uning ezgu hayotga turki berish rejasiga murojaat qilish kerakligiga rozi bo'lishadi. Franklinning «ushbu sxema axloqdagi soxtaliklarga to'la» degan taxmini asosli ko'rinadi. Vudro Uilson bu haqda yaxshi gap aytadi: «Odamlar ichlaridan bu yerda yo'q bo'lgan chuqurroq bir narsa porlab o'tmasa, bunday fikrlardan olov olmaydilar. XVIII asrda axloq tizimi bo'lib tuyulgan narsa bizga

bo'lishiga qaramay, xulq-atvorning muloyim, bir maromdaligi va suhbatda yaxshi kayfiyatda bo'lish kabi ustunliklarni ta'minlagan. Chunki bu jihatlar, hatto yosh tanishlarning ham u bilan uchrashishga intilishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, umid qilamanki, ba'zi avlodlarim bundan o'rnak olib, foyda olishlari mumkin.

Ta'kidlash lozimki, rejamda din yo'q emas edi. Ammo unda muayyan bir yo'nalish va oqimning ko'rsatma hamda dogmalariga hech qanday ishora yo'q. Men bunga ataylab yo'l qo'ymadim. Usulimning foydaliligi va mukammalligiga to'la ishonar, u barcha dinlar vakillariga foyda keltiradi, deb hisoblar edim. Ertami-kechi uni nashr etishga niyat qilib, unda hech bir insonni, oqimni zarba ostiga qo'yadigan, unga qarshi bo'ladigan biror narsa bo'lmasligiga harakat qildim. Men har bir xislat haqida ozgina izoh yozishni maqsad qilib qo'ygan edim. Unda men xislatni egallashning afzalliklari va unga teskari bo'lgan illatga ega odamlar duch keladigan baxtsizliklarni ko'rsatishni niyat qildim. O'z kitobimni «Yaxshi xislat san'ati» deb nomlamoqchi edim.<sup>1</sup> Chunki unda yaxshi xislatni egallash vositasi va uslubi ko'rsatilgan bo'lardi. Bu esa uni shunchaki yaxshi xulqli bo'lishga

---

sog'lom aql-idrok va yaxshi xulq-atvor qoidalari to'plamidan boshqa narsa emasdek tuyuladi. Bu kitobni mayda-chuydalardan iborat bo'lib ko'rinishdan qutqaradigan narsa – standartlarni o'z hayoti uchun butun jiddiylik va samimiylik bilan belgilagan Franklinning o'z shaxsiyatida kuzatiladigan kuch va foydalilik mezonining o'ziga xos talqinidir». (Galatiyaliklar, V bob, Nasroniylarning axloqiy barkamollik rejasi uchun).

<sup>1</sup> Yaxshi fazilatlardan boshqa hech narsa insonning boyishiga yordam bermaydi. (Hoshiyadagi yozuvlar).

chaqirishdan ajratib turgan bo'lardi. Chunki quruq nasihat o'rgatmaydi yoki unga erishish yo'llarini ko'rsatmaydi. Balki shunchaki, apostolning yalang'och va och odamlarga kiyim-kechak hamda yegulikni qanday hamda qayerdan olishni ko'rsatmasdan, ularga ovqatlanish va kiyinib olish haqida quruq og'zaki nasihat qilish kabi bo'lar edi.

Ammo turli sabablarga ko'ra, bu sharhlarni yozish va nashr etish niyatim hech qachon amalga oshmadi. Ba'zi-ba'zida bir kun kerak bo'lib qolar deb o'z fikrlarim, asoslarim va hokazolarni qisqa shakllarda yozib bordim. Ulardan ba'zilari menda hali ham saqlanib qolgan. Ammo vaqtim, diqqate'tiborimni hayotimning ertaroq davrida xususiy biznesga va undan keyin davlat xizmatiga qaratish zaruriyati bu ishni kechiktirib keldi. Chunki bu ishni amalga oshirish insonning butun vaqti va kuchini talab qiladigan katta va keng ko'lamli loyiha bo'ldi. Hayotimda kutilmagan voqea-hodisalarning ketma-ket sodir bo'lishi sababli bu ish yakunlanmay qolib ketdi.

Bu asarda muayyan ta'limotni tushuntirish va joriy qilishni reja qilgandim. Unga ko'ra, faqat insonning tabiatini hisobga olganda, yomon ishlar ular taqiqlanganligi uchun yomonlik keltiradigan emas, balki zarar keltirishi uchun taqiqlangan. Shuning uchun har bir inson bu dunyoda baxtli bo'lishni xohlasa, yaxshi xislatlarga ega bolishdan manfaatdor bo'lishi kerak. Shu holatni hisobga olib, yoshlarni faqat pok vijdonlilik va halollikdan boshqa hech qanday xislatlar kambag'al odamni boylikka olib kela olmasligiga ko'ndirishga, ishontirishga harakat

qilishim lozim, deb o'ylardim. Zero, dunyoda o'z ishlarini boshqarish uchun ularda juda kam uchraydigan insoniy fazilat va xislatlarga ega insonlarga muhtoj savdogarlar, zodagonlar, mamlakatlar va shahzodalar juda ko'p.

Dastavval, yaxshi xislatlar ro'yxatida o'n ikki band bor edi. Ammo kvaker do'stlarimdan biri xayrixohlik bilan ko'pchilik meni o'ta mag'rur, kibrli, deb o'ylashini aytdi. Bu illatim suhbatlarda juda ko'p namoyon bo'lar ekan. Har qanday mavzuni muhokama qilishda men ustun kelishga intilib, gapimni o'tkazishga harakat qilar, o'zimni o'ta surbet va takabbur tutar ekanman. Buni do'stim bir necha marta ta'kidlab, meni ishontirdi. Men o'zimni imkonim boricha bu illat yoki kamchilikdan isloh qilishga qaror qildim. Shu tariqa, ro'yxatimga kamtarlik fazilati ham o'zining teran ma'nosi ila kiritildi.

Men bu xislatni tom ma'noda egalladim, deb maqtana olmayman. Ammo uni namoyish etish borasida ancha harakat qildim. O'zimning fikrlarim va his-tuyg'ularimda qat'iy turib olib, boshqalarning fikrlariga to'g'ridan-to'g'ri qarshi chiqishdan o'zimni tiya olish zarurligini qoida qilib oldim. Hatto o'zimga Jantou klubimizning eski qonunlariga mos ravishda, yakuniy qabul qilingan fikrlarni anglatadigan har qanday so'z yoki iborani qo'llashni taqiqladim. Masalan, ular qatoriga «albatta», «shubhasiz» va hokazolar kirar edi. Ularning o'rniga «o'z tushunishimcha», «taxmin qilishimcha» yoki «falon narsa aniq mana shunday», yoki «hozircha menga shunday ko'ringanday bo'lyapti» kabi iboralarni qabul qilib, qo'llashni odat qildim.

O'zimni bir kishi menga nimanidir xato deb tushuntirmoqchi bo'lganida, u odamning gapini qo'qqisdan bo'lib qarshi gapirish va fikrining tuturiqsizligini isbot qilish imkoniyatidan mahrum qildim. Javob berishda o'z so'zlarimni men uning fikri muayyan holat va vaziyatlarda to'g'ri bo'lishi mumkinligini aytish bilan boshladim. Ammo joriy holatda, aftidan, biroz farqlar mavjudligi ko'rinadi deb aytdim. Tez orada so'zlash usulimda bu o'zgarish mavjudligini va uning afzalligini sezdim. Men ishtirok etgan suhbatlar yanada yoqimli davom etadigan bo'ldi. O'z fikrlarimni boshqalarga taqdim etishda kamtarona usulim menga odamlarning ularni idrok etib, tezroq va osonroq qabul qilishlari, kamroq hollarda qarshi chiqishlarini ta'minlar edi. Fikrlarim, qarorlarim noto'g'ri deb topilgan hollarda ruhan kamroq qiynaladigan bo'ldim. Boshqalarni o'z xatolarini tan olishga «olib kelish» va men haq bo'lganimda, fikrimga qo'shilishlari oson kechadigan bo'ldi.

Dastlab tabiiy moyilligimga qarshi zo'ravonlik qilib yurgan bu yondashuv oxir-oqibat o'ta oson va odatiy bo'lib qoldi. Shu darajadagi, o'tgan ellik yil davomida hech kim mening tilimdan biror qat'iy tugallangan fikr yoki ibora chiqqanini eshitmagan bo'lsa kerak. Menimcha, bu odat (mening halol, to'g'riso'zlik xarakterimni hisobga olib) vatandosh fuqarolarimizning xizmati tufayli shakllandi, deb o'ylayman. Zero, ular yangi muassasalar ochishni yoki eskilarini o'zgartirishni taklif qilganimda, meni qo'llab-quvvatlaganlar. Shuningdek, bunda jamoatchilik kengashlariga ko'rsatadigan ta'sirimning ham

hissasi katta. Ularga a'zo bo'lganimda, salbiy ma'no-da hech qachon keskin gapirmasligim, ovozimda ikkilanishlarning ko'pligi, so'zlashda bayonchilik uslubimning mukammal emasligi, odatda, o'z fikr va mavzularimning qabul qilinishiga olib kelardi.

Aslida bizning tabiiy ehtiroslarimizdan hisoblangan kibr va mag'rurlikni jilovlashdan qiyini yo'q. Uni qanchalik yashirsang ham, unga qarshi kurashsang ham, hatto «urib, pachaqlasang...» ham, bo'g'ib qo'ymoqchi bo'lsang ham, yo'q qilishga urinsang ham – u omon qolaveradi. Vaqti-vaqti bilan shartta qarshingdan chiqib kelib, o'zini namoyon qiladi. Ushbu hikoyamizda ham u sezilsa kerak. Uni, hatto butunlay yengishga erishdim, deb o'ylasam ham, baribir o'z kamtarligim bilan g'ururlanib ketishim mumkin-da.

*[Hikoya shu yergacha Passi shahrida 1784-yilda yozilgan.]*

*[«1788-yil avgust oyida uyda yozishni davom ettirmoqchiman. Lekin hujjatlarimning aksariyati urush davrida yo'qolib ketganligi sababli ulardan foydalanib ish ko'raman, degan umidim puchga chiqdi. Biroq men quyidagilarni topdim».]*

Yuqorida o'zim rejalashtirgan KATTA VA KO'LAMLI LOYIHA haqida aytib o'tgan edim. O'sha loyiha va uning mavzusi bo'yicha biroz hisobot berish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman. U dastlab xayollarimda shakllandi, keyinchalik qisqacha shaklda qog'ozga tushirildi va qarangki, bu qog'oz tasodifan saqlanib qolgan ekan:

Kitob o'qish tarixim bo'yicha kuzatuvlarim, kutubxonada, 1731-yil, 19-may.

---

<sup>1</sup> Bu hoshiyada yozilgan memorandum. (B.Franklin).

- Bu dunyoning buyuk ishlari – urushlar, inqiloblar va boshqa ishlarni partiyalar keltirib chiqaradi va amalga oshiradi.

- Ushbu partiyalarning nuqtayi nazari ularning hozirgi umumiy manfaatlari yoki ular manfaatli deb o'ylaydigan narsalardir.

- Turli partiyalarning nuqtayi nazarlari barcha chalkashlik va tartibsizliklarni keltirib chiqaradi.

- Partiya umumiy yo'nalishni amalga oshirayotganda, har bir kishi o'zining muayyan shaxsiy manfaatlari ega bo'ladi.

- Biror partiya o'zining umumiy nuqtasiga erishgach, har bir a'zo o'zining muayyan manfaatlari bilan mashg'ul bo'ladi. Bu esa boshqalarning manfaatlari nomutanosisib kelib, yanada ko'p chalkashliklarni yuzaga keltiradi.

- Jamoatchilik va davlat ishlarida kamdan-kam odam o'zini nimalardir qilayotganday ko'rsatmoqchi bo'lsa ham, vatanining farovonligi nuqtayi nazardan harakat qiladi. Ularning harakatlari o'z vatnlariga haqiqiy yaxshilik keltirishi mumkin. Ammo bu odamlar birinchi navbatda o'zlarining va o'z mamlakatlarning manfaatlarini o'zaro bir, yaxlit deb hisoblaydilar. Ya'ni xayrixohlik tamoyili asosida harakat qilmaydilar.

- Nima bo'lsa ham, hali davlat ishlarida insoniyatning farovonligini o'ylab ishlaydigan odamlar bor.

- Menimcha, hozir barcha xalqlarning fazilatli va yaxshi odamlarini muntazam bir muassasa, birlikka jamlash orqali «Yaxshi xislatlarning birlashgan partiyasi»ni tuzish vaqti keldi. Uni boshqarish uchun esa oqilona va dono qoidalar tuzish lozim. Ularga

oddiy odamlar odatiy qonunlarga rioya qilgandagi-  
ga qaraganda, go'zal fazilatli va dono odamlar bir  
ovozdan rioya qilishga rozi bo'lishlari tayin.

- Hozirgi kunda, menimcha, bu ishni to'g'ri amal-  
ga oshira oladigan va bunga malaka-ko'nikmasi ye-  
tarli odam, albatta, Xudoga yoqadi va muvaffaqiyat-  
ga erishadi.

Bu loyihani, bir kun kelib, bo'sh vaqtim va sha-  
roitim bo'lganda amalga oshiraman deb o'ylab yur-  
dim. Fikrlar bu loyihani ma'qullab, yodga tushirgan-  
da, vaqti-vaqti bilan rejani qog'ozga tushirib bordim.  
Qog'ozlarning ancha qismi yo'qolgan. Ammo men  
nazarda tutgan e'tiqod ta'limotining mohiyatiga ay-  
lanishi mumkin bo'lgan bittasini topdim. Men har  
bir dinning asosiy qonun, talablari mavjud va ular-  
da barcha din vakillarini hayratga soladigan hech  
bir narsa yo'q, deb o'yladim. U quyidagi so'zlarda  
ifodalangan:

- Hamma narsani yaratgan yagona Xudo bor.
- U dunyoni o'z irodasi bilan boshqaradi.
- Unga ibodat va shukur bilan sajda qilish kerak.
- Xudoning eng maqbul inoyati insonga yaxshi-  
lik qilishdir.
- Ruh o'lmasdir.
- Xudo, albatta, yaxshilikni mukofotlaydi va yo-  
monlikni jazolaydi, bu dunyoda ham, narigisida ham.

O'sha paytlarda mening fikrlarim o'zim asos so-  
ladigan oqim targ'ibotini boshlash va dastlab faqat  
yosh va yolg'iz odamlar orasida tarqatish fikri bilan  
band edi. Qabul qilinadigan har bir kishi nafaqat  
bunday e'tiqodga roziligini e'lon qilishi, balki o'n  
uch haftalik tekshirishdan o'tishi va yuqorida bayon

etilgan usuldagi kabi yaxshi xislatlarni amalda egalashi va qo'llay bilishi kerak. Bunday jamiyatning mavjudligi uning a'zolari soni sezilarli darajaga yetgunga qadar sir saqlanishi lozim. Bu noloyiq shaxslarni qabul qilish uchun harakatlar va iltimoslarning oldini olish imkonini beradi. Balki a'zolarning har biri o'z tanishlari orasidan aqlli, o'zini ijobiy tomondan namoyon qilgan yoshlarni izlashi kerak bo'ladi. Bunday odamlarga esa reja sog'lom aql doirasidagi ehtiyotkorlik darajasida sekin-asta yetkazilishi g'oyat muhim. A'zolar bir-birlarining manfaatlari va biznesini targ'ib qilib, maslahat, yordam va qo'llab-quvvatlashda o'zlarini ko'rsatishlari kerak. Boshqalardan ajralib turishi uchun jamiyatimizni Erkin va yaxshi odamlar jamiyati deb nomlashimiz kerak edi. Ya'ni erkinlik – umumiy qo'llaniladigan, o'z navbatida, yomonlik, kamchilik hamda illatga o'rin bermagan ijobiy xislatlar majmuidir. Bu xislatlar, ayniqsa, mehnatsevarlik hamda tejamkorlik orqali insonni cheklovlarga va kimlargadir qaram qiluvchi qarzlardan xolilikdir.

Loyihadan yodimda qolganlari shular edi. Bundan tashqari, men uning bir qismini muayyan tashabbus bilan qabul qilgan ikki yosh yigitga ham aytib bergan edim. Ammo o'shandagi og'ir ahvolim va biznesim bilan jiddiy shug'ullanish zaruriyati sababli loyihani yana kechroq muddatga qoldirdim. Keyinchalik ham xususiy, ham davlat xizmati bilan bog'liq ishlarim muddatni orqaga surishga majbur qildi. Shu tariqa, bunday katta loyihani amalga oshirish uchun kuchim ham, faolligim ham qolmagan vaqt-

ga qadar kechiktirildi. Ammo hali ham uni amalga oshirsa bo'ladigan va ko'plab yaxshi insonlarni o'zida jamlaydigan foydali loyiha, deb o'ylayman. Bu ish ko'lamining kattaligidan qo'rqqanim yo'q. Chunki har qanday o'rtamiyona qobiliyatga ega odamning ham ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishiga ishonib kelganman. Buning uchun u avvalo yaxshi reja tuzishi, o'z diqqat-e'tiborini chalg'itishi mumkin bo'lgan barcha narsalardan voz kechishi lozim. Shundan so'ng rejani o'z bilimi va biznesi doirasida amalga oshirishi mumkin.

## X

### **«KAMBAG'AL RICHARDNING ALMANAXI» VA BOSHQA FAOLIYAT**

1732-yilda almanaxni «Richard Sonders» nomi ostida birinchi marta nashr qildim. Uni taxminan yigirma besh yil davomida nashr etib bordim. Uning odatdagi nomi «Kambag'al Richardning Almanaxi» («Poor Richard's Almanac») edi.<sup>1</sup> Men nashrning ham qiziqarli, ham foydali bo'lishini ta'minlashga intildim. Sa'y-harakatlar natijasida, unga talab shunday ko'p bo'ldiki, men undan katta foyda oldim. Har yili o'n mingga yaqin adad sotardim. Almanaxni odamlarimiz ommaviy o'qishardi. Mintaqada uni olmaydigan biror xonadonni topish qiyin edi. Shu sababli, uni

---

<sup>1</sup> O'sha paytda almanax davriy nashrning bir turi, shuningdek, tabiat hodisalari va ob-havo haqidagi qo'llanma edi. Franklin bu nomni mashhur ingliz almanaxi «Kambag'al Robin» va taniqli almanax noshiri Richard Sondersning nomlaridan olgan.

boshqa hech qanday kitob sotib olmaydigan odamlar orasida savod va bilimlar tarqatishning qulay vositasiga aylantirish haqida o'ylay boshladim. Shuning uchun taqvimda uchraydigan nishonlanadigan sanalar orasidagi kichik oraliq bo'sh joylarni, asosan, mehnatsevarlik va tejamkorlik haqidagi boylik keltiradigan hamda yaxshi xislatlarni tarbiyalaydigan rivoyatlar bilan to'ldirishni boshladim. Muhtojlikdagi insonning har doim ham vijdonga amal qilish imkonini yo'qligi sababli «Och qoringa tik turish ham qiyin» kabi maqollarni ham ishlatganmiz.

Ko'p asrlar va xalqlarniing donoligini o'zida mujassam qilgan bu maqollarni mulohazalar bilan bog'liq holda jamlab, shakllantirdim. Uni 1757-yilgi almanaxga ilova shaklida nashr etdim. Mulohazalar dono bir cholning savdoda ishtirok etayotgan odamlarga nutqi shaklida berilgandi. Bunday tarqoq maslahatlarning shu tariqa diqqat-e'tibor markaziga chiqarilishi ko'proq natijaga erishish imkonini berdi. Har tomonlama ma'qullangan bu asar qit'aning barcha gazetalarida qayta nashr qilindi. Britaniyada uni uylarda osib qo'yish maqsadida keng qog'oz varag'ida chop etishdi. Fransuz tiliga ikki marta tarjima qilindi. Ruhoniylar va zodagonlar o'z kambag'al qavmlari hamda ijarachilariga bepul tarqatish uchun uning ko'plab nusxalarini sotib olishardi. Pensilvaniyada bu asar xorijdan olib kelinadigan ortiqcha narsalar va ulardan foydalanish illatlaridan qaytarishi tufayli, ba'zilar uni bir necha yildan keyin kuza-tilgan pul mablag'larining ko'payishiga ham ijobiy hissasi bor, degan fikrda edi.

Men gazetamni ham ma'lumot, ham ta'lim berishning o'ziga xos vositasi deb hisoblardim. Shu maqsadda, unda tez-tez «Spektator» jurnali va boshqa axloq masalalarida yozadigan mualliflarning asarlaridan parchalarni qayta nashr etib turardim. Ba'zan, dastlab Jantou klubimizda o'qib berish uchun o'zim yozgan asarlarni ham nashr etardim. Ulardan biri Suqrot usulidagi dialog edi. Uning maqsadi odamlarning shaxsiyati, salohiyati va qobiliyatlari qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar, yomon odamni aqlli, yaxshi odam deb bo'lmasligini isbotlashdan iborat. Shuningdek, u o'zini rad etish haqidagi mulohaza bo'lib, unda yaxshi xislat odatga aylanmaguncha va o'ziga teskari moyilliklarning qarshiligidan ozod bo'lmaguncha mustahkam emasligi ko'rsatilgan edi. Bularni 1735-yil boshidagi hujjatlardan topish mumkin.<sup>1</sup>

Gazetani yuritishda har qanday tuhmat va shaxsiyatga nisbatan haqorat holatlarining qayd etilishiga qarshi hushyor turardim. Chunki so'nggi yillarda mamlakatimizda bu o'ta uyatli va sharmandali holat hisoblana boshlagan edi. Har doim mendan bunday narsalarni kiritishni iltimos qilishardi. Bunday holatlarda yozuvchilar, odatdagidek, matbuotning, gazeta esa pochta aravasi ekanligini, pul to'lagan odam unga xohlagan narsasini qo'yishi mumkinligini ta'kidlashar edi. Ularga bunday asarni alohida chop etishim, muallif o'zi xohlagan adadda olishi va o'zi tarqatishi mumkinligini aytardim. Ularga tuhmatlarini tarqatishni xohlamasligimni ma'lum qilardim. Aslida

---

<sup>1</sup> 1730-yil 23-iyun va 1750-yil 7-iyul (Smit).

obunachilarim bilan ularga foydali yoki ko'ngilochar ma'lumotlar berishga kelishib olgan edik. Shu sababli gazetalarni ularga taalluqli bo'lmagan shaxsiy janjallar bilan to'ldirishga haqim yo'q edi. Chunki bu oshkora adolatsizlik bo'lardi. Ko'pchilik matbaachilarimiz ayrim shaxslarning oramizdagi eng oliyjanob odamlarga qarshi adovat va xusumatini qondirish uchun soxta ayblovlarni chop qilish kabi pastkash ishni qilishadi. Bu bilan dushmanlikni duel darajasigacha chuqurlashtirishadi. Boz ustiga, ular shu qadar kaltabinki, hatto qo'shni davlatlar hukumatlari va eng yaqin milliy ittifoqchilarimizning ishlari haqida ham haqoratimiz maqolalar chop qilishadi. Bu eng yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Men bu gaplarni yosh matbaachilarga ogohlantirish tarzida yozyapman. Maqsadim – ular salbiy natija beruvchi amallar bilan bosmaxona dastgohlarini bulg'amasinlar va o'z kasblarini sharmanda qilmasinlar. Bunday illat va zararli odatlardan o'zlarini tiysinlar. Buni mening misolimda ko'rishlari mumkin. Chunki o'zini bunday tutish, umuman olganda, ularning manfaatlariga zarar keltirmaydi.

1733-yilda ishchilarimdan birini Janubiy Karolina shtatining Charlzton shahriga yubordim. U yerga bosmaxona dastgohi mutaxassisi kerak ekan. Men unga sheriklik shartnomasi bo'yicha bosmaxona dastgohi va harflar to'plamlarini berdim. Shartnomada xarajatlarning uchdan bir qismini to'lashim va biznesdan olinadigan foydaning uchdan bir qismini olishim belgilangan. U bilimdon va vijdonli, ammo hisob-kitob ishlaridan bexabar odam bo'lib, ba'zan menga pul o'tkazmalarini amalga oshirardi. Ammo

undan vafot etguniga qadar na bir moliyaviy ma'lumot, na sherikligimizning holati haqida biror qoniqarli hisobot oldim. Uning vafotidan so'ng biznesni uning bevasi – Hollandiyada tug'ilib o'sgan bir ayol davom ettirdi. Menga aytishlaricha, bu mamlakatda buxgalteriya hisobi ayollar ta'limining bir qismini tashkil etar ekan. U nafaqat o'zi topa olgan pul o'tkazmalarining maqomi haqida, balki har chorakda o'ta aniq moliyaviy hisobotlar jo'natib turdi. Biznesni shunchalik muvaffaqiyat bilan boshqara oldiki, nafaqat bir nechta farzandni juda yaxshi tarbiyalay oldi, balki shartnoma muddati tugagach, mendan bosmaxonani sotib oldi va uni o'g'illaridan biriga topshirdi.

Bu ayol haqidagi hikoyani, asosan, yosh ayol-qizlarimizning ta'lim tizimiga buxgalteriya hisobi bo'limini qo'shishni tavsiya qilish maqsadida keltirdim. Chunki beva bo'lib qolsalar, buning o'zlari va farzandlariga musiqa yoki raqsdan ko'ra, ko'proq foydasi tegadi. Qolaversa, makkor odamlarning tuzog'iga tushib, mol-mulk va pul yo'qotishdan saqlanish imkoniyati yetarli bo'ladi. O'z navbatida, o'g'illardan biri ishni o'z zimmasiga oladigan yoshga chiqquncha, foydali savdogarlik uyini ishlatishda yaxshi yo'lga qo'yilgan muloqot hamda barqaror foyda oilani boyish bilan davom ettirish imkonini beradi.

Taxminan 1734-yilda qavmimiz orasiga Irlandiyadan Hemfill ismli yosh presviter voizi keldi. U yaxshi ovoz bilan aftidan maxsus tayyorgarlik ko'rmadan, o'ta ta'sirli, otashin va'zlar o'qiy boshladi. Endi turli yo'nalish va e'tiqod vakillari bunday va'zlarga qoyil qolib, havasi kelganidan uning nutqlarini ke-

lib tinglashadigan bo'lishdi. Boshqalar qatori men ham uning doimiy tinglovchilaridan biriga aylandim. Uning va'zlari menga juda yoqardi. Ularda dogmatik ma'nodagi fikrlar juda kam edi. U ezgulik bilan amal qilishni qat'iy maslahat berar yoki diniy uslubda nimalar yaxshi ekanini aytib berardi. Biroq qavmimizning o'zlarini ortodoksal presviterlar deb hisoblagan vakillari uning ta'limotini ma'qullamadilar. Ularga keksa ruhoniylar qo'shilishdi va birgalikda bu yosh va'zxonning ovozi o'chirish niyatida sinodga<sup>1</sup> borgan holda, uni bid'atchilikda aybladilar. Men uning g'ayratli tarafdoriga aylandim. Uning foydasiga ishlaydigan guruh uyushtirish uchun qo'limdan kelgan barcha ishni qildim. Biz u uchun bir muddat muvaffaqiyat umidi bilan kurashdik. Ayni muammoning yaxshi va yomon tomonlari ham bor edi. Mahoratli voiz bo'lgani bilan «yozish»da no'noq ekanligini bilib qoldim. Men unga o'z «qalam»imning yordamini taklif qildim. Uning nomidan ikki yoki uch pamflet yozdim. Maqolalardan biri «Gazette»da 1735-yil aprel oyida chop etildi. Ushbu maqolalar, odatda, o'sha paytda ishtiyoq bilan o'qilgan munozarali asarlar masalasiga bag'ishlangan edi. Shu sababli, ular tez orada urfdan chiqib ketdi. Men ularning atigi bitta nusxasi bo'lsa ham hozir mavjudmikan yoki yo'qmi-kan, deb o'zimga savol beraman.<sup>2</sup>

Kurash davomida omadsiz bir voqea uning ishiga juda katta zarar yetkazdi. Raqiblarimizdan biri uning

---

<sup>1</sup> Sinod – oqim cherkovining oliy boshqaruv organi.

<sup>2</sup> Pol Lester Fordning «Benjamin Franklin tomonidan yozilgan yoki unga tegishli deb hisoblangan kitoblar ro'yxati»ga qarang. 1889., 15-bet. (Smit).

odamlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan bir va'zini eshitib, u ilgari ayni va'zni yoki hech bo'lmaganda uning bir qismini qayerdadir o'qiganligini aytibdi. Qidirib ko'rib, ushbu qismni «Qayta tug'ilish» nashrlarining biridan topibdi. U doktor Fosterning nutqidan olingan ekan.<sup>1</sup> Bunday oshkor bo'lishdan tarafdorlarimizning ko'pchiligi nafrat bildirishdi hamda uni tark etishdi. Bu esa sinoddagi noqulayliklarimizning tezlashishiga olib keldi. Men uning yonida sobit turdim. Ammo men, asosan, uning boshqalar tomonidan yozilgan yaxshi va'zlarni bizga yetkazganini ma'qullar edim, xolos. Chunki o'zi yozganlari o'zimizning oddiy o'qituvchilarimizning amaliyotidagi va'zlar bo'lsa ham yaxshi emas edi. Keyin u menga qilgan va'zlarining hech biri o'ziniki emasligini tan oldi. Xotirasi shunday kuchli ekanki, har qanday va'zni bir marta o'qigach, esda saqlab olib, uni takrorlay olarkan. Mag'lubiyatga uchraganimizdan so'ng boshqa joylarga o'z baxtini izlab ketdi. Men esa qavmdan chiqdim va keyinchalik unga hech qachon qo'shilmadim. Ammo ko'p yillar davomida qavmning ruhoniylarini qo'llab-quvvatlash uchun a'zolik badalini to'lab turdim.

1733-yilda men til o'rganishni boshlagan edim. Tez orada fransuz tilini binoyiday o'rganib oldim. Bu tilda kitoblarni bermalol o'qiy oladigan bo'ldim.

---

<sup>1</sup> Dr.Jeyms Foster (1697–1753).

«Kamtar inson Fosterga ruxsat bering, agar u qaror qilsa, Yaxshi va'zxonlikda o'n mitropolitdan ham o'tib ketadi». (Poup, Satirlar uchun epilog, I, 132).

«Farinellining qo'shiq aytgani va Fosterning va'z o'qiganini eshitmaganlar nozik ta'b, nafis didli odamlar qatoriga kiritilmas edi». (Hokins, Musiqa tarixi, – Smit).

Keyin italyan tilini o'rganishga kirishdim. Bu tilni o'rganayotgan bir tanishim meni shaxmat o'ynashga tez-tez chaqirib turardi. Bu ish o'qib-o'rganish uchun sarflashim kerak bo'lgan vaqtimning ko'p qismini olayotganini angladim. Oxir-oqibat bir shartim bajarilmasa, shaxmat o'ynashni bas qilishga qaror qildim. Ya'ni, har bir o'yinning g'olibi yoddan aytilishi zarur bo'lgan biror grammatik qoidani ayti-shi yoki tarjima borasida biror vazifa berishi kerak bo'lsin. Bu vazifalarni mag'lub tomon keyingi uchra-shuvgacha vijdonan bajarishi shart edi. Shaxmatdagi mahoratimiz ancha teng ekan va bir-birimizni bu tilda yaxshigina mag'lubiyatlarga uchratar edik. Keyinchalik ancha qiyinchiliklar bilan ispan tilini ham bu tilda yozilgan kitoblarni o'qiy oladigan darajada o'rganishga muvaffaq bo'ldim.

Lotin maktabida faqat bir yillik ta'lim olganligim haqida yozgandim. U paytda juda yosh bola edim. Keyinchalik bu tilni butunlay e'tibordan chetda qoldirgan ekanman. Biroq fransuz, italyan va ispan tillarini o'rganganimdan keyin Injilning lotin tilidagi ancha qismini o'zim tasavvur qilganimdan ko'proq tushunish darajasida ekanligimni bilgach, hayron qoldim. Bu lotin tilini o'rganishga ilhom berdi. Shu paytgacha o'rgangan tillarni bilishim lotin tilini o'zlashtirishimda ancha qulaylik yaratdi.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, tillarni o'qitishda odatdagi uslubimizda qandaydir nomuvofiqlik bor, deb o'yladim. Bizga, birinchi navbatda, lotin tilini o'rganishdan boshlash to'g'ri, deb uqtirishadi. Puxta egallagandan so'ng undan kelib chiqqan zamonaviy tillarni egallash osonroq bo'ladi, deyishadi.

Ammo biz lotin tilini o'rganish osonroq bo'lishi uchun yunon tilini o'rganishdan boshlamaymiz-ku. To'g'ri, agar zinapoyaning zinalaridan foydalanmasdan uning tepasiga ko'tarilish mumkin bo'lsa, ularni zinalardan pastga tushib borish yo'li bilan osonroq o'rganish mumkin. Albatta, agar ish eng pastki zinadan boshlansa, tepaga osonroq ko'tarilsa bo'ladi. Shuning uchun yoshlarning ta'limini boshqaradigan mansabdor shaxslarga bu masalani ko'rib chiqishni taklif etaman. Ya'ni lotin tilini o'rganishdan boshlagan insonlarning aksariyati bir necha yil davomida bu bilan shug'ullanib, mukammallikka erisha olmay uni o'rganishni tashlab yuborishadi. Ular o'rgangan shuncha bilimlar foydasiz bo'lib qoladi. Shu tariqa anchagina vaqt behuda sarflangan bo'ladi. Avval fransuz tilini o'rganib, keyin italyan tiliga o'tilsa va shunday davom etilsa yaxshi bo'lmaydimikan? Bu bilan ular bir yoki ikki tilni o'rganishadi. Ular hozirgi zamonda amalda qo'llanilganligi tufayli hayotda yordam berishi mumkin-ku.<sup>1</sup>

Bostondan ketganimdan so'ng o'n yil o'tgach, moliyaviy ahvolim ancha yaxshilanib qoldi. Qarindosh-

---

<sup>1</sup> «O'z asrining odamlari orasidagi eng tadbirlilaridan hisoblangan Franklinning inson ongi va aqli ma'lum bir yetuklikka yetguncha o'lik tillarni o'rganmay turishning foydasi borasida bildirgan fikrining to'g'riligi barcha zamonlarning eng taniqli olimlaridan birining e'tirofi bilan tasdiqlanadi.

«Bizning ta'lim seminariyalarimiz, – deydi Gibbon, – Sparta shohi bergan o'git va saboqlarga to'liq mos kelmaydi. U bolani inson uchun foydali san'atlarga o'rgatishi kerak. Ammo Vestminster yoki Iton kollejida tahsil olgan talaba uni bitirgach, XVIII asrning ikkinchi yarmida ingliz jentlmenlarining biznesi va suhbatidan butunlay bexabar bo'lib chiqishi mumkin-ku. Ammo bu maktablar foydasiga ular o'rgatadigan barcha narsalar – lotin va yunon tillarini egallanganlik darajasini ijobiy, afzal tomon deb tan olish lozim». (Bigelou).

larimdan xabar olish uchun Bostonga yo'l oldim. Bundan oldinroq esa ayni safarni mening cho'ntagim va sharoitim ko'tara olmas edi. Qaytishda o'z bosmaxonasini yuritib, kun ko'rayotgan akamdan xabar olish uchun Nyuportga bordim. Bizning avvalgi xafagarchiliklarimiz unutildi. Uchrashuvimiz juda samimiy va ijobiy munosabatda o'tdi. Uning salomatligi juda tez yomonlashib ketayotgan ekan. Mendan, agar vafot etsa, o'n yoshlar chamasidagi o'g'lini o'zim bilan birga olib ketishni va unga matbaachilik kasbini o'rgatishni so'radi. Ko'rinishidan unga ajal yaqinlashib qolgan edi. Bu vasiyatni tegishlicha ijro etdim. Bolani idoraga ishga olishdan oldin ikki yil maktabga jo'natdim. U ulg'aygunga qadar biznesni onasi yurgizib turdi. So'ng unga yangi harf to'plamlarini olishda yordam berdim. Otasi ishlatganlari ancha yeyilib ketgan ekan. Shunday qilib, akamni erta tashlab ketib, unga qila olmagan yaxshiligimni qandaydir ma'noda ado etishga erishdim.



1736-yilda umumiy yo'l bilan yuqqan qizamiq o'g'illarimdan birini olib ketdi. U to'rt yoshli chiroyli bola edi. Men uni qizamiqqa qarshi emlamaganimga uzoq vaqt pushaymon bo'lib yurdim, hali ham af-susdaman. Buni ushbu emlash ishini o'tkazib yubor-gan ota-onalar uchun keltirdim. Chunki bolalari bu kasallikdan vafot etsa, o'zlarini hech qachon kechira olmasliklari mumkinligini bilaman. Boshimdan o't-gan misol pushaymon xuddi shunday og'ir bo'lishi-ni va xavfsiz yo'lni tanlash ma'qulligini ko'rsatadi.

Jantou klubimizning juda foydali ekanligi isbot qilindi. A'zolar undan shunday darajada xursand edilarki, bir nechasi o'z do'stlarini taklif qilmoqchi bo'lishdi. Ammo buning iloji yo'q edi. Zero, biz a'zolarining qulay sonini o'n ikki nafar deb oldin-dan belgilab qo'ygandik. Biz boshidanoq muassasa-mizni sir saqlashni qoida qilib qo'ygandik. Bunga tegishlicha rioya qilib keldik. Niyatimiz nomaqbul shaxslarning qabul bo'lish uchun beradigan ariza-larining oldini olishdan iborat edi. Chunki ularning ba'zilariga, ehtimol, rad javobi berish qiyin bo'lishi mumkin. Men a'zolar sonining oshishiga qarshi bo'l-ganlardan biriman. Buning o'rniga yozma bir taklif kiritdim. Unga ko'ra, har bir a'zo qabul qilish qoi-dalariga rioya qilgan holda boshqa bir ikkilamchi klub tashkil etishga harakat qilishi mumkin. Ammo uning a'zolari zimmasiga Jantou bilan aloqadorlikni bildirmaslik sharti ham yuklangan. Taklif etilgan qu-lay shartlar muassasalarimiz yordamida yana ko'plab yosh fuqarolarni takomillashtirish, har qanday ish, hodisa haqida aholining fikri, kayfiyatini yaxshi-

roq bilishimiz imkonini berishi bilan ahamiyatli edi. Chunki Jantouning har bir a'zosi biz qanday savollar berishimiz zarurligini taklif qilishi mumkin va Jantou a'zolariga o'zining alohida klubida nimalar sodir bo'layotganini xabar berishi shart hisoblangan. Ko'plab tanishlarning tavsiyalari orqali biznesda bizning manfaatlarimizni ilgari surish va davlat ishlarida ta'sirimizni oshirish, Jantouning fikrlarini bir nechta klublar orqali tarqatish ham nazarda tutilgan.

Loyiha ma'qullandi va har bir a'zo o'z klubini tuzishni zimmasiga oldi. Ammo ularning barchasi ham muvaffaqiyatga erisha olmadi. Faqat besh yoki oltita klub tuzildi. Klublar turli nomlar bilan ataldi: Uzum, Ittifoq, Guruh va h.k. Ular, o'z-o'zidan, foydali bo'lib, bizga ko'p xursandchilik, axborot va saboqlar olish imkonini berardi. Bundan tashqari, ular muayyan vaziyatlarda bizning ijtimoiy va davlat ishlariga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq rejalarimizning amalga oshishi uchun ma'lum darajada hissa qo'shishar edi. Ularning sodir bo'lishini bayon etish barobarida yana bu haqda qo'shimcha ma'lumot beraman.

1736-yilda meni Bosh Assambleya kotibi lavozimiga tanlashganlari davlat ishlaridagi birinchi ko'tarilishim bo'ldi. O'sha yili tanlov muxolifatsiz amalga oshirildi. Ammo keyingi yil mening nomzodimni yana taklif qilishganida (bu saylov a'zolarining tanlovi kabi har yili o'tkazilar edi), yangi bir a'zo boshqa nomzodni qo'llab-quvvatlash uchun menga qarshi uzoq nutq so'zladidi. Ammo mening nomzodimni saylashdi. Bu men uchun juda maqbul edi. Chunki xodim (kotib, klerk) lavozimida bevosita xizmatim

uchun haq olishdan tashqari, a'zolar orasida manfaatlarni ham nazarda tutish imkonini berardi. Bu esa saylovlar, ovoz berishga oid hujjatlar, qonunlar, qo'g'oz pul, davlat va jamoatchilik uchun boshqa ba'zi hujjatlarni bosmaxonamda chop etishni ta'minlardi. Bu, o'z navbatida, yaxshigina foyda degani edi.

Shuning uchun, o'sha yangi a'zoning muxolifligi yoqmadi. U boy va savodli odam edi. Vaqti kelib, deputatlar palatasida katta ta'sirga ega bo'lish imkonini beradigan qobiliyati bor edi. Keyinchalik u bunga erishdi ham. Shunga qaramay, men uning hurmatini qullarcha mulozamat ko'rsatib qozonishni istamasdim. Men boshqa bir usulni qo'lladim. Uning kutubxonasida juda kamyob va qiziqarli bir kitob borligini eshitib, unga ikki enlik xat yozdim. Xatda ushbu kitobni ko'rib chiqish istagimni bildirdim va uni menga bir necha kunga berib tura olish-olmasligini so'radim. U kitobni darhol yubordi. Kitobni bir haftalar o'tgach, yana bir qisqa xat bilan qaytardim. Xatda o'ta minnatdor ekanligimni yozib yubordim. Keyingi safar palatada uchrashganimizda, men bilan gaplashdi (ilgari men bilan hech qachon gaplashmagan edi). Suhbatimiz yuqori madaniyat va xushmuomalalik bilan o'tdi. Shundan keyin u men uchun biror xizmat ko'rsatishga har doim tayyorligini namoyish qilib keldi va biz juda qalin do'st bo'ldik. Do'stligimiz uning umrining oxiriga qadar davom etdi. Bu men o'rgangan eski bir hikmatli so'zda nazarda tutilgan haqiqatning yana bir misoli bo'ldi. Unda shunday deyilgan: «Bir paytlar senga bir marta yaxshilik qilgan odam sen yaxshilik qilishga majbur

qilgan kishidan ko'ra, yana yaxshilik qilishga tayyor bo'ladi».<sup>1</sup> Bu hikmat, shuningdek, dushmanlik kayfiyatidagi masalalarni sog'lom aql bilan bartaraf qilishning o'rinli ekanligini, raqibni yomon ko'rish, yomonlikni qaytarish va davom etishdan ko'ra foydaliligini isbot qiladi.

1737-yilda avval Virjiniya shtati gubernatori bo'lgan polkovnik Spotsvud o'shanda Bosh pochta boshqaruvchisi lavozimida ishlayotgan edi. U Fildelfiyadagi o'rinbosarining o'z vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashi va buxgalteriya hisobotlaridagi noaniqliklar tufayli norozi bo'lib, uni vazifasidan bo'shatdi va mazkur lavozimni menga taklif qildi. Men bu lavozimni mamnunlik bilan qabul qildim va unda ko'p afzal tomonlar borligini angladim. Chunki maosh katta bo'lmasa ham, mas'ul vazifaning o'zi menga yozishmalar, umuman, muloqotni kengaytirish imkonini berdi va bu gazetamning sifatini yaxshiladi. Talabning ko'paygani adadining oshishiga imkon berdi, shuningdek, kiritiladigan reklamalarining sonini oshirdi. Ya'ni bu ish menga katta daromad keltirdi. Eski raqibim gazetasining soni va sifati esa bunga proporsional tarzda pasaydi. U pochta bo'limi boshlig'i bo'lib ishlagan paytida gazetamni tashishdan voz kechganligi uchun matbuot nashrimni otliq chavandozlar yordamida tarqatishga majbur bo'lgandim. Ammo buning uchun javob zarbasi bermaganligimdan qoniqish hosil qildim. Qisqasi, u o'z hisob-kitoblariga zarur darajada e'tibor qaratma-

---

<sup>1</sup> Ingliz tilida: «He that has once done you a kindness will be more ready to do you another, than he whom you yourself have obliged».

ganligi uchun qattiq aziyat chekdi. Men bu voqeani yoshlar uchun saboq bo'lishini ko'zlab maxsus keltirdim. Ular boshqa odamlarning ishlarini boshqarishga yo'llansalar, hisob-kitoblarni juda tirishqoqlik va sinchkovlik bilan o'z vaqtida to'g'ri yuritishlari zarurligini bilishlari lozim. Bunday ish yuritish tartibiga rioya qilish tamoyili yangi ish joylarini yaratish va biznesni kengaytirish bo'yicha tavsiyalarning eng kuchlisi hisoblanadi.

## XI

### DAVLAT ISHLARIGA QIZIQISH

Tobora davlat ishlariga kirib bordim va buni kichik vazifalarni bajarishdan boshladim. Shahar qo'riqchilik tizimini tartibga solishni ilk zarur vazifalardan biri deb hisoblardim. Bu ish tegishli hududlarning konstebllari<sup>1</sup> navbatchiligi bilan amalga oshirilar edi. Konstebel esa tungi navbatchilik uchun bir necha uy egalarini o'zi bilan olib yurardi. Navbatchilikka chiqishni istamagan odamlar undan ozod bo'lish uchun yiliga olti shilling to'lardi. Bu esa ularning o'rniga boshqalarni yollashni nazarda tutardi. Ammo bu maqsad uchun keragidan-da ortiq ish edi. Shuning uchun konstebel lavozimi yaxshi foyda beradigan ish bo'lib qolgandi. Masalan, ba'zida ozgina ichkilik evaziga konstebel o'z atrofiga rasvo odamlarni yig'ib olardi. Shu tufayli, o'zini hurmat qiladigan odamlar ular bilan pachakilashib yurishni xohlamasdilar. Boz ustiga, navbatchilik paytida piyoda aylanib

---

<sup>1</sup> Konstebel – Angliya va Amerikada politsiyachilarning quyi unvoni.

tekshirishni amalga oshirmas edilar. Ular tuni bo'yi ichkilikbozlik bilan band bo'lishardi. Men Jantou klubida o'qish uchun bir maqola yozdim. Unda tartibsizliklarni bayon etib, konstebllarning olti shilling soliq olishlari adolatdan emasligiga alohida e'tibor qaratdim va bu pulni to'laydigan odamlarning holat-sharoitlarini e'tiborga olish zarurligiga urg'u berdim. Masalan, uy egasi bo'lgan bir beva ayolning qo'riqlanadigan mol-mulking qiymati balki ellik funtdan oshmasdir. Ammo u o'ta boy savdogarday pul to'lashga majbur. Savdogarning omborlarida esa minglab funtga arzigulik mollari va tovarlari bo'lishi mumkin.


Umuman olganda, bu ishga doimiy ishlaydigan mos va munosib odamlarni yollash asosida yangi qo'riqchilik tizimini taklif qildim. Soliqning qiymatini esa fuqarolarning mol-mulki qiymatiga proporsional ravishda belgilash lozimligini ko'rsatdim. Jantou klubi a'zolari ma'qullagan ushbu g'oya boshqa klublariga ham yetkazildi. Ammo ularning har birida ham olqishlanmadi. Bu rejani darhol amalga oshirishning iloji bo'lmadi. Vaholanki, odamlarning ongini o'zgarishlarga tayyorlab borish bo'yicha ish olib borildi. Bu esa bir necha yil o'tgandan keyin qabul qilingan qonunga yo'l ochdi. Chunki bu vaqtga kelib, klublarimiz a'zolarining ta'siri ancha ortgan edi.

O'sha paytlarda uylarga o't ketishiga sabab bo'ladigan turli hodisalar va e'tiborsizliklar haqida maqola yozdim (dastlab Jantou klubida o'qish uchun edi, lekin u keyinchalik nashr etildi). Maqolada yong'ingga qarshi ogohlantirishlar, yong'inning oldini olish vositalari va choralari bo'yicha takliflar keltirilgan

edi. Maqolaning juda foydali ekanligi haqida ko'p gaplar aytili. Bu tez orada amalga oshirilgan loyihaning yaralishiga sabab bo'ldi. Loyihada yong'inlarni o'chirishga tayyor turadigan kompaniya ta'xis qilish, xavf yuzaga kelganda mollar va tovarlarni xavfsiz joyga olib chiqish hamda saqlash bo'yicha o'zaro yordam masalalari nazarda tutilgan edi. Tez orada bu reja uchun o'ttizga yaqin sheriklar ham topildi. Shartnomamizning shartlari har bir a'zoga charm chelaklar, mustahkam qoplar va savatlarning (tovarlarni upakovka qilish uchun) muayyan sonini doim yaxshi ish beradigan holatda saqlash va yong'in joyiga olib kelish majburiyatini yuklardi. Shuningdek, biz oyiga bir marta jamoatchilik bilan uchrashuv o'tkazish, yong'inlar masalalari bo'yicha o'zimizda paydo bo'lgan fikr va g'oyalarni o'rtoqlashishga kelishib oldik.

Tez orada ushbu muassasaning foydasi amalda isbotlandi. Bitta kompaniyaga kirishni xohlaganlar soni biz o'ylagandan juda ko'p edi. Ularga yana bir shunday kompaniya ta'xis qilish maslahati berildi. Ular shunday qilishdi. Shu tariqa bir kompaniya ortidan boshqasi ta'xis etila boshlandi. Kompaniyalarning soni shunday ko'payib ketdiki, hatto ba'zilarida mulkdor odamlar bo'lgan aholi vakillari ham bor edi. Ushbu satrlarni yozayotgan paytimga kelib, dastlab «Birlashgan o't o'chirish kompaniyasi» (Union Fire Company) deb nomlangan birinchi kompaniyaning ta'xis qilinganiga ellik yildan o'tgan bo'lsa ham, u hali hanuz ishlamoqda va gullab-yashnamoqda. Ammo uning birinchi a'zolari vafot etib ketishgan. Ulardan faqat men va mendan bir yilga

yosh odam qolganmiz xolos. Oylik majlislarda kel-maganligi uchun a'zolar to'laydigan kichik jarimalar har bir kompaniya uchun o't o'chirish moslamalari, narvonlar, o't o'chirish ilgaklari va boshqa foydali buyumlarni sotib olish uchun ishlatilar edi. Men butun dunyoda yong'in chiqishining oldini olish, yuzaga kelganda to'xtatish uchun bizning shahrimizdan yaxshiroq qurollangan shahar bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Aslida ushbu muassasalar ta'sis etilganidan beri shahar hech qachon bir vaqtning o'zida bir yoki ikkitadan ortiq uyni yong'in tufayli yo'qotmagan. Ko'pincha, yong'in o'zi boshlangan uyning yarmini ham qamrab olmasidan oldin o'chirilardi.



1739-yilda bizning shahrimizga Irlandiyadan muhtaram avliyo ota janob Uaytfild keldi.<sup>1</sup> U kishi Irlandiyada sayyor voiz sifatida nom chiqargandi. Avvaliga unga cherkovlarimizning ba'zilarida va'z

---

<sup>1</sup> Jorj Uaytfild (1714–1770) taniqli ingliz ruhoniysi va notig'i, metodizm asoschilaridan biri.

qilishga ruxsat berildi. Ammo ruhoniylarga uning shaxsi ma'qul kelmaganligi sababli tez orada unga minbarlarini berishdan bosh torta boshlashdi. Avliyo ota ko'chalarda va'z aytishga majbur bo'ldi. Uning va'zlarida qatnashadigan oqimlar va dinlar qavmlarining soni juda katta edi. Men ham uning tinglovchilaridan biri hisoblanardim. Kamina uchun uning notiqligining tinglovchilarga g'ayrioddiy ta'sirini kuzatish qiziq edi. O'z navbatida, bu muxlislarining undan qanchalik hayajonlanishlari va hurmat qilishlari haqida mulohaza qilish imkonini berardi. Zero, u ommani odatan umuman pisand qilmas, odamlarni tabiatan yarim hayvon va yarim shayton deb hisoblardi. Bu munosabatning aholi orasida tez orada keltirib chiqargan o'zgarishlarini kuzatish yanada ajoyib edi. Din haqidagi tasavvurga ham ega bo'lmagan yoki befarq holda go'yo butun dunyo dindor bo'lib borayotganga o'xshardi. Shahar ko'chalarida kechki payt, turli oilalar Zaburdan qo'shiq kuylashayotgan bo'ladi.

Ochiq havoda majlislar o'tkazish u yerlardagi sharoit tufayli noqulay deb topildi. Uchrashuvlar uchun bino qurish taklifi berildi. Xayr qilinadigan pullarni yig'ish uchun odamlar tayinlandi. Tez orada yer sotib olish va bino qurish uchun yetarli mablag' to'plandi. Binoning o'lchami bo'yiga yuz, eniga yetmish fut<sup>1</sup> edi, ya'ni deyarli Vestminster Zali (Westminster Hall) o'lchamiga teng edi.<sup>2</sup> Ish shunday g'ayrat va ruh bilan olib borildiki, bino kutilganidan ancha qisqa vaqt

---

<sup>1</sup> Fut – Imperial o'lchov tizimida uzunlik birligi. 1 fut = 0,3048 m.

<sup>2</sup> Vestminster saroyining bir qismi hozirda Londondagi Parlament uylaridagi vestibulni tashkil qiladi.

ichida qurib bitkazildi. Uy ham, yer ham Filadelfiyadagilarga nimanidir aytish istagi bo'lgan har qanday diniy yo'nalish va e'tiqod voizining foydalanishi uchun maxsus vakolatli hamda ishonchli shaxslarga topshirildi. Binoning loyihasi hech bir din uchun maxsus emas, balki faqat aholi uchun ishlab chiqilgan edi. Ya'ni, hatto Konstantinopol (Istanbul) muftiysi Muhammad dini haqida va'z o'qish uchun vazifa bilan yuborilsa, xizmat uchun minbar topar edi.

Janob Uaytfild bizni tark etdi va yo'l bo'yi koloniyalarda va'zlar o'qib, Jorjiyaga yetib bordi. So'nggi paytlarda odamlar ushbu mintaqaga borib joylashishni boshlagan edi. Ammo bu yerga mehnatga odatlangan mirishkor dehqonlar o'rniga inqirozga uchragan do'kon egalari va boshqa nochor qarz-dorlar oilalari bilan kelishayotgandi. Qolaversa, ular orasida qamoqlardan chiqarilgan ko'plab bekorchi va ishyoqmas odamlar ham bor edi. O'rmonlarga kelgach, yerni tozalashga uquvi yo'q, yangi joyning qiyinchiliklariga chiday olmaydigan odamlarning soni tez orada kamayib ketdi. Ularning ortidan ko'psonli nochor, yegulik uchun zaxiralari yo'q bolalar qolib ketdi. Ushbu ayanchli ahvol manzarasi janob Uaytfildning mehribon va xayrixoh qalbini u yerda yetimxona qurish g'oyasi bilan ilhomlantirdi. Unda bu bolalarni boqish va o'qitish mumkin edi. Shimol tomonga qaytib, u ayni xayr-ehsonni targ'ib qilib, va'zlar o'qidi va juda ko'p ehson to'pladi. Chunki uning yuksak notiqlik san'ati tinglovchilarning qalblari va hamyonlariga ta'sir ko'rsatish uchun ajoyib ta'sir kuchiga ega edi. Mening o'zim bunga yaqqol misol edim.

Menga binoning loyihasi ma'qul bo'lmadi. Ammo o'sha paytda Jorjiyada materiallar va ishchi kuchi kam edi. Ularni Filadelfiyadan katta xarajat evaziga yuborish taklif qilingandi. Shu sababli uyni ayni yerda qurib, keyin bolalarni ko'chirib kelish yaxshiroq, deb o'yladim. Ushbu maslahatni berishimga qaramay, u o'zining birinchi loyihasida qat'iy turib oldi. Maslahatimni rad etganligi uchun o'z hissamni qo'shishdan bosh tortdim. Ko'p o'tmay, men uning va'zlaridan birini tinglash uchun bordim. Va'z qilayotganida o'z so'zlarini ehson yig'ish bilan tugatish niyatida ekanini tushunib qoldim. U mendan hech narsa olmaydi, degan qarorga keldim. Cho'ntagimda bir hovuch mis tanga, uch-to'rtta kumush dollar va oltindan beshta pistol bor edi. Va'zxon davom etar ekan, qalbim yumshay boshladi va mis tangalarni berishga qaror qildim. Unga xos bo'lgan notiqlik san'atining yana bir zarbasi meni uyaltirdi. Men kumush tangalarni ham berishga qaror qildim. Niho-yat, va'zini shunchalar hayratlanarli darajada tugatdiki, cho'ntagimda borini – oltin tangalar va boshqa pullarni ehson yig'uvchining idishiga to'kdim. Va'z tinglashga klubimizning yana bir a'zosi kelgan ekan. U mening Jorjiyada qurilish qilish haqidagi fikrlarimdan xabar topibdi. Va'z ehson yig'ishga mo'l-jallanganligini taxmin qilib, ehtiyot shart uyidan cho'ntaklarini bo'shatib chiqqan ekan. Ammo nutq yakuniga yetgach, u yonida turgan odamdan ehson berish uchun qarz so'rabdi. Otashin nutq unda ehson berishga kuchli niyat uyg'otibdi. Afsuski, u o'sha joyda to'plangan odamlar orasida va'zxonning so'zlari umuman ta'sir qilmaydigan yagona inson-

ga qarz so'rab murojaat qilgan ekan. Uning javobi shunday bo'libdi: «Boshqa har qanday vaqtda, do'stim Hopkinson, men senga bemalol qarz berardim. Ammo hozir emas, chunki sen sog'lom aqlingni yo'qotganga o'xshaysan».

Janob Uaytfildning ba'zi dushmanlari bu ehsonlarni o'z shaxsiy boyishi uchun ishlatadi, deb taxmin qilishdi. Ammo u bilan yaqindan tanish bo'lganligim sababli (bosmaxonamiz uning va'zlari, jurnallari, kitoblari va h.k.larni nashr etish uchun shartnoma tuzgan edi), menda uning halolligiga nisbatan hech qanday shubha yo'q edi. Hali ham uning butun xulq-atvori go'zal, ish yuritishda mukammal darajada vijdonli odam edi, deb o'ylayman. Bu inson bilan diniy munosabatlarimiz yo'q bo'lganligi uning foydasiga berayotgan guvohligimga yanada kuch va salmoq bag'ishladi. Albatta, ba'zan u kishi o'z e'tiqodiga o'tishim uchun duolar o'qirdi. Ammo duolari Xudoning huzuriga yetib borganiga hech qachon o'zi ham amin bo'lmagan. Oramizdagi munosabat shunchaki do'stlik ma'nosida edi. Ikkimizning samimiy do'stligimiz uning vafotigacha davom etdi.

Quyidagi misol oramizdagi munosabatlarning mohiyati va shartlarini qisman ko'rsatadi. Birda, Angliyadan Bostonga kelganimdan keyin, menga tez orada Filadelfiyaga kelishi kerakligini yozdi. Ammo u yerda yashashga joyi yo'q ekan. Chunki odatda uni o'z uyida qabul qiladigan eski do'sti janob Benezet Germantaunga ko'chib ketibdi. Bunga: «Mening uyimni bilasiz. Agar undagi kamtarona yashash sharoitlariga chidashga tayyor bo'lsangiz, sizni chin

dildan uyimizga taklif qilaman», deb javob berdim. U mazkur taklifni Isoning haqi uchun qilgan bo'lsam, albatta, mukofot-u ajri berilishini yozdi. Men yana javob berdim: «Meni xato tushunmang. Taklifni Isoning haqi uchun emas, uni sizning haqingiz va foydangiz uchun berdim». Umumiy tanishlarimizdan biri hazilomuz tarzda avliyolar ularga biror yaxshilik qilishganda minnatdorchilik va majburiyatni o'z zim-malaridan Xudoga o'tkazishlarini aytdi. Men esam bu majburiyat va minnatdorchilikni yerga tushirganimni tan oldi.

Janob Uaytfildni oxirgi marta Londonda ko'rganimda u men bilan yetimxona borasidagi masalalar va bir kollej ta'sis qilish haqida maslahatlashgandi.

Uning ovozi baland va tiniq, so'zlari va gaplarini shu qadar ravon talaffuz etardiki, nutqini juda uzoq masofadan eshitib, tushunish mumkin edi. Boz ustiga, uni muxlislar soni juda ko'p bo'lishiga qaramay, o'ta sokinlik bilan tinglashardi. Bir kuni u kechqurun Market ko'chasining o'rtasida, Ikkinchi ko'chaning g'arbida joylashgan Sud binosi zinalarining ustida turib, va'z o'qiyotgan edi. Ikkala ko'cha ham tinglovchilar bilan ancha masofaga liq to'lgandi. Market ko'chasida turganlarning eng oxirgi qatorlarida turib, uning nutqini qancha masofaga-cha eshitish mumkinligi bilan qiziqdim. Ko'chadan daryo tomonga qarab, orqalab yurib bordim. Front ko'chasiga kelib, qandaydir shovqin eshitishga xalaqit berguncha uning ovozini tiniq eshita oldim. Keyin mening masofam radius bo'lishi kerak yarim doirani tasavvur qildim. U tinglovchilar bilan to'la

bo'lsa va ularning har biri ikki kvadrat fut maydonni egallasa, va'zni o'ttiz mingdan ortiq odam eshitishi mumkinligini hisobladim. Bu hisob meni gazetalarda uning dalalar va maydonlarda yigirma besh ming xaloyiq oldida va'z o'qigani haqidagi xabarlariga ishonishga majbur qildi. Bundan tashqari, tarixiy manbalarda generallarning butun armiyaga murojaat qilganlari haqidagi ma'lumotlarga shubha bilan qarardim. Endilikda bu shubham ham tuman-day tarqalib ketdi.

Uning va'zlarini ko'p marta tinglab, avval o'z safarlarida takrorlagan va'zlari orasidagi farqlarni tushunadigan bo'ldim. Ko'p takrorlangan va'zlar yuksak darajada maromiga yetkazilgan edi. Shuning uchun har bir urg'u, ta'kid, ovoz ohangi va intonatsiyasi mukammal tarzda tanlanganligi, amalda mashq qilinganligi yaqqol sezilardi. Mavzuga qiziqmagan odam beixtiyor eshitganlaridan, albatta, mamnun bo'lardi. Bu mamnunlik go'zal musiqani tinglashdagi kabi yoqimli bo'lishi tayin edi. Ayni jihat sayyor voizlarning bir joyda muqim yashaydigan voizlarga nisbatan ustunligini namoyish etadi. Chunki muqim yashaydigan voizlarda va'zni juda ko'p mashq qilish orqali yaxshi taqdim eta olish imkoniyati yo'q edi.

Uning vaqti-vaqti bilan yozib turishi, va'z va maqolalarining nashr etilishi dushmanlariga katta ustunlik berardi. Negaki, va'z davomida ehtiyotsizlik bilan aytilgan so'z, ibora va hatto noto'g'ri fikrlarni keyinchalik isloh qilish, tushuntirib berish, unga ilova qilingan boshqa fikr bilan almashtirish yoki rad

etish mumkin bo'lardi. Ya'ni «litera scripta manet»<sup>1</sup>. Tanqidchilar uning yozma asarlari va maqolalariga jon-jahdlari bilan hujum qilishar edi. Ular shunchalar ko'p asos keltirishdiki, uning tarafdorlari soni kamayib ketdi. Mening fikrimcha, u hech nima yozmaganida, ortidan a'zolari juda ko'p va muhim bir diniy yo'nalish, guruhni qoldirgan bo'lardi. Hatto vafotidan keyin ham uning hurmat va obro'yi yanada yuqorilab borardi. Yozma asarlari va maqolalari bo'lmasa, taqiqlanadigan yoki uning shaxsiyatini yerga uradigan hech bir narsa topilmas edi. Maslakdoshlari esa unda turli-tuman a'lo xislatlar borligini aytib, havas qilsa arziydigan inson sifatida tavsiflashda davom etardilar.

Mening biznesim endi doimiy ravishda rivojlanib, moliyaviy sharoitim kundan-kunga yaxshilanib borayotgandi. Gazetam ham juda yaxshi foyda keltiradigan bo'lgandi. Chunki u o'z va qo'shni mintaqalarda deyarli yagona gazeta hisoblanardi. Men ham «Birinchii yuz funtni ishlab topgandan keyin ikkinchi yuz funtni topish osonroq bo'ladi», degan fikrning haqligiga o'z tajribamda guvoh bo'ldim. Pul pulni chaqirishdek mahsuldorlik xususiyatiga ega ekan.

Karolinadagi sheriklik ishi muvaffaqiyatli kechgach, boshqa bosmaxonalarni tashkil etishga jazm qildim. O'zini yaxshi ko'rsatgan bir guruh ishchilarimni biznesda qo'llab-quvvatlashni niyat qildim. Ularga turli koloniyalarda xuddi Karolinadagi kabi bir xil shartlarda bosmaxonalar tashkil etib berdim.

---

<sup>1</sup> Lotin tilidagi aforizm: «Yozilgan narsani o'zgartirib bo'lmaydi». Bu yerda siyoh bilan matnga tushgan narsa tufayli baloga qolish ma'nosida.

O'z navbatida, ish boshlaganlarning aksariyatiga shartnomaning olti yillik muddati tugagach, mendan harf to'plamlarini sotib olish va o'zlari mustaqil ishlash imkoni berilgan edi. Bu orqali bir qancha oilaning moddiy ahvoli yaxshilandi. Hamkorlik ko'pincha janjallar bilan tugaydi, lekin men bu borada omadli edim. Sherikchilikdagi bizneslarimning barchasi yaxshi olib borildi va do'stona munosabatlar bilan tugadi. Menimcha, bunga shartnomaning shartlarida har bir sherikning bajarishi kerak bo'lgan ishlar va undan kutilgan amallar aniq, tushunarli hamda batafsil holda, ehtiyotkorlik bilan bayon etilgani tufayli erishildi. Chunki nizo uchun hech qanday asos yo'q edi. Bunday shartlarni nazarda tutishni sherikchilikda ish boshlamoqchi bo'lgan har qanday insonlarga tavsiya etaman. Shartnoma tuzishda sheriklar bir-birlarini qanchalar hurmat qilmasin, qanchalar ishonmasin, biznesni yuritish, mas'uliyatdagi tengsizlik va boshqa omillar biroz hasad hamda noroziliklar keltirib chiqarishi mumkin. Ko'pincha bu holatlar do'stlikning darz ketishi, hatto sudlashishlar va boshqa ko'ngilsiz oqibatlariga ham olib keladi.

## XII

### MINTAQANI MUDOFAA QILISH

Umuman olganda, Pensilvaniyaga kelib joylashganimdan minnatdor bo'lish uchun sabablar yetarli edi. Ammo men pushaymon qilgan ikkita narsa bor. Ular aholini himoya qilish va yoshlarga ta'lim berish uchun imkoniyatlarning yo'qligidir. Ya'ni militsiya va kollejning yo'qligi meni ko'p tashvishga solgan.


Shuning uchun 1743-yilda akademiya tashkil etish bo'yicha taklif ishlab chiqdim. O'sha paytda ishsiz bo'lgan avliyo ota janob Pitersni bunday muassasani boshqarish uchun munosib nomzod deb o'yladim. Unga loyihani ko'rsatdim, ammo u mol-mulk va uy egalariga xizmat ko'rsatish kabi bundan foydaliroq rejalari borligi tufayli taklifimni rad etdi. Bu rejasi keyinchalik muvaffaqiyatli ham bo'ldi. O'sha paytda bunday ish uchun boshqa munosib odamni bil-maganligim sababli loyihani bir muddat o'z holiga tashlab qo'ydim. 1744-yilda falsafiy jamiyatni taklif qilish va uni tashkil etishda ancha muvaffaqiyatga erishdim. Shu maqsadda yozgan maqolamni qog'ozlarimni olib kelganda, ular orasidan topsa bo'ladi.

Mudofaaga kelsak, Ispaniya Buyuk Britaniyaga qarshi bir necha yil urush olib bordi va oxir-oqibat Fransiya unga qo'shildi. Bu bizga katta xavf solardi. Gubernatorimiz Tomasning tinimsiz og'ir mehnati va uzoq davom etgan sa'y-harakatlariga qaramay, Assambleyamizda militsiya haqidagi qonun va aholini himoya qilish uchun boshqa hujjatlar qabul qilinmadi. Chunki Assambleya a'zolarining aksariyati kvakerlar edi. Men xalqning ixtiyoriy har qanday birlashmasi bilan biror ish qilish mumkin ekanligini tekshirib ko'rishga qaror qildim. Bu g'oyani ilgari surish uchun dastavval «Oddiy haqiqat» deb nomlangan pamflet yozdim va nashr qildim. Unda himoyasizligimizni kuchli iboralarda ifodalab, o'z himoyamiz uchun ittifoq bo'lishimiz va intizom zarurligini bayon etdim. Bir necha kun ichida shu maqsadlarda tashkil etilishi lozim bo'lgan uyushma

borasida taklif kiritishni va'da qildim. Bu pamflet to'satdan va hayratlanarli darajada kuchli natija berdi. Mendan uyushmani qanday asosda ta'sis etish va yuritish masalalari borasida maslahat so'rashdi. Uning qoralama loyihasini bir guruh do'stlarim bilan ishlab chiqib, fuqarolarning yuqorida aytib o'tilgan katta binoda yig'ilishini tayinladim. Bino odamlarga liq to'lgandi. Men bir nechta bosma nusxalar tayyorlagandim va xonadagi barcha odamlarga pero (pat) va siyoh tarqatdim. Ularga mavzu bo'yicha biroz so'zlab berdim. Maqolani ham o'qib berdim va uning mazmunini tushuntirdim. So'ngra uning nusxalarini tarqatdim. Keyin esa odamlar uni g'ayrat bilan imzolab berishdi. Hech kim hech qanday e'tiroz bildirmadi.

Odamlar tarqalib, qog'ozlar to'plangach, 1200 ta hujjat imzolanganini ko'rdik. Boshqa nusxalarini xalq orasida tarqatdik. Natijada loyihaga qo'shilishga rozi odamlarning soni o'n ming nafardan oshdi. Ularning barchasi imkon qadar tezlikda o'zlarini qurol bilan ta'minlashdi. O'zlari rotalar va polklarga birlashdilar. Odamlar o'z zobitlarini tanlab, har hafta amaliy mashq qilish va harbiy fanning boshqa qismlarini o'rganish uchun yig'ila boshladilar. Ayollar o'zaro kelishib olib, shoyi bayroqlar tikdilar va ularni rotalarga taqdim etdilar. Bayroqlarda men taqdim etgan turli xil ramz va tasvirlar chizildi hamda shiorlar yozildi.

Filadelfiya polkini tashkil etuvchi rotalar zobitlari o'zaro uchrashib, meni polkovnik qilib sayladilar. Ammo o'zimni bu ishga yaroqsiz deb hisoblab, ush-



***Pensilvaniya Assotsiatsiyasining bayroqlaridan biri,  
1747-yil. Uni Franklin ishlab chiqqan va Filadelfiya  
ayollari tayyorlagan.***

bu zobitlik unvonini rad etdim. Bu unvonga yaxshi inson va o'z atrofida qilarga ta'sir darajasi yuqori bo'lgan janob Lorensni tavsiya qildim. Uni tayinlashdi, keyin men shahar yaqinida mudofaa istehkomi qurish va unga to'p olib kelib o'rnatish xarajatlarini qoplash uchun lotereya usulini taklif qildim. Bu ish tezkor tashkil etildi va pul yig'ildi. Ko'p o'tmay istehkom qurildi, atrof devorlari yog'och to'sinlar bilan qoplanib, tuproq bilan to'ldirildi. Biz Bostondan eski to'plarni sotib oldik, ammo bu yetarli emas edi. Angliyaga ko'proq yordam so'rab xat yozdik. Bir vaqtning o'zida yer-mulk egalari ham yordam so'radik. To'g'risi, ulardan umidimiz katta emasdi...

Ayni paytda, uyushma a'zolari polkovnik Lorensni, Uilyam Allenni, eskvayer Abram Teylorni va meni gubernator Klintondan to'p sotib olish uchun Nyu-Yorkka yuborishdi. U dastlab bizga qat'iyat bilan rad javobini berdi. Lekin kechqurun uning maslahatchisi bilan birga ovqatlandik. Juda ko'p maderavinosi ichildi, chunki u yerlarda ayni hol odat tusiga kirgan ekan. U ancha yumshadi va bizga oltita to'pni qarzga berib turishini aytdi. Yana bir nechta qadahdan keyin to'plar soni o'ntaga chiqdi. Oxir-oqibat, u o'ta xushmuomalalik bilan o'n sakkizta to'p berishga rozi bo'ldi. Ular yaxshi holatda, o'n sakkiz funt o'lchamli, o'z aravalari bilan ta'minlangan to'plar edi. Biz ularni tezlik bilan olib kelib, istehkomga o'rnatdik. Urush davom etayotgan bir paytda uyushma a'zolari istehkomda tungi qorovullikni tashkil etishgandi. Boshqalar qatorida men ham u yerda muntazam ravishda oddiy bir askar sifatida o'z navbatchilik burchimni bajarardim.

Amalga oshirilgan ishlardagi faolligim gubernator va kengashga ma'qul kelib, ularda menga nisbatan ishonch hosil bo'libdi. Ularning roziligi uyushma uchun foydali deb hisoblangan har qanday choratadbirda ular bilan maslahatlashib yurardim. Din ishlarida yordam so'rab, men ularga ro'za e'lon qilishni, islohotni targ'ib qilishni, bizning ishimizga Tangrining inoyati va barakasini so'rashni taklif qildim. Ular bu taklifni qabul qilishdi. Haqiqatan ham, bunday tashabbus mintaqa tarixida birinchi marta taklif qilingan edi. Shu sababli kotib buni qanday qilib e'lon qilishni mutlaqo bilmasdi. Mening har yili ro'za e'lon qilinadigan Yangi Angliyada ta'lim

olganim ancha qo'l keldi. Men uni odatdagi uslubda yozib berdim. Matnni nemis tiliga ham tarjima qilishdi.<sup>1</sup> Uni ingliz va nemis tillarida nashr etdik va mintaqa bo'ylab tarqatdik. Bu turli diniy oqim va yo'nalishlarning ruhoniylariga o'z qavmlarini uyushmaga qo'shilishga undash hamda ko'ndirish imkoniyatini berdi. Agar tez orada urush tugab, tinchlikka erishilmaganida kvakerlardan boshqa barcha qavmlar orasida uyushmaga qo'shilish umumiy holatga aylanar edi.

Ba'zi do'stlarim bu ishlarda faollik ko'rsatishim o'sha oqimni xafa qilishi mumkin, degan fikrda edilar. Chunki mintaqamiz Assambleyasi a'zolarining aksariyati kvakerlar edi. Shu sababli ularning menga nisbatan hurmatidan mahrum bo'lishim mumkin ekan. Xuddi shu kabi palatada do'stlari mavjud bir yosh jentlmen mening o'mimni boshqa odamga berish haqida qaror qilishganini yetkazdi. Keyingi saylovda meni ishdan olishmoqchi ekan. Shu sababdan, yaxshi niyatda, u menga o'z xohishimga ko'ra ariza berib, ketishni maslahat berdi. Chunki bu mening hurmat va nufuzimga mos ish bo'lishini aytdi. Men unga:

– Qaysidir davlat odaming hech qachon biror lavozimni so'ramaslik va hech qachon biror lavozim taklif qilinganda rad etmaslikni o'ziga qoida qilib olganligi haqida o'qigandim yoki eshitgandim, – deb javob berdim.

---

<sup>1</sup> Uilyam Penning agentlari (vakillari) Germaniya mintaqalarida Pensilvaniya koloniyasi uchun yangi askarlar izlagan. Sharqiy Pensilvaniyada hali ham Pensilvaniya gollandlari deb noto'g'ri ataladigan ko'plab nemislar bor. Ularning aksariyati nemislashtirilgan ingliz tilidan foydalanadilar.

Men bu insonning qoidasini ma'qullayman va unga kichik qo'shimcha bilan amal qilaman: hech qachon lavozim so'rama, ammo hech qachon rad ham qilma va uni hech qachon o'z xohishing bilan tark etma. Agar ular mening xizmatchi lavozimimni boshqa bir odamga topshirishlari kerak bo'lsa, uni mendan olishadi. Hozir boy berib, mavridi kelganda dushmanlarimdan o'ch olish huquqimni yo'qotishni xohlamayman.

Biroq bu haqda boshqa hech gap eshitmadim. Keyingi saylovlarda odatdagidek yana bir ovozdan meni saylashdi. Ehtimol, so'nggi paytlarda kengash a'zolari bilan yaqin munosabatlarda bo'lganim yoqmagandir. Chunki ular harbiy tayyorgarlik ishlari borasidagi bahslarda doim gubernatorlar tarafida bo'lgandilar. Bu ishlar doirasida palatani uzoq vaqt qiynab kelishayotgan edi-da. Albatta, o'z xohishim bilan ishdan ketganimda ular xursand bo'lishardi. Ammo uyushmaning ishlarida g'ayrat ko'rsatganim uchun meni ishdan olishga hadlari sig'magan. Chunki bunga boshqa hech bir sabab, asos keltira olmasliklari aniq edi.

Haqiqatan ham, mamlakatni himoya qilish ularning hech biri uchun taassufli ish emasligiga ishonishimga asos va sabablar yetarli bo'lgan. Ularning men o'ylaganimdan ham ko'prog'i hujum emas, balki mudofaaga asoslangan kurash tarafdorlari ekanligini bilib olgandim. Bu mavzu doirasida uning yaxshi va yomon jihatlarini ko'rsatib, ko'plab pamfletlar nashr etildi. Ularning ba'zilarini bama'ni kvakerlar himoyani yoqlab, yozishgan edi. Bu esa yo'nalishning yosh vakillarini ishontirdi.

Bizning o't o'chirish kompaniyamizdagi bir hodisa menga ularning ustun fikrlarini tushunish imkonini berdi. O'shanda istehkomni mavjud zaxirani – unda lotereya chiptalarida oltmish funt edi – ishlatib qurish rejasiga yordam berish taklifi kiritilgandi. Qoidalarimizga ko'ra, taklif berilgandan keyin o'tkaziladigan majlisga qadar hech qanday pul sarflanishi mumkin emas edi. Kompaniya o'ttiz kishidan iborat bo'lib, ulardan yigirma ikkitasi kvakerlar, sakkiztasi faqat boshqa e'tiqod va din vakillaridan tashkil topgandi. Sakkiz kishi, jumladan, men ham, majlisda o'z vaqtida qatnashdik. Shuningdek, ayni kvakerlar bizga qo'shilishadi, deb o'ylagandik. Albatta, aksariyatining kelishiga umid qilmagandik. Bu choraga qarshi chiqish uchun faqat bitta kvaker – janob Jeyms Morris keldi. U taklif ilgari surilganidan afsusda ekanligini aytdi. Chunki «Do'stlar»ining hammasi bunga qarshi ekan. Buning ortidan yuzaga keladigan kelishmovchilik kompaniyaning tarqatilishiga sabab bo'lishi mumkinligidan afsusdaligini ham bildirdi. Unga buning uchun hech qanday sabab yo'qligini aytdik. Biz ozchilik edik, agar «Do'stlar» bu choraga qarshi, ovozlari esa biznikidan ko'p bo'lsa, biz barcha jamiyatlarning odatiga bo'ysungan holda, rozi bo'lishimiz shart va lozimligini aytdik. Qaror qilish vaqti kelganda, ovoz berishga o'tildi. Morris biz buni qoidalar bo'yicha qilishimiz mumkinligiga ruxsat berdi. Ammo u bizning masalaga qarshi chiqish uchun bir necha a'zolar ovoz berishni xohlashganini aytdi. Ular kelishini biroz kutib turish oshkora va adolatli bo'lishini ma'lum qildi.

Biz bu haqda bahslashayotganimizda, ofitsiant pastda ikki jentlmen gaplashishni istayotganini aytdi. Men pastga tushdim va ularning kvaker a'zolarimiz ekanligini ko'rdim. Ular menga yaqindagi qovoqxonada o'tirishganini aytishdi. Ma'lum qilishlaricha, o'zaro kelishishgan va zarur bo'lsa, biz bilan ovoz berishga tayyor ekanlar. Ammo bunday zarurat paydo bo'lmasligiga ham umid qilishayotgandi. Agar yordamlari zarur bo'lmasa, so'ramaslikni iltimos qilishdi. Chunki bunday masala foydasiga ovoz berishsa, o'zlarining oqsoqollari va do'stlari bilan janjallashib qolishlari mumkin ekan. Shunday qilib, ko'pchilikning ovozini ta'minlagan holda, men yuqoriga ko'tarildim. Atayin biroz ikkilanib turgandan so'ng ovoz berishni yana bir soatga kechiktirishga rozilik berdim. Janob Morris buni juda adolatli, deb baholadi. Uning muxolif do'stlaridan birortasi ham kelmadi, bunga u ham hayron bo'ldi. Bir soat o'tgach, qarorni sakkiz ovozga qarshi bir ovoz bilan qabul qildik. Yigirma ikki nafar kvakerlarning sakkiz nafari biz bilan birga ovoz berishga tayyor edilar. Qolgan o'n uch nafari esa kelmaganliklari sababli tadbirga qarshi turishga moyilliklari yo'q edi. Shundan keyin mudofaaga chin ko'ngildan qarshi kvakerlarning nisbatini birga yigirma bir deb hisobladim. Ular jamiyatning oddiy a'zolari, shu bilan birga, hurmatga ega edilar. Vaholanki, o'sha majlis kun tartibiga nima taklif qilinganligi haqida ularga tegishli xabarnoma berilgandi.

Ushbu oqinga mansub, har doim hurmat-e'tiborga ega bilimdon janob Logan ularga murojaat qilib gapiribdi. O'zining mudofaa shaklidagi urush tarafida

ekanligini e'lon qilibdi. Fikrlarini asoslash uchun ko'p-lab asosli isbot-dalillar keltiribdi. U mening qo'limga oltmish funt pul berdi va istehkom qurilishi uchun lotereyaga qo'shishni aytdi. Shuningdek, bu maqsad uchun qanday sovrinlar qo'yish mumkinligi haqida tavsiyalar berdi. Menga mudofaa tarafdori bo'lgan eski xo'jayini Uilyam Penn haqidagi hikoyani aytib berdi. U Angliyadan, hali yosh yigitligida, o'sha mulkdor odam bilan uning kotibi sifatida kelgan. Urush vaqti edi va ularning kemasini bir qurolli kema ta'qib qilishni boshlagan. Uni dushman deb o'ylashgan. Ular-ning kapitani mudofaaga tayyorgarlik ko'rishni boshla-gan. Ammo Uilyam Penn va uning kvakerlar guruhiga kayutalariga qaytishlari mumkinligini aytgan. Chunki ularning yordamiga umid qilmagan. Jeyms Logandan<sup>1</sup> tashqari barcha kvakerlar kayutalariga kirib ketishgan. U kema palubasida qolishni tanlagan va unga qurol berishgan. Kutilmaganda dushman deb gumon qilin-gan ta'qibchi do'stona kema bo'lib chiqqan. Shuning uchun, o'rtada jang bo'lmagan. Kotib bu ma'lumot-ni yetkazish uchun pastga tushganda, Uilyam Penn unga palubada qolganligi va kemani himoya qilishda yordam berishni o'z zimmasiga olgani uchun tanbeh bergan. Bu Do'stlar tamoyillariga zid ekanligini va ay-niqsa, buni kapitan talab qilmaganini ro'kach qilgan. Guruhning barcha a'zolari oldida berilgan bu tanbeh kotibni g'azabga keltiribdi va:

---

<sup>1</sup> Jeyms Logan (1674–1751) 1699-yilda Uilyam Penn bilan Ame-rikaga kelgan va Penn oilasining biznes agenti bo'lgan. U o'zining «Senton» deb nomlangan qishloq uyida saqlanib kelgan noyob ki-toblardan iborat kutubxonasini Filadelfiya shahriga vasiyat qilgan. (Smit).

– Men sizning xizmatkoringizman, nega o‘zingiz pastga tushishimni buyurmadingiz? – deb javob beribdi. – Ammo siz xavf bor deb o‘ylab, mening palubada qolishim va dushman kemasiga qarshi kurashishga yordam berishim lozimligini xohladingiz...

A‘zolarining aksariyati doimiy ravishda kvakerlar bo‘lgan Assambleyada ko‘p yillar ishlaganman. Ularning urushga qarshi tamoyillari o‘zlariga juda ko‘p noqulayliklar keltirganligiga guvoh bo‘lganman. Bu ularga qirolidan kelgan buyruq asosida harbiy maqsadlar uchun yordam so‘rab murojaat qilinganda, doimiy ravishda sodir bo‘lardi. Ular, bir tomondan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etish bilan hukumatni xafa qilishni xohlamas edilar. Boshqa tomondan esa o‘z tamoyillariga zid ish tutib, do‘st kvakerlar kengashini ham xafa qilish no‘rin hisoblanardi. Shu sababdan ijro etmaslik uchun turli bahonalar o‘ylab topishar, bajarish muqarrar bo‘lib qolganda esa ijro etganlik holatini yashirish usullarini topardilar. Nihoyat, umumiy usul «qirolning foydalanishi uchun» iborasi ostida pul berish va uning qanday qo‘llanilishini hech qachon so‘ramaslik edi.

Ammo talab to‘g‘ridan-to‘g‘ri qirolidan bo‘lmagan onlarda, bu ibora unchalik to‘g‘ri emas deb topildi. Ya‘ni boshqasini ixtiro qilish lozim bo‘lib qoldi. Porox kerak bo‘ldi (menimcha, bu Luizburgdagi garnizon uchun edi) va Yangi Angliya hukumati Pensilvaniya shtatidan buning uchun grant so‘radi. Gubernator Tomas bu masalani palatada tasdiqlatish uchun ko‘p harakat qildi. Ammo ular porox sotib olish uchun pul ajratishga qarshi chiqdilar. Chunki bu urush uchun ishlatiladigan ashyo edi. Ammo

ular Yangi Angliyaga uch ming funt yordam berish uchun ovoz berdilar. Bunda esa pul gubernator tasarrufiga berilishi, uni non, un, bug'doy va boshqa dukkakli mahsulotlar sotib olish uchungina ishlatilishi bilan bog'liq shartni qayd etdilar. Palataning ishlarida yanada qiyinchilik tug'dirish maqsadida, ba'zi maslahatchilar gubernatorga bu pulni qabul qilmaslikni maslahat berishibdi. Go'yoki, o'zi talab qilgan mahsulot uchun ishlatish nazarda tutilmagan emish. Ammo gubernator: «Men pulni, albatta, olaman. Chunki ularning nimani nazarda tutganini yaxshi tushunaman. Boshqa dukkakli mahsulot iborasi poroxni anglatadi», debdi. U hech gap-so'z demasdan porox sotib olibdi. Kvakerlar hech qachon bunga e'tiroz bildirmadilar.<sup>1</sup>

Bu fakt yana bir hodisa bilan bog'liq. O't o'chirish kompaniyamizda lotereya o'tkazishning muvaffaqiyati haqida bizda shubha paydo bo'ldi. Men a'zolarimizdan biri janob Singga:

– Agar omadimiz yurishmasa, bu pulga o't o'chirish mashinasini sotib olishga harakat qilaylik. Kvakerlar bunga hech qanday e'tiroz bildira olmaydi. Agar siz mening nomzodimni va men sizning nomzodingizni shu maqsadda qo'mita a'ziligiga ko'rsatsak, ajoyib qurol sotib olamiz va bu, albatta, o't o'chirish mashinasi bo'ladi, – dedim.

– Tushunarli, – dedi u, – siz Assambleyada ko'p vaqt ishlab, o'z mahoratingizni oshirdingiz. Sizning ikki ma'noli loyihangiz ularning bug'doy yoki boshqa dukkakli mahsulotlariga juda mos keladi.

---

<sup>1</sup> Ovoz berish haqidagi ma'lumotlarga qarang. (Hoshiyadagi yozuv).

Kvakerlarga qiyinchilik tug'diradigan narsa ularning har qanday urush qonunga xilof ma'nosidagi tamoyillari edi. Ularni bir vaqtlar ishlab chiqishgan va nashr etishgan. Bir marta nashr etilgach, o'z fikrlaridan umuman qayta olmaganlar, osonlik bilan bekor qila olmaganlar. Bu holat oramizda amal qiladigan yana bir yo'nalish – Dunkerlar oqimining sog'lom aql bilan ish ko'rishlarini eslatadi. Men uning asoschilaridan biri Maykl Velfeyr bilan tanish edim. Men bilan suhbatda ularga boshqa yo'nalishlarning maddohlari adolatsizlarcha tuhmat qilishlari haqida arz qildi. Ya'ni ular jirkanch tamoyillar va amallarga rioya qilishda ayblanar ekanlar. Men buni yangi yo'nalishlar va oqimlar boshiga har doim tushadigan holat deb aytdim. Bunday tahqirlarni to'xtatish uchun o'z e'tiqodlarining shart-sharoitlari, yo'nalishlarining qonun-qoidalarini nashr etish o'rinni bo'lishi mumkinligini aytdim. Velfeyr bu guruhga taklif etilganligi va quyidagi sabab bilan rad etilganligini aytib berdi:

– Jamiyat sifatida birinchi marta majlis o'tkazganimizda, – dedi u, – Xudo biz bir vaqtlar e'zozlagan ba'zi ta'limotlar xato ekanligini tushunishimizga imkon berdi. Biz xato deb hisoblagan boshqa ta'limotlar esa haqiqat ekan. Vaqti-vaqti bilan Uning O'zi aqlimiz yanada ravshanlashishi uchun inoyat berib turadi. Tamoyillarimiz tobora takomillashib, xatolarimiz kamayib bordi. Hozir biz ushbu taraqqiyotimizning so'ngiga yetib keldikmi, yo'qmi, ruhiy yoki diniy kamolotga yetgan-yetmaganimizni aniq bilmaymiz. Shuning uchun, bir kuni kelib, o'z e'tiqodimizning bayonini nashr etsak, unga rioya

qilishga majbur bo'lishimiz va o'zimizni u bilan cheklanganday bo'lib qolishimiz mumkin. Chunki bu bilan yanada takomillashishni istamagandek bo'lamiz. Bundan-da muhimrog'i, bizdan keyingi safdoshlarimiz o'zlarining yoshi ulug'lari va asoschilari yaratgan e'tiqodni hech qachon yon berish mumkin bo'lmagan muqaddas bir qadriyat sifatida qabul qilishlari mumkin.

Oqim va yo'nalishdagi bunday kamtarlik, ehtimol, insoniyat tarixidagi yagona misol bo'lsa kerak. Chunki har bir boshqa oqim o'zini butun, mutlaq haqiqatni biladi deb o'ylaydi va bunga rozi bo'lmaganlarni esa gumrohlar deb hisoblashadi. Bu xuddi tumanli ob-havoda sayohat qilayotgan odam holati kabidir. U o'zidan oldinda va orqada ketayotgan hamda ikki tomonda yurgan odamlarni tuman bilan qoplangan deb o'ylaydi. O'z yaqinida esa hamma narsa tiniq ko'rinadi, ammo uning o'zi ham boshqalar kabi tuman ichida bo'ladi. So'nggi yillarda bunga o'xshash noqulaylik va xijolatchiliklarning oldini olish uchun kvakerlar turli choralar qo'llab kelishdi. Ular Assambleya va hakamlik sudlarida davlat xizmatlaridagi lavozimlar takliflarini asta-sekin rad eta boshlashdi. Maqsadlari o'z tamoyillaridan emas, hukumat hamda kuchdan voz kechish edi.

Tartib bilan aytilsa, avvalroq ham qayd etib o'tishim lozim edi. Men 1742-yilda ochiq pechka ixtiro qildim.<sup>1</sup> U xonalarni yaxshiroq isitishi bilan birga, yoqilg'ini ham tejar, ya'ni sovuq havo unga kirishi vositasida isitilardi. Men modelni yoshlikdagi do'st-

---

<sup>1</sup> Franklin pechkasi hali ham ishlatilib kelinadi.

larimdan biri janob Robert Greysga sovg'a qildim. Uning cho'yan pechkasi bor edi.<sup>1</sup> Ushbu pechkalarga talab oshib borayotganligi sababli, plitalarni eritib, quyib sotishni foydali ish deb o'ylabdi. Bu pechkaga talabni yanada oshirish uchun men «Yangi ixtiro qilingan Pensilvaniya pechlari haqida hisobot» nomli pamflet yozdim va nashr qildim. Maqolada ularning qurilishi va ishlash tartibi batafsil tushuntirilgandi. Xonalarni isitish usullaridan ustunliklari ham namoyish etilgandi. Ulardan foydalanishga qarshi ko'tarilgan barcha e'tirozlarga javob va ogohlantirishlar berilgandi. Bu pamflet yaxshi samara berdi. Gubernator Tomas bu pechkaning hujjatda tasvirlangan tuzilishidan juda xursand bo'libdi. U menga bir necha yil davomida ularning yagona sotuvchisi bo'lishim uchun patent berishni taklif qildi. Ammo men taklifni o'zim doim rioya qiladigan tamoyilga ko'ra rad etdim. Ya'ni boshqalarning ixtirolaridan keladigan qulayliklardan foydalanadigan bo'lsak, o'zimiz qilgan har qanday ixtiro bilan boshqalarga xizmat qilish imkoniyatidan xursand bo'lishimiz kerak. Biz buni bepul va saxovat bilan qilishimiz shart.

Ammo Londondagi bir temirchi mening pamfletimni yaxshilab o'qib chiqibdi. Pechning qurilishini o'z bilganicha o'zgartiribdi, natijada bu uning ishlash sifatini yomonlashtiribdi. Londonda unga patent ham olibdi. Menga aytishlaricha, anchagina pul ham ishlab olibdi. Bu mening patentlarimni boshqa odamlar o'ziniki qilib olishlarining yagona misoli emas. Albatta, har safar ham ular men kabi mu-

---

<sup>1</sup> Vorvik Pechi.

vaffaqiyatga erishishmagan. Men esa ularga qarshi hech qachon ariza yozmadim, chunki patentlardan foyda olish niyatim bo'lmagan. Shuning uchun jinim bahs va nizo qo'zg'ashga ishtiyoqmand emas edi. O'zimizdagi va qo'shni koloniyalardagi juda ko'p sonli uylarda men ixtiro qilgan pechkalarning qo'llanilishi aholi uchun o'tinni jiddiy darajada tejash imkonini berib keldi va bermoqda. Men, o'z navbatida, bundan behad mamnunman.

### XIII

#### **DAVLAT XIZMATLARI VA MAJBURIYATLARI (1749–1753)**

Nihoyat, tinchlikka erishildi va uyushmaning ishi tugadi. Endi fikrlarimni akademiya ta'sis etish masalasiga qaratdim. Men qo'ygan birinchi qadam rejaga bir necha faol do'stlarimni qo'shish bo'ldi. Bunda Jantou klubimiz a'zolari samarali ishtirok etishdi. Keyingi qadam esa «Pensilvaniyada yoshlar ta'limi bilan bog'liq takliflar» pamfletini yozish va nashr etishdan iborat bo'ldi. Nashrni mintaqamizning nufuzli odamlariga bepul tarqatdim. Ular pamfletni o'qib chiqib, qarashlari ushbu tashabbus bilan hamohang ekanligiga ishonch hosil qilishdi. O'sha zahoti akademiyaning ochish va uni moliyalashtirish uchun obuna ishlarini boshlab yubordim. Moliyalashtirish har yili kvotalar asosida besh yil davomida to'lanishi lozim edi. Obunachilar ko'p pul berishadi, deb umid qilgandim. Shunday bo'ldi ham. Adashmasam, besh ming funt pul yig'ildi.

Takliflarning kirish qismida ularning nashr etilishini o'zining emas, balki jamoatchilik kelajagi uchun qayg'uradigan ba'zi jentlmenlarning tashabbusi deb ko'rsatdim. Bu bilan o'z qoidamga ko'ra, iloji boricha o'zimni jamoaga ularning foydasiga bajariladigan biror rejaning muallifi sifatida taqdim etishdan qochishga muvaffaq bo'ldim.

Loyihani zudlik bilan amalga oshirish uchun obunachilar o'zlarining yigirma to'rt nafar ishonchli vakillarini tanladilar. So'ng o'shanda Bosh prokuror bo'lib ishlagan janob Frensis<sup>1</sup> va meni akademiyani boshqarish qonun-qoidalarini ishlab chiqish uchun tayinladilar. Bu ish amalga oshirilgach, tayyor hujjat imzolandi va biz bir uyni ijaraga oldik. Menimcha, 1749-yilning o'zidayoq o'qituvchilar ishga olindi va maktablar ochildi.

O'quvchilar soni tobora ortib borayotgani sababli akademiya binosi kichikroq ekani ma'lum bo'ldi. Biz yangi bino qurish uchun maqsadimizga muvofiq joylashgan yer maydonini izladik. Xudoning inoyati bilan tayyor qurilgan bir uy topdik. Biroz o'zgartirishlar qilinsa, maqsadimizga mos keladigan bino ekan. Bu janob Uaytfieldning tinglovchilari uchun qurilgan va men yuqorida tavsiflab o'tgan bino edi. Uni quyidagi shartlar bilan oldik.

Bu binodagi o'zgarishlar uchun pul sarflashga hissa qo'shganlar turli diniy yo'nalishlar va oqimlar

---

<sup>1</sup> Tench Frensis, janob Filipp Frensisning amakisi, Angliyadan Merilendga ko'chib borgan va keyinchalik lord Baltimorning advokati bo'lgan. U Filadelfiyaga ko'chib borgan va 1741-yildan 1755-yilgacha Pensilvaniya Bosh prokurori lavozimida ishlagan. 1758-yil 16-avgustda Filadelfiyada vafot etgan. (Smit).

vakillari ekanligini ta'kidlab o'tish, bino hamda u turgan yer uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan ishonchli vakillar uchun nomzodlarni ilgari surish lozim edi. Hech bir yo'nalish yoki oqimga ustun imkoniyat bermaslik kerak. Bu chora ushbu ustunlik bir kun kelib, butun binoni o'z oqimlari maqsadlari yo'lida tasarruf etish holatining oldini olish uchun ko'rildi. Shuning uchun har bir yo'nalish va mazhabdan bittadan mas'ul vakil tayinlandi, ya'ni bitta Angliya cherkovi odami, bitta presviter, bitta baptist, bitta moraviy va b. Vakili vafot etgan taqdirda, o'z hissadorlari orasidan boshqasini saylash tartibi belgilab qo'yildi. Moraviy vakil o'z hamkasblariga ma'qul kelmabdi. Uning vafotidan so'ng bu oqimdan boshqa odam olmaslikka qaror qilindi. O'shanda yangi saylov o'tkazilganda, boshqa bir oqim yo'nalishdan ikki nafar vakilni saylab qo'y-maslik qiyinchilik tug'dirdi.

Bir necha shaxslarning nomzodlari ko'rsatildi. Yuqoridagi sababga ko'ra, ular ma'qullanmadi. Oxir-oqibat kimdir shunchaki halol odam ekanligim va umuman hech qaysi oqim yoki yo'nalishga mansub emasligimni nazarda tutib, mening nomzodimni ko'rsatdi. Bu sabab mening saylanishimga asos bo'ldi. Uy qurilayotgan paytga kelib, odamlarda g'ayrat, tashabbuskorlik ancha vaqt oldin susayib bo'lganligi yaqqol aks etdi. Uning ishonchli vakillari yerning ijara haqini to'lash va qurilish davomida olingan ba'zi qarzlarni qoplash uchun qo'shimcha pul topishni uddalay olishmagandi. Bundan ular juda noqulay ahvolda edilar. Men ham bino, ham akademiyaning ishonchli vakillari guruhlarini a'zosi

hisoblanardim. Bu menga har ikki masala bo'yicha muzokaralar olib borish imkoniyatini berardi. Niho-yat, ikki tomonning kelishuvini taxminlashga muvaf-faq bo'ldim. Unga ko'ra, binoning ishonchli vakillari akademiyaning ishonchli vakillariga yon berishlari zarur edi. Akademiya vakillari qarzlarni to'lash, bi-noda ba'zan o'tkaziladigan va'zlar uchun katta bir zalning ochiq bo'lishini ta'minlashlari (ya'ni bu bir-lamchi maqsad edi) lozim bo'lib, kambag'al bolalar uchun bepul ta'lim beradigan maktab yuritishni ham o'z zimmlariga oldilar. Tegishli ravishda hujjatlar ishlab chiqildi. Qarzlarni to'lagach, akademiyaning vasiylari bino va xonalarni o'z tasarruflariga oldilar. Katta va devorlari baland zal qavatlariga, xonalar esa bir necha maktab uchun tepa va pastki xonalarga bo'lindi. Qo'shimcha yer maydoni sotib olinib, bu-tun hudud maqsadimizga moslashtirildi. O'quvchilar binoga ko'chib o'tib, o'qishni boshlashdi. Ishchilar bilan kelishish, materiallar sotib olish va jarayon-ni nazorat qilish hamda muammolarni hal qilish mening zimmamga yuklatilgandi. Mening shaxsiy ishlarim va biznesimga xalaqit bermaganligi uchun bu ishlarni osonlik va mamnuniyat bilan bajarar-dim. Chunki bundan bir yil oldin juda qobiliyatli, mehnatsevar va halol sherik janob David Holni ishga olgandim. Uning xulq-atvorini yaxshi bilar-dim, chunki u bilan to'rt yil birga ishlagan edik. Bosmaxona ishlari bilan bevosita shug'ullanishdan butunlay uzoqlashdim. Bu biznesda olinadigan foy-dalarning menga tegishli qismini o'z vaqtida to'lab turishardi. Hamkorlik o'n sakkiz yil davomida ikka-lamiz uchun ham muvaffaqiyatli kechdi.

Bir muncha vaqt o'tgach, akademiyaning ishonchli vakillari gubernatorning ustavi bilan kompaniya shaklida yuridik maqom oldi. Ularga pul mablag'lari Britaniyadan kelar va mulkdorlarning yer grantlari hisobidan ko'payib borardi. O'shandan beri Assambleya bu pullarga katta qo'shimchalar kiritdi. Shu tariqa hozirgi Filadelfiya universiteti tashkil etildi.<sup>1</sup> Men boshidan uning ishonchli vakillaridan biri bo'lishda davom etdim. Hozirga kelib, deyarli qirq yil bo'ldi. Unda bir qator yoshlarning ta'lim olib chiqqanlarini ko'rib, bag'oyat xursand bo'lganman. Chunki ular o'z qobiliyatlarini yanada yuksaltirib, davlat lavozimlariga tayyor, mamlakat uchun foydali insonlarga aylanishar edi.

Yuqorida aytganimday, xususiy bizneslarimdan uzoqlashganimdan keyin juda ko'p bo'lmasa ham yetarli boylik orttirganim uchun o'zimdanda mamnun edim. Chunki umrimning qolgan qismida falsafa o'rganish va ko'nglimga yoqqan ishlar bilan shug'ullanish uchun bo'sh vaqtim bo'lishini ta'minlagandim. Men Angliyadan ma'ruza qilish uchun kelgan doktor Spensning barcha uskuna va jihozlarini sotib oldim. Katta ishtiyoq bilan elektr sohasida tajribalar o'tkazishga kirishdim. Ammo bugunga kelib, jamoatchilik meni bo'sh vaqti ko'p deb o'ylab, o'z maqsadlarini amalga oshirish ishlariga jalb eta boshladi. Fuqarolik hukumatimizning har bir bo'limi va deyarli butun dunyoda menga qandaydir vazifa, majburiyat yuklay boshladi. Gubernator meni tinchlik komissiyasiga kiritdi. Shahar korporatsiyasi o'zining umumiy ke-

---

<sup>1</sup> Keyinchalik Pensilvaniya universiteti deb nomlangan.

ngashi a'zoligiga sayladi, ko'p o'tmay unda nuroniy-  
lar safiga o'tdim. Umuman olganda, jamoatchilik As-  
sambleyada o'zlarining vakili bo'lishim uchun meni  
o'zini-o'zi boshqarish organidan vakil qilib saylashdi.  
Assambleyadagi faoliyat men uchun boshqalaridan  
ko'ra ma'qulroq edi. Chunki avval oddiy xodim sifa-  
tida u yerdagi munozaralarda ishtirok eta olmasdim  
va ularni eshitib o'tirishdan charchagandim. Zero, bu  
bahslar ko'pincha yoqimsiz va zerikarli bo'lardiki,  
o'zimni beixtiyor sehrli kvadratchalar yoki doiralar  
chizish, yoki boshqa biror ish bilan band qilardim.  
Assambleyaga a'zo bo'lib tayinlanishim yaxshilik qi-  
lish imkoniyatlarimni yanada kengaytiradi, deb o'y-  
ladim. Ammo xizmat pillapoyalaridan yuqoriga ko'-  
tarilish mening shuhratparastligimni qitiqlamadi, deb  
yolg'on gapirmayman. Aslida shunday, yuqori lavo-  
zimlarga tayinlanish meni xursand qilishi shubhasiz  
edi. Chunki jamiyatning juda past tabaqasidan kelib  
chiqqanligimni hisobga olsak, bu jamoatchilikning  
men haqidagi ijobiy fikrini namoyon etadi. Boz  
ustiga, bu kabi lavozimlarga tayinlanish uchun hech  
kimdan iltimos qilmaganman.

Biroz vaqt sudya bo'lib, bir necha ishda qatnash-  
dim. Sud majlislarida o'rindiqda o'tirib ishlarni ting-  
ladim. Ammo bu ishda vakolatli darajada ishlash  
uchun umumiy qonunchilikdagi bilimlarim yetish-  
masligini tushundim. Asta-sekin bu ishdan chiqib  
ketdim. Assambleyada yurist sifatida ishlab, o'zimni  
bundan jiddiroq vazifalarga mas'ullik bilan band  
qildim. O'n yil davomida meni bu lavozimga har  
yili saylab kelishdi. Men hech qachon biror bir  
saylovchidan ovoz berishni bevosita yoki bilvosita

so'ramadim. Saylanishga kuchli ishtiyoqim va intilishim ham yo'q edi. Palatada o'z o'rnimni egallaganimdan so'ng o'g'lim uning xodimi (klerki) etib tayinlandi.

Keyingi yil Karlaylda hindular bilan shartnoma tuzilishi kerak edi. Gubernator palataga xabar yuborib, uning ba'zi a'zolarini nomzod qilib ko'rsatishni so'radi. Ular kengashning ba'zi a'zolari bilan birlashib, shu maqsadda komissiya tarkibi amal qilishi lozim edi.<sup>1</sup> Palata a'zolari o'z spikeri (janob Norris) va mening nomzodimni ko'rsatishdi. Komissiya a'zolari bilan birga Karlaylga bordik va belgilangan tartibda hindular bilan uchrashdik.

Bu odamlar ichkilikka juda o'ch ekanlar. Mast bo'lsalar, ashaddiy janjalkashga aylanar va tartibsizlik keltirib chiqarardilar. Shu sababli ularga har qanday ichkilik sotishni taqiqladik. Ular bu cheklovdan arz qilishdi. Biz ularga muzokaralar davomida hushyor bo'lib yursalar, kelishuvga erishgach, juda ko'p rom berishni va'da qildik. Ular so'z berishdi va buning ustidan chiqishdi. Chunki sotib olish uchun ichimlikning o'zi yo'q edi. Muzokaralar risoladagidek o'tkazildi va shartnoma tomonlar o'zaro qoniqish hosil qilgan holda tuzildi. Keyin ular romni talab qilishdi va biz va'damizni bajardik. Vaqt tushdan o'tgandi. Ko'rdikki, yuzga yaqin erkaklar, ayollar va bolalar vaqtincha qurilgan uylarda yashayotgan edilar. Ular kvadrat shaklida, shunchaki shahardan tashqarida qurilgandi. Kechqurun ular orasidagi qattiq shovqinni eshitib, komissiya a'zolari nima gapligini bilish

---

<sup>1</sup> Buni to'g'riroq tushunish uchun ovoz berish haqidagi ma'lumotlarga qarang. (Hoshiyadagi yozuv).

uchun tashqariga chiqishdi. Biz ular maydonning o'rtasida katta gulxan yoqishganini va hammasi: erkaklar-u ayollar mast holda o'zaro janjallashib, mushtlashayotganligini ko'rib, dong qotdik. Ularning to'q rangli yarim yalang'och tanalari faqat gulxanning nurida xira ko'rinardi. Bir-birlarining ortidan quvib borib, yonayotgan o'tin bilan urishardi. Buning hammasi ularning dahshatli qichqiriqlari ostida sodir bo'layotgandi. Bu naq do'zaxning biz tasavvur qila olishimiz mumkin bo'lgan sahnalaridan biriga o'xshardi. Buni tinchitishning imkoni yo'qligi tufayli biz o'z xonalarimizga qaytdik. Yarim tunda ulardan bir necha erkak eshiklarimizni gumburlatib taqillatgan holda, yana rom talab qilishdi, biz esa e'tibor ham bermadik.

Ertasi kuni, bizni bezovta qilib, o'zlarini xunuk tutganlarini yaxshi anglagan holda, uch nafar keksa vakilini uzr so'rash uchun huzurimizga jo'natishdi. Notiq aybni tan oldi, lekin hammasini romga to'nkadi. Keyin romni bahona qilishga urinib, quyidagi gaplarni aytdi: «Hamma narsani yaratgan Buyuk Ruh barchasini biror bir narsa uchun yaratdi. U qanday maqsadda yaratgan bo'lsa, uni shu maqsadda har doim ishlatish kerak». So'ng romni olib bo'lgach: «Bu hindular mast bo'lishlari uchun bo'lsin, xuddi shunday bo'lishi ham shart», dedi. Aslida ham, agar Xudo o'z inoyati bilan bu yovvoyilarni yo'q qilib, yerga ishlov beruvchi dehqonlarga joy bo'shatishni niyat qilgan bo'lsa, balki rom shu maqsadga erishish uchun mo'ljallangandir. Negaki, rom ilgari dengiz bo'yida yashagan barcha qabilalarni allaqachon yo'q qilgan.

1751-yilda o'z reja va maqsadlariga ega do'stlarimdan biri doktor Tomas Bond Filadelfiyada kasalxonani tashkil etish g'oyasini ilgari surdi (ushbu xayrli rejani menga yo'yishadi, ammo bu g'oya doktor Bondga tegishli bo'lgan). Uning fikricha, mintaqamiz aholisi yoki xorijliklar bo'lishidan qat'iy nazar, kasalxonani kasallikka chalingan odamlarni qabul qilib, ularni davolash uchun qurilishi lozim. Ushbu maqsadda pul to'plash uchun obunani tashkil etish ishlarida do'stim juda g'ayratli va faol bo'ldi. Amerikada bu yangi tashabbus bo'lganligi sababli odamlar uni avval deyarli tushunishmadi. Ya'ni dastlab bu loyiha katta muvaffaqiyatga erisha olmadi.

Oxir-oqibat u mening oldimga keldi. Mening ishtirokimsiz bu yerlarda jamoatchilik ruhi va talabi bilan ishlaydigan loyihani amalga oshirishning deyarli imkoni yo'q ekanligini tushunganligini aytdi.

– Chunki, – dedi u, – men obuna bo'lish borasida odamlarga murojaat qilganimda, har doim bitta savolni berishadi: Siz bu biznes bo'yicha Franklin bilan maslahatlashdingizmi? U mazkur taklif haqida nima deb o'ylaydi? Men ularga siz bilan maslahatlashmaganimni aytsam (siz qiziqadigan ishlar doirasida emas, deb o'ylaganim sababli), ular obuna bo'lishdan bosh tortishadi. O'ylab ko'ramiz, deyshadi xolos.

Men unga rejasining tabiati va kutilajak foydalari haqida savollar berdim. Undan qoniqarli tushuntirishlar oldim. Bu loyihaga nafaqat o'zim obuna bo'ldim, balki boshqalardan obuna pullarini olish bilan chin dildan shug'ullandim. Ammo odamlardan

obuna bo'lishni so'rashdan oldin gazetalarda ushbu mavzu bo'yicha yozish orqali ularning ongini tayyorlashga harakat qildim. Bunday ishlarda odatda shu usulimdan foydalanardim. Doktor Bond esa buni e'tibordan chetda qoldirgan edi.

Shundan keyin obunalar yanada erkin va saxovatli kechdi. Ammo pul to'plash ko'lami biroz kamaydi. Buni ko'rib, yig'ilgan pullar Assambleyaning yordamisiz yetarli bo'lmasligini tushundim. Shuning uchun bu loyiha uchun foydasiga petitsiya<sup>1</sup> taklif etdim va uni amalga oshirdik. Dastlab, mintaqa aholisi vakillariga bu loyiha ma'qul kelmadi. Ular bu faqat shahar uchun xizmat qiladi, shuning uchun faqat shahar aholisi unga pul sarflashi kerak, deb e'tiroz bildirishdi. Ular fuqarolarning o'zlari buni umumiy ma'qullashlariga shubha bildirishdi. Men buning teskarisini isbotlaydigan fikrlar keltirdim. Mazkur loyiha doirasida ixtiyoriy xayriyalar orqali ikki ming funt pul yig'ish mumkinligiga shubham yo'qligini aytdim. Ular bu fikrni noodatiy va mutlaqo imkonsiz taxmin, deb hisoblashdi.

Bunga javoban men o'z rejamni ishlab chiqdim. Ularning petitsiyasidagi iltimosga ko'ra, hissa qo'shadiganlarni rasmiylashtirish uchun qonun loyihasini tayyorlash va zarur pulni berish uchun ta'til so'radim. Bu ta'tilni, asosan, bir maqsadda so'ragan edim. Ya'ni qonun loyihasi ma'qul kelmasa, palata uni shunchaki rad etishini bilardim. Ammo men uning eng muhim moddasini shartli qilib tuzdim.

---

<sup>1</sup> Petitsiya – oliy davlat organiga yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan birgalikda berilgan rasmiy yozma ariza, iltimosnoma.

Ya'ni «Yuqorida qayd etilgan hokimiyat shuni qabul qilsinki, mazkur hissa qo'shuvchilar majlis o'tkazib, o'z rahbar va xazinachilarini tanlasalar hamda o'z hissalarini bilan ... kapital qiymatni to'plasalar (bu qiymatning yillik foizidan kelgan daromad yuqorida aytib o'tilgan kasalxonaga xastalikka chalingan kambag'allarni oziq-ovqat va dori-darmon bilan ta'minlash, davolash, ularga maslahat berish bepul bo'lishi sharti bilan qabul qilinganda ishlatiladi) va bu o'sha vaqtda Assambleya spikerining qoniqish darajasida taqdim etilganligini ta'minlasa, shundagina bu spiker uchun qonuniy bo'lishi shart va mumkin. Bu bilan u mintaqa xazinachisiga yuqorida ko'rsatilgan kasalxonaning xazinachisiga ikki ming funt miqdoridagi pulni yiliga ikki marta to'lash topshirig'ini berishi shart hisoblansin. Bu pullar ushbu kasalxonani tashkil etish, qurish va tugatib, topshirish maqsadlarida ishlatilishi lozim».

Bu shart qonun loyihasining qabul qilinishini ta'minladi. Chunki Assambleyaning uni qabul qilishga qarshi chiqqan a'zolari endi hech qanday chiqim qilmasdan saxovat ulashuvchilarga aylanishlarini anglab yetgan edilar. Shu tariqa, ular hujjatning qabul qilinishiga rozilik berdilar. So'ng odamlar orasida obuna bo'yicha pul to'plashni targ'ib qilishda, biz qonunning shartli va'dasini ehson qilish uchun qo'shimcha rag'bat sifatida ko'rsatdik. Chunki har bir odamning qo'shgan hissasi ikki barobarga oshar edi. Ushbu shart har ikki tomonda ham ijobiy natija berdi. Obuna bo'yicha to'plangan pul mablag'i kerakli miqdordan oshib ketdi. Biz davlatdan grant

so'radik va oldik. Bu esa bizga rejani amalga oshirish imkonini berdi. Tez orada qulay va chiroyli bino barpo etildi. Tinimsiz tajriba tufayli bu muassasaning foydali ekanligi isbotlandi va u bugun-ga qadar gullab-yashnamoqda. Muvaffaqiyati o'sha paytda menga ko'proq zavq bag'ishlagan boshqa bir siyosiy ayyorligimni eslay olmayman. Mulohaza yuritib ko'rib, bu ishda biroz quvlik va ayyorlikdan foydalanganim uchun o'zimni-o'zim oqlagan boshqa holat ham bo'lmagan.

O'sha vaqtlarda bo'lsa kerak, yana bir loyiha ishlab chiqqan shaxs, avliyo ota Gilbert Tennent<sup>1</sup> oldimga keldi. U yangi majlislar uyini qurish uchun obuna asosida pul to'plashda yordam berishimni iltimos qildi. Bu bino dastlab janob Uaytfildning shogirdlari bo'lgan presviterlar orasida to'plangan jamoaning foydalanishi uchun kerak ekan. Ham-yurtlarim mendan tez-tez saxovat qilishlarini so'-rayverganimdan xafa bo'lishlarini xohlamaganim sababli bu taklifni qat'iy rad etdim. Keyin u mendan o'z tajribam asosida saxovatpesha va jamoatchilik uchun yaxshilik qilish ruhidagi odamlarning nomlari ro'yxatini tayyorlab berishni so'radi. Bu insonlar mening avvalgi iltimoslarimga rozi bo'lganliklarini eslab, boshqa so'rovchilar ularni bezovta qilishlari mumkinligi sababli nomlarini ko'rsatish xunuk ish bo'ladi, deb o'yladim. Bunday ro'yxatni berishdan bosh tortdim. Keyin u hech bo'lmaganda biror maslahat berishni so'radi.

---

<sup>1</sup> Gilbert Tennent (1703–1764) Amerikaga otasi Uilyam Tennent bilan birga kelgan. Bir muddat Log kollejida dars bergan. Bu kollej asosida Nyu-Jersi kolleji paydo bo'lgan. (Smit).

– Bajonidil, – dedim men. – Demak, birinchi navbatda, sizga biror bir narsa berishi aniq bo'lgan odamlarning barchasiga murojaat qilishingizni maslahat beraman. So'ng biror bir narsa berish-bermasligiga o'zingiz amin bo'lmagan odamlarga boring va ularga undan oldin pul bergan odamlarning ro'yxatini ko'rsating. Nihoyat, hech narsa bermasligiga o'zingiz amin bo'lgan odamlarni e'tiborsiz qoldirmang. Chunki ularning ba'zilarida adashgan bo'lishingiz mumkin.

Suhbatdoshim kuldi va menga rahmat aytdi. Maslahatimga quloq solishini bildirdi va shunday ham qildi. U hammadan so'radi va kutganidan ancha kattaroq miqdorda pul to'play oldi. Bu pulga Arch ko'chasida katta va muhtasham majlislar uyi qurirdi.

Shahrimiz go'zal to'g'ri chiziqli tarzda katta, tekis va bir-biriga to'g'ri burchakda kesishadigan ko'chalar asosida barpo etilgan. Shunga qaramay, bu ko'chalar ko'p yillardan beri tosh yotqizilmaganligi uchun aziyatda edi. Yog'ingarchilik bo'lganda og'ir aravalar ko'chalarni botqoqqa aylantirib yuborar, ya'ni ko'chalarni kesib o'tish juda qiyin bo'lardi. Quruq ob-havo sharoitida esa odamlar changdan ozor chekishardi. Men Jersi Market deb nomlangan bozorga yaqin joyda yashar va aholining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda loyga botib qiynalganlarini ko'rardim. Ushbu bozorning o'rtasidan o'tgan bir chiziqli yo'l g'isht bilan qoplangandi. Ya'ni bozorga kirib kelgach, oyoq ostida qattiq asos bo'lardi, ammo g'isht terilgan yo'lakchaga yetib borish uchun ham ko'pincha poyabzallari to'la loy ichiga

kirib ketardi. Bu mavzu borasida odamlar bilan suhbatlashish hamda maqolalar yozish orqali bozor va o'sha g'isht yotqizilgan yo'lak orasida tosh yotqizish uchun imkoniyat topa oldim. G'isht yo'lak uylarining har ikki tomonida edi. Bu chora bir muncha vaqt davomida bozorga loyga botmasdan, iflos bo'lmasdan borish imkonini berdi, ammo ko'chaning qolgan qismiga tosh yotqizilmagandi. Har safar loy ichidan biror arava bu yo'lak ustiga chiqib kelsa, g'ildiraklaridagi loy yo'lakka tushar va uning yuzasi yana loyqa bilan qoplanardi. Uni hech kim tozalamas, chunki shahrimizda hali ko'cha tozalaydiganlar yo'q edi.

Odamlar orasidan so'rab-surishtirdim va bir kambag'al, mehnatsevar odamni topdim. U tosh yotqizilgan yo'lakni tozalab turish ishini o'z zimmasiga olishga tayyor edi. Ish yo'lakni haftasiga ikki marta tozalash, ya'ni barcha qo'shnilarning uy eshiklari oldidan loy va tuproqni olib ketishdan iborat edi. Unga har bir uy oyiga olti penni haq to'laydigan bo'ldi. So'ng men bir maqola yozib, unda mahallalar aholisiga juda kam xarajat bilan qanday qulayliklarga ega bo'lish mumkinligini ko'rsatdim. Uylarimizni toza tutishda ancha yengillik bo'lishi haqida yozdim. Chunki uylarga odamlarning oyoq kiyimi bilan ko'p tuproq va loy kirmaydi. Do'konlarga odamlarning yetib borishi osonlashishi sababli ular uchun mijozlar sonining ko'payish imkoniyati paydo bo'lishini yozdim. Shuningdek, ob-havo quruq bo'lganda, do'konlardagi mollar ustiga chang tushishining kamayishi ham ijobiy tomonlardan biri edi. Men har bir uyga maqolaning bittadan nusxasini jo'natdim. Bir yoki

ikki kundan keyin bu xarajatlarni to'lash uchun kimlar shartnomaga imzo qo'yishini bilish uchun bordim. Shartnoma bir ovozdan imzolandi va ancha vaqt davomida amalga oshirib borildi. Shahar aholisi bozorni o'rab turgan yo'lakning tozaligidan xursand bo'lishdi. Bu aholi uchun qulaylik yaratdi va ommada barcha ko'chalarga tosh yotqizish istagini uyg'otdi. Odamlar shu maqsadda soliq to'lashga rozi bo'lishdi.

Biroz vaqt o'tgach, men shahar ko'chalariga tosh yotqizish to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqdim va uni Assambleyaga taklif qildim. Bu 1757-yilda, Angliyaga borishimdan biroz oldin edi va men ketgunimcha Assambleya uni qabul qilmadi. Uni baholash usuliga o'zgartirish kiritib, qabul qilishgan, ammo men buni oqilona xulosa emas, deb o'yladim. Qolaversa, qonunga ko'chalarga tosh yotqizish bilan birga, yoritish tizimini ham o'rnatish shartlarini qo'shish kiritilgandi. Jismoniy shaxs, marhum janob Jon Klifton o'z eshigi oldiga bir lampa o'rnatib, ommaga bu usulning foyda berishini amalda namoyish qilgan. Boshida aholi butun shaharni yoritish g'oyasini olqishlagan. Jamoatchilik uchun foyda keltirishning bu usulini ham odamlar mening nomimga yo'yishgan. Ammo bu g'oya butunlay janob Kliftonniki edi. Men shunchaki uning misoliga ergashdim, lekin mening xizmatim lampalarimizning shaklini hisobga olishni talab qilish bo'ldi. Kamina taklif qilgan lampalarning shakli Londondan yetkazib beriladiganlarning sharsimon shaklidan farq qilardi. Sharsimon lampalar biz uchun quyidagi noqulayliklarga ega: ularning ostidan havo kirmas, shu sababli tutun tepaga osonlik bilan chiqib ketmasdan, shar

ichida aylanardi. Keyin u lampaning tagiga cho'kib, tez orada dastlabki yorug'ligi xiralashib qolardi. Boz ustiga, shu sababli ularni har kuni artib, tozalab turish kerak bo'lardi. Lampaga berilgan har qanday tasodifiy zarba uni sindirar va u befoyda bo'lib qolardi. Shuning uchun ularni to'rtta tekis oynadan, tutunni tortish uchun tepa tomonida uzun voronka bilan yasashni taklif qildim. Yana tutunning tepaga chiqishi oson bo'lishi uchun pastki qismida teshiklar qoldirish zarurligini ko'rsatdim. Bu lampalarning toza bo'lishini ta'minlar va bir necha soat ichida oynalar xiralashib qolmas edi. Londondan keladigan lampalar xiralashar, bizlarniki esa tong sahargacha yorqin nur berib turardi. Qolaversa, tasodifiy zarba ularni sindirib yubormas, bunday hollarda, odatda bir tomondagi oyna sinishi, uni esa osonlik bilan almashtirish mumkin edi.

Men ba'zan londonliklar Vokshollda<sup>1</sup> o'rnatilgan sharsimon lampalarini toza tutish uchun biz ko'cha lampalarimizning pastki qismida o'rnatgan teshiklarning ijobiy natijasini nega o'rganishmaganidan hayron bo'lardim. Ammo bu teshiklar boshqa maqsad uchun qilingan edi. Ya'ni teshiklar olovni ular orasidan osilib turgan zig'ir tolali pilik orqali bir lahzada o'tkazish uchun mo'ljallangandi. Aftidan, havoning kirishiga yordam berish kabi maqsad nazarda tu-

---

<sup>1</sup> Voksholl bog'i (Vauxhall Gardens) bir vaqtlar mashhur va hashamatli London kurorti, Lambetdan yuqorida, Temzada joylashgan. Bog'ni 1859-yilda yopishgan, ammo janob Rojer de Koverlining «Spektator»da tasvirlangan bog'ni borib ko'rishi, Smolletning «Hamfri Klinker» va U.Tekkereyning «Shuhratparastlik yarmarkasi» asarlaridagi tavsiflari tufayli doim yodda bo'ladi.



tilmagandi. Shuning uchun lampalar yoqilganidan keyin bir necha soat o'tgach, London ko'chalarining yorqinlik darajasi juda pasayib ketardi.

Shahrimiz sharoitining bunday yaxshilanishlarini yozish menga Londonda bo'lganimda, doktor Foterhillga bergan taklifimni eslatdi. Foydali loyihalarning ajoyib targ'ibotchisi bo'lgan Foterhill men bilgan eng yaxshi odamlardan biri edi. Ko'chalar quruqligida hech qachon supurilmasligini kuzatardim. Shu sababli yengil chang yuqoriga ko'tarilar, ammo chang yog'ingarchilik boshlanib, uni loyga aylantirguncha to'planardi. Chuqurlikda bir necha kun yotgach, undan o'tishning imkoni bo'lmasdi. Faqat kambag'al odamlar supurgilar bilan tozalaydigan tosh yotqizilgan yo'laklardangina yursa bo'lardi. Bu loy qatlamini qirib tashlash va tepasi ochiq aravalarga ortish uchun ko'p mehnat talab qilinardi.

Har bir silkinishda loy bo'laklari aravalardan yo'lakka tushar va bundan piyodalar ozor chekardi. Changning do'konlar va uylar derazalariga uchib kelishi ko'chalarning supurmasligi sababidan edi.

Tasodifiy hodisa menga ozgina vaqt ichida qancha supurish mumkinligini o'rgatdi. Bur kuni tongda Kreyven ko'chasidagi uyimning eshigi oldida<sup>1</sup> bir kambag'al ayol mening yo'lakchamni qayin supurgi bilan supurayotganini ko'rdim. Ayol xuddi kasallikdan endi turib kelgandek juda rangpar va zaif ko'rinardi. Men bu yerni supurish uchun uni kim yollaganini so'radim. U shunday dedi:

– Hech kim, lekin men juda kambag'alman va ahvolim yomon. Jentlmenlarning eshiklari oldini supuraman va ular menga nimadir berishlariga umid qilaman...

Men unga butun ko'chani toza supurishni taklif qildim va bu uchun bir shilling to'lashimni aytdim. Soat 9 edi va soat 12 da u bir shillingni olish uchun keldi. Tongda ishlashidagi sustlikni ko'rganim uchun uning ishni buncha tez bajarganiga ishonmadim. Ishni tekshirish uchun bir xizmatkorni jo'natdim. U qaytib kelib, ayol top-toza qilib supurganini, changni yo'lakning o'rtasidan o'tgan ariqchaga yig'ib qo'yganini aytdi. Keyingi safar yomg'ir yoqqanda suv changni butunlay yuvib olib ketdi. Shu tariqa ham tosh yotqizilgan yo'lak, ham undagi suvni oqizib ketadigan ariq top-toza edi.

Shundan so'ng men zaifgina ayol uch soat ichida katta ko'chani supurib tozalay olsa, kuchli erkak bu

---

<sup>1</sup> Londondagi Charing Kross yaqinidagi kalta ko'cha.

ishni ayni vaqtning yarmida bajara oladi-ku, degan xulosaga keldim. Shu asnoda, tor ko'chani ikki tomonidan piyodalar yuradigan joydan o'tadigan ikkita ariqning o'rniga, uning o'rtasidan o'tadigan bitta ariqning bo'lishi qulayligini aytishim lozim. Chunki ko'chaga tushgan barcha yomg'ir suvi yon tomonlardan o'rtaga qarab oqadi va yig'iladi. U yerda o'z yo'lida uchragan barcha loyni yuvib ketish uchun kuchli oqim hosil qiladi. Ammo bu suv ikkita ariqqa bo'linsa, uning oqimi loyni yuvib ketish uchun yetarli kuchga ega bo'lmaydi. Bu loyni suyuqroq loyqaga aylantiradi xolos. Aravalar g'ildiraklari va otlar tuyoqlari bu loyqani piyodalar yo'lakchasiga sachratadi. Oqibatda yo'lni ifloslantirib sirpanchiqqa aylantiradi. Ba'zan uni piyodalarga ham sachratadi. Bu boradagi taklifim quyidagicha bo'ldi:

«London ko'chalari va Vestminsterni yanada samarali tozalash va toza saqlash uchun bir guruh ko'cha tozalovchilar bilan quruq mavsumda changni tozalash uchun shartnoma tuzish lozim. Boshqa paytlarda loyni qirib tashlash taklif etiladi. Ularning har biri qator ko'chalarga mas'ul bo'ladi. Ushbu maqsadlar uchun ularni supurgi va boshqa tegishli asboblardan ta'minlash kerak. Ularni o'zlariga tegishli nuqtalarda ishga shay holatda saqlashlari lozim bo'ladi. Xizmatga tayyor kambag'al odamlarni bu ishga olish mumkin.

Quruq yoz oylarida chang barcha do'konlar va uylar derazalari ochilishidan oldin belgilangan masofalarda supurilib, to'planishi lozim. Shundan so'ng ko'cha tozalovchilar to'plangan chang va boshqa

axlatni tepasi yopilgan aravalarga ortib, chiqarib tashlashlari kerak bo'ladi.

Qirib to'plangandan keyin bu loy uyumlar holida qolib ketmasligi, arava g'ildiraklari va otlar tuyoqlari orasidan yana to'rt tomonga sochilishining oldini olish zarur. Ko'cha tozalovchilarni g'ildiraklarining ikki tomoniga loy solinadigan qutilar o'rnatilgan aravalar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq. Qutilarning ostki qismi panjaradan iborat, ustiga poxol solingan bo'lishi kerak. Ustiga loy solinganda, o'tib ketmaydigan, ammo suvi oqib ketadigan bo'lsin. Chunki suv oqib ketsa, arava ancha yengillashadi. Negaki, suv arava og'irligining eng katta qismini tashkil qiladi. Bu aravachalar qulay masofalarga joylashtirilib, loyni ularga zambilg'altaklarda olib kelish yanada qulayroq. Ular loydagi suv oqib ketguncha o'sha yerda qolishi, olib ketish uchun esa otlar olib kelinishi lozim?

O'shandan beri men ushbu taklifimning ikkinchi qismi amalda ish berishiga shubha qilardim. Chunki ba'zi ko'chalar tor edi. U yerda aravalarni loyning suvi oqib ketguncha qoldirish qatnovga xalaqit berishi muqarrar. Lekin shundoq ham taklifimning changni yig'ish va uni do'konlar ochilguncha olib chiqib ketish haqidagi birinchi qismi yoz oylarida amaliy ish berishi tayin edi. Chunki bir kuni tonggi soat yettida Strend va Flit ko'chasi bo'ylab sayr qilayotganimda, birorta ham do'konning hali ochilmaganini ko'rdim. Ammo atrof yorug' va quyosh chiqqaniga uch soatlar bo'lgandi. Chunki London aholisi o'z ixtiyorlari bilan sham yorug'ida yashash,

quyosh chiqqanda esa uxlashni tanlashgan edi. Buning ustiga, biroz andishasizlik bilan shamlar uchun qo'yilgan boj va mol yog'i narxidan shikoyat ham qilishadi.

Ular shamolli kunda chang biror odamning ko'zi yoki qaysidir do'konga tushishi katta ahamiyatga ega emas, deb hisoblashlari mumkin. Ammo aholisi zich joylashgan shaharda bunday joylarning ko'pligi va ayni holatlarning takrorlanishi ko'ngilsizliklarga sabab bo'ladi. Buni bilgach, balki ahamiyatsiz bo'lib ko'rinadigan bunday masalalarga e'tibor beradigan odamlarni kuchli tanqid qilishmas. Inson baxt-saodati taqdirning kamdan-kam uchraydigan ulkan ijobiy hodisalaridan emas, balki har kuni sodir bo'ladigan kichik ustunliklar va xursandchiliklardan iborat bo'ladi. Masalan, agar bir kambag'al yigitga soqol-mo'ylovini olishni, ustarasini toza va tartib bilan saqlashni o'rgatsangiz, uning baxtli bo'lishi uchun ming gineya<sup>1</sup> berishdan ko'ra ko'proq hissa qo'shgan bo'lardingiz. Pulni tezlik bilan sarflab yuborish mumkin. Buning ortidan uni ahmoqona sarf qilganlik uchun pushaymonlik qoladi xolos. Ammo boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, u sartaroshlarni uzoq kutib turish, ularning g'ubor qo'ngan barmoqlari, badbo'y nafasleri va o'tmas ustalaridan qutuladi. O'ziga qulay fursatda soqol-mo'ylovini oladi. Har kuni bu ishni sifatli bir moslama bilan bajarishidan xursand bo'ladi. Bu fikrlar bilan men bir necha oldingi sahifalarni yozib qo'ydim.

---

<sup>1</sup> Gineya – 1663-yildan 1813-yilgacha muomalada bo'lgan ingliz, keyin Britaniya oltin tangasi.

Ertami-kechmi, bu fikrlar o'zim bir necha yil baxtiyor hayot kechirgan, chin dildan sevadigan London shahri va Amerikamizdagi ba'zi shaharlar uchun foydali bo'ladi, deb umid qildim.

Amerika Bosh pochta boshqarmasi boshlig'ining tayinlovi bilan ancha muddat bir nechta idoraning nazoratchisi sifatida ishladim. Pochta mansabdor shaxslarining hisobotini qabul qilish ham mening vazifamga kirardi. 1753-yilda boshliq vafot etgach, Angliyaning Bosh pochta boshqarmasi meni janob Uilyam Hanter bilan birgalikda uning o'rniga ishga tayinladi. Shu paytgacha Amerika pochta Britaniya pochta-siga hech qanday masalada to'lov uchun javobgar bo'lmagan. Bizga idora foydasidan olish sharti bilan yiliga olti yuz funt maosh belgilangandi. Bunga erishish uchun turli xil takomillashtirish ishlarini amalga oshirish zarur hisoblanardi. Bu ishlar, juda qimmatga tushishi tayin edi. Shuning uchun dastlabki to'rt yil ichida idora bizdan to'qqiz yuz funtdan ko'proq qarzdor bo'ldi. Ammo ko'p o'tmay, ayni ish bizga qarzlarni qaytara boshladi. Meni vazirlarning nojo'ya qiliqlari dastidan ishdan olishdi. Bu masalaga keyinroq to'xtalib o'taman. Ishdan ketgunimgacha Irlandiya pochta xizmati qirollikka olib keladigan foydadan uch barobar ko'p foyda keltirishni boshlagan edik. Meni, uzoqni o'ylamay, ishdan bo'shatishganidan beri undan bir tiyin ham foyda olishmagan!

O'sha yili pochta bo'limi ishlari bilan Yangi Angliyaga safar qildim. U yerda Kembrij kolleji o'z tashabbusi bilan menga «San'at magistri» darajasini berdi. Bundan oldin Konnektikutdagi Yeyl kolleji

menga xuddi shunday iltifot ko'rsatgandi. Shunday qilib, hech bir kollejda o'qimagan bir odam ularning ilmiy darajalaridan bahramand bo'lish uchun keldim. Bu ilmiy darajalar tabiiy falsafaning elektr energiyasi bo'limida takomillashtirishga oid yutuqlarim va kashfiyotlarim uchun berilgan ekan.


#### XIV

### OLBANI ITTIFOQ REJASI

1754-yilda yana Fransiya bilan urush xavfi paydo bo'ldi. Lordlar palatasining buyrug'i bilan turli koloniyalar vakillari yig'ilishi Olbanida o'tkazilishi rejalashtirildi. U yerda Olti Millat (Qabila) boshliqlari bilan ham o'z mamlakati, ham bizning mamlakatimizni himoya qilish to'g'risida suhbatlashish lozim edi. Gubernator Hamilton ushbu buyruqni olgach, palatani u bilan tanishtirdi. Palata a'zolarini hindularga shu munosabat bilan beriladigan tegishli sovg'alarni ta'minlashlarini iltimos qildi. Shunda u spiker (janob Norris) va mening nomzodimizni janob Tomas Penn va janob kotib Piterga qo'shib, Pensilvaniya shtatining vakillari sifatida amal qilish uchun ko'rsatdi. Palata nomzodlarimizni ma'qulladi va sovg'alar uchun aytilgan tovarlarni taqdim etdi. Aytish lozimki, ular boshqa odamlarni mintaqalardan tashqarida siylashni yoqtirmas edilar. Biz iyun oyining o'rtalarida Olbanida boshqa vakillar bilan uchrashdik.

Olbaniga borayotganimizda barcha koloniyalarni bitta hukumat ostida birlashtirish rejasining loyihasini tuzdim. Unda asosiy yo'nalish himoya va bosh-

qa umumiy maqsadlarga erishishga qaratilgandi. Nyu-Yorkdan o'tganimizda rejaning loyihasini janob Jeyms Aleksandr va janob Kennediga ko'rsatdim. Bu ikki jentlmen davlat ishlarini juda yaxshi bilishardi. Ularning ma'qullashlaridan dadillashdim va rejani Kongress oldida bayon etishga qaror qildim. Keyinchalik, bir nechta vakillar xuddi shunga o'xshash reja tuzib kelishgani ma'lum bo'ldi. Bundan oldingi – ittifoq tashkil qilish masalasi birinchi navbatda qabul qilindi. Bu masala bo'yicha qaror bir ovozdan ma'qullandi va qabul qilindi. Keyin har bir koloniyadan bittadan vakil saylanib, rejalarni ko'rib chiqish va hisobot berish uchun qo'mita tayinlandi. Mening rejam afzal ko'rib, qator o'zgartirishlar bilan ijobiy hisobot berildi.



Ushbu rejaga binoan, umumiy hukumatni bosh qirollik tomonidan tayinlanadigan va qo'llab-quvvatlanadigan prezident hamda katta kengash boshqarishi nazarda tutilgandi. Katta kengash esa bir necha koloniyalar xalqlarining vakillari tegishli assambleyalarida majlis qilib, saylaydigan organ bo'lishi lozim

edi. Kongressdagi bu reja bo'yicha munozaralar hindular masalalarini muhokama qilish bilan birga, har kuni davom etdi. Ko'plab e'tirozlar va qiyinchiliklar yuzaga keldi, ammo ularning barchasi bartaraf etildi va reja bir ovozdan qabul qilindi. Nusxalari Savdo kengashiga va bir nechta mintaqalarning Assambleyalariga yetkazilishi haqida buyruq berildi. Uning taqdiri g'alati kechdi. Assambleyalar uni qabul qilmadilar, chunki ularning barchasi unda juda ko'p alohida huquqlar bor, deb o'ylashdi. Angliyadagilar esa uni o'ta demokratik xarakterga ega, deb qabul qilishdi. Shuning uchun Savdo kengashi uni ma'qullamadi, qirol janobi oliylariga ham ma'qullash uchun tavsiya qilmadi. O'z navbatida, bunga oqilona javob bera oladigan yana bir reja tuzilgandi. Unda mintaqalar gubernatorlari kengashlarning ba'zi a'zolari bilan uchrashib, qo'shin to'plash, mudofaa inshootlari va h.k.larni qurishga oid buyruq berish huquqiga ega edi. Bunda xarajatlarni qoplash uchun Buyuk Britaniya xazinasidan mablag' olish nazarda tutilgandi. Keyinchalik uni parlament qonuni bilan Amerikaga soliq tayinlash orqali qaytarish nazarda tutilgandi. Mening ushbu rejamni, uni qo'llab-quvvatlovchi sabablarim bilan birga, nashr etilgan siyosiy hujjatlarim orasidan topsa bo'ladi.

Bostonda qish payti edi. Men gubernator Shirli bilan har ikki reja bo'yicha ham ko'p suhbatlashdim. Bu vaqtda ikkimiz oramizda bo'lgan suhbatlarning bir qismi o'sha qog'ozlar orasidan topiladi. Rejamga nisbatan norozilikning turlicha va qarama-qarshi sabablari meni bu, haqiqatan ham, samarali

tashabbus, reja ekanligiga shubha qilishga majbur qildi. Men hali ham ishonamanki, agar u qabul qilinganda edi, muammoning har ikki tomonidagilar uchun ham yaxshi bo'lardi. Buning natijasida birlashgan koloniyalar o'zlarini himoya qilishga qodir darajaga kelardilar. Bu holda Angliyadan qo'shirlarni chaqirishning hojati yo'q edi. Albatta, bundan keyin sodir bo'lgan qonli olishuv keltirib chiqargan holat – Amerikaga soliq qo'yishga urinishning oldi olingan bo'lardi. Ammo bu yangisi emas, tarix davlatlar va shahzodalar xatolariga oid misollarga to'la.

«Odamlar yashaydigan dunyoda atrofingga qara. O'zi uchun yaxshi bo'lgan narsalarni biladigan yoki bila turib, uning ortidan tushadigan odamlar soni juda kam!»

Tasarruflarida shuncha ish bo'lib turib, hokimiyatdagilar odatda yangi loyihalarni ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish tashvishini o'z zimmlariga olmaydilar. Shuning uchun eng yaxshi davlat choralari kamdan-kam hollarda tarixiy donolikdan, aksariyat o'rinlarda tasodif majbur qilgani sababli joriy qilinadi.

Pensilvaniya gubernatori rejani ma'qullashini bildirib, uni Assambleyaga yubordi. Uni juda aniqlik va kuchli mulohaza bilan tuzilgan, deb o'ylashini, shuning uchun Assambleyaning eng yaqin va jiddiy e'tiboriga loyiq deb tavsiya qilishini aytdi. Palata esa rejani qaysi bir a'zosining boshchiligida men u yerda yo'qligimda muhokamaga qo'yibdi. Men buni adolatga mos emas deb o'yladim. Shu tariqa palata rejani unga hech qanday e'tibor bermasdan ma'qullamabdi. Bu esa mening noroziligimni keltirib chiqardi.

## YER-MULK EGALARINING HOKIMLARI BILAN JANJAL

Bu yil Bostonga safarim chog'ida, Nyu-Yorkda u yerga endi Angliyadan kelgan yangi gubernatorimiz janob Morris bilan uchrashdim. Avvaldan bu inson bilan yaqindan tanish edim. U janob Hamiltonning o'rnini egallash uchun qaror olib kelgandi. Yer-mulk egalari borasidagi ko'rsatmalarini bajarish-bajarmaslik holatlari tufayli yuzaga kelgan nizolardan charchagan va iste'foga chiqqan ekan. Janob Morris mendan o'zi ham mana shunday noqulay boshqaruvga tayyorlanishi kerak-kerakmasligini so'radi. Men:

– Yo'q, – dedim. – Sizning boshqaruvingiz, aksincha, juda oson va qulay bo'lishi mumkin. Buning uchun faqat Assambleya bilan nizoga kirishmaslikning uddasidan chiqish lozim.

– Mening aziz do'stim, – dedi u mamnun bo'lib, – nizolardan qochishim uchun qanday maslahat bera olasiz? Mening bahslashishni yaxshi ko'rishimni bilasiz-ku. Chunki bu menga zavq beradigan ishlardan biri. Ammo maslahatingizga nisbatan munosabatimni ko'rsatish uchun sizga va'da beraman, imkon qadar nizolarning oldini olishga harakat qilaman.

Albatta, u asosli tarzda bahslashishni yaxshi ko'rardi. Otashin notiq bo'lib, o'tkir tilli sofist va shuning uchun ham suhbatlarda isbot-dalillar bilan juda ko'p muvaffaqiyat qozonardi. Bunga u bolaligidan o'rgatilgandi. Eshitishimcha, uning otasi kechki ovqatdan keyin o'zi dam olayotgan vaqtda bolalarini

bir-birlari bilan bahslashishga o'rgatar ekan. Menimcha, bu maqbul ish emas. Chunki kuzatuvlarimdan bilamanki, doim bunday bahslashuvchi, zid fikr bildiruvchi va rad etuvchi odamlar odatda omadsiz bo'lishadi. Ular ba'zan g'alaba qozonishadi, ammo o'zlariga nisbatan xayrixohlikka erishmaydilar. Xayrixohlik esa ular uchun ko'proq foyda keltirishi mumkin. Biz xayrlashdik va u Filadelfiyaga, men esa Bostonga ketdik.

Bostondan qaytishda Nyu-Yorkda Assambleyaning qarorlar bo'yicha ovoz berishga oid hujjatlari bilan tanishib chiqdim. Ma'lum bo'ldiki, menga bergan va'dasiga qaramay, u va palata allaqachon katta tortishuvlar jarayonida ekan. U hukumatdan ketgunicha o'rtadagi kurash tinimsiz davom etdi. Bunda mening ham hissam bor edi. Assambleyada o'z o'rnimni egallagach, meni darhol uning nutqlari va xabarlariga javob beradigan har bir qo'mitaga a'zo qilib tayinlashdi. Qo'mitalar hujjat loyihalarini tuzishni doimo menga topshirishardi. Bizning javoblarimiz xuddi uning xat-xabarlari kabi achchiq va ba'zan o'ta haqoratomuz ohangda berilardi. U Assambleya nomidan yozilgan hujjatlarning muallifi men ekanligimdan xabardor edi. Shuning uchun uchrashib qolganimizda, bir-birimizni bo'g'izlab qo'yishdan o'zimizni zo'rg'a tiyardik. Ammo uning tabiati shunday muloyim ediki, oramizdagi shaxsiy kelishmovchiliklar janjal keltirib chiqarmasdi. Kechqurunlari hatto birga ovqatlanardik.

Bir kuni tushdan keyin oshkora janjal yuqori cho'qqisiga chiqqanda, ko'chada uchrashdik.



– Franklin, – dedi u, – men bilan uyga borib, kechqurunni birga o'tkazishingiz kerak. Sizga yoqadigan biror odam bilan suhbatlashishim zarur.

U meni qo'limdan oldi va uyiga olib bordi. Kechki ovqatdan keyin vino ichib, quvnoq suhbat davomida hazillashib, Sancho Panzaning<sup>1</sup> g'oyasi juda yoqqanini aytdi. Unga hukumatni taklif etishganida, u ayni hukumatni qora tanlilardan tashkil etishni so'ragan. Ya'ni agar biror masalada o'z odamlari bilan kelisha olmasa, ularni sotib yuborish mumkin bo'lar edi-da. Yonimda o'tirgan do'stlaridan biri:

– Franklin, nega siz hali ham anavi la'nati kvakerlarning tarafdorisiz? Ularni sotib yuborish yaxshi emasmi? Mulkdorlar sizga yaxshi pul beradi?!

---

<sup>1</sup> Servantesning «Don Kixot» romanidagi Don Kixotning «dumaloq semiz, xudbin va o'ziga bino qo'ygan» eskvayeri.

– Gubernator, – dedim men, – hali ularni yetarlicha qoraytirmagan.

– U, haqiqatan ham, Assambleyani barcha xabarlarida qoralash uchun harakat qilar edi. Ammo ular uning rangini qora rang bilan bo'yagani zahoti tezda yuvib tashlashardi. Shu tariqa o'zining qoralanish ehtimolini bilgach, u ham janob Hamilton kabi oxir-oqibat kurashdan charchadi va hukumatdan iste'foga chiqib ketdi.

Ushbu oshkora janjallarning<sup>1</sup> hammasi mulkdorlar, bizning navbatma-navbat keladigan gubernatorlarimiz dastidan sodir bo'lardi. O'z mintaqalarining mudofaasi uchun xarajat kerak bo'lib qolardi. Bunda, ular vakillaridan zarur soliqlarni undirish haqidagi birorta ham qonunni, o'z katta yerlari bunday soliqlardan aniq ifoda etilgan holda ozod qilinmaguncha, o'tkazmaslikni buyurishar edi. Ular hatto bunday ko'rsatmalarni bajarish uchun o'z vakillaridan yozma majburiyatlar ham olishgan ekan. Oxir-oqibat yon berishga majbur bo'lishsa ham, Assambleyalar bu adolatsizlikka qarshi uch yil davomida kurashishdi. Gubernator Morrisdan keyin gubernator bo'lgan kapitan Denni ayni ko'rsatmalarga bo'ysunmaslikka jur'at etdi. Bunga qanday erishilganini quyida tavsiflab beraman.

Ammo shu yerda hikoya qilishda ancha oldinlab ketibman. Gubernator Morris ma'muriyati davrida amal qilgan va aytib o'tish lozim bo'lgan ba'zi bitimlar hali ham mavjud.

---

<sup>1</sup> Morris davrida harbiy va mening davrimda qonunlar. (Hoshiyadagi yozuv).

Fransiya bilan urush deyarli boshlangan edi. Massachusetts Bey (ko'rfazi) hukumati Kraun Pointda<sup>1</sup> hujum qilishni rejalashtirdi. Ular janob Kvinsini Pensilvaniyaga va keyinchalik gubernator bo'lgan janob Pounallni yordam so'rash uchun Nyu-Yorkka yuborishdi. Assambleyada bo'lganim uchun uning fe'l-atvorini bilardim va janob Kvinsi ikkimiz bir joydan edik. Ta'sirim va yordamimni so'rab, menga murojaat qilardi. Ularga manzilini aytib berdim va bu ma'lumotni mamnunlik bilan qabul qilishdi. Ular o'n ming funt sterling miqdoridagi yordam uchun ovoz berishdi va bu yordam oziq-ovqat mahsulotlari uchun mo'ljallangandi. Ammo gubernator ularning qonun loyihasiga (unga qirollik foydalanishi uchun berilgan boshqa miqdorlar ham kiritilgandi) o'z roziligini bermadi. U yer egalarini zarur bo'lgan har qanday soliqdan ozod qiladigan bandni qo'shishni talab qildi. Assambleya Yangi Angliyaga o'z grantini berishni juda xohlasa-da, uni qanday amalga oshirishni bilmay boshi qotdi. Janob Kvinsi gubernatorning roziligini olish uchun u bilan qattiq ishladi, lekin gubernator o'jarlik qilib turib oldi.

Shunda men bu ishni gubernatorning ishtirokisiz amalga oshirishni taklif qildim. Qonunga ko'ra, Assambleyada qarz beruvchi idora ishonchli vakillarining to'lov orderlari yordamida pulni chiqarish

---

<sup>1</sup> Kraun Point – Champleyn ko'lida, Olbanidan to'qson kilometr shimolda joylashgan. U 1731-yili fransuzlar tomonidan ishg'ol etilgan, 1755 va 1756-yillarda inglizlar unga hujum qilgan va 1759-yilda fransuzlar uni tashlab ketishgan. Nihoyat 1775-yilda amerikaliklar uni inglizlardan tortib olishgan.

huquqi bor edi. O'sha paytda Qarz idorasida, haqiqatan ham, pul kam yoki umuman yo'q bo'lgan. Shuning uchun men to'lov orderlari bir yil ichida va besh foiz ustama bilan to'lanishi kerakligini taklif qildim. Ushbu to'lov orderlari bilan oziq-ovqatni osongina sotib olish mumkin, deb o'yladim. Assambleya ozgina fikrlab, bu taklifni qabul qildi. To'lov orderlari darhol chop etildi va men ularni imzolash hamda tarqatishga tayinlangan qo'mita a'zolaridan biri edim. Ularni moliyalashtirish manbasi o'shanda mintaqada qarz uchun muomalada bo'lgan barcha qog'oz puldan keladigan foizlar va aksizdan kelib chiqadigan daromadni tashkil qilib, keragidan ham ko'proq ekanligi ma'lum edi. Ular tezkor qarz (kredit) olishdi va bu to'lov nafaqat oziq-ovqatlar uchun yetarli bo'ldi, balki bunga qo'shimcha ravishda ko'p sonli naqd puli bor boy odamlar o'sha to'lov orderlariga pul tikdilar. Chunki ular hali qo'lda bo'lganidayoq foiz ishlashni boshlagani uchun buni foydali deb o'ylashgan. Bu to'lov orderlari har qanday holatda ham pul sifatida ishlatilishi mumkin edi. Shu tariqa, orderlarning hammasini juda tez sotib olish boshlandi va bir necha hafta ichida ular sotib tugatildi. Shunday qilib, bu muhim ish men o'ylab topgan yo'l bilan amalga oshirildi. Oz minnatdorchiligini bildirish maqsadida, janob Kvinsi Assambleyaga otashin memorandum yozdi. Uyiga elchi bo'lib kelganida va maqsadiga erishganida xursand bo'lib qaytib ketdi. O'shandan keyin men bilan doimo samimiy va yaqin do'stlik aloqalarida bo'lib yurdi.

## XVI

### BREDDOK EKSPEDITSIYASI

Britaniya hukumati koloniyalarning Olbanida taklif qilingan birlashishiga yo'l qo'ymaslikka qaror qildi. Chunki u yerdagilar o'z mudofaalariga ega bo'lsa, harbiylashib, o'z kuchlariga ishonishlari mumkinligini angladi. O'shanda Britaniya hukumati xayolini shubha va hasad egalladi. Ular muntazam ingliz qo'shinlarining ikki polki bilan general Bred-dokni jo'natishdi. U Virjiniyadagi Aleksandariyaga kelib, langar tashladi. Merilenddagi Frederiktaun tomonga bordi va aravalar topish uchun to'xtadi. Qayerdandir olingan ma'lumotlar asosida Assambleyamiz a'zolari harbiy xizmatga qarshi bo'lganliklari uchun bizga qarshi jiddiy da'volari borligi haqida taxmin qilindi. Mendan Assambleya nomidan emas, balki Bosh pochta boshlig'i sifatida borib u bilan uchrashishni so'rashdi. Bundan maqsad – go'yoki general hamda bir nechta mintaqa gubernatorlari orasida eng tezkor va ishonchli muloqot, yozishmalarni o'rnatishni taklif qilishdan iborat edi. Chunki general ular bilan doimiy yozma muloqot qilishi zarur bo'lar emish. Qolaversa, Assambleya a'zolari xarajatlarni to'lashni ham va'da berishdi. O'g'lim bu safarda menga hamroh bo'ldi.

Biz generalni Frederiktaunda topdik. U Merilend va Virjiniyaning chet mintaqalariga aravalar yig'ish uchun yuborgan odamlarining qaytishini sabrsizlik bilan kutayotgan ekan. Men u bilan bir necha kun qoldim. Har kuni u bilan birga tushlik qil-

dim. Uning Assambleyamizga nisbatan barcha salbiy fikrlarini bartaraf qilish imkoniyatiga ega bo'ldim. Assambleyamiz u yetib borguncha uning ishlariga yordam berish uchun nimalarni amalga oshirganini va hali ham nimalar qilishga tayyorligini so'zlab berdim. Ketmoqchi bo'lganimda olinishi rejalashtirilgan aravalar haqida ma'lumotlar yetib keldi. Ma'lum bo'lishicha, atigi yigirma besh dona arava topishga muvaffaq bo'lishibdi. Boz ustiga, ularning hammasi ham foydalanishga yaroqli holatda emas. General va boshqa barcha zobitlar hayron bo'lishdi va yurishni amalga oshirishning imkoni yo'qligi sababli ekspeditsiya tugadi, deb e'lon qilishdi. Ular o'zlarini oziq-ovqat zaxiralari, bagajlar va h.k.larni tashish vositalarini topishning imkoni yo'q mamlakatga bexabar holda jo'natgan vazirlarni qattiq so'kishdi. Chunki ularga kamida bir yuz ellik dona arava kerak ekan.

Men generalga Pensilvaniyaga borib langar tashlaganlarida yaxshiroq bo'lar edi, degandim. Chunki u mintaqada deyarli har bir dehqonning o'z aravasi bor edi. General mening so'zlarimga qattiq yopishib oldi va dedi:

– Unda siz, ser, manfaatdor bir inson sifatida, ehtimol ularni biz uchun yetkazib berarsiz. Sizdan o'tinib so'rayman, buni o'z zimmangizga oling.

Men aravalarning egalariga qanday shartlar taklif qilinishini so'radim. Zarur bo'lgan shartlarni qog'ozga tushirishni aytishdi. Ularni yozib berdim va general tomoni rozi bo'ldi. Darhol tegishli topshiriq va ko'rsatmalar tayyorlandi. Aravalar yetkazib berish shartlarini Lankasterga kelgan zahoti reklama

e'lonida chop etdim. Odamlarda qandaydir qiziqish uyg'otgani tufayli u juda katta va kutilmagan natija berdi. E'lonning matnini to'laligicha keltiraman:

## E'LON

### **Lankaster, 1755-yil, 26-aprel**

Bugungi kunda qirol janobi oliylarining Uils Krik (Will's Creek) tomonga yurish qilishga shay turgan qo'shini uchun har biriga to'rtta ot qo'shilgan bir yuz ellikta arava zarur. Zoti oliylari general Bredok menga inoyat ko'rsatib, yuqorida ko'rsatilgan aravalarni olish uchun shartnomalar tuzishga vakolat berdilar. Ushbu bilan bugundan boshlab, chorshanba kuni kechqurungacha Lankasterda, keyingi payshanba tongidan juma kuni kechqurungacha Yorkda bo'lishimni e'lon qilaman. U yerda aravalar yoki alohida otlarni quyidagi shartlarda olishni kelishishga tayyor turaman:

1. To'rtta yaxshi ot qo'shilgan va boshqaruvchisi mavjud har bir arava uchun kuniga o'n besh shilling to'lanadi. Har bir yuk tashuvchi otning egari yoki chavandoz egari va boshqa anjomlar bor, salomatligi yaxshi, ish bajara oladigan ot uchun kuniga ikki shilling. Egarsiz, salomatligi yaxshi va ish bajara oladigan har bir ot uchun kuniga o'n sakkiz penni to'lanadi.

2. To'lovni amalga oshirish ularning Uils Krikda turgan qo'shinga yetib borgan paytidan boshlanadi. Bu vaqt 20-may kuni yoki undan oldin bo'lishi kerak. Shuningdek, ularning Uils Krikka borish uchun

safarlariga va uylariga qaytib kelish uchun ketadigan zarur xarajatlarini qoplash maqsadida pul to'lanadi.

3. Har bir arava, jamoa va har bir egarli yoki arava qo'shilgan otning narxi men va ularning egasi bilan birga tanlangan xolis odamlar tomonidan baholanadi. Xizmat davomida biror bir arava, arava boshqaruvchisi yoki ot yo'qolgan (ishdan chiqqan) taqdirda, uning narxi ushbu baholashga ko'ra, belgilanishi va to'lanishi shart.

4. Agar zarur bo'lsa, shartnoma tuzganda, har bir arava, arava jamoasi yoki otning egasiga ularning yetti kunlik haqini oldindan naqd pulda to'layman. To'lovlarning qolgan qismini general Breddok yoki qo'shinning xazinachisi to'laydi. Bu to'lovlar ular xizmatdan ketganda yoki talab qilinganda vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi.

5. Aravalarning boshqaruvchilari yoki yollangan otlarga qaraydigan shaxslar hech qanday holat va vaziyatda askarlarning vazifasini bajarishga chaqirilmaydi. Ular o'z aravalari yoki otlarini boshqarish va parvarishlashdan boshqa ishga jalb qilinmaydi.

6. Aravalar yoki otlar lagerga otlarni boqish uchun ehtiyojdan ortiq tashib olib kelinadigan barcha arpa, jo'xori yoki boshqa yem-xashak qo'shinning foydalanishi uchun olinadi va bunga ish uchun o'rtacha haq to'lanadi.

Eslatma! O'g'lim Uilyam Franklin Kumberlend okrugidagi har qanday shaxs bilan xuddi shunday shartnomalar tuzish huquqiga ega.

**B. Franklin**

## **Lankaster, York va Kumberlend okruglari aholisi diqqatiga!**

Do'stlar va vatandoshlar!

Bir necha kun oldin tasodifan Frederikdagi harbiy lagerga borib qoldim. U yerda general va zobitlarning ushbu mintaqadan kutilgan ot-aravalar kelmayotganidan o'ta g'azabda ekanliklariga guvoh bo'ldim. Chunki bu mintaqalar ot va aravalarni yetkazib berishga imkoniyati eng ko'p, deb hisoblangan edi. Ammo gubernatorimiz va Assambleyamiz o'rtasidagi kelishmovchiliklar tufayli bu ish pul bilan ta'minlanmay qolibdi yoki ayni maqsadda hech qanday choralar ko'rilmabdi.

Ushbu okruglarga zudlik bilan qurolli kuch yuborish, xohlaganicha eng yaxshi arava va otlarni tortib olish, ularni haydash hamda ularga qarash uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha odamni xizmatga majburan safarbar etish taklif qilindi.

Men Britaniya askarlarining shu maqsadda bizning okruglar hududidan o'tishi aholimiz uchun ko'plab noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin, deb o'yladim. Ayniqsa, ularning bugungi kayfiyati va bizdan xafa bo'lganliklarini hisobga oldim. Shuning uchun adolat asosida imkoniyatga ko'ra mavjud vositalar bilan nimadir qilishga urinib ko'rishni lozim topdim. Yaqinda ushbu chekka mintaqalar aholisi Assambleyaga naqd pul yetishmasligi haqida shikoyat qilishgandi. Sizda juda katta miqdordagi naqd pulga ega bo'lish va o'zaro taqsimlab olish imkoniyati paydo bo'ldi. Chunki ushbu ekspedit-

siya xizmati davom etsa, o'ttiz mingdan ko'proq arava va otlarni ijaraga olishiga to'g'ri keladi. Joriy holat ekspeditsiyaning bir yuz yigirma kun davom etish ehtimoli borligini ko'rsatmoqda. Siz ot-arava ijarasi uchun qirolning pullarini kumush va tillada olasiz.

Xizmat yengil va oson bo'ladi, chunki armiya kuniga o'n ikki milyadan kam yuradi. Aravalar va yuk ortilgan otlar armiyaning farovonligi uchun mutlaqo zarur narsalarni tashigani tufayli qo'shin bilan birga yurishlari kerak, undan tezroq emas. Odatda yurishda ham, lagerda ham armiyaning manfaati uchun ular har doim xavfsiz joyga – yo daraxtlar orasiga, yo lagerga joylashtiriladi.

Agar siz, haqiqatan ham, qirol oliy hazratlarining yaxshi va sodiq fuqarolari bo'lsangiz, eng maqbul xizmatni ko'rsatishingiz hamda ishni o'zingiz uchun osonlashtirishingiz mumkin. Yaxshi va sadoqatli fuqarolar ekanligingizga aminman. O'z plantatsiyalaridan arava yoki otlarini alohida ajratib bera olmaydigan uch yoki to'rt nafar kishi birgalashib, bitta arava berishlari ham mumkin. Yana bir yoki ikki kishi bitta ot, boshqalar ularga boshqaruvchi bera olishlari mumkin. Shu tariqa to'lovni ham o'z oralaringizda bo'lib olishga kelishishingiz mumkin. Yaxshi narx va adolatli shartlar taklif qilingan. Shuning uchun qirolingiz va vataningiz uchun bu ishni o'z ixtiyoringiz bilan qilmasangiz, sadoqatingiz qattiq shubha ostiga olinadi. Qirolning topshirig'i bajarilishi shart. Shuncha ko'p sonli jasur qo'shinlar sizning mudofaangiz uchun yo'l bosib kelishgan.

Siz ham adolat qilib, asosli kutilgan narsani qilish uchun qoloqlikka yo'l qo'ymay, harakat qilishingiz, bo'sh turmasligingiz kerak. Aravalar va otlar yetkazib berilishi shart. Aks holda, zo'ravonlik choralari, ehtimol, qo'llaniladi va keyin zararni qoplash uchun qayerga borsangiz, boravering. Ahvolingizga achinadigan yoki uni hisobga oladigan odam topilmaydi.

Bu ishda mening hech qanday manfaatim yo'q. Chunki yaxshilik qilishga intilish zavqidan qoniqishdan tashqari, mening azoblarim uchun badal faqat mehnatim bo'ladi xolos.

Agar aravalar va otlarni olishning ushbu usuli muvaffaqiyatli bo'lmasa, o'n to'rt kun ichida generalga xabar yuborishga majbur bo'laman. Menimcha, gusar<sup>1</sup> ser Jon Serjant Kler bir guruh askarlar bilan shu maqsadda darhol mintaqamizga kiradi. Men buni eshitishdan qattiq afsusda bo'laman xolos, chunki sizlarning eng samimiy va chin do'stingiz hamda xayrixohingizman.

## **B.Franklin**

Men generaldan taxminan sakkiz yuz funt oldim. Bu pul aravalar va h.k.lar egalariga oldindan to'lash uchun mo'ljallangandi. Ammo bu miqdor yetarli emasligi sababli, unga yana ikki yuz funt qo'shdim. Ikki haftadan keyin yuz ellik arava ikki yuz ellik to'qqizta yuk tashuvchi ot bilan birga lagerga qarab yo'l oldi. E'londa biror bir arava yoki ot yo'qotilsa, ishdan chiqsa, o'lsa, amalga oshirilgan

---

<sup>1</sup> Gusar – yengil qurollangan otlq askarlar. Bu o'rinda ushbu turdagi qo'shin mas'uli ma'nosida kelgan.

baholashga muvofiq to'lov va'da qilingan edi. Biroq ularning egalari general Breddokni tanimasliklarini yoki uning va'dasiga qanday ishonish mumkinligini da'vo qilib, mendan amalga oshirish majburiyatini talab qilishdi. Men tegishli ravishda bunday majburiyatni o'z zimmamga oldim.

Bir kuni kechqurun lagerda bo'lganimda, polkovnik Dunbar polkining zobitlari bilan kechki ovqatni tanovul qildim. Polkovnik menga o'z qo'l ostidagilardan tashvishi borligini aytdi. Uning fikriga ko'ra, ular odatda, boy oilalardan emas ekan. Bu mamlakatda juda uzoq masofalar yurishlarida zaxiralar qilishga qurlari yetmas ekan. «Aslida hech narsa topib bo'lmaydigan bu yovvoyi yerlarda bir narsa topishning o'zi amri mahol», – dedi u. Men holatni tushundim va ularga yordam berishga harakat qildim. Ammo unga niyatim haqida hech narsa demadim. Ertasi kuni ertalab Assambleyaning jamoat pullarini tasarruf etadigan qo'mitasiga xat yozdim. Ularga bu zobitlarning ishini ko'rib chiqishni iliqlik bilan so'radim. Xatda ularga zarur narsalar va ichimliklar yuborilishi kerakligini ko'rsatdim. Lagerda yashash tajribasi mavjud, unga nimalar zarurligini biladigan o'g'lim men uchun ro'yxat tuzib berdi va uni xatimga qo'shib qo'ydim. Qo'mita ro'yxatni ma'qulladi. O'g'limning tirishqoqligi va o'ziga xos salohiyati tufayli zaxira mahsulotlari lagerga aravalar yetib borgan kabi tezlikda yetkazildi. Zaxiramiz o'n to'qqiz qopdan iborat bo'lib, har bir qopda quyidagilar bor edi:

1. 6 funt oq-qand.	2. 1 Gloster pishlog'i.
3. 6 funt yaxshi sifatli shakar.	4. 1 bochkacha yaxshi sariyog' (20 funt).
5. 1 funt sifatli ko'k choy.	6. 24 shisha uzoq muddat saqlangan madera vinosi.
7. 1 funt qora Xitoy choyi.	8. 2 gallon Yamayka spirti.
9. 6 funt yaxshi tuyilgan qahva.	10. 1 shisha xantal uni.
11. 6 funt shokolad.	12. 2 ta yaxshi ishlov berilgan dudlangan cho'chqa go'shtining oyoq qismi.
13. 1/2 sentner (Angliyada 1 sentner – 50,8 kg) eng yaxshi oq pechenye.	14. 6 dona quritilgan mol tili.
15. 1/2 funt qalampir.	16. 6 funt guruch.
17. 1 kvarta (1.1365 litr) eng yaxshi oq vino.	18. 6 funt mayiz.
19. 1 kvarta eng yaxshi oq vino sirkasi.	

Ushbu yaxshi qadoqlangan qoplar yigirmata otga ortildi. Har bir otdagi mahsulot bitta zobitga sovg'a sifatida mo'ljallangan edi. Zobitlar sovg'alarni ulkan minnatdorlik bilan qabul qilishdi. Har ikki polkning polkovniklari menga chuqur minnatdorchilik so'z-lari bilan xatlar yuborishdi. General ham u uchun aravalar va boshqa narsalarni topib, yetkazishda ko'rsatgan sa'y-harakatlarimdan juda mamnun edi. Menga tinimsiz tashakkurlar aytib, o'z cho'ntagim-

dan qilgan xarajatlarimni to'lab berdi. Shuningdek, o'zi uchun qo'shimcha zaxiralarni jo'natishda yana yordam ko'rsatishim uchun iltimoslar qildi. Men bu iltimosni ham o'z zimmamga oldim. Uning mag'lubiyatga uchraganini eshitmaguncha bu ishni amalga oshirish bilan band edim. O'z pullarimni sarflab yurgandim. Ming funtdan ancha ko'p pulni oldindan sarf qilgan ekanman. Bu pulning o'rnini qoplashni so'rab, unga hisobot bilan xat yozgan edim, qo'lga yetib boribdi. Baxtinga, bu xat unga o'sha mash'um jangdan bir necha kun oldin yetib borgan. Xazinachiga miqdorni ixchamlashtirib, ming funtni darhol to'lashni buyuribdi. Qolgan pulni keyingi hisobot pullari bilan to'lashni aytibdi. Men bu to'lovni omad deb hisoblayman. Qolgan qismini hech qachon ololmadim. Bu haqda keyinroq yozaman.

Menimcha, general jasur bir odam edi. Ehtimol, ba'zi Yevropa urushida yaxshi zobit sifatida o'zini tanita olishi ham mumkin ko'rinardi. U juda o'ziga ishongan odam bo'lgan. Muntazam qo'shinning yaroqliligi haqida yuqori fikrda edi. Boz ustiga, ham amerikaliklarga, ham hindularga nisbatan juda kibr bilan yuqoridan qarardi. Hindu tillari tarjimonimiz Jorj Krogan uning qo'shiniga yo'lboshchilar, skautlar (razvedkachilar) va boshqalar sifatida katta foyda keltirishi mumkin bo'lgan yuz kishi bilan birga qo'shilgan ekan. Qaniydi, general ularga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lsa. Aksincha, mensimay, e'tibordan chetda qoldirib yurgan va ular asta-sekin generalni tark etishgan.

Bir kuni u men bilan suhbatda rejasidagi ilgari borish taktikasi haqida ma'lumot berayotgandi.

– Fort Dyukesnni olgach,<sup>1</sup> – dedi u, – Niagara tomon yurmoqchiman. Uni egallagach, Frontenakka yo'lga chiqamiz.<sup>2</sup> Albatta, mavsum, ob-havo imkon hamda vaqt bersa. Menimcha, ob-havo yaxshi bo'ladi. Chunki Dyukesnni uzog'i bilan uch yoki to'rt kunda ishg'ol etaman. Keyin Niagaraga borishimga to'sqinlik qiladigan biror narsa ko'rmayapman.

Men uning qo'shinining muvaffaqiyatiga ancha oldin shubha qilgandim. Qo'shinning o'rmonlar va chakalakzorlarni kesib o'tadigan juda tor yo'lda uzun saf bo'lib yurishini tasavvur qildim. Qolaversa, Irokez qabilasi yerlarida bir ming besh yuz askarni o'zida jamlagan Fransiya bo'linmalarining mag'lub bo'lganligi haqida ham o'qigandim. Generalning galdagi yurishi borasida ham menda shubha va qo'rquv paydo bo'ldi. Ammo faqat quyidagini aytishga jur'at etdim:

– Ishonchim komilki, ser, agar siz Dyukesnga uni mudofaa inshootlari bilan mustahkamlashlaridan ancha oldin bu ajoyib qo'shiningizni artilleriya bilan yaxshi qurollantirib, yetib borsangiz, g'alabaga erishiladi. Eshitishimcha, garnizoni uncha kuchli emas, qal'a oz muddat qarshilik ko'rsata oladi xolos. Yurishingizda men xavfsirayotgan yagona to'siq bu hindularning pistirmalaridir. Chunki tinimsiz mashq qilish bilan ular pistirma qo'yish va undan hujum qilish bobida o'ta mohir bo'lib ketishgan. Sizning

---

<sup>1</sup> Dyukesn – hozirgi Pittsburg.


<sup>2</sup> Frontenak – Kingston, Ontario ko'li sharqiy tomonining oxiri.

qo'shinlaringiz uzundan-uzoq to'rt milya bo'ylab cho'zilib ketadi. Bu esa ular qo'shinning qanotlariga kutilmaganda hujum qilishlari uchun imkoniyat demakdir. Arqonday bir necha bo'lakka bo'linib tashlangandan keyin masofa uzoqligi tufayli ular bir-biriga o'z vaqtida yordamga kela olmaydi.

General mening bu masalalardan bexabarligimdan tabassum qildi va dedi:

– Bu yovvoyilar no'noq Amerika militsiyasi uchun dahshatli dushman bo'lishi mumkin. Qirolning muntazam va intizomli qo'shini oldida, ser, ular biror taassurot qoldira olishlari amri mahol.

Men harbiy odam bilan uning kasbiga oid masalalar bo'yicha bahslashish noo'rin ekanligini yaxshi bilardim va boshqa hech nima demadim. Dushman esa men taxmin qilganimdek, uning qo'shiniga nisbatan mavjud ustunlikdan foydalanmabdi. Qo'shinning uzun safda cho'zilib ketgani hujum qilish uchun qulay nishon bo'lsa-da, dushman bu qo'shinning to'qqiz milya masofada safi buzilmasdan o'tishiga imkon beribdi. So'ng ancha to'planib olganidan keyin (Qo'shin daryoni kechib o'tibdi. Unda front qismlari hamma kechib o'tguncha to'xtab turgan) qo'shin o'rmonning oldingi qismlaridan ko'ra ancha ochiq joyiga kelibdi. Aynan shu paytda hindular qo'shinning avangardini daraxt va butalar ortidan qattiq o'qqa tutishni boshlabdi. Bu general uchun dushman o'zining shundoq oldida ekanligining birinchi xabari bo'libdi. Avangardning tartibi buzilgach, general qo'shinini unga yordamga shoshiltiribdi. Bu yordam aravalar, bagaj va qoramollar



orasidan o'tishga uringan holda o'ta chalkashliklar bilan amalga oshirilibdi. Shu payt hujum qanotdan boshlanibdi. Ot ustida bo'lgan zobitlarni osonlik bilan ajratish mumkinligi sababli dushman ularni nishonga olib otishni boshlabdi. Ular tez orada otlardan qulab tushibdilar. Askarlar to'da bo'lib yig'ilib qolibdi. Zobitlardan buyruqlar kelmay qolgach, uchdan ikki qismi otib tashlangunga qadar sarosimaga tushib, tik tura-vergan. Shunda orada vahima ko'tarilgan va hamma tarqoq bo'lib, qochishga tushgan.

Aravakashlar o'z qo'shlaridan bittadan otni chiqarib olib qocha boshlashibdi. Boshqalar ham ulardan o'rnak olishibdi. Shu tariqa aravalar, oziq-ovqat zaxiralari, to'plar va qurol-yarog' dushmanga tashlab ketilibdi. General yarador bo'libdi va uni qiyinchilik bilan olib chiqib ketishibdi. Uning kotibi janob Shirli yonida o'ldirilgan ekan. Sakson olti zobitdan oltmish uchtasi o'ldirilibdi yoki yaralanibdi. Bir ming yuzta askardan yetti yuz o'n to'rt nafari o'ldirilibdi. Bu bir ming yuz kishi

butun qo'shin orasidan tanlab olingan ekan. Boshqalarni polkovnik Dunbar bilan ortda qoldirishibdi. U qurol-yarog', oziq-ovqat va bagajning qolgan og'irroq qismi bilan ularning ortidan yetib borishi lozim bo'lgan. Hech kim taqib qilmagan qochoqlar Dunbarning lageriga yetib kelishibdi. Dunbar ham, uning odamlari ham qochoqlar o'zlari bilan olib kelgan vahima ta'siriga tushibdi. Polkovnikning qo'l ostida endi bir ming yuztadan ortiq odam bor edi. Qolaversa, Breddokni tor-mor qilgan dushman qo'shinining soni hindular va fransuzlar bilan birga, to'rt yuz nafarni tashkil qilardi. Olg'a yurish – boy berilgan shavkatning bir qismini bo'lsa ham tiklash o'rniga, u barcha qurol-yarog', kiyim-kechak va boshqa narsalarni buzib, vayron qilib tashlashni buyuribdi. Buni u yaqindagi qishloqlarga qochishga yordam berishi uchun otlar sonini ko'paytirish, tashish uchun narsalarning miqdorini kamaytirish maqsadida qilgan ekan. U Virjiniya, Merilend va Pensilvaniya gubernatorlari bilan uchrashgan. Ular o'z aholisini himoya qilish uchun undan qo'shinlarini chegaraga joylashtirishini so'rashgan. Ammo u Filadelfiyaga kelgunicha o'zini xavfsizlikda deb o'ylamagan va butun mintaqa bo'ylab shoshilinch yurishini davom ettiribdi. Filadelfiya aholisi uni himoya qilishi mumkin, deb o'ylagan ekan. Bu hodisa biz amerikaliklarda Britaniya muntazam qo'shinlarining qahramonliklari haqidagi yuksak tasavvurlarimiz u qadar asosli emasligi bilan bog'liq shubhalar uyg'otdi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Ushbu ekspeditsiya va mag'lubiyat haqidagi boshqa hisobot hamda ma'lumotlarni Fiskning «Vashington va uning mamlakati» yoki Lojning «Jorj Vashington» (1-jildi) asarlaridan topish mumkin.

O'zlarining birinchi yurishlarida ham ular qirg'oqdan chiqib, aholi punktlari orasidan o'tib borganlar. Aholini talab, oxirgi nonini ham tortib olishgan. Kambag'al oilalarni xonavayron qilishgan. Boz ustiga, odamlar norozilik bildirganda, ularni haqorat qilishgan, tahqirlashgan va hatto qamab qo'yishgan. Bu hodisalar bizni ayni himoyachilar bora-sidagi mo'jizaviy tasavvurlardan xalos qildi. Keyin esa bunday himoyachilar kerakmikan, degan fikrga keldik. 1781-yilda fransuzlar Rod Aylendan Virjiniya tomonga mamlakatimizning aholisi eng zich hududlaridan o'tishgan, masofa yetti yuz milyaga yaqin edi. Fransuz do'stlarimiz o'zlarini qanday tutishgan?! O'shanda aholidan bitta ham cho'chqa, tovuq, hatto bir dona olmaning yo'qolgani haqida arz, shikoyat kelib tushmagan edi!

Generalning adyutantlaridan biri kapitan Orme og'ir yaralangan bo'lib, general bilan birga jangdan olib chiqilgandi. U bir necha kundan keyin vafot etdi. Birinchi kuni kapitan bir og'iz ham gap ayt-mabdi. Faqat kechasi: «Kim ham bunday bo'ladi deb o'ylabdi deysan?» debdi xolos. Ertasi kuni u yana kuni bilan jim yotib, faqat oxirida: «Boshqa safar ular bilan qanday ish tutishni yaxshiroq bilamiz», debdi va bir necha daqiqadan so'ng jon beribdi.

Kotibning hujjatlari generalning barcha buyruqlari, ko'rsatmalari va yozishmalari bilan dushman qo'lga tushgan. Ular bir necha maqola, hujjatni tanlab olib, fransuz tiliga tarjima qilishgan va nashr etishgan. Maqsadlari – urush e'lon qilishdan oldin Britaniya qiroli saroyining dushmanlik kayfiyatini isbotlashdan

iborat bo'lgan. Ular orasida men generalning vazirlikka yozgan ba'zi xatlarini ko'rdim. Ularda mening qo'shinlar uchun ko'rsatgan buyuk xizmatlarim haqida ijobiy fikrlar bildirilgan va nomzodim ularning e'tiboriga tavsiya qilingan. David Hyum<sup>1</sup> bir necha yil o'tgandan keyin lord Hertfortning va keyinchalik general Konveyning kotibi, yana davlat kotibi bo'lib ham ishlagan. U menga Davlat Departamentidagi qog'ozlar orasida general Breddokning meni ko'p maqtab yozgan xatlarini ko'rganini aytgandi. Ammo harbiy ekspeditsiya halokatga uchraganligi sababli mening xizmatimni unchalik katta ahamiyatga ega emas, deb hisoblashgan. Chunki generalning tavsiyalari men uchun hech qachon biror naf keltirmadi.

Generalning o'zidan mukofot sifatida faqat bir narsani, o'z zobitlariga bizning xizmatkorlarimizni boshqa xizmatga yollamaslik va allaqachon yollanganlarni esa xizmatdan bo'shatishni iltimos qildim. U iltimosimni mamnunlik bilan bajardi. Iltimosimga binoan, bir necha xizmatkorlar, haqiqatan ham, xo'jayinlariga qaytarildi. Polkovnik Dunbarga bu buyruq yetib borganda, u o'zini bunchalik oliyjanob ko'rsatmadi. U ketganida, to'g'rirog'i, qochib ketganida Filadelfiyaga kelib joylashgan edi. Undan Lankasterdagi uch nafar kambag'al fermerning o'zi xizmatga yollagan xizmatkorlarini ozod qilishni so'rab, ariza yozdim. O'z xatimda olamdan o'tgan generalning yaqinda bu borada bergan buyruqlarini ham eslatib o'tdim. U menga Nyu-Yorkka yurishida bir necha

---

<sup>1</sup> David Hyum – mashhur shotlandiyalik faylasuf va tarixchi (1711–1776).

kun ichida Trentonga yetib borishi haqida xabar berdi. Agar xizmatkorlarning xo'jayinlari Trentonga kelsalar, ularga o'z odamlarini topshirishini va'da qildi. Shunga ko'ra, ular pul sarflab, qiyinchilik bilan Trentonga yetib borishibdi. Ammo polkovnik o'z va'dasini bajarishdan bosh tortibdi. Ular ancha zarar ko'rib, ko'ngillari cho'kib, qaytib ketishibdi.

Ot-aravalarning yo'qolganligi va nobud bo'lganligi hammaga ma'lum bo'lgach, ularning egalari mening oldimga pul talab qilib kelishdi. Chunki men ular oldida yo'qotishlarning o'rnini qoplash uchun pul to'lash majburiyatini olgandim. Ularning talablari menga katta muammolar tug'dirdi. Men ularga pul xazinachining qo'lida tayyor ekanligini aytdim. Lekin uni to'lash uchun buyurtmalarni avval general Shirli dan olish kerak edi.<sup>1</sup> Men ularni o'sha generalga xat orqali murojaat qilganimga ham ishontirdim. Ammo u ancha uzoqda bo'lganligi sababli javob tez kelmasligini aytdim va sabr-toqatli bo'lishlarini so'radim. Bu gaplarning barchasi ularni ko'ndirish uchun yetarli bo'lmadi. Ba'zilari meni sudga berishni boshladilar. General Shirli da'volarni tekshirish uchun komissarlar tayinladi va zararni qoplashga buyruq berdi. Bu bilan meni dahshatli vaziyatdan qutqardi. To'lov miqdori yigirma ming funtga yaqin pulni tashkil etdi. Buncha pul meni xonavayron qilishi tayin edi.

Ushbu mag'lubiyat haqidagi yangiliklarni eshittishimizdan oldin, doktor Bondlar mening oldim-

---

<sup>1</sup> Massachusetts gubernatori va Amerikadagi Britaniya qo'shinlari qo'mondoni.

ga kelishdi. Ular Dyukesn portining ishg'ol qilinishi bayrami munosabati bilan ulkan mushakbozlik tashkil qilmoqchi ekanlar. Buning uchun ular pul to'plash bilan bog'liq qog'ozlarini ko'rsatishdi. Men xo'mrayib o'tirdim va:

– Bayram qilish uchun sabab va xabar olganimizdan keyin ham mushakbozlikka tayyorgarlik ko'rishga yetarli vaqtimiz bo'ladi, – dedim.

Gaplarim ularni hayron qoldirganday bo'ldi. Ular mening taklifimni darhol qo'llab-quvvatlashmadi.

– Nega endi, jin ursin!? – dedi ulardan biri, – sizning port ishg'ol qilinishiga ishonchingiz komil emasmi?

– Uning ishg'ol qilinishi yo qilinmasligini bilmayman. Ammo urush voqealarining kechishida katta noaniqliklar yuzaga kelishini bilaman.

Men ularga shubhalarimning sabablarini aytib berdim. Pul to'plash uchun obuna ishi bekor qilindi. Bu uni tashkil etgan odamlarni mushakbozlikni tayyorlab qo'yib, mag'lubiyat sababli amalga oshmaganida afsus qilishdan qutqardi. Doktor Bond keyinchalik boshqa bir uchrashuvda kaminaning bashoratlarini yoqtirmasligini aytibdi.

Breddokning mag'lubiyatidan oldin gubernator Morris Assambleyani doimiy ravishda xat ketidan xat yozib, bezovta qilib yurgandi. Bundan maqsad – mintaqani himoya qilish uchun pul yig'ish to'g'risidagi qonunlarni qabul qilishga majbur qilishdan iborat edi. Uning asosiy murodi boshqalar qatori, yer-mulk egalarini ham soliqlardan ozod qilish bo'lgan. Gubernator Assambleyaning bunday soliqdan

ozod qilish bandi nazarda tutilmagan ko'p qonunlarini imzolashdan bosh tortib kelgan. Endi esa xavf va zaruratning ko'lami ortganligi sababli muvaffaqiyatga erishishga umidi ko'proq bo'lganligini anglab, hujumlarini ikki barobar oshirdi. Biroq Assambleya o'z qarorlarida sobit edi, chunki adolat ular tarafida ekanligiga ishonardi. Assambleyadagilar, pul bilan bog'liq qonun hujjatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilsa, o'zlarining muhim huquqlarini yo'qotishlari mumkinligini bilishar edi. Haqiqatan ham, ellik ming funt sterling grant berish nazarda tutilgan oxirgi qonun hujjatlaridan birida gubernator taklif etgan tuzatish faqat bir so'zdan iborat edi. Qonun loyihasi «Barcha real va shaxsiy mulk turlari soliqqa tortilishi shart va yer egalarining mulklari ham bundan mustasno emas» matni bilan ifodalangan edi. Gubernatorning tuzatishi esa o'sha «emas» so'zini olib tashlashdan iborat bo'ldi. Bu, albatta, kichik, ammo jiddiy o'zgarish edi. Biroq halokat haqidagi xabar Angliyaga yetib bordi. U yerdagi do'stlarimizga gubernatorning xabar va xatlariga Assambleya bergan barcha javoblarni yetkazib bergandik. O'sha kishilar yer-mulk egalarining gubernatorga bunday ko'rsatmalar berganliklari bilan bog'liq pastkashlik va adolatsizlikka nisbatan norozi bo'lib, shovqin ko'tarishgan. Ba'zilar hatto «bu mintaqa mudofaaga oid huquqini yo'qotdi. Shuning uchun uni mudofaa qilishdan bosh tortish kerak», degan fikrni ham bildirishibdi. Ular bundan qo'rqib ketishibdi va shu maqsadda Assambleya tomonidan berilishi mumkin bo'lgan har qanday miqdorga yana besh ming funt pul qo'shish to'g'risida buyruqlar yuborishibdi.

Bu miqdor, Assambleyani xabardor qilgan holda, ularning umumiy soliq badallari o'rniga qabul qilindi. So'ng ularni soliqdan ozod qilish bandi kiritilgan qonun loyihasi tuzilib, tegishli ravishda tasdiqlandi. Ushbu qonun hujjati bilan meni oltmish ming funt sterling pulni tasarruf etish bo'yicha tuzilgan komissiyaning a'zosi qilib tayinlashdi. Men qonun loyihasini ishlab chiqish va uning tasdiqlanishini ta'minlashda faol ishtirok etgandim. Ammo bir vaqtning o'zida ixtiyoriy militsiyani tashkil etish va intizomga solish to'g'risidagi qonun loyihasini ham ishlab chiqdim. Uni palatada ko'p qiyinchiliklarga duch kelmagan holda, tasdiqlata oldim. Chunki unda kva-kerlarga erkin tanlov huquqini qoldirish nazarda tutilgandi. Militsiyani shakllantirishda muhim hisoblangan birlashish va jipslikni targ'ib qiladigan dialog yozdim.<sup>1</sup> Unda bunday militsiya haqidagi xayolimga kelgan qarshi fikrlarni bayon etib, ularga javoblar berdim. Dialog nashr etildi va menimcha, odamlarga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

## XVII

### FRANKLINNING CHEGARANI HIMOYA QILISHI

Shaharda va mintaqalarda bir necha kompaniyalar ta'sis etilib, ular o'z mashqlarini davom ettirayotgandi. Gubernator meni shimoli-g'arbiy chegaraga mas'ul bo'lishga ko'ndirdi, chunki dushman bu che-

---

<sup>1</sup> Ushbu dialog va «Militsiya to'g'risidagi qonun» «Gentlemen's Journal» nashrining 1756-yil fevral va mart oylari sonlarida e'lon qilingan. («Hoshiyadagi yozuvlar»dan).

garaga tahdid solayotgandi. Mening vazifam aholi mudofaasi uchun qo'shinlar tayyorlash va bir qator mudofaa portlari qurilishini ta'minlashdan iborat edi. Garchi, o'zimni buning uchun malakali hisoblamasam-da, bu harbiy vazifani o'z zimmamga oldim. U menga to'liq vakolatlar bilan lavozim berdi. Gubernator zobitlarni tayinlash uchun bo'sh blankdan iborat varaqalar paketini qo'limga tutdi. Kimni loyiq va mos deb topsam, o'sha odamlarni zobitlikka qabul qilishim mumkin edi. Men odamlarni askarlikka o'rgatib, jangga tayyorlashda ko'p qiyinchiliklarga duch kelmadim. Tez orada qo'l ostimda besh yuz oltmish kishi xizmat qilishni boshladi. Oldingi urushda Kanadaga qarshi kurash uchun tayyorlangan qo'shinda zobit bo'lgan o'g'lim mening adyutantim edi va uning ko'p foydasi tegdi. Hindular Gnadenhutni va Moraviylar yashaydigan qishloqni yoqib, aholisini qirib yuborishdi. Bu joy portlardan biri uchun qulay, deb hisoblangan.

Ushbu yerga yurish uchun rotalarni o'sha odamlar yashaydigan asosiy joy bo'lgan Betlehemda joylashedim. Ayni hududning mudofaa uchun juda qulay ekanligidan hayron bo'ldim. Gnadenhutning vayron qilinishi odamlarning xavfdan doimiy xavotirlanishiga olib kelgan. Asosiy binolar qal'a devori bilan himoya qilingan edi. Ular Nyu-Yorkdan ko'plab qurol-yarog' va o'q-dorilar sotib olishgandi. Hattoki baland tosh uylarining derazalari orasiga yo'lga yotqiziladigan mayda toshlarni qo'yib chiqishgan ekan. Bu toshlar hindular ichkariga kirishga uringanda, ayollar ularing boshlariga otishlari uchun mo'ljallan-

gan ekan. Qurollangan birodarlar ham har qanday garnizon shahrida bo'lgani kabi qorovullik postida navbat o'tashardi. Yepiskop Spangenberg bilan suhbatda bundan ajablanganimni aytdim, chunki ular koloniyalarida harbiy vazifalarni bajarishdan ozod etish uchun Parlament qonunini asos sifatida olishganini bilardim. Shuning uchun ular qurol ko'tarib yurishga vijdonan munosabatda ekanlar, deb taxmin qildim. Gapimga javoban yepiskop bu ularning o'rnatilgan tamoyillaridan emasligini so'zlab berdi. Balki ular o'sha qonuniy hujjatni qo'lga kiritganlarida, bu ularning ko'p odamlari uchun asosiy tamoyil bo'ladi, deb hisoblangandir. Biroq bugungi vaziyatda, ular o'zlari ham hayron bo'lib, bu qonun hujjati talablarini o'z oralaridan juda ozchilik qabul qilganini tushunishgan. Go'yoki, ular o'zlari yoki Parlamentni aldashganday tuyulardi. Ammo ba'zan sog'lom fikrlar mavjud xavf-xatar ta'sirida qo'llab-quvvatlanib, injiq fikrlardan ustun keladi.

Yanvar oyining boshida portlar qurilishini boshlab yubordik. Men bitta otryadni Minisink tomon yubordim. Ularga mintaqaning yuqori qismi mudofaasi uchun port qurish vazifasini qo'ydim. Yana bir otryadni xuddi shunday topshiriq bilan mintaqaning quyi qismiga yubordim. Kuchlarimizning qolgan tarkibi bilan Gnadenhutga borishga qaror qildim. U yerda portni zudlik bilan qurish zarur edi. Moraviylar menga asboblارimiz, qurol-yarog'larimiz, yuklarimiz va h.k.lar uchun beshta arava berishdi.


Betlehemdan chiqishimizdan oldin hindular plantatsiyalaridan quvib yuborgan o'n bir fermer menga

murojaat qilishdi. Ular yerlariga qaytib borib, mol-larini olib ketishlari uchun miltiq berishni iltimos qilishdi. Men ularning har biriga miltiq va tegish-li o'q-dorilar berdim. Ko'p yurmasimizdan yomg'ir boshlandi va kuni bo'yi yog'ishda davom etdi. Yo'l bo'ylab bizga boshpana bo'lishi mumkin bo'lgan turar joy yo'q edi. Qaysi bir nemis odamning uyiga yetib kelganimizda tun og'ib qolgandi. Hammamiz uning uyi va omborida jiqqa ho'l holimizda yig'ilib o'tirdik. Yo'lda bizga hech kim hujum qilmagani yaxshi bo'ldi. Chunki qo'limizdagi qurollarimiz eng oddiylaridan edi. Erkaklarimiz miltiqning zatvor va chaqmoqtoshlarini<sup>1</sup> quruq saqlay olmasdilar. Hindu-lar bu borada ancha mohir, bizning odamlarda esa bunday mahorat yo'q edi. Ular o'sha kuni yuqorida aytib o'tilgan o'n bitta kambag'al fermerni uchra-tishibdi va ulardan o'ntasini o'ldirishibdi. Qochib omon qolgan kishi o'zi va hamrohlarining qurolla-ri o'q otmaganligi, chunki chaqmoqtosh yomg'irda ho'l bo'lib qolganini aytib berdi.

Ertasi kuni quyosh chiqdi. Biz yurishimizni da-vom ettirdik va bo'shab qolgan Gnadenhutga kel-dik. Yaqin orada yog'och kesadigan ustaxona bor ekan. U yerda bir necha uyum kesilgan yog'ochlar yotardi. Biz tezlik bilan ulardan uychalar yasab ol-dik. Bunday yomg'ir mavsumida eng zarur narsa boshpana bo'lib, chodirlarimiz yo'q edi. O'sha yerda topilgan murdalarni o'z tamoyiliga ko'ra dafn etish

---

<sup>1</sup> Porox-chaqmoqtoshli miltiqlar – chaqmoqtosh va temir bilan ochiq mushtukdagi poroxga urib chiqariladigan uchqun yordamida o't ochadigan miltiqlar.



birinchi ishimiz bo'ldi. Mahalliy aholi ularni yerga chala-chulpa ko'mib tashlagan ekan.

Ertasi kuni portimizning rejasi tuzildi va yerga belgilar qo'yib chiqildi. Tashqi doira to'rt yuz ellik besh futni tashkil etdi. Bu diametri bir futli daraxtlardan yog'ochlar kesib, ularni bir-birining yoniga tik o'rnatish va shuncha uzunlikdagi yog'och devor qurishni anglatardi. Yetmish dona boltamiz bor edi. Ular bilan darhol daraxtlarni kesishni boshlab yubordik. Erkaklarimiz boltadan foydalanishda epchil edilar. Tez orada kerakli yog'och miqdori tayyorlandi. Daraxtlarning juda tez qulayotganini ko'rib, ikki kishi bir qarag'ayni kesishni boshlaganda soatimga qarab turdim. Men uchun ularning kesishga ketadigan vaqtini bilish qiziq edi. Uni olti daqiqada yerga qulatisdi va men uning diametrini o'lchadim: o'n to'rt dyum ekan. Har bir qarag'ay daraxtidan o'n sakkiz fut uzunlikdagi, bir uchi o'tkirlangan uchtdan devor-qoziq chiqdi. Bular tayyorlanayotganda

boshqa odamlarimiz devor-qoziqlar uchun butun port atrofi bo'ylab, uch fut chuqurlikda xandaq qazishdi. Aravalarimizning ustki qismi olib tashlandi. Orqa va old g'ildiraklarni, o'rindiqlarning ikki tomonini birlashtirib turgan o'qni olib tashlab, bir-biridan ajratdik.<sup>1</sup> Shunda devor-qoziqlarni o'rmondan kerakli joyiga olib kelish uchun har biriga ikkita ot qo'shilgan o'nta arava paydo bo'ldi. Devor-qoziqlar tayyor bo'lganda, duradgorlarimiz butun devor chizig'ining ichki tomonida yog'ochdan taxminan olti fut balandlikda yo'lak yasab chiqdilar. Bu yo'lak uning ustida odamlarimiz yurib, shinak<sup>2</sup>dan o'q otishlari uchun qurildi. Bizda bitta aylanadigan to'p bor edi, uni burchaklardan biriga o'rnatdik. Hindularga bizda shunday qurollar borligini bildirish uchun o'rnatilgan zahoti undan o'q otdik. Yaqin masofada bo'lishsa, eshitishar edi-da. Kunora kuchli yomg'irlar yog'ar va odamlarimiz ko'chada ishlay olishmas edi. Shunday sharoitlarda, portimiz (agar shunday chala-chulpa qilingan mudofaa inshootlari bor joyga shunaqa nom berib bo'lsa) bir hafta ichida tayyor bo'ldi.

Portdagi ishlarda bir narsani tushundim. Odamlar ish bilan band bo'lsa, kayfiyatlari ham yaxshi bo'lar ekan. Chunki ishlagan kunlari ularning xulqlari yaxshi va ijobiy kayfiyatda bo'lardi. Kuni bilan yaxshi ish qilganlarini tushunib, kechqurunlari ham quvnoq kayfiyatda bo'lardilar. Ishsiz qolgan kunlarimizda esa

<sup>1</sup> Aravaning old va orqa g'ildiraklarini bog'lovchi o'q.

<sup>2</sup> Shinak – shahar, qal'a, qo'rg'on kabilar devoridan dushmanni kuzatish va otish uchun qilingan maxsus tuynukcha.

odamlar xomush va janjalkash holda kelardi. Hatto cho'chqa go'shti, non va boshqa narsalardan kamchilik qidirishga tushib ketardilar. Hazilni umuman tushunmasdilar. Bu holat menga odamlarni tinimsiz ish bilan band qilishni odat qilgan bir dengiz kemasi kapitanini eslatdi. Birda, kapitan yordamchisi odamlar hamma ishni tugatishgani, qiladigan boshqa hech narsa qolmaganini aytganida: «Iye, unda langarni qirib tozalashga buyuring», degan ekan.

Anchagina sifatsiz qurilgan bo'lsa ham, bunday port hindularga qarshi yaxshigina mudofaa, chunki ularda to'p yo'q edi. Endi portga xavfsiz tarzda joylashib oldik. Bu yer, kezi kelganda, chekinish uchun joy ham edi. Atrofdagi hududlarni tozalash uchun otryadlarga bo'linib oldik. Biz hindularni uchratmadik. Ammo qo'shni tepaliklarda ular bizning ishimizni kuzatish uchun yotgan joylarni topdik. Ularning bu joylarni obodonlashtirishdagi mahoratlari tahsinga loyiq. Qish vaqti bo'lgani sababli ularga olov kerak edi. Ammo yuzada yoqilgan gulxan tutuni va yorug'ligi bilan bu joyni uzoqdan ko'rsatib, oshkor etgan bo'lardi. Shuning uchun ular yerda diametri taxminan uch fut va biroz chuqurroq o'ra qazishgan ekan. O'rmonda biz ularning tomohovk<sup>1</sup> boltalari bilan kuydirilgan yog'ochlarning yon tomonlaridan yog'och ko'mirni kesib olgan joylarini ko'rdik. Bu ko'mir bilan ular o'ralarning pastki qismida kichik gulxanlar yoqishgan. U yerda begona o'tlar va butalar orasida tanalarining izlari qolgan joylarni topdik.

---

<sup>1</sup> Tomohovk – (inglizchada «tomohawk») Shimoliy Amerika qizil tanlilari tomonidan urushda qo'llanilgan bolta.

Ular o'ralar atrofida yotib, oyoqlarini ularga tushirib, issiqda jon saqlashar ekan. Oyoqlarni issiqda tutish ular uchun muhimligi ma'lum. Bu tarzda yoqilgan gulxan ularni oshkor qilmaydi. Na yorug'ligi, na olovi, na uchqunlari yoki tutuni ko'rinadi. Aftidan, ular uncha ko'p sonli bo'lmagan. Qolaversa, ular bizning ko'p sonli ekanligimizni ko'rishgan va bizga hujum qilishga jur'at qilishmagan, chunki muvaffaqiyatga umid qilishmagan.

Otashin presviter yepiskopi janob Bitti bizning kapellan'imiz edi. Bitti erkaklar uning ibodatleri va nasihatlariga umuman kelmasliklaridan shikoyat qildi. Erkaklarni xizmatga qabul qilishda, maosh va oziq-ovqatdan tashqari, kuniga chorak pinta rom ham va'da qilingan edi. Uni har kuni o'z vaqtida quyib berib turishardi. Yarmi ertalab, qolgan yarmi esa kechqurun. Men odamlarning romni olishga o'z vaqtida kelishlarini kuzatdim. Shu asnoda janob Bittiga: «Balki romni quyib beruvchi sifatida amal qilish kasbingiz sha'niga mos kelmaydigan ishdir. Ammo siz uni faqat ibodatlardan keyingina quyib berish shartini qo'ysangiz, ularning barchasi sizga ergashishiga aminman», dedim. Kapellanga bu fikr ma'qul keldi. Suyuqlikni kerakligicha quyib berishni o'rganish uchun bir necha marta mashq qilgach, aytilgan vazifani o'z zimmasiga oldi. Shundan keyin ibodatlarga doimo hamma o'z vaqtida keladigan bo'ldi. Men bu usulni Xudo yo'lida ibodatlarga kel-

---

<sup>1</sup> Kapellan – katolik va anglikan oqimida ayrim tabaqaga mansub kishilarning ibodati uchun mo'ljallangan, asosan, ibodatxona, saroy va qasrlar yonida joylashgan kichik butxona xodimi.

maganlik uchun ba'zi harbiy qonunlarda nazarda tutilganday jazo berishning o'rnida qo'llashni afzalroq, deb o'yladim.

Gubernatordan xat olganimda, bu ishni qariyb tugatib bo'lgandim va portimizni oziq-ovqat zaxiralari bilan yaxshigina ta'minlay olgandim. Xatda Assambleyaga borganini tasvirlab beribdi. Agar chegaradagi ishlar mening ishtirokimsiz ham silliq davom ettirilishi mumkin bo'lsa, mening Assambleyada bo'lishimni iltimos qilibdi. Assambleyadagi do'stlarim ham, iloji bo'lsa, o'z maktublarida meni majlisda ishtirok etishimni so'rab, bosim o'tkazayotgan edilar. Bu vaqtga kelib, rejalashtirilgan uchta portni qurib bitirgandik. Mahalliy aholi vakillari o'sha portlar himoyasida o'z fermalarida qolib ishlashni ma'qul ko'rishgandi. Shunda men uyga qaytishga qaror qildim. Bu safar uyga qaytishimdan juda mamnun edim. Chunki hindular bilan urushda tajribasi bor, Yangi Angliya zobiti polkovnik Klephem qarorgohimizga mehmonga kelgan edi. U qo'mondonlikni qabul qilishga rozi bo'ldi. Men unga vakolatlar berdim va garnizonni saf torttirdim. Saf oldida uning vakolatlarini o'qib berdim. Uni harbiy ishlardagi mahorati sababli o'zimdan ko'ra, buyruq berishga ko'proq vakolati va mahorati bor zobit sifatida tanishtirdim. Ularga ozgina nasihat berib, yo'lga chiqdim. Meni Betelhemgacha kuzatib qo'yishdi. U yerda uzoq vaqtdan beri to'plangan charchoqni yozish uchun bir necha kun dam oldim. Birinchi kecha yaxshi to'shakda yotib, deyarli uxlay olmadim. To'shak Gnadenhutdagi kulbamizda yerga to'shalgan, bir

yoki ikki adyol bilan o'ralgan qattiq to'shakdan farq qilardi.

Betelhemda bo'lganimda, Moraviylarning yashash tarzi haqida biroz so'rab-surishtirdim: ulardan ba'zilari menga hamroh bo'lishdi va hammalari men bilan o'ta mulozamatli edilar. Ularning mehnat mahsulotlarini umumiy omborga topshirishlari, bitta dasturxon atrofida ovqatlanishlari va bir xonada ko'pchilik bo'lib yotishlarini bilib oldim. Yotoqxonalarda shinaklar borligini ko'rdim. Ular shift ost qismi bo'ylab muayyan masofada qilingandi. Dastlab, ular havoni almashtirish uchun oqilona bajarilgan deb o'yladim. Ularning cherkovida esa yaxshi musiqadan zavq oldim. Organga g'ijjaklar, goboylar, fleytalar, klarnetlar va h.k.lar jo'r bo'lib kuylardi. Men ularning bizdagi odat kabi erkaklar, ayollar va bolalardan iborat aralash jamoatlarga va'z qilmasliklarini tushundim. Balki ular ba'zan turmush qurgan erkaklarni, boshqa paytlarda ularning xotinlarini, keyin yigitlarni, yosh ayol-qizlarni, kichik bolalarni, ya'ni odamlarning alohida qatlamlarini alohida guruhlagan holda, va'z o'qishar ekan. Men yosh bolalar uchun o'qilgan va'zni tingladim. Bolalar kirib kelishdi va ularni o'rindiqlarga qator-qator qilib o'tirg'izishdi. Bolalar o'z tarbiyachilari – yosh bir yigit va qizlar – yosh bir juvon rahbarligida kelgan edilar. Nutqning mazmuni ularning aqliy imkoniyatlariga oqilona moslashtirilgandi. Va'z ularga yoqimli, do'stona, samimiy ruhda, yaxshilikka undash ohangida yetkazilar ekan. Bolalar o'zlarini juda tartibli tutishardi. Ammo ko'rinishlari rangpar va nosog'lom edi. Bu holatni

ko'rib, ular odatda uydan ko'chaga chiqarilmasligi yoki jismoniy harakatlarning yetishmasligidan bo'lsa kerak, degan fikrga bordim.

Men Moraviylar xalqi orasida nikoh qanday tuzilishi bilan qiziqdim. Chunki nikohlar qur'a tashlash asosida qurilishi haqidagi gaplarning to'g'ri-noto'g'riligini aniqlamoqchi edim. Menga qur'alar faqat alohida holatlarda qo'llanishini aytishdi. Odatda esa biror yigit uylanishga tayyor bo'lsa, o'z qabilasining oqsoqollariga xabar berar ekan. Ular yosh ayol-qizlarga rahbarlik qiladigan yoshi ulug' ayollar bilan maslahatlashishar ekan. Turli jinsga mansub bu yoshi ulug' odamlar o'z tarbiyalanuvchilari, o'quvchilarining xulq-atvori va moyilliklarini yaxshi bilarkanlar. Shu sababli ular qaysi yigit qaysi qiz bilan nikoh uchun o'zaro mos kelishi haqida eng to'g'ri takliflarni bera olishar ekan. Ularning fikrlarini odatda barcha e'tirozlarsiz qabul qilar ekan. Ammo, masalan, ikki yoki uch nafar yosh ayol-qiz teng darajada biror yigit uchun munosib deb topilgan bo'lsagina qur'a tashlanishi mumkin bo'larkan. Men e'tiroz bildirdim:

– Agar kimning kimga nikoh qilish uchun mosligi haqidagi qaror tomonlarning o'zaro tanlovi asosida aniqlanmasa, ularning ba'zilar juda baxtsiz bo'lishlari mumkin.

Menga bu xabarlarini aytib bergan kishi:

– Agar tomonlarning o'zlari tanlov qilishiga qo'yib bersangiz ham, xuddi shu kabi ko'pchiligi baxtsiz bo'lishi mumkin-ku, – dedi. Bu fikrni ham, umuman olganda, inkor qila olmadim.

Filadelfiyaga qaytib kelganimda uyushmaning ishlari juda silliq, risoladagidek ketayotganiga guvoh bo'ldim. Aholining kvakerlarga mansub bo'lmagan qismining anchasi unga a'zo bo'lishibdi. O'zlari rotalar ta'sis qilishibdi. Yangi qonunga muvofiq ravishda o'z kapitanlari, leytenantlari va o'z emblemalarini tanlabdilar. Doktor B. mening oldimga keldi. Qonunni odamlar orasida faol targ'ib qilishdagi og'ir mehnatlari haqida hisobot berdi. Aftidan, u o'z sa'y-harakatlariga yuqori e'tibor va baho berar ekan. Shuhratparastligim tufayli buning hammasi mening «Dialog» nomli maqolamning sharofati deb o'ylardim. Shunga qaramay, doktorning haq tomonda ekanligini bilmasligim uchun, unga o'z fikrini aytishga imkon berdim. Chunki bunday hollarda quloq solish eng yaxshi ish deb o'ylayman. Zobitlar uchrashib, meni polkning polkovnigi sifatida tanladilar. Bu safar taklifni qabul qildim. Bizda o'shanda nechta rota borligini unutibman. Qarasam, bir ming ikki yuz nafarga yaqin gavdali, qomati kelishgan erkaklarni artilleriya rotasi bilan birga paraddan o'tkazdik. Artilleriya rotasida oltita dala to'pi bor edi. Rota askarlari ulardan foydalanish bo'yicha zo'r mutaxassislar bo'lib yetishishibdi. Bir daqiqada o'n ikki marta to'p otish darajasiga chiqishibdi. Polkni birinchi marta ko'rikdan o'tkazganimdan keyin to'pchilar men bilan uyimgacha birga kelishdi. Eshigim oldida bir necha marta to'p otib, salyut berishdi. Bu elektr apparatimning bir necha shisha qismlarini titratib, sindirib yubordi. Ko'p o'tmay mening yangi harbiy unvonim o'sha shisha qismlarday mo'rt ekanligi is-

botlandi. Bundan ko'p o'tmay Angliyada bu qonun bekor qilingach, bizning barcha unvon hamda vakolatlarimiz ham yo'qqa chiqdi.

Men polkovnik unvonida yurgan o'sha oz vaqt davomida Virjiniyaga safarga chiqishni rejalashtirdik. Polkimiz zobitlari menga shahar tashqarisiga, Louer Ferriga (Lower Ferry) borgunimcha hamroh bo'lishlari o'rinli bo'ladi, deb qaror qilishibdi. Endi otning egariga o'tirayotgan edim hamki, ular eshigim oldiga kelishdi. Kelganlar o'ttizdan qirq nafargacha bo'lib, hammasi rasmiy kiyim-boshlarda edi. O'ylangan rejadan meni xabardor qilishmagan yoki atayin aytishmagan. Chunki har qanday vaziyatda ham tabiatan davlat vakolatlaridan foydalanishga qarshi ekanligimni bilishgan. Ularning paydo bo'lishi meni yaxshigina xafa qildi. Chunki ularning men bilan birga borishlariga rozi bo'lmasdan boshqa ilojim yo'q edi. Yo'lga tushganimiz zahoti ular qilichlarini qinidan chiqarishgani va manzilga yetib borgunimizcha ularni ochiq holda ot choptirib borishgani dard ustiga chipqon bo'ldi. Kimdir bu haqda o'sha joydagi yer-mulk egasiga xabar beribdi va bu uni qattiq xafa qilgan emish. Mintaqalarga borganida na unga, na biror gubernatorga bu darajada hurmat ko'rsatilmagan emish. Uning aytishicha, bunday sharaf qirol oilasiga mansub shahzodalarga ko'rsatilar ekan. Uning gaplari to'g'ri bo'lishi mumkin. Chunki men bunday holatlarda etiket qoidalarini bilishim lozim edi. Ammo men hech qachon bu qoidalarni bilmaganman, hali ham bilmayman.

Yengiltaklik bilan qilingan bu ish shundoq ham mendan norozi bo'lgan yer-mulk egasining menga

nisbatan dushmanligini yanada oshirdi. Chunki Assambleyada men uning yerlari va mulkini soliqdan ozod qilish masalasiga qarshi chiqar edim. Bunday ozod qilishga rozi emasligim u tomonidan pastkashlik va adolatsizlik munosabatlarini ham yuzaga keltirardi. U vazirlikka mening qirol xizmatini bajarishda katta to'siq bo'layotganimni aytib, shikoyat qilibdi. Uning fikricha, palatada ta'sirim kuchli bo'lganligi sababli pul to'plash to'g'risidagi qonun hujjatlarini tegishlicha qabul qilishga xalaqit berar emishman. Shuningdek, mening zobitlar bilan saf tortib borganimni mintaqa hukumatini uning qo'lidan zo'ravonlik bilan tortib olish niyatim borligiga isbot sifatida keltiribdi. U, shuningdek, Bosh pochta boshqarmasi boshlig'i ser Everard Fokenerga ham murojaat qilibdi. Meni ishdan olib tashlashni so'rabdi. Bu murojaatga javoban u ser Everarddan atigi ba'zi pand-nasihatlardan iborat xat olibdi xolos.

Gubernator va palata o'rtasidagi doimiy janjallar davom etardi. Bu tortishuvlarga men ham katta hissa qo'shardim. Ayni janjallarga qaramay, o'sha janob bilan oramizdagi oddiy fuqarolik muloqoti davom etardi. O'rtamizda hech qachon shaxsiy kelishmovchilik bo'lmagan. Ba'zan undagi menga nisbatan norozilikning kamligi yoki yo'qligi haqida o'ylanib qolaman. Chunki uning murojaatlari va xatlariga yozilgan javoblar kasbiy odatning natijasi yoki ta'siri bo'lishi mumkin. Qolaversa, yuridik ta'lim olgan bu odam orasidagi tafovutlarimiz – ikkimiz ham sud zalida mijozlarimizni: o'zi yer egalari, men esa Assambleyani himoya qilyapmiz,

deb qabul qilganmizdir. Shuning uchun u ba'zida men bilan qiyin masalalarda maslahatlashish uchun oldimga do'stona tarzda kirib kelardi. Ba'zida esa, tez-tez emas, albatta, mening maslahatimni qabul qilardi.

Breddokning qo'shinini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun birga harakat qilgandik. Uning mag'lubiyati haqida dahshatli xabar kelganda, gubernator tezlik bilan menga odam yubordi. U meni chet okruglarimiz odamlarining harbiy majburiyatdan qochishining oldini olish choralari to'g'risida maslahatlashib olish uchun chaqirgan ekan. O'shanda qanday maslahat berganim yodimda yo'q. Menimcha, Dunbarga, agar imkon bo'lsa, o'z qo'shinlarini chegara bo'ylab joylashtirishni so'rab, xat yozish kerakligini aytgan bo'lsam kerak. O'sha yerda koloniyalarning qo'shimcha madadi yetib kelib, kuchlari ko'paygandan so'ng ekspeditsiyani boshlasa, ma'qul bo'lar edi, deganligim ehtimoldan yiroq emas. Chegaradan qaytganimdan so'ng u menga mintaqalar qo'shinlari bilan birga, Dukesn Fortini ishg'ol qilish uchun ekspeditsiyaga borishni topshirmoqchi bo'ldi. Dunbar va uning odamlari boshqa bir joyda band ekanlar. U menga general unvoni bilan vakolatlar berishini aytdi. O'zimning harbiy qobiliyatim haqida u o'ylaganday yuqori fikrda emas edim. Menimcha, uning gaplari qobiliyatlarim haqida aslida qanday fikrda ekanligidan farq qilardi. Balki u mening mashhurligim odamlarni tayyorlashga va Assambleyadagi ta'sirim ularga yer-mulkka soliq solmasdan haq to'lash uchun pulni olishga yordam beradi, deb o'ylagan

bo'lishi mumkin. Bu ishga u o'ylagandek kuchli ishtiyoqim yo'qligini ko'rib, ayni rejadan voz kechdi. Ko'p o'tmay uning o'zi ham hukumatdan ketdi, o'rniga kapitan Denni gubernator bo'ldi.

## XVIII

### ILMIY TAJRIBALAR

Yangi gubernatorning ma'muriyati qo'l ostida davlat ishlari tizimida yuzaga kelgan voqealar haqida so'z yuritmoqchiman. Ammo bundan oldin ushbu yerda obro'yimning ortishi va tanilishim haqida biroz ma'lumot berish noto'g'ri bo'lmasa kerak.

1746-yilda Bostonda bo'lganimda, yaqinda Shotlandiyadan kelgan doktor Spens bilan uchrashdim. U menga elektr sohasidagi tajribalarini ko'rsatgandi. Ular maromiga yetkazib o'tkazilmas, chunki Spens yaxshi mutaxassis emas edi. Shunga qaramay, o'zim uchun mutlaqo yangi bir mavzu, hodisa bo'lganligi uchun ular meni hayron qoldirdi va quvontirdi. Filadelfiyaga qaytganimdan so'ng ko'p o'tmay, bizning kutubxona-kompaniyamizga Londondan, Qirollik jamiyatining a'zosi janob P.Kollinsondan<sup>1</sup> shisha naychadan iborat sovg'a keldi. Sovg'aga bunday tajribalarni o'tkazishda undan qanday foydalanish bo'yicha ba'zi ma'lumotlar ham ilova qilingan edi. Men Bostonda ko'rganlarimni takrorlashga g'ayrat bilan

---

<sup>1</sup> London Qirollik tabiiy bilimlarni yaxshilash jamiyati (The Royal Society of London for Improving Natural Knowledge) 1660-yilda tashkil etilgan va ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha ingliz jamiyatlari orasida birinchi o'rinni egallagan.

kirishdim. Ko'p marotaba tayyorlash mashqlarini o'tkazib, Angliyadan kelgan ma'lumotlarda ko'rsatilgan tajribalarni o'tkazishni to'laqonli o'rganib oldim. Boz ustiga, ularga o'z tajribalarimni ham qo'shdim. Men juda ko'p mashqlar haqida so'z yuritdim. Chunki mening uyim bir muncha vaqt ushbu yangi mo'jizalarni ko'rish uchun kelgan odamlar bilan to'la edi.

Do'stlarim orasida yuzaga kelgan noqulaylikni bartaraf etish maqsadida, shisha ishlab chiqarish korxonamizda xuddi shunday shisha naylarni yasattirdim. Do'stlarim bu shisha idishlarni sotib olishdi va tajriba o'tkazuvchilar soni oshdi. Ular orasida o'ta aqlli qo'shnimiz janob Kinnersi eng asosiysi edi. Ishini yo'qotganini ko'rib, men uni pulli asosda elektr tajribalarini namoyish qilishga undadim. Unga ikkita ma'ruza tayyorlab berdim. Ma'ruzalarda tajribalar va ular uchun izohlar, ko'rsatmalar ma'lum tartibda keltirilgandi. Unda bir tajribani o'tkazish o'zidan keyingisini tushunishga yordam berishi lozim edi. Ayni maqsadda u chiroyli, nafis yasalgan bir jihozni sotib oldi. Undagi men o'zim uchun allaqachon yasab olgan barcha kichik mashinalarning nusxalarini uskunaso'zlar chiroyli tarzda yasab bergan edi. Ma'ruzalariga ko'p odamlar kelishar va bu ularga katta mamnuniyat bag'ishlardi. Bir muncha vaqt o'tgach, u koloniyalar bo'ylab safarga chiqdi. Tajribalarni har bir poytaxt shaharda namoyish etdi va anchagina pul ishlab oldi. Ammo Vest-Indiya orollarida havoning umumiy namligidan tajribalarni o'tkazish qiyin bo'libdi.

Janob Kollinsondan ushbu naycha va boshqa vositalarni sovg'a qilgani uchun minnatdorchilik his

qildim. Uni ayni naychadan foydalanishdagi yutuqlarimiz haqida xabardor qilish yaxshi bo'ladi, deb o'yladim. Keyin esa tajribalarimiz haqida bir nechta xat yozdim. Xatlarimni Qirollik jamiyatida o'qib beribdi. Ular bu tajribalarni dastlab «Transactions»da nashr etishga loyiq emas deb, e'tibor berishmagan ekan. Men janob Kinnersli uchun elektr bilan chaqmoqning bir hodisa ekanligi to'g'risida maqola yozdim. Uni tanishim doktor Mishel va o'sha jamiyat a'zolaridan biriga yubordim. U menga maqolani o'qishganligi, ammo bilimdonlar uning ustidan kulishgani haqida ikki og'iz xat yozdi. Biroq maqolani doktor Fotergillga ko'rsatishibdi. Fotergill ularni esdan chiqarib yuborishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, debdi. Ularni nashr etishni maslahat beribdi. Keyin janob Kollinson ularni nashr etish uchun o'zining «Gentlemen's Magazine» jurnalidagi Kevga beribdi. Ammo u ayni ishlarni pamfletda alohida chop etishni tanlabdi va doktor Fotergill unga muqaddima yozibdi. Aftidan, Kev uning foydasi uchun to'g'ri qaror qabul qilgan ekan. Chunki keyinchalik kelgan qo'shimchalar bilan ular to'rt taboqqacha yetgan. U besh tahrirda nashr etildi, qayta nashr etish uchun aytarliq pul sarflamadi ham.

Biroq bu voqealar ushbu hujjatlarning Angliyada juda ko'p e'tiborga olinishidan bir muncha vaqt oldin sodir bo'ldi. Ularning bir nusxasi graf de Buffonning qo'liga tushib qolibdi.<sup>1</sup> Bu inson Fransiyada, qolaversa, butun Yevropada katta obro'

---

<sup>1</sup> Graf de Buffon – Mashhur fransuz tabiatshunosi (1707–1788).

nufuzga ega bo'lgan faylasuf edi. U M.Dalibarni<sup>1</sup> ularni fransuz tiliga tarjima qilish uchun ko'ndiribdi va Parijda nashr etildi. Ushbu nashr qirol oilasiga tabiiy falsafadan dars beradigan murabbiy va qobiliyatli eksperimentator abbat (ruhoniy) Nolleni xafa qilgan emish. Avvalroq, u elektr nazariyasini shakllantirgan va nashr etgan edi. So'ng elektr sohasi umumiy modaga aylanib ketgandi. U dastlab bunday asar Amerikadan kelganiga ishonmabdi. Uning tizimini yomonotliq qilish maqsadida, buni Parijdagi dushmanlari maxsus uyushtirgan bo'lishi mumkinligini aytibdi. Dastavval u mening mavjudligimga shubha qilgan. Keyinchalik, Filadelfiyada Franklin degan odam, haqiqatan ham, borligiga ishongandan so'ng xatlar jildini yozib, nashr etgan. Xatlar, asosan, menga qaratilgan edi. Ularda u o'z nazariyasini himoya qilgan, mening tajribalarim va ulardan olingan natijalarning haqqoniyligi hamda to'g'riligini inkor etgan.

Birda abbatga javob ham yozmoqchi bo'ldim. Javobni yozishni boshladim ham, ammo mening hisobotlarimda har qanday odam takrorlay olishi, tekshirishi, tasdiqlashi mumkin bo'lgan tajribalarning tavsifi mavjudligini va tekshirilmasa, uni himoya qilib bo'lmasligi haqida ma'lumotlar borligini o'yladim. Qolaversa, hisobotlar dogmatik tarzda

---

<sup>1</sup> Franklinning Kollinsonga yozgan xatlarini fransuz tiliga tarjima qilgan Dalibar birinchi bo'lib, Franklinning tajribasini amalda qo'llash orqali chaqmoq va elektr bir xil ekanligini namoyish etgan. «Bu 1752-yil 10-may kuni Franklinning Filadelfiyada varrak uchirib, bu faktni o'zi shaxsan isbotlagan mashhur amaliyotdan bir oy oldin sodir bo'lgan». (Makmaster).

bayon etilmasdan, ularda takliflar sifatida berilgan kuzatishlar ham bor edi. Takliflar bo'lganligi sababli menga ularni himoya qilish majburiyati ham yuklanmaydi. Ikki kishi orasidagi bahs noto'g'ri tarjima, talqinlar tufayli juda cho'zilib ketishi mumkin ham edi. Chunki birimiz boshqamizning nimani nazarda tutganimizni tushunmay qolishimiz mumkin edi. Masalan, abbat yozgan xatlarning biri to'laligicha tarjimadagi bitta xatoga asoslangandi. Shular haqida mulohaza yuritdim va mening maqola, hisobotlarimga erkin muomalada bo'lib yurishlariga yo'l berish kerak, degan qarorga keldim. Shu tariqa, allaqachon o'tkazilgan tajribalar borasida bahslashib yurishning o'rniga, yangi tajribalar o'tkazish uchun davlat ishlaridan biroz vaqt ajratish yaxshiroq bo'ladi, degan xulosaga keldim. Shuning uchun men M. Nollega umuman javob yozmadim va bu voqea mening sukutim uchun tavba qilishimga sabab bo'lmadi. Chunki mening do'stim, Qirollik Fanlar akademiyasi a'zosi M. Le Roy tajribalarim masalasini ko'tardi va abbatning fikrlarini inkor etdi. Mening kitobim italyan, nemis va lotin tillariga tarjima qilindi. Unda keltirilgan ta'limot bosqichma-bosqich Yevropa faylasuflari tomonidan abbatning ta'limotidan ko'ra afzal baholanib, e'tirof etildi. Shu tariqa, uning Parijdagi shogirdi va eng yaqin tarafdori janob B ... dan tashqari, o'z guruhi, oqimida yolg'iz qoldi.

Kitobimga to'satdan umumiy mashhurlik keltirgan undagi tajribalardan birining muvaffaqiyati edi. Uni janob Dalibar va De Lor Marlida bulutlardan chaq-

moq chiqarish uchun o'tkazishgan edi. Bu hamma joyda jamoatchilik e'tiborini jalb qildi. M. de Lorda eksperimental jihoz bo'lib, ushbu fan sohasida ma'ruzalar o'qir edi. U o'zi «Filadelfia Experiments» deb atagan ishlarni takrorlashga bel bog'ladi. Ular qirol va saroy a'yonlari oldida ijro etilgandan so'ng Parijning barcha qiziquvchan odamlari ularni ko'rish uchun to'da-to'da bo'lib kela boshlashgan. Men hikoyamni bu ulkan tajribani tavsiflash bilan cho'zib yubormay. O'shandan keyin ko'p o'tmay o'zim Filadelfiyada varrak bilan o'tkazgan tajribamning muvaffaqiyatidan olgan cheksiz quvonchim haqida ham yozmayman. Chunki har ikki tajribani elektr energiyasi tarixiga oid kitoblardan topsa bo'ladi.

Ingliz shifokori doktor Rayt Parijda bo'lganida Qirollik jamiyati a'zosi bo'lmish bir do'stiga xat yozgan. Unda mening tajribalarim xorijdagi bilimli odamlar orasida hurmat qozonganini ma'lum qilgan. Asarlarimga Angliyada nega uncha e'tibor bermasliklaridan hayron bo'lgan. Shunda jamiyat a'zolari o'zlariga yuborilgan xatlarni qayta ko'rib chiqishni boshlashibdi. Taniqli doktor Vatson ushbu xatlar va undan keyin men Angliyaga jo'natgan barcha hisobotlar haqida qisqacha izohlar yozibdi. Izohlar yozuvchini biroz maqtash bilan ilova ham qo'shib qo'yibdi. Bu xulosalar keyinchalik «Transactions» jurnalida chop etildi. Jamiyatning Londondagi ayrim a'zolari, ayniqsa, juda farosatli janob Kanton uchi o'tkir metall tayoq bilan bulutlardan chaqmoq chiqara olishga muvaffaq bo'lishgan. Bu bilan tajribaning to'g'riligini tasdiqlashgan va Jamiyatga bu yu-

tuq natijalarini taqdim etishgan. Shundan so‘ng ular avval menga nisbatan ko‘rsatilgan hurmatsizlikka javoban haddan ortiq hurmat va e‘tibor ko‘rsatishdi. Men bunday sharafga ega bo‘lish uchun hech qanday ariza bermagan bo‘lsam ham, ular meni a‘zolikka qabul qilishdi. Shuningdek, meni odatiy badal to‘lovlaridan ozod qilish foydasiga ovoz berishdi. Bu miqdor yigirma besh gineyani tashkil qilar edi. O‘shandan beri menga «Transactions» jurnalining har bir nashrini tekinga jo‘natib turishadi. Shuningdek, ular meni ser Godfri Koplining<sup>1</sup> 1753-yil uchun oltin medali bilan taqdirlashdi. Uni taqdim etish marosimida Jamiyatning prezidenti lord Maklsfild go‘zal nutq so‘zlabdi va unda mening sharafimga maqtovlar yo‘llabdi.



---

<sup>1</sup> Godfri Kopli – ingliz baroneti (1709-yilda vafot etgan), London Qirollik jamiyatiga tabiiy bilimlarni yaxshilashga bo‘lgan ishonchni tan olish uchun 100 funt miqdorida mablag‘ xayriya qilgan.

## XIX

### PENSILVANIYANING LONDONDAGI VAKILI

Yangi gubernatorimiz kapitan Denni shahar ma'muriyati uning sharafiga bergan ko'ngilochar tadbirda Qirollik jamiyati tomonidan menga taqdim etilgan medalni topshirdi. U marosimda o'ta muhozamatli iboralar bilan menga bo'lgan hurmatini ifoda etdi. Aytishicha, mening shaxsiyatim bilan uzoq vaqtlardan beri tanish ekan. Kechki ovqatdan so'ng ziyofat ishtirokchilari o'sha paytdagi odatdagidek, ichkilikka berilib ketishdi. Shunda u meni boshqa xonaga olib kirdi va Angliyadagi do'stlari unga men bilan do'stlikni rivojlantirish maslahatini berishganligini aytdi. Ularning fikricha, men unga eng yaxshi maslahat berishga qodir bo'lgan kishi ekanman. Shuningdek, uning boshqaruvini osonlashtirishga samarali hissa qo'shish qo'limdan kelarkan. Shuning uchun u barcha masalada o'zaro anglashuv bo'lishini xohlar ekan. U har doim menga o'z imkoniyatlari hamda vakolatlari doirasida mumkin bo'lgan har qanday xizmatni ko'rsatishga tayyorligiga amin bo'lishimni ma'lum qildi. Shuningdek, yer-mulk egasining mintaqamizga nisbatan yaxshi munosabati va bu hammamiz, xususan, men uchun, muayyan shartlar bajarilsa, yaxshi imkoniyatlar ekanligi haqida ko'p gapirdi. Buning uchun o'zi taklif qilgan chora-tadbirlarni uzoq vaqtdan beri rad etilishini to'xtatish, o'zi va xalq orasida uyg'un munosabatlarni tiklash lozim ekan. Bular-

ning barchasiga erishish uchun mendan yaxshiroq nomzod yo'qligini qayd etdi. Bunga javoban, men tegishli minnatdorchilik va mukofotlarga umid qilishim mumkin ekan va h.k. Bizning dasturxonga tez orada qaytmaganimizni tushunib, ichib o'tirgan sheriklarimiz bizga bir shisha madera vinosi yuborishdi. Undan biroz ichgach, sherigimning iltimos va va'dalari shunga mutanosib ravishda yanada ko'paydi.

Mening javoblarim esa quyidagi maqsadlarga asoslangan edi: mening moliyaviy, moddiy ahvolim, Xudoga shukur, shunday darajada ediki, yer-mulk egalaridan beriladigan yaxshiliklarga ehtiyojim yo'q edi. Assambleya a'zosi sifatida undan hech qanday narsa qabul qila olmasligimni aytdim. Shunga qaramay mening yer-mulk egasiga shaxsiy dushmanligim yo'q edi. Ya'ni u ilgari surgan jamoat chora-tadbirlari xalq manfaati uchun bo'lsa, hech kim ularni mendan ko'ra kuchliroq g'ayrat-shijoat bilan qo'llab-quvvatlamasa va oldinga surmasa kerak, deya tushuntirdim. Mening o'tmishdagi muxolifligim mana shu fikrlarga asoslangan edi. Chunki bunday qarshi turish balki ilgari surilgan taklif va choralar o'z-o'zidan ayon ravishda mulkdorning manfaatlariga xizmat qilish uchun mo'ljallanganligi sababli bo'lgandir. Shuningdek, uning (gubernatorning) men haqimda aytgan iliq, ijobiy fikrlaridan behad minnatdor ekanligimni aytdim. Qolaversa, o'z boshqaruvini osonlashtirish uchun imkonim doirasida harakat qilishimga ishonishini ma'lum qildim. Shu bilan birga, o'zidan oldingi gubernatorning ishi-

da ko'p qiyinchiliklar tug'dirgan yer-mulk egalari haqidagi ko'rsatmalarga o'xshash ko'rsatmalar olib kelmasligiga umid bildirdim.

O'shanda bu borada o'z fikrini aytmadi. Ammo keyinchalik, Assambleya bilan qaysi bir masala bo'yicha ishlashga kelganida, ayni masalalar yana ko'tarildi. Bahs-munozaralar yangidan boshlandi. Men odatdagiday o'ta faol muxolif edim. Bunga, birinchi navbatda, ko'rsatmalarni yuborish haqidagi iltimos va ularga izohlarning muallifi sifatida amal qildim. Bularni o'sha davrga oid qarorlarni qabul qilishga tegishli hujjatlar hamda keyinchalik o'zim nashr etgan «Tarixiy nazar» («Historical review») to'plamidan ham topsa bo'ladi. Ammo shaxsan oramizda adovat paydo bo'lmadi. Biz tez-tez uchrashib turardik. U adabiyot muxlisi, dunyo ko'rgan, qiziqarli va yoqimli suhbatdosh edi. U menga birinchi bo'lib, eski o'rtog'im J.Ralf hali ham tirik ekanligini aytdi. Eski do'stim Angliyaning eng nufuzli siyosiy yozuvchilaridan biri darajasiga yetibdi. U shahzoda Frederik va qirol o'rtasidagi nizoga<sup>1</sup> aralashgan ekan. Yiliga uch yuz funt pensiya olayotganligidan ham xabar topdim. Uning shoir sifatidagi nufuzi, haqiqatan ham, past ekan. Poup uning she'riyatiga «Dunsiada»<sup>2</sup> asarida past baho bergan. Ammo tanqidchilar uning nasriy asarlarini boshqalaridan past emas, deb hisoblasharkan.

---

<sup>1</sup> Qirol Georg II va uning o'g'li Uels shahzodasi Frederik o'rtasidagi janjal. Frederik otasidan oldin vafot etgan.

<sup>2</sup> Aleksandr Poupning turli zamonaviy yozuvchilarga qarshi qaratilgan satirik she'ri.

Nihoyat, Assambleya yer-mulk egalari o'z vakillari (deputatlar)ga nafaqat xalqning, balki qirolning ham manfaatlariga mos kelmaydigan ko'rsatmalarni o'jarlik bilan berishlarini tushunib yetdi. Assambleyadagilar ularga qarshi petitsiya tashkil etishga qaror qildi. Angliyaga borib, bu petitsiyani taqdim etish va uni ilgari surish uchun meni o'z vakillari etib tayinlashdi. Palata gubernatorga qirolning foydalanishi uchun oltmish ming funt miqdordagi pul berish haqidagi qonun loyihasini yubordi. Bu pulning o'n ming funt qismi o'shanda general bo'lgan lord Loudaunning tasarrufiga borib tushishi kerak edi. O'z ko'rsatmalariga ko'ra, gubernator bu qonun loyihasini imzolashdan mutlaqo bosh tortdi.

Men Nyu-Yorkdagi pochta-yo'lovchi tashuvchi kemanding kapitani Morris bilan Angliyaga borish chiptasi haqida kelishib olgan edim. Lord Loudaun Filadelfiyaga yetib kelganida mening bagajim allaqachon kemaga ortilgandi. Uning maqsadi, o'zi menga urg'u berib aytishicha, gubernator va Assambleya o'rtasida kelishuvga erishishga urinib ko'rish bo'lgan. Chunki bunday kelishmovchiliklar qirol zoti oliylarining ishlariga xalaqit bermasligi kerak edi. Shunga ko'ra, u gubernator va men bilan uchrashishni hamda har ikki tomon nima deyshini eshitishni xohlabdi. Biz uchrashdik va bu masalani muhokama qildik. Assambleya nomidan men turli dalil-isbotlarni keltirdim. Ularni o'zim yozganman va buni o'sha davrdagi davlat hujjatlaridan topish mumkin. Dalillar Assambleya majlislarining bayonnomalari bilan birga nashr etilgan. Guber-

nator ham o'z ko'rsatmalarini, o'zi bajarish uchun zimmasiga olgan majburiyatlarini bayon qildi. Ularga rioya qilmasa, xonavayron bo'lishini ham aytdi. Ammo lord Loudaun shunday maslahat bersa, o'zi uchun tavakkal qilishi mumkinligini ham tushuntirdi. Zoti munavvarlari bu maslahatni bermadilar. Ammo suhbatning qaysi bir qismida uni bunga deyarli ko'ndirganday edim. Nihoyat, u Assambleyani yon berishga undashga ko'ndirishni tanladi. U mendan ayni maqsadga erishish uchun ular bilan birga, o'z kuch-g'ayratimni ishga solishni o'tinib so'radi. Chegaralarimizni mudofaa qilish uchun qirolning barcha qo'shinlarini jo'natishga ham tayyorligini ma'lum qildi.

– Chunki, – dedi u, – agar mudofaani o'zimiz ta'minlashni to'xtatsak, chegaralarimiz dushman uchun ochilib qoladi.

Men Palataga nima gaplar bo'lgani haqida hisobot berdim. O'zim loyihasini ishlab chiqqan bir qator qarorlarni taqdim etdim. Ularda o'z huquqlarimizni e'lon qilgandim. Biz bu huquqlarga da'vo qilishdan voz kechmaganligimiz, balki o'zimiz qarshi chiqqanimiz, bizga bosim o'tkazilganligi tufayli vaqtincha to'xtatib turishimizni bayon etgandim. Oxir-oqibat palata a'zolari o'sha qonun loyihasini bekor qilib, yer-mulk egalari ko'rsatmalariga muvofiq keladigan boshqa qonun loyihasini ishlab chiqishga rozi bo'ldilar. O'z-o'zidan ayonki, gubernator uni imzoladi. Shundan so'ng men bemalol o'z safarimga chiqdim. Ammo bu orada pochta-yo'lovchi tashuvchi kema mening bagajim bilan dengizga

chiqib ketishga ulgurgandi. Bu men uchun biroz yo'qotishday tuyuldi. Biroq bu yo'qotish evaziga olgan yagona yupanchim zoti munavvarlarining ko'rsatgan xizmatlarim uchun bildirgan minnatdorchiligi bo'ldi. Chunki tomonlar orasida erishilgan kelishuv faqat u kishining sa'y-harakatlari, deb e'lon qilingan edi.

U mendan oldin Nyu-Yorkka yo'l oldi. Pochta-yo'lovchi tashiydigan kemalarning jo'natilishi uning ixtiyorida edi. Bu joyda ikkita shunday kema bor edi.

– Ulardan biri, – dedi so'zida davom etib, – tez orada dengizga chiqib ketishi kerak.

Men undan aniqroq vaqtni aytishini so'rardim, chunki kechikkanim tufayli bu kemadan ham qolib ketishni istamasdim. Uning javobi shunday bo'ldi:

– Men kemandagi keyingi shanba kuni yo'lga chiqishi haqida buyruq berdim. Ammo sizga entre nous (faqat ikkimiz oramizdagi sir)ni aytib qo'yishim mumkin. Dushanba kuni ertalab o'sha yerga yetib kelsangiz, o'z vaqtida kelgan bo'lasiz, ammo bundan kech qolmang.

Paromdagi tasodifiy bir to'siq tufayli dushanba kuni peshindan keyin yetib kela oldim. Mening kemam ketib qolganmikan, deb ancha xavotirda edim. Chunki shamol kerakli tomonga esib turgandi. Ammo u hali ham gavanda turgani va ertasi kuni yo'lga chiqishini eshitib, ko'nglim joyiga tushdi. Endi Yevropaga yo'l olish arafasidaman, deb tasavvur qilsa bo'lardi. Men shunday deb o'ylagandim. Lekin zoti munavvarlarining fe'lini unchalik

yaxshi bilmas ekanman. Qat'iyatsizlik uning eng kuchli xislatlaridan biri ekan. Ba'zi misollar keltiraman. Aprel oyining boshida Nyu-Yorkka yetib keldim. Adashmasam, iyun oyining oxirigacha dengizga chiqib keta olmadik. O'sha paytda portda uzoq vaqt davomida turgan ikki pochta-yo'lovchi tashuvchi kemalar bor edi. Ammo ularni generalning xatlari yetib kelgunga qadar ushlab turish buyurildi. Bu xatlarni ham negadir har doim «ertaga tayyor bo'ladi» deyishardi. Yana bir pochta-yo'lovchi tashuvchi kema keldi. Uni ham ushlab turishga buyurishdi. Biz yo'lga chiqmasimizdan, to'rtinchi bunday kemanding kelishi kutilayotgan ekan. Bizning kema birinchi bo'lib jo'nashi kutilgandi, chunki u portda eng ko'p vaqt turib qolgan kema edi. Barcha yo'lovchilar o'z joylarini egallashgan, ba'zilar ketishga juda shoshilardi. Savdogarlar esa xatlari va barcha tovarlariga sug'urta (urush vaqti edi-da) uchun to'lov topshiriqlari haqida xavotirga tushgandilar. Ammo ularning xavotirlari behuda edi. Zoti munavvarlarining xatlari hali tayyor emas edi. Kutib qolgan odamlar, qachon kirishsa, u kishini stol oldida, qo'lida pat qalam bilan ko'rardi. Shu tariqa u kishi juda ko'p yozishga majbur bo'lsa kerak, degan xulosaga kelishardi.

Bir kuni ertalab u kishiga hurmatimni bildirish uchun bordim. Uyning kirish qismida Filadelfiyadan tezkor chopar bo'lib kelgan Innis ismli yigitni ko'rdim. U general uchun gubernator Dennidan bir paket olib kelgan ekan. O'z navbatida, menga ham u yerdagi do'stlarimdan bir nechta xat keltirgandi.

Imkoniyatdan foydalanib, uning qachon qaytishini, qayerga kelib joylashganini so'radim. Chunki u bilan bir necha xat berib yuborishim mumkin edi. Innis menga generalning gubernatorga javobini olish uchun ertaga soat to'qqizda kelish buyurilganini, keyin esa darhol yo'lga chiqishi kerakligini aytdi. O'sha kuniyoq xatlarimni uning qo'lga topshirdim. Ikki hafta o'tgach, uni yana o'sha joyda ko'rdim.

– Namuncha tez qaytdingiz, Innis?

– Qaytdingiz?! Men hali ketganim yo'q.

– Yo'g'-e.

– Ikki haftadan beri har kuni ertalab zoti munavvarlarining xatlarini olib ketish uchun kelib-ketib yuribman. Bu xat hali ham tayyor emas.

– Shunday buyuk yozuvchi nahotki hali ham bit-ta xatni yoza olmagan bo'lsa? Uni har doim yozuv stolida ko'raman-ku.

– Ha, – dedi Innis, – u kishi rasmlardagi avliyo Georgiyning o'zi. Har doim otliq turadilar. Ammo otlari hech qachon yurmaydi.

Aftidan, choparning bu xulosaga kelishi uchun jiddiy sabab bor edi. Chunki Angliyada bo'lganimda janob Pitt<sup>1</sup> menga generalning lavozimdan chetlatilish sabablaridan biri ham shu bo'lganini tushuntirgandi. Uning o'rniga general Amherst va general Vulfni jo'natishgan. Aytishlaricha, u vazirga hech qanday xat-xabar yubormas, vazir ham uning nima bilan mashg'ul ekanligidan mutlaqo bexabar ekan.

---

<sup>1</sup> Chathemning birinchi grafi Uilyam Pitt (1708–1778) buyuk ingliz davlat arbobi va notiq hisoblanadi. Uning mohirona boshqaruvi ostida Angliya Fransiyadan Kanadani tortib oldi. U inqilobimiz davrida Amerikaning do'sti edi.

Barcha pochta-yo'lovchi tashuvchi kemalarning Sandi Hukka (Sandy Hook) flotga qo'shilish uchun borishi ma'lum bo'ldi. Ushbu vaziyat, shuningdek, dengizga chiqish vaqtini har kuni kutishga to'g'ri kelayotganligi sababli yo'lovchilar kemada qolish yaxshi, degan qarorga keldilar. Chunki to'satdan buyruq berilib, kema yo'lga chiqishi va odamlar qolib ketishlari mumkin edi. U yerda, adashmasam, biz taxminan olti hafta turdik. Dengiz safari uchun olingan yeguliklarni tugatib ulgurdik va yana olib kelishga majbur ham bo'ldik. Nihoyat, flot dengizga chiqdi. General va uning butun qo'shini kemalarda edi. Biz Luizburg tomonga yo'l oldik. Maqsad bu qal'ani qamal qilib, egallashdan iborat edi. Birga borayotgan barcha pochta-yo'lovchi kemalarga generalning kemasiga hamroh bo'lish buyurildi. Kemalar uning xat-xabarlarini tayyor bo'lganda, ularni qabul qilib olishga shay turishlari kerak ekan. Flotdan ajralib chiqib ketish uchun ijozat kelguniga qadar dengizda besh kun birga suzdik. Nihoyat, kemamiz flotdan ajralib chiqdi va Angliya tomon yo'l oldi. Hali ham o'z yaqinida ushlab turilgan boshqa ikki pochta-yo'lovchi kemalari ham general bilan birga Halifaksga boribdi. U yerda bir muncha vaqt turib qolishibdi. Harbiy amaliyot o'tkazib qurilgan portlarga hujum qilishni mashq qilishibdi. So'ng general Luizburgni ishg'ol qilish rejasidan voz kechibdi va Nyu-Yorkka qaytibdi. General bilan qo'shinining barcha qismlari, yuqorida aytilgan «ushlab turilgan» ikki pochta-yo'lovchi kema va ularning barcha yo'lovchilari ham qaytishibdi. Uning

yo'qligida, fransuzlar va yovvoyilar o'sha mintaqaga chegarasida Fort-Jorj qal'asini ishg'ol qilishibdi. Yovvoyilar garnizon taslim bo'lgach, a'zolarining aksariyatini qatl qilishibdi.

Keyinroq Londonda bo'lganimda, o'sha ikki pochta-yo'lovchi kemalardan birining qo'mondoni kapitan Bonnellni ko'rdim. U menga quyidagilarni so'zlab berdi: Bir oy davomida to'xtatib turishgandan keyin zoti munavvarlariga o'z kemasining ostki qismiga tez suzishga xalaqit beradigan darajada chig'anoqlar yopishib qolganini tushuntiribdi. Bu pochta-yo'lovchi kemalari uchun odatiy hol, debdi. Undan kemani ko'tarib qo'yish va ostki qismini tozalash uchun vaqt berishni so'rabdi. General undan bu ishga qancha vaqt talab qilinishini so'rabdi. Bonnell uch kun ketishini aytibdi. General:

– Agar bu ishni bir kunda qila olsangiz, ijozat beraman. Aks holda yo'q. Chunki siz ertadan keyingi kuni, albatta, dengizga chiqishingiz shart.

Shu tariqa ushbu suhbatdan keyin to'la uch oy davomida har kuni safarga chiqishi kechiktirilgan bo'lsa ham, unga bu ish uchun ijozat berilmabdi.

Men Londonda Bonnellning yo'lovchilaridan birini ko'rdim. Yo'lovchi Nyu-Yorkda uni uzoq vaqt aldagani va behuda vaqtini olgani, keyin esa uni Halifaksga olib borgani va yana qaytarib kelgani uchun lorddan o'ta g'azabda edi. Ko'rgan zararlari uchun uni sudga berishga qasam ichgan ekan. U lordni sudga bergan-bermaganligi haqida eshitmadim. Ammo so'zlariga ko'ra, uning ishlariga yetkazilgan zarar miqdori juda katta bo'lgan.

Umuman olganda, men bunday odamga buyuk armiyani boshqarishdek muhim ishni qanday ishonch bilan topshirishganligiga hayronman.<sup>1</sup> Ammo o'shandan beri bu ulkan olamning ko'p joylarini ko'rganim, xizmat lavozimlarini egallash va berishda bo'ladigan sabab hamda rag'batlarga guvoh bo'lganimdan so'ng bunday holatlarga hayron bo'lmay qo'ydim. Fikrimcha, Breddok vafotidan keyin armiya qo'mondonligi general Shirliga topshirildi. Agar lavozimida ishlashda davom etganida, u 1757-yildagi harbiy harakatlarni Loudaundan ko'ra ancha yaxshi amalga oshirgan bo'lardi. Chunki u yerdagi mag'lubiyat haddan tashqari yengiltaklik bilan olib borilgan ishlarning natijasi bo'lib, millatimiz uchun sharmandali edi. Garchi, Shirli askarlikka o'rgatilgan harbiy bo'lmasa ham aqlli va farosatli, boshqalarning yaxshi maslahatlariga e'tiborli, oqilona rejalar tuza oladigan, ularni tez va faol bajarishga qodir inson edi. Koloniyalarni o'zining ulkan qo'shinlari bilan mudofaa qilish o'rniga Loudaun Halifaksda behuda yurib, ularni dushmaniga to'la himoyasiz tashlab qo'ygandi. Oqibatda Fort-Jorj qal'asi qo'ldan ketdi. Bundan tashqari, u barcha savdo ishlarimizni to'xtatib qo'ydi. Oziq-ovqatlarni eksport qilishni taqiqlab, savdomizni izdan chiqardi. Bunda u oziq-ovqat zaxiralari dushman qo'lga tushib qolishi mumkin, degan bahonani ro'kach qilgandi. Aslida uning niyati mahsulotlarning narxini pudratchilar foydasiga tushirish edi. Faqat

---

<sup>1</sup> Bu holat XVIII asrda ingliz jamiyati hayotini tavsiflovchi korupsiya holatini yaqqol aks ettiradi.

shubhalarga asoslangan mish-mishlarga ko'ra, uning pudratchilar foydasida hissasi bo'lgan emish. Niho-yat, bu taqiq bekor qilindi. Charlztaunga bu haqda atayin xabar bermaganliklari tufayli Karolina flotining yo'lga chiqishi yana uch oyga kechiktirildi. Afsuski, bu paytda kema qurti kemalarning ostki qismlariga jiddiy zarar ko'rsatgan ekan. Ularning ba'zilari uyga qaytish yo'lida cho'kib ketishibdi.

Aminmanki, Shirli armiya qo'mondonligidek og'ir mas'uliyatdan xalos bo'lganidan chin dildan quvongan. Albatta, harbiy ishlardan bexabar odam uchun bu, haqiqatan ham, oson ish emas. Men Nyu-York shahri tomonidan lord Loudaun qo'mondonlikni o'z qo'liga olishi munosabati bilan berilgan ziyofatda ishtirok etgandim. Loudaun Shirlining o'rniga tayinlangan bo'lsa-da, Shirli ham mehmonlar orasida edi. Ziyofatda ko'p sonli zobitlar, fuqarolar va xorijliklar ishtirok etdi. Ba'zi stullarni qo'shnilardan olishga to'g'ri kelgan ekan. Stullar orasida juda pastlari ham bor edi. U ham bo'lsa, janob Shirliga nasib etibdi. Buni anglagan holda, uning yonida o'tirgan chog'imda:

– Ser, sizga juda past joy berishibdi, – dedim.

– Hechqisi yo'q, janob Franklin, – dedi u, – men uchun past o'rindiq – eng qulay va yaxshi o'rindiq.

Yuqorida aytib o'tganimdek, Nyu-Yorkda safarimiz kechiktirib turilgan paytlarda Breddok uchun oziq-ovqat yetkazib berish ishlari haqidagi hisobotlarni olib turardim. Hisobotlarning ba'zilarini o'zim bu ishda yordam berish uchun ishga olgan turli odamlardan tez orada olishning imkoni yo'q edi. Men ularni lord

Loudaunga taqdim etdim va oradagi farqni to'lashni so'radim. Lord ularning tegishli zobit tomonidan muntazam tekshirilishiga buyruq berdi. Zobit ro'yxatdagi har bir bandni o'zining vaucheri bilan taqqoslab, to'g'riligini tasdiqlardi. Zoti munavvarlari hosil bo'lgan farq miqdorini to'lash uchun xazinachisiga buyruq berishni va'da qilgandi. Biroq to'lovlar vaqti-vaqti bilan kechiktirib turilardi. Garchi, tayinlangan tashriflar bilan tez-tez u kishining oldiga kirib turgan bo'lsam ham pulni olishga muvaffaq bo'la olmasdim. Nihoyat, safarga chiqishimizdan oldin u kishi menga puxta mulohaza qilganini aytdi. Aytishicha, o'z buxgalteriya hisobini undan oldin ushbu lavozimda ishlaganlarning hisob-kitoblari bilan aralashtirmaslikka qaror qilibdi.

– Ya'ni siz, – dedi u, – Angliyaga yetib borganingizda g'azna idorasiga kirib, hisoblaringizni ko'rsatishingiz mumkin va ular sizga darhol pulni to'lashadi.

Men unga safarimiz atayin kechiktirilgani sababli Nyu-Yorkda ko'p vaqt qolib ketganim uchun juda ko'p va kutilmagan xarajatlar qilganimni tushuntirdim. Bundan maqsad – to'lovni hozir olishdan iborat edi. Gaplarim umuman natija bermadi. Shunda o'zim oldindan sarf qilgan pullarni olishda qo'shimcha muammolar yoki kechiktirishlar maqbul emasligiga ishora etdim. Boz ustiga, men o'z shaxsiy xizmatlarim uchun ustama qo'ymaganligimni ham qo'shimcha qildim.

– O, ser, – dedi u kishi, – bizni o'zingiz hech foyda olmasligingizga ko'ndiraman deb o'ylamang.

Biz bu ishlarni yaxshiroq tushunamiz. Qo'shinlarga mahsulotlar yetkazib berish bilan shug'ullanadigan har bir inson bu ishni qilishda, birinchi navbatda, o'z cho'ntaklarini to'ldirishni o'ylashidan xabardormiz.

Unga men bunday ishga aralashmaganimni tushuntirmoqchi bo'ldim. O'zimga bir tiyin ham olmaganimni aytdim. Ammo u menga ishonmagani o'z-o'zidan ayon edi. Aslida ham o'shandan keyin bildimki, bunday ishlar ortidan odamlar katta boyliklarni qo'lga kiritisharkan. Xarajatlarimning qaytarilishiga kelsak, pulimni hali ham olganim yo'q. Bu haqda keyinroq yana yozaman.

Dengizga chiqishimizdan oldin kapitanimiz o'z kemasining tez suzishi haqida ko'p maqtanardi. Afsuski, dengizga chiqqach, kema to'qson oltita yelkanli kemaning orasida eng sekin suzadigani ekanligi ma'lum bo'ldi. Kapitan bundan juda izza bo'ldi. Buning sababi haqida turli taxminlar berilgandan so'ng biz o'zimiznikiga o'xshab juda sekin suzadigan boshqa kemaga yaqin keldik. Hatto u ham bizdan o'zib ketdi. Kapitan barcha odamlarni kema quyrug'iga kelish va flagshtok<sup>1</sup>ka imkoni boricha yaqin turishga buyurdi. Yo'lovchilar bilan birga, kemada qirqqa yaqin odam bor edi. Biz aytilgan yerga kelib turganimizdan keyin kema o'z tezligini oshira boshladi. Tez orada yaqinida turgan kemani ancha ortda qoldirdi. Bu bilan kapitanimiz kemaning old (burun) tomoniga haddan ortiq yuk ortilganligini aniq isbot qildi. Aftidan, suv solin-

---

<sup>1</sup> Flagshtok – kemada bayroqni ko'tarish uchun xizmat qiladigan tik yog'och, xoda.

gan bochkalarning hammasi kemaning old qismiga qo'yilgan ekan. Shuning uchun kapitan ularni kemaning quyrug'iga olib o'tishni buyurdi. Bundan kemamizning tezligi yanada ortdi. Natija esa uning flotdagi eng tez suzar yelkanli kema ekanligini isbotladi.

Kapitan birda bu kema soatiga o'n uch uzel<sup>1</sup> tezlikda suzganini aytdi. Bu soatiga o'n uch milya harakatlanishni anglatadi. Dengiz floti zobiti kapitan Kennedi biz bilan yo'lovchi sifatida safar qilayotgandi. U ayni tezlikka erishishning imkoni yo'qligini da'vo qildi. Hech bir kema hech qachon bunchalik tez suzmagan, deb aytdi. Uning fikricha, laglining bo'linishida qandaydir xatolikka yo'l qo'yilgan yoki lagni suvga tashlab, tezlikni aniqlashda qandaydir xato bo'lishi mumkin ekan.<sup>2</sup> Ikki kapitan garov o'ynashdi. Shamolning tezligi yetarli bo'lganda, tezlikni tekshirib ko'rishga qaror qilindi. Shundan so'ng kapitan Kennedi lagni sinchkovlik bilan tekshirdi. Qoniqish hosil qilgach, lagni o'zi tashlashga qaror qildi. Shu yo'sinda bir necha kun o'tgach, shamol yo'limiz bo'ylab ko'ngildagidek esa boshladi. Kemamiz kapitani Lutvij uning o'n uch uzel bilan suzayotganiga ishonishini aytdi. Kennedi tajriba o'tkazdi va garovda yutqazdi.

---


<sup>1</sup> Uzel – kemalarning bir soatda bosib o'tilgan dengiz mili so-niyasi bilan hisoblanadigan tezlik o'lchovi.

<sup>2</sup> Lag, laglin – suvda bo'lganida uni barqaror ushlab turish uchun maxsus shakllantirilgan va ma'lum vaznga keltirilgan yog'och bo'lagi. Unga muntazam masofalarda tugunlar bilan ajratilgan chiziq birlashtirilgan. Ushbu qurilmalar yordamida kema tezligini aniqlash mumkin.

Ushbu voqeani men quyidagi izohni berish maqsadida keltirdim. Bir narsa kemasozlik san'atidagi nomukammallik sifatida tan olingan. Ya'ni har qanday yangi qurilgan kemani sinab ko'rmaguncha, u dengizda yaxshi suzadimi yo'qmi, degan savolga javob berib bo'lmaydi. Chunki har qanday yangi kema dengizda tez suzadigan yaxshi yelkanli kema modelining o'ziday qilib qurilsa ham, negadir sezilarli darajada sekin yuradigan bo'ladi. Bu fakt amaliyotda isbot qilingan. Menimcha, bu qisman dengizchilarning kemaga yuklarni joylashtirish, uni jihozlash va yelkanlarini qanday o'rnatish usullari haqidagi turli fikrlariga bog'liq. Har bir dengizchining o'z boshqaruv tizimi mavjud. Masalan, bitta kapitanning fikrlari va buyruqlari bilan yuk ortilgan kema, yuklari boshqa odamlarning buyruqlari bilan ortilganidan ko'ra yaxshiroq suzadi. Bundan tashqari, bir kemani bitta odamning o'zi ham qurib, ham dengizga chiqishga tayyorlashi va dengizda uni boshqarishi juda kam hollarda kuzatiladi. Bir kishi kemaning korpusini quradi, boshqasi uning yelkanlarini o'rnatadi va jihozlaydi, uchinchi esa suvda boshqaradi. Ulardan hech biri boshqalarning barcha g'oyalari va tajribasini birday bilishdek ustunlikka ega emas. Shuning uchun butunni tasavvur qilib, xulosa chiqara olmaydi.

Hatto dengizga chiqqanda kemani boshqarish kabi oddiyroq ishda ham kelishmovchiliklar bo'ladi. Masalan, shamol bir xil esib turganda ham navbatda turgan dengizchilarni (vaxtani) boshqaradigan zobitlarning turli xulosa va qarorlar qabul qilishlariga

guvoh bo'lganman. Ba'zilar yelkanlarni boshqalarga qaraganda, o'tkirroq yoki to'g'riroq burchakda kesib qo'yadilar. Ya'ni rioya qilish uchun muayyan bir qoida yo'qqa o'xshardi. Nima bo'lganda ham, menimcha, bir qator tajribalar o'tkazilishi zarur. Birinchidan, tez yurishni ta'minlovchi kema korpusining eng maqbul shaklini aniqlash lozim. Ikkinchidan, machtalarni o'rnatish uchun eng yaxshi o'lchamlar va eng to'g'ri joyni aniqlash kerak bo'ladi. So'ng yelkanlarning shakli va miqdori, shamolning tezligi, yo'nalishiga qarab, ularning joylashishi aniqlanadi. Nihoyat, yukni joylashtirish masalasi aniqlashtirib olinadi. Davrimiz – tajribalar asridir. Shuning uchun, menimcha, aniq tayyorlangan va o'zaro jamlangan tajribalar majmuasi juda foydali bo'ladi. Shu ma'noda, yaqin orada qaysidir iqtidorli faylasuf bu ishni o'z zimmasiga oladi, deb ishonaman va men unga muvaffaqiyat tilayman.



Safar davomida bizni bir necha marta taqib qilishdi. Biz hammasidan o'zib ketdik va o'ttiz kundan chuqurliklarni o'lchay boshladik. Kuzatishlarimiz ancha to'g'ri ekan. Kapitanimiz ko'zlangan port – Falmutga ancha yaqin kelganimiz haqida xulosa chiqardi. U tuni bilan yaxshi suzsak, tongda gavanning kirish qismiga borib qolishimizga umid bildirdi. Qolaversa, tuni bilan suzsak, dushman qarqochilari bizni sezmay qolishi mumkin, chunki ular odatda ko'rfazga kirish joyida suzib yurishar ekan. Tegishli ravishda, hamma yelkanlarni imkon qadar ochdik. Shamol salqin va bizga hamroh edi. Biz shundoq shamol bag'rida ancha masofagacha suza oldik. Kuzatuvlardan so'ng kapitan yo'nalishini belgiladi. Uning fikriga ko'ra, Silli orollaridan chetlab o'tishimiz kerak edi. Ma'lum bo'lishicha, Avliyo Georg ko'rfazining yuqori qismida o'z domiga tortuvchi kuchli oqim paydo bo'lar ekan. U dengizchilarni yo'ldan adashtirarkan. Ser Kloudsli Shavel eskadrasining halok bo'lishiga ham u sabab bo'lgan. Bizning boshimizga tushgan ishlarning sababi ham shu oqim bo'lsa ajab emas...

Kemaning burun tomoniga navbatchi dengizchi qo'yilgan edi. Unga tez-tez:

– Old tomonga yaxshilab qara, – deyishardi. U esa ko'pincha: – Ha, ha, – deb javob berardi. Balki o'shanda ko'zlari yopiq va uyqusirab turgan bo'larmidi. Chunki aytishlaricha, u ba'zan, uyqusirab, alahsiragannamo javob berardi. Negaki, u rul oldidagi hamda vaxtadagi boshqa odamlar sababli mayoqning yon yelkanlar (lisellar) to'sib turgan yo-

rug'ligini ko'rmay qolgan. Ammo yorug'lik kema-ning tasodifan og'ishi tufayli ko'rinib qoldi va katta vahima-yu shovqinga sabab bo'ldi. Chunki biz unga juda yaqin kelib qolgan ekanmiz. Bu mayoq men- ga aravaning g'ildiragiday katta ko'rindi. Yarim tun va kapitanimiz qattiq uyquda edi. Ammo kapitan Kennedi palubaga sakrab chiqdi va xavfni ko'rib, hamma yelkanlar ochiq holda kemani to'la ortga burishni buyurdi. Bunday ish machtalar uchun o'ta xavfli, ammo ushbu amal kemamizni mayoqdan chetlab o'tkazishga olib keldi va halokatning oldi olindi. Chunki biz mayoq o'rnatilgan tosh qoyali hudud ustida ketayotgan ekanmiz. Bunday najot topishimiz bilan men mayoqlarning foydalilik xusu- siyatiga yana bir bor qoyil qoldim. Agar Amerikaga tirik qaytsam, u yerda ham odamlarni ko'proq ma- yoqlar qurishga undash va rag'batlantirishga qaror qildim.

Tongda chuqurlik o'lchash va h.k.lar bilan port- ga yaqin joyda ekanligimizni tushundik. Ammo qa- lin tuman sababli qirg'oqni ko'rib bo'lmasdi. Tax- minan soat to'qqizda tuman tarqala boshladi va suv ustidan teatr sahnasidagi parda kabi ko'tarilib ketdi. Uning ostida Falmut shahri, portdagi kemalar va uni o'rab turgan dalalar ko'rindi. Bu, o'z navbatida, ochiq ummondan boshqa hech narsani ko'rmasdan uzoq safar qilganlar uchun naqadar yoqimli man- zara edi. Urush holati keltirib chiqaradigan xavo- tirlardan xalos bo'lganimiz bizni yanada xushnud qilardi.

Men o'g'lim bilan darhol Londonga yo'l oldim. Yo'lda seylzberi tekisligidagi Stounxenjni<sup>1</sup> ko'rish uchun biroz to'xtadik. Shuningdek, lord Pembrokning Uiltondagi uyi va bog'lari, qiziqarli va noyob buyumlarini ham ko'rib o'tdik. Biz Londonga 1757-yil 27-iyulda yetib keldik.<sup>2</sup>

Janob Charlz men uchun tashkil etgan turar joyga o'rnatilganimizdan keyin darhol doktor Foterqillni ko'rishga bordim. Unga men haqimda ijobiy tavsiyanomalar berishgan ekan. Undan o'zimga yuklatilgan vazifa bo'yicha maslahatlar olishim lozim edi. Foterqill hukumatga zudlik bilan shikoyat qilishga qarshi edi. Avval mulkdorlarning o'ziga shaxsan murojaat qilish lozim, degan fikrni bildirdi. Masalalar bo'yicha do'stona kelishuvga erishish uchun yaqin do'stlarning oraga kirib gaplashishlari, ularni ko'ndirishga urinib ko'rishlari maqsadga muvofiq ekanligini eslatib o'tdi. So'ng men eski do'stim, muxbir janob Piter Kollinsonni kutdim. U menga Virjiniyadagi katta savdogarlardan biri Jon Hanberi, men kelsam, unga xabar berishlarini so'raganini aytdi. Ushbu janob meni lord Granvillning<sup>3</sup> oldiga olib borib, tanishtirishi mumkin

---

<sup>1</sup> Stounxenj – qadimiy vayrona, dastlabki britan qabilalari tomonidan qurilgan ibodatxona bo'lishi mumkin. Angliyaning Seylzberi shahri yaqinida joylashgan. Bino ulkan toshlardan tashkil topgan ichki va tashqi doiralardan iborat bo'lib, ularning ba'zilari tosh plitalar bilan bir-biriga ulangan.

<sup>2</sup> Shu yerda «Tarjimayi hol»ning Uiliam Templ Franklin va uning vorislari tomonidan nashr etilgan varianti tugaydi. Undan keyin berilgan matn doktor Franklin hayotining so'nggi yilida yozilgan. (Janob Bigelouning 1868-yil nashridagi izohi).

<sup>3</sup> Jorj Granvill yoki Grenvill (1712–1770) 1763-yildan 1765-yilgacha ingliz bosh vaziri sifatida Amerika koloniyalariga to'g'ridan-to'g'ri soliq solishni joriy qilgan. Ba'zan uni inqilobning bevosita sababchisi deb ham atashadi.

ekan. Lord Granvill o'sha paytda Kengash prezidenti edi va meni imkon qadar tezroq ko'rishni istabdi. Men ertasi kuni tongda u bilan borishga rozi bo'ldim. Kelishuvga ko'ra, janob Hanberi meni o'z foytunida o'sha zodagon shaxsning uyiga olib ketdi. Mezbon meni o'ta mamnuniyat bilan kutib oldi. Amerikadagi ishlarning joriy ahvoli haqidagi ba'zi savollar va ular haqidagi suhbatdan keyin menga shunday dedi: «Siz amerikaliklar o'z holingiz tabiati xususida noto'g'ri fikrdasiz. Sizlar qirolning o'z gubernatorlariga bergan ko'rsatmalarini qonun deb hisoblamaysiz. Ularni o'z ixtiyoringiz asosida ko'rib chiqish yoki e'tibordan chetda qoldirish huquqimiz bor, deb o'ylaysiz. Ammo bu xorijga ketayotgan vazirga tadbirning qandaydir arziyas paytida uning xulq-atvorini tartibga solish uchun berilgan ortiqcha ko'rsatmalar emas. Ular, birinchi navbatda, qonunlarni o'rgangan hakamlar tomonidan tuziladi. Keyin ular Kengashda ko'rib chiqiladi, muhokama qilinadi va ehtimol, o'zgartiriladi. Shundan so'ng ularni qirol janobi oliylari imzolaydilar. Bu holda ular sizlarga mo'ljallangan bo'lsa, u o'sha yerning qonunidir. Chunki qirol koloniyalarning qonun chiqaruvchisi hisoblanadi».<sup>1</sup>

Men zoti munavvarlariga bu men uchun yangi bir tushuncha, ma'lumot ekanligini aytdim.

---

<sup>1</sup> Ushbu parcha to'raligicha mustamlakachi mamlakat va uning mustamlakalari o'rtasidagi munosabatlarda angliyaliklar va amerikaliklarning qarashlari qanchalik katta farq qilganligini ko'rsatadi. Grenvill bu yerda amerikaliklarning o'z qonunlarini tuzish yoki o'zgartirishda ovoz berish huquqlari yo'qligini aniq aytgan. Parlament va qirol mustamlakalar ustidan mutlaq hokimiyatga ega bo'lishni xohlashar edi. Franklinning bu yangi munosabat va tushunchadan qo'rqqanligi ajablanarli emas.

– O‘z nizomlarimizdan kelib chiqib, har doim qonunlarimizni Assambleyalarimiz tayyorlaydi, deb tushunar edim. Albatta, ular qirolga uning roziligini olish uchun taqdim etiladi. Ammo qirolga yetkazilgach, qirol ularni bekor qila olmaydi yoki o‘zgartira olmaydi-ku. Qolaversa, Assambleyalar uning rozilgisiz doimiy qonunlar qabul qila olmaganidek, u ham Assambleyalarning rozilgisiz ular uchun qonun chiqara olmaydi, – deb aytdim.

U menga mutlaqo noto‘g‘ri fikrda ekanligimni aytdi. Men o‘z fikrimda sobit edim. Shunga qaramay, zoti munavvarlarining suhbatini meni biroz xavotirga soldi. Chunki qirol saroyidagi odamlarning bu masaladagi fikrlari nimadan iborat ekanligini bilmasdim. Men buni turar joyimga qaytgach, darhol yozib oldim. Shunda 20 yillar oldin sodir bo‘lgan bir voqeani esladim. Vazirlikdan Parlamentga qirolning koloniyalarga beradigan ko‘rsatmalariga qonun maqomini berish haqidagi hujjat loyihasidagi bir band kelib tushgan. Jamoatchilik palatasi bu bandni rad etgan edi. Shuning uchun biz bu palata a‘zolarini ozodligimizning do‘stlari sifatida chin dildan yaxshi ko‘rardik. Ammo iliq munosabatlarimiz ularning 1765-yilda bizga nisbatan tutgan ishlariga qadar davom etdi xolos. Ya‘ni ular qirolning mutlaq hokimiyati haqidagi bandga qarshi ovoz berganlarining sababi bor ekan. Ular bu mutlaqlikni o‘zlarida saqlab qolmoqchi ekanlar.

Inson tabiatini chuqur tushunishi va shuning natijasida Amerika xarakterini bilganligi uchun u Angliya tomonidan ayni munosabatning muqarrar nati-

jasini oldindan ko'ra bilgan. Grenvill bilan suhbat «Tarjimayi hol»ning ushbu oxirgi sahifalarini uning eng muhim qismlaridan biriga aylantiradi.

Doktor Fotergill yer-mulk egalari bilan gaplashibdi. Bir necha kundan keyin ular men bilan janob T.Penning «Bahor» nomli bog'idagi uyida uchrashishga kelishib olibdilar. Dastlab suhbat oqilona, sog'lom aqlga asoslangan yon berishlar, kelishuvga erishish haqidagi o'zaro e'lonlardan iborat bo'ldi. Ammo, har bir tomon sog'lom aqlga asoslangan tushunchasi nimani anglatishi xususida o'z fikrlariga ega edi, albatta. Keyin men sanab o'tgan bir nechta shikoyat nuqtalarini ko'rib chiqishga kirishdik. Yer-mulk egalari o'z imkoniyatlari doirasida xatti-harakatlarini oqladilar. Men, o'z navbatida, Assambleyaning ishlarini oqladim. Aftidan, hozir fikrlarimiz bir-biridan juda uzoq, shunchalik uzoq ekanki, kelishuvga bo'lgan barcha umidlarni chippakka chiqarishi mumkin. Biroq shikoyatlarimizning mazmun-mohiyatini yozma ravishda berishim lozimligi haqidagi xulosaga kelindi. Ular ham bu masalalarni ko'rib chiqishga va'da berishdi. Tez orada hujjatni tayyorlab berdim. Keyin bilsam, hujjatni o'z advokatlari Ferdinand Jon Perisga berishibdi. Peris ularning Merilenddagi qo'shni yer-mulk egasi lord Baltimor bilan katta sud ishi doirasidagi yuridik masalalarini olib borayotgan edi. Sud ishi 70 yildan beri davom etayotgandi. U yer-mulk egalarining Assambleya bilan bahslaridagi barcha xatlari va xabarlarini yozib, tayyorlab berardi. Ushbu advokat o'ta mag'rur, ichi

qora odam edi. Assambleyaning javoblarida uning hujjatlarini yaxshigina tanqid ostiga olgan hollarim bo'lgan. Chunki u dalil-isbotlarda juda zaif va ifoda etishda o'ta kibrli edi. Shu asnoda uning menga nisbatan dushmanlik kayfiyati uyg'ongandi. Buni u har uchrashib qolganimizda, namoyish etardi. Yer-mulk egalari shikoyatimning asosiy mazmun-mohiyatini u va men o'zaro muhokama qilishimiz haqidagi taklifimni rad etdi. Ulardan boshqa har kim bilan bu masalalarni muhokama qilishdan bosh tortdi. So'ng uning maslahatiga ko'ra, hujjatni prokuror va Bosh prokuror o'rinbosariga yuborishibdi. Ulardan bu borada fikrlari va maslahatlarini so'rashibdi. Ularning idorasida hujjat sakkiz kun kam bir yil javobsiz yotdi. Bu vaqt ichida men yer-mulk egalardan javob so'rab, tez-tez xat yozib turdim. Oladigan yagona javob prokuror va Bosh prokuror o'rinbosaridan hali javob olmaganliklari haqidagi xabarlar bo'ldi xolos. Ular buni qabul qilganlarida ham mazmuni nimadan iborat ekanligini menga hech qachon aytishmadi. Ammo Assambleyaga Peris tuzgan va imzo chekkan uzundan-uzoq xabar jo'natishdi. Unda men bergan hujjatdan iqtiboslar keltirib, rasmiylik xossasi yo'qligidan shikoyat qilishibdi. Bu men tomonimdan sodir etilgan qo'pollik alomati emish. O'z xatti-harakatlariga sayoz asoslar berishibdi hamda Assambleya ular bilan kelishuvga erishish uchun biron bir vijdonli odamni yuborsa, masalalarni hal qilishga tayyor ekanliklarini ko'rsatishibdi. Bu bilan mening vijdonli emasligimga ishora qilishibdi.

Ehtimol, rasmiyatchilikning yetishmasligi yoki qo'pollik hujjatda ularga o'zlariga berilgan belgilarni ko'rsatib, murojaat qilmaganligimdan bo'lsa kerak. Ya'ni Pensilvaniya mintaqasining «Haqli» va «Mutlaq yer-mulk egalari» kabi iboralar ishlatilmagan. Men hujjatda bunday sifatlarni qo'llamaslikni lozim topdim. Chunki uni yozishdan maqsad o'zim suhbatda viva-voce (og'zaki) aytgan gaplarni aniq, tushunarli holda tushirishdan iborat edi.

Biroq javobni olish vaqti cho'zilib ketganligi tufayli Assambleya gubernator Dennining yerlari va mulkini xalqning yer-mulki bilan bir qatorda, soliqqa tortishga ko'ndirishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa bahsdagi eng katta masalalardan biri edi. Ammo ular xabarga javob berishmadi.

Lekin bu qonun loyihasi qabul qilingach, Perisning maslahati asosida, yer-mulk egalari unga qirolning roziligini olishda qarshi chiqishga qaror qilishibdi. Shunga ko'ra, ular Kengashda qirolga murojaat qilishdi va masalani ko'rib chiqish majlisi tayinlandi. Unda ushbu qonunga qarshi ishlash uchun ikkita advokat yollashdi. Men ham bu qonunni yoqlab chiqish uchun ikki nafar advokat yolladim. Ularning ta'kidlashicha, bu qonunning maqsadi oddiy xalqning yer-mulkini soliqlardan ozod qilib, katta yer-mulk egalari zimmasiga soliq yuklashdan iborat emish. Qolaversa, u amal qilishda davom etsa, xalq bilan salbiy munosabatda bo'lgan katta yer-mulk egalari soliqlarni taqsimlashda uning rahm-shafqatiga muhtoj qolar emishlar. Bu esa ularni xonavayronlikka olib kelarmish. Biz qonunda

bunday maqsad ko'zda tutilmagani va bunday natijaga olib kelmasligini tushuntirdik. Baholovchilar adolatli, teng asosda baholashga qasamyod qilgan halol va sog'lom, aqlli odamlar ekanligi ko'rsatildi. Ularning har birida mulkdorlarning soliqlarini ko'paytirish orqali o'z soliqlarini kamaytirish bilan olinadigan har qanday foyda, ustunlik juda kam bo'ladi. Shu sababli bu ularni yolg'on guvohlik berishga unday olmaydi. Bu men har ikki tomon keltirgan dalil-isbotlardan yodimda qolganlari edi. Bu yerda bir narsani aytib o'tish kerak. Biz qonunni bekor qilish natijasida yuzaga keladigan halokatli oqibatlarni qat'iy ta'kidlab keldik. Qirolning foydasi uchun uning xizmatiga mo'ljallangan, chop etib beriladigan 100 000 funt endi xalq orasida taqsimlanadi. Uni bekor qilish ularning qo'lida ko'pchilikning xonavayron bo'lishiga sabab bo'ladigan darajadagi halokatga olib keladi. Kelajakda grantlar berish imkoniyatlari butunlay ishdan chiqadi. Buning hammasi yer-mulk egalarining barchani halokatga boshlaydigan xudbinligi tufayli yuzaga keladi. Ayni xudbinlik esa ularning yer-mulkklariga go'yoki katta soliqlar solinishidan asossiz qo'rqishlarining oqibatidir. Shunda maslahatchi advokatlardan biri lord Mensfild o'rnidan turdi. Menga ishora qilib, xodim (klerk)ning xonasiga olib bordi. Bu paytda advokatlar o'z da'volarini bayon etayotgandilar. U mendan, agar qonun hujjati amalga kiritilsa, haqiqatan ham, yer-mulk egalarining mol-mulkiga zarar yetmaydi, deb o'ylash-o'ylamasligimni so'radi.

– Albatta, zarar yetmaydi, – dedim.

– Unday bo'lsa, – dedi u, – siz bu fikrni tasdiqlash uchun bitim tuzishda ko'p e'tiroz bildirmasangiz kerak.

– Hech qanday e'tirozsiz, – deya javob berdim. Keyin u Perisni xonaga chaqirdi. Biroz muloqotdan so'ng zoti munavvarlarining taklifini ikkala tomon ham qabul qildi. Kelishuvni rasmiylashtirish maqsadida, Kengash kotibi uning matnini tuzdi. Matnni men va janob Charlz imzoladik. U ham mintaqaning odatiy ishlari bo'yicha vakili edi. Lord Mensfild Kengash xonasiga qaytib keldi. U yerda, nihoyat, qonunni qabul qilishga imkon berdi. Shunga qaramay, ayrim o'zgarishlar tavsiya qilindi. Biz ularni yana bir qonun bilan rasmiylashtirish lozimligini aytdik, ammo Assambleya a'zolari bu tavsiyalarni zarur deb hisoblamadi. Kengash buyrug'i kelguniga qadar ushbu qonun asosida bir yillik soliq undirilganligi sababli, baholovchilarning ishlarini ko'rib chiqish uchun qo'mita tayinlandi. Bu qo'mitaga yer-mulk egalariining bir necha nafar alohida do'stlari ham a'zo qilib tayinlandilar. To'liq so'rab-surishtirishdan so'ng ular bir ovozdan soliqning mukammal tenglik bilan baholanganligi to'g'risidagi hisobotni imzoladilar.

Assambleya mening muzokaralarning birinchi qismiga kirishimni mintaqamiz uchun muhim xizmat deb hisoblar edi. Chunki bu o'sha paytda butun mamlakat bo'ylab muomalaga kiritilgan qog'oz pullarning qadri, to'lov qudratini ta'minlardi. Qaytib kelganimda, ular menga rasman minnatdorchilik bildirishdi. Ammo yer-mulk egalari gubernator Den-

nidan qonunni qabul qilganligi uchun qattiq g'azablanishdi. Uni, ko'rsatmalar talablarini buzganligi uchun sudga berish bilan tahdid qilib, majlisdan chiqarib yuborishdi. Biroq u ayni ishni generalning iltimosiga ko'ra va qirol janobi oliylarining xizmati uchun qilganligini aytdi. Sudda katta ta'siri, himoyasi borligi sababli tahdidlarga e'tibor bermadi va bu tahdidlar hech qachon amalga ham oshirilmadi... [matn tugallanmagan]

## ILOVA



### ELEKTR VARRAK

#### Piter Kollinsonga

**Filadelfiya, 1752-yil, 19-oktyabr**

SER,

Yevropada jamoatchilikka e'lon qilingan davlat hujjatlarida baland binolar va boshqa joylarda o'rnatilgan uchi o'tkir metall tayoqlar vositasida bulutlardan elektr olovini olish bo'yicha Filadelfiyadagi tajribaning muvaffaqiyati haqida ko'p yozmoqdalar. Shuning uchun, qiziqqan odamlarni xuddi shunday tajriba Filadelfiyada ham muvaffaqiyatli o'tkazilganligi haqida xabardor qilish maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Bu tajriba quyidagicha, boshqa va osonroq usulda o'tkazildi:

Kedr<sup>1</sup> daraxtining ikki yengil taxtasidan kichik xoch yasaladi. Taxtalar tomonlarining uzunligi yupqa shoyi ro'mol yozilganda, uning burchaklariga

---

<sup>1</sup> Kedr – qarag'aydoshlarga mansub, doim yashil igna bargli daraxt.

yetadigan bo'lishi lozim. Ro'molning burchaklari xochning uchlariga bog'lanadi. Shu tariqa varrakning korpusi tayyor bo'ladi. Unga dum, ilgak va ip moslashtirib ulanadi. Moslama qog'oz varraklarga o'xshab, havoga ko'tariladi. Shoyi matodan qilinganligi tufayli momaqaldiroq paytidagi shamol va namlikka yirtilib-titilib ketmasdan dosh bera oladi. Xochning tik tayog'ining yuqori qismiga yog'ochdan bir fut yoki undan uzunroqqa chiqib turadigan o'tkir uchli simni mahkamlash lozim. Ipning oxiriga, bilakning yonida ipak lenta bog'lash kerak hamda ipak va ip qo'shilgan joyga kalitni mahkamlab osib qo'yish mumkin. Ushbu varrakni momaqaldiroq paydo bo'lganda havoga uchirish lozim. Ipni ushlab turgan kishi eshik yoki deraza ortida, yoki biron bir pana ostida turishi kerak. Bu ipak lentaning namlanib qolmasligi uchundir. Shuningdek, ipning eshik yoki deraza ramkasiga tegmasligini ta'minlash shart. Har qanday momaqaldiroq bulutlari varrak ustiga uchib kelishi zahoti uchi o'tkir sim ulardan elektr olovini tortib oladi va barcha iplar elektrlashadi. Ipning bo'shashgan qism, tolalari har tomonga tarqalib, ajralib turadi va barmoqni yaqinlashtirganda, unga tortiladi (yaqin keladi). Varrak va ip yomg'irdan ho'l bo'lganda, ip elektr olovini erkin o'tkazsa oladi. Barmog'ingiz bo'g'imiga yaqinlashtirsangiz, uning (elektr olovining) kalitdan mo'l-ko'l oqishini ko'rasiz. Bu kalitdan kichik butilkacha zaryadlanishi mumkin. Shu tariqa elektr olovi olish, spirt yoqish va elektr bilan bog'liq boshqa tajribalarni o'tkazish mumkin. Bu tajribalar odatda ishqalangan shisha


shar yoki naycha yordamida amalga oshiriladi. Bu bilan elektr tokining chaqmoq bilan bir narsa ekanligi to'liq namoyish etilib, isbot qilinadi.

B. FRANKLIN

**Father *Abraham* in his STUDY.**

He's ready sworn in  
Confess or in Praise:

**Good-Nature, Wit, and Judgment round him wait ;  
And thus he sits imbro'd in Classick-State :**



**To Fallings mild, but zealous for Defect ;  
The clearest Head, and the sincerest Heart.**

} Few Men share our  
Pages either Way.

**T**HE SHADE of Him who Counsel can bestow,  
Still pleas'd to teach, and yet not proud to know ;  
Umbias'd or by Favour or by Spite ;  
Nor dully prepossess'd, nor blindly right ;  
Tho' learn'd, well-bred ; and, tho' well-bred, sincere ;  
Modestly bold, and humanely severe ;  
Who to a Friend his Faults can sweetly show.  
And gladly praise the Merit of a Foe.  
Here, there he sits, his cheerful Aid to lend ;  
A firm, unshaken, uncorrupted Friend,  
Averse alike to flatter or offend.

**Printed by Benjamin Mecom, at the New  
Printing-Office, (near the TOWN-HOUSE, in Boston) where  
BOOKS are Sold, and PRINTING-WORK done, Cheap.**

*Abraham ota o'z o'quv-ilmiy laboratoriyasida.  
«Abraham otaning nutqi»dan, 1760-yil, Nyu-York  
jamoatchilik kutubxonasidagi nusxadan olingan.*

## BOYLIKKA YO'L

*(1758-yilda chop etilgan «Kambag'al Richardning almanaxi» kitobiga muqaddima sifatida kiritilgan «Abraham otaning nutqi»dan.)*

O'z xalqi uning xizmatiga sarf qiladigan vaqtining o'ndan bir qismini soliqqa soladigan hukumatni qattiq va noloyiq hukumat desa bo'ladi. Ammo bekorchilik ko'pchiligimizga bundan-da ko'proq soliq soladi. Bu mutlaqo bekorchilikda yoki hech narsa qilmasdan, ya'ni behuda ishlar yoki ko'ngilocharlik bilan boy berilgan barcha narsalar, imkoniyatlarni anglatadi. Bekorchilik kasallik olib keladi va hayotimizni mutlaqo qisqartirib yuboradi. Bekorchilik hayotimizni mehnatdan yuz chandon tezroq zang kabi yemirib, ado qiladi. Zero, kambag'al Richard aytganidek, muntazam ishlatiladigan kalit doim yaltirab turadi. Hayotni sevsang, vaqtni behuda sarflama, chunki Kambag'al Richardning aytishicha, hayot aynan vaqtdan iborat. Uyquga keragidan ortiq qancha vaqt sarflaymiz? Ko'p uxlaydigan tulki birorta ham qush ovlay olmaydi yoki Kambag'al Richard aytganidek, qabrda keragicha uxlashga vaqt bo'ladi.

Agar vaqt hamma narsadan qadrli bo'lsa, uni behuda sarflash, Kambag'al Richard aytganidek, eng buyuk isrofgarchilik bo'lsa kerak. Chunki u boshqa joyda aytganidek, yo'qolgan vaqt hech qachon topilmaydi. Biz «yetarli vaqt» deb ataydigan narsa har doim yetarli emasligini isbotlaydi: Unda o'rnimizdan turaylik va maqsadga erishish uchun harakat qilay-

lik. Tirishqoqlik bilan ishlaganda biz kamroq maqsadga kamroq qiyinchilik bilan yetamiz. Dangasalik hamma narsani qiyinlashtiradi. Ammo mehnatsevarlik barcha narsani osonlashtiradi, deydi Kambag'al Richard. Zero, dangasalik shunchalar sekin yuradiki, qashshoqlik tez orada uni quvib yetadi va o'tib ketadi. Kambag'al Richardning so'zlaridan yana bir qo'shimchani o'qiyimiz: O'z ishingni o'zing yetakla, ishing seni yetaklamasin. Erta yotish, erta uyqudan turish odamni sog'lom, boy hamda dono qiladi.

Mehnatsevar odam hech narsaga zor bo'lmaydi. Umid bilan hech narsa qilmaydiganlar esa ochlikdan o'ladilar.

Jon kuydirmasang, jonona qayda, toqqa chiqmasang, do'lana qayda?

Savdo qilgan kishi mol-mulkka, iste'dodi bor inson esa foyda va sharafiga ega bo'ladi. Ammo savdo-sotiq ishi jiddiy mehnatni talab qiladi. Iste'dodga ishlov berib, rivojlantirish va unga rioya qilish lozim. Aks holda, na mol-mulk, na nufuz soliqlarimizni to'lashga imkon beradi.

Garchi xazina topib olmagan bo'lsangiz ham, biror boy qarindoshingiz ulkan meros qoldirmagan bo'lsa ham qayg'urmang. Tirishqoqlik omadning onasi, deydi Kambag'al Richard. Xudo barcha yaxshi narsalarni mehnatsevar insonga beradi.

Bugungi bitta kun ertangi ikki kunga teng. Shuningdek, bugungi ishni ertaga qo'yma.

Bordi-yu xizmatkor bo'lganingizda, yaxshi ko'rgan xo'jayiningiz sizni bekorchilik qilib yurganingizda tutib olishidan uyalmasmidingiz? Agar o'zingizga

o'zingiz xo'jayin bo'lsangiz, o'zingizni bekorchilikda tutib olishdan uyaling.

Harakatda doimo sobit bo'ling va shundagina ulkan ijobiy natijalarini ko'rasiz. Chunki suvning tinimsiz tomchilashi toshlarni yemirib yuboradi. Ti-rishqoqlik va sabr birlashganida, uddalab bo'lmas ish qolmaydi. Kichik zarbalar birlashib, ulkan qa-yinlarni qulatadi.

Ba'zilaringizning: «Inson bolasi o'ziga bo'sh vaqt bermasligi kerakmi?» degan savolingizni eshityap-man. Do'stim, sizga Kambag'al Richard nima de-ganini aytaman: Agar bo'sh vaqt topish niyating bo'lsa, vaqtingdan unumli foydalan. Bir daqiqaga ishonching komil emasmi, bir soatni behuda sarfla-ma. Bo'sh vaqt – bu biror foydali ish qilish vaqti. Bo'sh vaqtni tirishqoq odam topa oladi, dangasa odam esa hech qachon. Ya'ni, Kambag'al Richard aytganidek, bo'sh vaqtda va dangasalikda o'tadigan hayot ikki turli narsadir.

Do'koningni yaxshi yurit va u seni boqadi. Agar ishim bitsin desang, o'zing borib bajar, bitishini xohlamasang, birovni jo'nat.

Agar sodiq xizmatkoring bo'lishini xohlasang, o'zingga o'zing xizmatkor bo'l.

Ozgina e'tiborsizlik, beparvolik katta talafot kelti-rib chiqarishi mumkin. Chunki mix yo'qligidan taqa tushib qoldi. Taqa yo'qligi sababli ot safdan chiqdi. Ot safdan chiqib, otliq askar halok bo'ldi. Askar halok bo'lib, qo'shin tartibi buzildi. Qo'shin tarqalib, jang boy berildi. Buning barchasi ot taqasi uchun bitta mixga e'tibor berilmaganligi tufaylidir.

Mehnatsevarlik va o'z ishiga yetarlicha e'tibor berish – muhim, ammo bularga tejamkorlikni ham qo'shish shart.

Balki, ba'zida choy, onda-sonda ozgina punsh<sup>1</sup> parhezni biroz qimmatlashtiradi, deb o'ylarsan. Seningcha, biroz nafis va qimmat kiyimlar, ba'zida ko'ngilocharlik katta muammo bo'lmasa kerak. Ammo Kambag'al Richarding so'zlarini yodda tut: «Ozginalarning ko'pi ulkanga olib keladi».

Kichik xarajatlardan ehtiyot bo'l. Kichik teshikcha ulkan kemani cho'ktiradi. Yana bejirim va qimmat narsalarni juda yaxshi ko'rgan odam tilanchi bo'lib qoladi.

O'zingga kerak bo'lmagan narsalarni sotib olsang, tez orada eng kerakli narsalaringni sotishni boshlaysan.

Agar pulning qadri va qiymatini bilishni xohlasang, borib biroz qarz ol. Qarzga kiradigan odam pushaymon-u arzga kiradi.

Yolg'on gapirish ikkinchi xato bo'lsa, birinchisi qarzga botish.

Yolg'on qarzning orqasiga minib yuradi.

Qashshoqlik odamni ko'pincha ruhiy quvvati va yaxshi fazilatlaridan mahrum qiladi: bo'sh qop tik tura olmaydi.

Xulosa qilsak, tajriba qimmatbaho maktabdir. Ammo ahmoqlar na undan, na bundan o'rganadilar, o'rgansalar ham ular juda kamchilikni tashkil qiladilar. Chunki odam maslahat bera oladi, ammo harakat va

---

<sup>1</sup> Punsh – tarkibida besh xil asos mavjud ichimlik: spirt, suv, meva sharbati, shakar va ziravorlar.

tajriba bera olmaydi. Kambag'al Richardning so'zlari bilan aytsak: «Nima bo'lsa-da, bir narsani yodda tut. Maslahat olmagan odamga yordam berib bo'lmaydi». Yana: «Aql-zakovatga quloq tutmasang, u barmoqlaringga qattiq zarba beradi».

## HUSHTAK

### Brillon xonimga

#### Passi, 1779-yil, 10-noyabr

Men Sizning jannatga bergan ta'rifingiz va u yerda yashash rejangizga maftun bo'ldim. Xulosangizning aksariyat qismini ma'qullayman. Ammo shu bilan birga, biz bu dunyoda qo'limizdan kelgan barcha yaxshiliklarni qilishimiz kerak. Menimcha, agar behuda orzu-havas va narsalarga juda ko'p badal to'lashni xohlamasak, hammamiz odatdagidan ko'proq yaxshilik hamda kamroq yomonlik qilishimiz lozim. Chunki, aynan mana shu ehtiyotkorlikni e'tibordan chetda qoldirganliklari uchun ham ayrim odamlar eng baxtsiz kishilardir.

Nimani nazarda tutayotganimni sezyapsizmi? Modomiki, hikoyalarni yaxshi ko'rarkansiz, bir hikoya so'zlab berishga ijozat bering.

Chamasi yetti yasharlik chog'imda do'stlarim tug'ilgan kunim munosabati bilan cho'ntagimni mis chaqalarga to'ldirishdi. Hech ikkilanmasdan bolalar o'yinchoqlari sotiladigan do'konga bordim. U yerda boshqa bir bolaning qo'lida ko'rganim hushtakning ovozigga maftun bo'lib, unga ixtiyoriy ravishda bit-

ta hushtak uchun hamma pulimni taklif qildim va biz kelishdik. Keyin uyga keldim va bu ishimdan juda mamnun bo'lib, butun uyga shovqin solgancha hushtak chaldim. Lekin bundan barcha oila a'zolarim bezovta bo'ldi. Aka-ukalarim, opa-singillarim va amakivachchalarim men qilgan savdoni eshitib, hushtak uchun to'rt baravar ko'p pul to'laganimni aytishdi. Bu pulga qanday yaxshi narsalar sotib olishim mumkinligini tushuntirishdi. Ha, ular ahmoqligim uchun ustimdan kulishdi. Men esa alamidan yig'ladim. Bu haqda o'ylash menga hushtak zavq bag'ishlaganidan ko'ra ko'proq pushaymonlik olib keldi. Biroq bu hodisa keyinchalik men uchun foydali bo'ldi. Uning asorati xayolimda aylanishda davom etdi. Shu tariqa ko'pincha keraksiz narsalarni sotib olish vasvasasiga tushganimda o'zimga: «Hushtak uchun haddan ortiq haq to'lama», – der edim.

Ulg'ayganim sari dunyoni ko'rdim va ko'p narsani tushundim. Odamlarning ishlari va harakatlarini kuzatib, bittagina hushtak uchun juda ko'p narsalar berganlarni ko'rdim...

Bir insonni bilardim. Qirol saroyida a'yon bo'lish orzusiga tushibdi. O'z vaqtini saroydagi erkaklar qabuliga qatnashga sarflay. Nafaqat o'z halovatini, erkinligini, qadr-qimmatini, balki o'z do'stlarini ham yo'qotish evaziga saroy a'yoni maqomini olishga intilgan. Uni kuzatib, o'zimga: «Bu odam bittagina hushtak uchun juda ko'p badal to'layapti», deganman.

Men yana bir odamni bilaman. U mashhurlikni yaxshi ko'rardi. Tinmay qanaqadir siyosiy ishlarga aralashib yurardi. O'z ishlarini tashlab qo'yib, oxiroqibat xonavayron bo'ldi. Men yana: «Bu odam o'z hushtagi uchun juda katta narx to'lamoqda», deb hisoblardim.

Agar har qanday farovon hayotdan, boshqalarga yaxshilik qilishdan keladigan barcha zavqdan, o'z vatandoshlarining hurmati va samimiy xayrixohlik, do'stlik quvonchlaridan boylik to'plash uchun voz kechgan bir baxilni ko'rsam: «Bechora odam, sen hushtaging uchun juda ko'p pul to'laysan», der edim.

Agar faqat aysh-ishrat uchun yashaydigan, aqlzakovatini maqtovg'a loyiq natijalarga sarflamaydigan, vaqti, boyligi va taqdirini shunchaki tanasining maishati uchun qurbon qiladigan, buning ortidan quvib o'z salomatligini yo'qotadigan odamni ko'rib qolsam, «Gumroh odam, sen o'zingga zavq-shavq bag'ishlash o'rniga azob olib kelyapsan. Bitta hush-tak uchun juda katta badal to'layapsan», deb aytardim.

Ba'zilar tashqi ko'rinishi yoki chiroyli kiyimlar, hashamatli uylar, dabdabali mebel, qimmat foytunlar uchun o'z moliyaviy holatidan ortiqcha sarf qilishadi. Bunga erishish uchun hatto qarzlarga botadilar, oqibatda o'z mehnat va xizmat yo'llarini qamoqda tugatadilar. Bundaylarni ko'rsam: «Afsus! U o'z hush-tagi uchun qimmat, juda qimmat, o'ta qimmat narx to'ladi», deyman.

Tarbiya ko'rmagan rasvo bir odamga turmushga chiqqan go'zal, muloyim tabiatli qizni ko'rsam ham: «E, afsus, bittagina hushtak uchun qancha qurbonlikka boribdi bu qiz», deb aytaman.

Qisqa qilib aytganda, azob-uqubatlarning katta qismi insonlarga narsalarning qadr-qimmatiga noto'g'ri bergan baholari va o'z hushtaklari uchun juda ko'p narsalarni qurbon qilishlari sababli keladi, deb o'ylayman.

Shunga qaramay, men bu baxtsiz odamlarni tushinishga harakat qilishim lozim. Chunki, o'zimda mavjud deb maqtanadigan donishmandligim bo'lsa ham biz yashaydigan olamda odamni vasvasaga solib, o'ziga rom etadigan narsalar juda ko'p. Masalan, Qirol Ioanning olmalari<sup>1</sup>. Baxtimizga, ular sotiladigan narsa emas. Mabodo ularni kimoshdi savdosiga qo'yishsa, bu savdoda juda osonlik bilan xonavayron bo'lardim. O'z navbatida, tez orada umrimda yana bir hushtak uchun juda katta narx to'laganimni anglagan bo'lardim.

Yana ko'rishguncha omon bo'ling, aziz do'stim. Sizga nisbatan har doim samimiy va o'zgarmas muhabbat bilan,

**B.Franklin**

---

<sup>1</sup> Olmaning bu navi taxminan 6-may ya'ni Avliyo Ioan kuniga pishishi sababli shunday nomlangan.

## SAMUEL MATERGA XAT

**Passi, 1784-yil, 12-may**

Taqsir,

Bostondan chiqib ketganimga 60 yildan oshdi. Ammo otangizni ham, bobongizni ham yaxshi eslayman. Ularning minbarlardan aytgan va'zlarini tinglaganman, xonadonlarida ham bo'lganman. Otangizni oxirgi marta 1724-yil boshida, Pensilvaniyaga birinchi safarimdan keyin uylariga borib, ko'rgan edim. U meni o'z kutubxonasida qabul qildi va uydan tor yo'l orqali chiqib ketish uchun qisqaroq yo'lakni ko'rsatdi. Yo'lak tepasida ko'ndalang to'sin bor edi. Chiqib ketayotganimda menga ergashdilar. O'ylarim bilan andarmon bo'lib, u kishiga yarim burilib ketayotgandim. U to'satdan shoshilib, «Egiling, egiling!!!» – dedi. Boshim to'singa urilib, og'riqni sezganimdagina bu ishora va ogohlantirishni angladim xolos. Imkon bo'lganda, u kishi har doim pand-nasihat berardilar. Boshimni urib olganimda, menga shunday dedilar: «Hali yoshsiz va oldingizda katta dunyo turibdi. Bu dunyoni kezishda pastroq egilib yuring va bu bilan ko'plab qattiq zarbalarining oldini olishga muvaffaq bo'lasiz». Miyamga shu tarzda singdirilgan maslahat menga juda ko'p hollarda foyda berdi. Mag'rurlik o'ta pastga urib yuborilgan hollarga ham guvoh bo'ldim. Boshlarini juda baland ko'tarib, kibr bilan kekkayib yurganliklari sababli ne-ne insonlarning boshlariga baxtsizlik tushganini ko'rdim. Bunday holatlarning har birida otangizning oltin-ga teng maslahatlari yodimga tushar edi.

**B.Franklin**

## YOSH SAVDOGARGA MASLAHAT

[1748-YIL, 21-IYUL]

Jorj Fisherning: «Amerikalik ustoz yoxud yosh yigitning eng yaxshi hamrohi» («The American instructor: or Young Man's Best Companion») o'quv qo'llanmasi tarkibida nashr etilgan... Qayta ko'rib chiqilgan va tuzatilgan to'qqizinchi nashr. Filadelfiya. B.Franklin va D.Holl tomonidan chop etilgan, New-Printing-Office bosmaxonasi, Market ko'chasi, 1748-yil, bet 375-7. (Yeyl Universiteti kutubxonasi).

Jorj Fisherning «The Instructor: or Young Man's Best Companion» kitobi o'sha davrda mashhur o'quv qo'llanmalardan biri edi. U o'z biznesini boshlayotgan yoshlarga ingliz tili grammatikasi, husnixat, insho, arifmetika, buxgalteriya hisobi va boshqa bilimlarni o'rgatishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi.<sup>1</sup> Aslida, Fisherning qo'llanmasi shu kitob asosida tuzilgan, undan ko'plab tafsilot va qoidalar ko'chirib olingan edi. Qo'llanma birinchi marta 1730-yilda yoki undan oldinroq Londonda nashr etilgan. Oltinchi nashr 1742-yilda amalga oshirilgan va sakkizinchi nashr taxminan 1748-yildan oldin chop etilgan. 1745-yilda Franklin uning yigirma to'rt nusxasini import qilgan va 1747-yilda Amerika nashrini ola boshlagan. Bu «To'qqizinchi nashr» bo'lib, «Gazette»ning 1748-yil 21-iyuldagi sonida «Birinchi nashr» deb e'lon qilingan.

Aslida bu Angliyada nashr etilgan asl nusxaning to'laligicha bo'lmasa ham, qayta nashr etilishi edi.

---

<sup>1</sup> Uilyam Materning «The Young Men's Companion» (Yosh yigitning hamrohi) kitobining raqibi.

Franklin qo'llanmaning nomini «The American Instructor» deb o'zgartirdi. U Fisher kitobining ba'zi qismlarini tushirib qoldirdi va amerikalik o'quvchilar uchun yangi material qo'shdi. Masalan, ingliz tili ustozining (English Instructor's) qisqacha tibbiy ko'rsatmalari o'rniga, «The American Instructor» kitobi tarkibida Jon Tennentning «Har bir inson o'zining tabibi» («Every Man his own Doctor») asarini qayta nashr etdi. Shuningdek, bir necha koloniyalarning tarixi va hukumati haqida ma'lumotlar berildi. Pensilvaniya tarixi va hukumati tarixini Franklin shunchaki juda oddiy yozgandi: «Hozirgi paytda dunyodagi eng baxtli mamlakatlardan biri. Xudo bu farovonlikni bardavom qilsin». Husnixatni o'qitishni targ'ib qilish maqsadida, Uilyam Mater singari husnixat egalarining to'rt xil yaxshi namunalaridan kiritdi. Shuningdek, u o'zining marhum do'sti Jozef Breyntnall ishlab chiqqan «O'n ikki shifr»ning tavsifini ham kiritgandi. Nihoyat, u quyida keltirilgan Yosh savdogarga maslahatni ham taqdim etdi.

## **KEKSA SAVDOGARNING YOSH SAVDOGARGA MASLAHATI**

**Do'stim A.B.ga**

Iltimosingizga binoan, quyidagi foydali maslahatlarni qog'ozga tushiryapman. Ular menga juda qo'l kelgan. Amal qilsangiz, sizga ham foydasi tegishi muqarrar.

Vaqt – bu pul ekanligini unutmang. O'z mehnati bilan kuniga o'n shilling topa oladigan, ammo xorijga sayohatga ketadigan yoki o'sha kunning yarmini bo'sh, bekorchilik bilan o'tkazadigan kishi o'sha safari yoki bekorchiligi vaqtida atigi olti penni sarfladim, deb hisoblaydi. Ammo u zinhor atigi olti penni ekan, deb o'ylamasligi kerak. Aslida esa u kamida besh shilling sarflagan yoki to'g'rirog'i – uni shamolga sovurganligi aniq.

Qarz pul ekanligini unutmang. Agar biror inson o'z pullarini menga bergan bo'lsa, uni qaytarish payti o'tgandan keyin, u kishi menga foizlarni yoki o'sha qaytarilguncha bo'lgan vaqtda bu pul yordamida topa olishim mumkin bo'lgan mablag'ni menga bergan bo'ladi. Agar inson olgan qarz y ya'ni maqsadli va ko'p bo'lsa, undan oqilona foydalansa, bu miqdor ancha kattalashishi mumkin.

Pul serhosil ishlab chiqarish xususiyatiga egaligini yodda tuting. Pul (yana) pul tug'ishi va undan hosil bo'lgan pul yanada ko'proq pul olib kelishi mumkin. Besh shilling biznes yoki biror ishda muomalaga kiritilsa, olti shilling keltiradi. Qayta ishda

aylantirilsa, yetti shilling uch penniga aylanadi. Shu tariqa, pul yuz funtga yetguncha ishda aylanadi. Pul qancha ko'p bo'lsa, har bir aylantirilganda, shuncha ko'p pul olib keladi. Bu bilan foydalar tez va yanada tez oshib boradi. Nasl beradigan urg'ochi cho'chqani so'ygani kishi uning barcha avlodlarini minginchi avlodga qadar yo'q qilgan bo'ladi. Saltanat toji egasini o'ldirgan odam u keltirishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni, hatto minglab, millionlab funt pullarni yo'qqa chiqaradi.

Yiliga olti funt pul ishlash kuniga atigi to'rt pen-ni pul topishni anglatishini yodda tuting. Chunki bu ozgina pul (bu pul vaqtni bekor o'tkazish yoki asossiz xarajatlar bilan behuda sarf qilinishi ham mumkin) ilg'or maqsad va obro'-e'tiborga ega odamning qo'lida, ulkan mas'uliyat hisobiga yuz funt pulga aylanishi va foydalanishda bo'lishi mumkin. Zaxirasida shuncha pul bo'lgan mehnatsevar odam o'ta katta foyda olishga qodir.

Yaxshi xazinachi boshqa bir odam hamyonining xo'jayini, degan iborani yodda tuting. To'lovlarini o'zi va'da bergan vaqtda muntazam va aniq ado qiladigan odam har qanday vaqtda, har qanday vaziyatda o'z do'stlari bera oladigan barcha pulni olishga qodir. Mana bu gap ba'zan ko'p foyda beradi: Qarzga olingan pulni va'da qilingan vaqtdan bir soat ham ortiq o'zingizda olib qolmang. Aks holda ko'ngli qolgan do'stlaringizning hamyonlari siz uchun bir umrga yopiladi.

Insonga bo'lgan ishonch, obro'ga ta'sir ko'rsatadigan har qanday iker-chikir narsa yoki ishlarni ham

hisobga olish shart. Agar sizga qarz bergan odam tong sahar soat beshda yoki kechki soat to'qqizda bolg'angizning ishlab turgan ovozini eshitsa, bu hol olti oydan keyin uning qaror qabul qilishiga ijobiy ta'sir qilib, ishni osonlashtiradi. Ammo ishda bo'lishingiz kerak vaqtda u sizni billiard stoli atrofida o'ynayotganingizni ko'rsa yoki qovoqxonada ovozingizni eshitsa, ertasi kuni pulni qaytarish uchun xabar yuboradi. Siz u yoki uning xotini kiygan kiyimlardan qimmatroq va nafisroq kiyimlarni kiyasangiz, yoxud u o'zi uchun yo'l qo'yadigan miqdordan ko'proq pul miqdorida xarajatlar qilsangiz, uning g'ururiga tegasiz. U sizni xoksor ahvolingizga qaytarib qo'yish uchun qarzni talab qilib turib oladi. Qarz beruvchi odamlar ko'zlari eng o'tkir ko'radigan, quloqlari eng yaxshi eshitadigan odamlarga o'xshaydilar. Shuningdek, ularning xotirasi dunyodagi eng yaxshi xotira hisoblanadi.

Ko'ngli yumshoq qarz beruvchilar (agar imkoni bo'lsa, albatta, aynan mana shundaylarni tanlash lozim) pullarini so'rab olishga majbur bo'lishsa, aziyat chekishadi. Siz ularni bu aziyatdan xalos qiling va oqibatda ular sizni yaxshi ko'rib qolishadi. Ma'lum miqdordagi pul qo'lingizga kelib tushganda, uni qarzlaringizga mutanosib ravishda taqsimlang. Hatto qarzingizning miqdori ancha katta bo'lsa ham, kichikroq miqdorini to'lashdan uyalmang. Oz bo'lsa ham, ko'p bo'lsa ham, odamlar pulni mamnunlik bilan oladilar. O'n funt pulni o'nga bo'lib, o'n marta yoki to'lovni o'n marta ixtiyoriy olib kelib berishlari kabi noqulaylikni afzal ko'radilar. Chunki bu pulni

bir martada olish uchun o'n marta borib, talab qilishga majbur bo'lish maqbul holat emas. Bundan tashqari, ayni holat qarzdor ekanligingizni yodda tutishingizni namoyish etadi. Bu sizni ehtiyotkor va halol odam sifatida ko'rsatib, sizga nisbatan ishonch, hurmat va obro'-e'tibor darajasini oshiradi.

O'zingizda mavjud barcha narsalarni o'zingizniki deb o'ylash va shunga muvofiq yashashdan ehtiyot bo'ling. Bu qarzi ko'p odamlar yo'l qo'yadigan xatolardan biridir. Buning oldini olish uchun ma'lum vaqt ichidagi xarajatlaringizning ham, daromadlaringizning ham hisobini aniq yuriting. Dastavval tafsilotlarni ko'rib, e'tibor bersangiz, quyidagi ijobiy natijaga erishasiz. Kichik ikir-chikir xarajatlarning yig'ilib, katta miqdordagi pullarga aylanishini anglab yetasiz. Shunda katta noqulayliklar keltirib chiqarmasdan qancha mablag'ni asrab qolish mumkin bo'lganligi yoki bo'lishini tushunasiz.

Qisqasi, boylik uchun yo'l orzu qilish bo'lsa, bu bozorga borish yo'li kabi o'ta sodda. U asosan, mehnatsevarlik va tejamkorlik deb nomlangan ikki so'z va xislatga bog'liq. Ya'ni vaqtni ham, pulni ham behuda sarflamang. Balki ikkalasidan ham unumli foydalaning. Hamma narsasini (zarur xarajatlardan tashqari) halol yo'l bilan ololadigan kishining bo'yib ketishi shubhasiz. Agar dunyoni boshqaruvchi, odamlar o'zlarining barcha halol sa'y-harakatlariga inoyat qilishiga umid bildiruvchi buyuk Zotning o'zi hikmat ila boshqacha belgilamasa, bu aniq xulosa.

## BIBLIOGRAFIYA

Franklin asarlarining so'nggi va eng to'liq nashri marhum professor Albert H. Smit tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, Nyu-Yorkda «Macmillan» kompaniyasi tomonidan «Benjamin Franklinning asarlari» nomi ostida o'n jildda nashr etilgan. Boshqa standart nashr Jon Bigelouning «Benjamin Franklinning asarlari» nashri (Nyu-York, 1887) hisoblanadi.

Janob Bigelou tartib bergan «Tarjimayi hol»ning bir jilddagi birinchi nashri 1868-yilda Filadelfiyaning «J.B.Lippincott» kompaniyasi tomonidan nashr etilgan.

Franklinning yozuvchi sifatidagi hayoti J.B.Makmaster tomonidan «Amerika maktublari seriyasi» asarida yaxshi tavsiflangan.

Uning davlat arbobi va diplomat sifatidagi hayoti J.T.Mors tomonidan «Amerika davlat arboblari» seriyasida bitta jildda chop etilgan. Keyinchalik «Haf-ton» va «Mifflin» kompaniyasi ikkala kitobni ham nashr etgan. Franklinning hayoti va davri haqida batafsilroq ma'lumotni Jeyms Partonning «Benjamin Franklinning hayoti va davri» asarida o'qish mumkin (2-jild, Nyu-York, 1864).

Pol Lester Fordning «Ko'p qirrali Franklin» asari latifalar bilan to'ldirilgan, mukammal va to'liq tasvirlangan, eng ko'p muhokama qilinadigan hamda o'qiladigan kitobdir.

«Tarjimayi hol»ning «The Century classics» (Century Co., Nyu-York, 1901) nashriyoti tomonidan chop etilgan nashri Vudro Vilsonning a'lo darajadagi tanqid shaklidagi muqaddimasi bilan boshlanadi.

Franklin asarlarining quyidagi ro'yxatida birinchi nashr sanalari bilan birga, yanada qiziqarli nashrlar nomlari keltirilgan:

1722	«Dogood Papers» («Yaxshilik qilish haqida maqolalar») Addisonning «Spektator» nashri uslubidagi xatlar Jeyms Franklinning gazetasiga berildi va unda «Silence Dogood»ni imzolagan.
1729	«Busybody» («Nomaqbul kishi») Bredfordning Filadelfiya «Weekly Mercury» haftaligida nashr etilgan bir qator esselari, ulardan faqat oltitasi Franklinga tegishli deb hisoblanadi. Ular axloq, falsafa va siyosatga oid. «Dogood papers»ga mazmunan o'xshash.
1729	«Qog'oz pulning tabiati va zarurligi to'g'risida kamtarona so'rov»
1732-dan 1757-yilgacha	«Kambag'al Richardning almanaxiga muqaddimalar» Bular orasida «Boy bo'lishi lozim bo'lganlar uchun maslahatlar», 1737; va 1756-yil «Nyu-Jersiga yuz ming funt tejash rejasi» bor.
1743	«Amerikadagi Britaniyaga tegishli plantatsiyalar orasida foydali bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha taklif» Ushbu maqolada Amerika falsafiy jamiyati uchun ommaviy shakldagi ilk taklif mavjud.

1744	«Yangi ixtiro qilingan Pensilvaniya pechlari bo'yicha hisobot»
1749	«Pensilvaniya yoshlarining ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq takliflar» Ularga keyinchalik Pensilvaniya universitetiga aylangan maktab rejasi ham kiritilgan.
1752	«Elektr varrak» Mashhur varrak tajriba tavsifi, birinchi marta Piter Kollinsonning 1752-yil 19-oktyabr oyida yozilgan maktubida keltirilgan. Keyinchalik o'sha yili «Gentleman's Magazine» jurnalida nashr etilgan.
1754	«Ittifoq rejasi» Olbanidagi mustamlaka kelishuviga taqdim etilgan koloniyalar ittifoqi rejasi.
1755	«X, Y va Z o'rtasidagi dialog» «Pensilvaniya mudofaasi uchun mintaqa armiyasiga qo'shilish bo'yicha murojaat»
1758	«Abraham otaning nutqi» «Kambag'al Richardning almanaxi»ga muqaddima sifatida kiritilgan va uning oldingi sonlarida allaqachon paydo bo'lgan Kambag'al Richardning maksimlari bitta asarda jamlangan. Keyinchalik «The Speech» («Boylikka yo'l») nomi bilan pamflet shaklida nashr etilgan.
1760	«Dushmani tinchlikka ko'ndirish vositalaridan» Fransiyaga qarshi urush boshlash uchun satirik murojaat.

1760	Buyuk Britaniyaning mustamlakalari Kanada va Gvadalupani sotib olishga bo'lgan qiziqishi ko'rib chiqiladi.
1764	«Davlat ishlarining hozirgi holati haqida ajoyib fikrlar» Yer-mulk egalari hukumati o'rniga Pensilvaniya uchun Qirollik hukumatini qo'llab-quvvatlovchi pamflet.
1766	«Doktor Benjamin Franklinning tekshiruvi» va b. Britaniya Jamoatchilik palatasida Amerika muhri (shtampi) to'g'risidagi qonunni bekor qilish haqida.
1766	«Buyuk imperiyani kichik imperiyaga qisqartirish mumkinligi to'g'risida qoidalar» Angliyaning Amerikaga nisbatan tutgan munosabatini o'zida mujassam etgan yigirmaga yaqin satirik qoidalar.
1773	«Prussiya qirolining Farmoni» Prussiya qiroli Angliyaga nisbatan Angliya Amerikaga munosabatda bo'lganidek munosabatda bo'lishi uchun qilingan satira, chunki Angliyada dastlab german qabilalari (nemislar) yashashgan.
1777	«Buyuk Britaniya va AQShni ikki mamlakatda kredit asoslari bo'yicha taqqoslash» Amerika ishi uchun qarzlarni masalasida yozilgan bir nechta shunga o'xshash pamfletlardan biri.
1782	«Yer nazariyasi haqida» Franklinning geologiya bo'yicha eng yaxshi maqolalari.

1782	«Kichik nemis knyazi yozgan deb hisoblangan va o'zining Amerikadagi qo'mondon zobitiga murojaat qilish maqsadida yozilgan xat»
1785	«Mo'rilarning tutash sabablari va uni bartaraf qilish borasida»
1786	«Javob tariqasidagi mulozamat»
	«Amerikaga jinoyatchilarni yuborish» Amerika qarzlarini to'lash uchun Britaniya talablariga javoblar.
1789	«Pensilvaniya qullikni bekor qilishni targ'ib qilish jamiyatidan jamoatchilikka murojaat»
1789	«Pensilvaniyadagi Oliy sud organi, ya'ni Matbuot sudi haqida»
1790	«Martinning konsullik ishi haqidagi hisoboti» Kongressda qullikni yoqlab chiqqan nutqiga parodiya.
1791	«Tarjimayi hol» Birinchi nashr.
1818	«Bagatellar» «Bagatelles» birinchi marta 1818-yilda Uilyam Templ Franklin bobosining asarlari nashrida qo'shib chop etilgan. Quyida ushbu esselarning eng mashhurlari va ular yozilgan sanalar keltirilgan:
1774	«Quvg'inlarga qarshi masal» Franklin buni Ibtido kitobining LI bobi deb atadi.
1774	«Birodarlik muhabbati haqidagi masal»

1778	«Efemera – inson hayotining timsoli» Inson shuhratparastligi haqida oldingi essening yangi bayoni.
1779	«Hushtak haqida hikoya»
1779?	«Saroy yig'inlarida ishtirok etish»
1779?	«Injilning taklif etilgan yangi versiyasi» Birinchi bobning «Ish» bo'limi o'zgartirilgan.
1779	«Shaxmat o'ynash odobi»
1780?	«Chiroyli va qiyshaygan oyoq»
1780	«Franklin va podagra o'rtasidagi dialog» (1802-yilda nashr etilgan.)
1802	«Chap qo'lning petitsiyasi»
1806	«Yoqimli orzularni ta'minlash san'ati»



***Boston davlat maktablari tomonidan  
Franklin fondidan berilgan medal***

Adabiy-badiiy nashr

**BENJAMIN FRANKLIN**

**TARJIMAYI HOL**

Muharrir

Sharif ODILOV

Badiiy muharrir

Bobur MURODOV

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Texnik muharrir

Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252. 02.10.2014da berilgan.

Bosishga 19.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32.

Bosma tabog'i 10,5. Shartli bosma tabog'i 17,64.

Garnitura «Cambria». Ofset qog'oz.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 171-24.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MChJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

**Murojaat uchun telefonlar:**

Nashr bo'limi – (71) 230-00-50;

Savdo va Marketing bo'limi – (77) 013-00-50;

(77) 013-00-60;

[www.book.uz](http://www.book.uz); [@bookuzbekistan](mailto:@bookuzbekistan)

email: [yangiasravlodi@mail.ru](mailto:yangiasravlodi@mail.ru)

## **«Yangi asr avlodi» nashriyot matbaa-markazining faol hamkorlari manzillari**

- 1. «Book.uz» kitob do'koni.**  
Toshkent shahar Chilonzor tumani Qatortol ko'chasi 60.  
Telefon raqami: +998 712300050
- 2. «Book.uz» kitob do'koni «Quyoshli» filiali.**  
Zangiota tumani Taxtateshar 1.  
Telefon raqami: +998995389822
- 3. «Book.uz» kitob do'koni Farg'ona filiali.**  
Farg'ona viloyati Farg'ona shahar Kashtanzor ko'chasi 7.  
Telefon raqami: +998972715525
- 4. «Book.uz» kitob do'koni Navoiy filiali.**  
Navoiy shahar Aloqa ko'chasi mo'ljal: Sum.  
Telefon raqami: +998905008198
- 5. Samarqand «Gulobod savdo».**  
Samarqand shahar Abdurahmon Jomiy ko'chasi 52.  
Telefon raqami: +998979118769
- 6. «Qutlug' qadam» MChJ.**  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri I.Karimov ko'chasi 254\1.  
Telefon raqami: +998972220011
- 7. «Qamar» kitob do'koni.**  
Toshkent shahar Navoiy ko'chasi 42-uy.  
Telefon raqami: +9988454400
- 8. «Benet» MChJ.**  
Andijon viloyati Andijon shahar Istiqlol ko'chasi 9.  
Telefon raqami: +998902110397
- 9. «Jet iqlim» MChJ (Nukus).**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar Ipak yo'li  
ko'chasi.  
Telefon raqami: +998906524092
- 10. «Buxoro kitob olami».**  
Buxoro viloyati Buxoro shahri A.Navoiy shohko'chasi 5-uy.  
Telefon raqami: +998970379550

# TARJIMAYI HOL

Chamasi yetti yasharlik chog'imda do'stlarim tug'ilgan kunim munosabati bilan cho'ntagimni mis chaqalarga to'ldirishdi. Hech ikkilanmasdan bolalar o'yinchoqlari sotiladigan do'konga bordim. U yerda boshqa bir bolaning qo'lida ko'rganim hushtakning ovozigina maftun bo'lib, unga ixtiyoriy ravishda bitta hushtak uchun hamma pulimni taklif qildim va biz kelishdik. Keyin uyga keldim va bu ishimdan juda mamnun bo'lib, butun uyga shovqin solgancha hushtak chaldim. Lekin bundan barcha oila a'zolarim bezovta bo'ldi. Aka-ukalarim, opa-singillarim va amakivachchalarim men qilgan savdoni eshitib, hushtak uchun to'rt baravar ko'p pul to'laganimni aytishdi. Bu pulga qanday yaxshi narsalar sotib olishim mumkinligini tushuntirishdi. Ha, ular ahmoqligim uchun ustimdan kulishdi. Men esa alamimdan yig'ladim. Bu haqda o'ylash menga hushtak zavq bag'ishlaganidan ko'ra ko'proq pushaymonlik olib keldi. Biroq bu hodisa keyinchalik men uchun foydali bo'ldi. Uning asorati xayolimda aylanishda davom etdi. Shu tariqa ko'pincha keraksiz narsalarni sotib olish vasvasasiga tushganimda o'zinga: «Hushtak uchun haddan ortiq haq to'lama», – der edim.

WWW.BOOK.UZ




ISBN 978-9910-790-75-1



9 789910 790751



ЯНГИ АСР АВЛОДИ

   /@bookuzbekistan